

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

IQTISODIY TAHLIL

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan kasb-hunar kollejlari
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2018

UO‘K: 330.4.001(075.8)

KBK: 65.053

Taqrizchilar: A.Rizayev i.f.n., prof.;
A.K.Nazarov.

Mualliflar: Z.Sagdillayeva, I.Choriyev,
A.Mahmudov, O‘.Yuldasheva

S 15 **Iqtisodiy tahlil:** Kasb-hunar kollejlari uchun darslik / Z.Sagdillayeva, I.Choriyev, A.Mahmudov, O‘.Yuldasheva; – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. – 404 b.

“Iqtisodiy tahlil” kursi bo‘yicha mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat ta‘lim standartlari hamda uning asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturi talablariga muvofiq tuzilgan va kasb-hunur kollejlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. Ushbu darslikda iqtisodiy tahlil asoslari; korxonalar darajasida boshqaruv tahlili uslubiyati: barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish, xarajatlar va ishlab chiqarish faoliyati natijalari; moliyaviy tahlil uslubiyati: moliyaviy holatni baholash, likvidlik, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash; omilli tahlil uslubiyati, ichki xo‘jalik zaxiralarini izlash va aniqlash usullari, korxonalarda analitik ishlarni tashkil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Har bir bobda o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirish va mustahkamlash maqsadida nazorat savollari keltirilgan.

OT–A2–31 sonli “Korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda moliyaviy taxlilning zamonaviy usullarini qo‘llash” mavzudagi ilmiy-amaliy loyhasi doirasida chop etilmoqda

UO‘K: 330.4.001(075.8)

KBK: 65.053ya7

ISBN 978-9913-13-672-4

© Z.Sagdillayeva va boshq., 2018

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2018

KIRISH

Hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatining butun jabhalarini o'zida qamrab oladi, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga, xo'jalik faoliyatida foydalanilmayotgan ichki rezervlarni aniqlashga imkon beradi.

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida har bir korxonalar o'zining iqtisodiy xatti-harakatlarini tahlil qilishi va tashqi bozor subyektlari, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, soliq organlari va boshqalarning xatti-harakat modelidan kelib chiqqan holda o'z iqtisodiy strategiyasi va taktikasini shakllantirishi lozim.

Har bir korxonalar iqtisodiy tahlil asosida nafaqat raqobat sharoitida yashab qolish, balki foydali biznesni tashkil qilishga imkon beruvchi xo'jalik faoliyati boshqaruvini tashkil qiladi yoki ertami-kechmi uning raqobatchilari bozorni egallab oladi va korxonalar o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi.

Bozor tamoyillari asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy tahlil tizimi bankrotlik haqida ogohlantirish va uni bartaraf etishning kuchli vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi sharoitida korxonalar boshqaruvida iqtisodiy tahlilning o'rni hamda ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Iqtisodiy tahlil asoslarini o'rganish to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon beradi.

Mazkur darslikning maqsadi – mamlakat milliy iqtisodiyotiga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida korxonalarda iqtisodiy tahlilning zamonaviy turlari va usullaridan foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritishdan iborat.

I bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi

Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi murakkab jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarish va odamlar farovonligi turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga, iqtisodiy taraqqiyotning tub qonunlariga bo‘ysunadi. Ushbu qonunlarni aniqlash uchun oddiy kuzatish va hodisalar bayonining o‘zi yetarli emas. Sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatiga kirib borish va ularni harakatlantiruvchi kuchlarni aniqlash zarur.

Iqtisodiy tahlil haqida fanning manbayini izlash – sezilarli darajada foydasiz mashg‘ulot hisoblanadi. Analitik funksiyalar elementlari ixtiyoriy xo‘jalik faoliyatiga taalluqli hisoblanadi. Tahlil feodal Britaniyada (XII asrlar) manorial hisob va audit (qishloq xo‘jalik mulkida hisob va nazorat tizimi) ning tarkibiy qismi bo‘lgan. Qayd qilish joizki, yunon va rim davri auditidan farqli o‘laroq britanacha o‘rta asrlar auditining o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, auditor e‘tibori nafaqat mulk inventarizatsiyasi va hisoblar nazoratiga, balki avvalo u yoki bu bitim natijalari hisob-kitobiga qaratilgan. Hisob-kitoblarga tuzatish kiritilib, boshqaruvchi o‘z xo‘jayini (lord) oldida hisob berishi kerak bo‘lgan summa oshirilgan holatlar tez-tez qayd qilingan. Hisob, nazorat va analitik funksiyalarning o‘zaro aloqasi mavjud.

Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi sifatida tizimlashtirilgan iqtisodiy tahlil asoschisi fransuz Jak Savari (1622-1690) e‘tirof etiladi. U sintetik va analitik hisob tushunchasini joriy qilgan (shuningdek, uni haqqoniy ravishda boshqaruv hisobi va ishlab chiqarishni boshqarish haqidagi fan otasi, deb hisoblaydilar). Albatta, iqtisodiy tahlil elementlarining shakllanishi va ulardan foydalanish o‘sha vaqtda boshqa mamlakatlar, xususan, Italiyada ham kuzatilgan. Masalan, A.Pietro tadrijiy byudjet ajratmalarini haqiqatdagi xarajatlar bilan taqqoslash metodologiyasini tadqiq qilgan. B.Venturi korxonalarining

o'n yillik xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarining dinamik qatorlarini shakllantirib tahlil qilgan. XIX asrda italiyalik buxgalter Juzeppe Cherboni (1827-1917) tomonidan Savari g'oyalari chuqurlashtirilib, buxgalteriya hisobini sintetik qo'shish va analitik ayirish to'g'risida ta'limot yaratildi.

XIX oxirlari –XX asr boshlarida hisob haqida betakror tushuncha – balansshunoslik paydo bo'ldi. U uch asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlangan:

- 1) balansning iqtisodiy tahlili;
- 2) balansning yuridik tahlili;
- 3) foydalanuvchilar orasida balans haqida bilimlarni ommalash-tirish.

Birinchi yo'nalishni I. Sher, P. Gerstner va F. Lyaytnerlar rivojlan-tirgan. Xususan, Gerstner qisqa va uzoq muddatli majburiyatlar nisbati, avanslangan kapitalning 50% i miqdorida qarz mablag'larining yuqori chegarasini belgilash, moliyaviy holat va likvidlikning o'zaro aloqasi haqida *balansning analitik tavsifi* tushunchasini muomalaga kiritdi.

Ikkinchi yo'nalishning rivojlanishiga R. Baygel, E. Remer. K. Portsig va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shdilar. Mazkur yo'nalish doirasida keyinchalik buxgalteriya taftishi nazariyasi va amaliyoti ishlab chiqildi.

Uchinchi yo'nalish ham asosan nemis olimlari: Brozius, Guber, Shenvandt va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Rossiyada balans tahlili haqida fan taraqqiyoti XX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. A.K. Roshchaxovskiy (1910) iqtisodiy tahlil o'zni va uning buxgalteriya hisobi bilan o'zaro aloqasini haqqoniy baholab bergan ilk rus buxgalteri hisoblanadi. O'tgan asrning 20-yillarida balansshunoslik nazariyasi, xususan, balans tahlili metodikasi A.P. Rudanovskiy, N.A. Blatov va I.R. Nikolayev ishlarida qat'iy shakllantirildi.

O'zbekistonda iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

- 1) Turkistonda iqtisodiy tahlilning ahvoli;
- 2) Inqilobdan keyingi davrda iqtisodiy tahlilning rivojlanishi;
- 3) Bozor sharoitida iqtisodiy tahlil.

Xususiy kapitalistik korxonalar va ularning monopol birlashma-larining xo'jalik faoliyati tahlili asosan balans likvidligini tahlil qilish, aktiv va passiv moddalarini baholashdan iborat bo'lgan. Lekin Turkis-

tonning ayrim sanoat tarmoqlari chet el kapitali bilan hamkorlikda faoliyat yuritganligi bilan bog‘liq ravishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Bu yerda buxgalteriya hisobi va hisoboti faqatgina nemis, ingliz va fransuz tillaridagi namunalar bo‘yicha yuritilmagan. Odatda, balanslar har doim ham haqiqiy manzarani aks ettirmagan. Davlat monopoliyalari daromadlari, xarajatlari va foydasini tahlil qilish metodikasi, uning asosiy qirralarini monopolistlar quyidagicha tavsiflagan:

1) daromadlar va xarajatlar umumiy va moddalar bo‘yicha tahlil qilingan;

2) xarajatlar ikki bo‘limdan iborat bo‘lgan – mahalliy boshqaruv tasarrufi va xo‘jalik yuritishiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va ularga u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

3) daromadlar, xarajatlar va sof foyda mutlaq va nisbiy miqdorda ifodalangan;

4) daromadlar, xarajatlar hamda sof foyda haqida mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar (moddalar kesimida) dinamikada o‘rganilgan (ketma-ket uch yil uchun);

5) tushuntirish matnlarida xulosaviy va qo‘shimcha jadvallar keltirilgan.

Turkiston iqtisodiyotida kooperativ faoliyat ancha sezilarli bo‘lgan. Tahlil zarurati, unga tabiiy ehtiyoj kooperativ mulkchilik shaklining o‘zi bilan shartlangan edi (xo‘jalik-moliyaviy faoliyat natijalari haqida kooperativ a‘zolari oldida muntazam hisobot). Tahlil jarayonida xo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga asosiy e‘tibor qaratilgan. Ishlarni iqtisodiy yuritishda tadbirkorlar sof foydani oshirish manbasini ko‘zda tutardilar.

XX asr boshida iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishining inqilobdan keyingi davrida ikki holatga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq: birinchidan, fanning nazariy masalalarini ishlab chiqish, ikkinchidan, ularni amaliyotda qo‘llash. Bu davrda balans tahliliga bag‘ishlangan maxsus asarlar paydo bo‘lib, ular yaqqol metodik yo‘nalishga ega edi va buni xo‘jalik faoliyati tahlili taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi sifatida qabul qilish mumkin. XX asrning 30-yillarida xo‘jalik faoliyati tahlili kursi oliy ta‘lim muassasalari dasturlariga kiritildi, xo‘jalik faoliyati tahlili bo‘yicha ilk darslik va qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Ularning mualliflari M.I.Veysman, S.K.Tatur, M.I.Bakanov kabilar edi. Aynan shu yillarda xo‘jalik faoliyati tahlilining fan sifatida shakllanishi sodir bo‘ldi va u

korxonalar iqtisodiyotini kompleks tizimli o'rganish hamda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish zaxiralarini qidirish uchun amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda iqtisodiy tahlil masalalari bo'yicha taxminan uch yuzga yaqin kitob va olti yuzdan ziyod ilmiy maqola nashr qilingan.

Urush yillarida buxgalteriya hisobini qayta qurish, urush davri talablariga mos xo'jalik faoliyati tahlili va nazorati yuqorida tilga olingan hamda boshqa mualliflarning asarlarida o'z aksini topdi.

Urushdan keyingi davrni tahlilning nazariy masalalarini asoslangan tarzda ishlab chiqish davri sifatida tavsiflash mumkin. Ayni vaqtda tahlil uzviy ravishda ham korxonalar, ham milliy iqtisodiyot darajasida xo'jalik boshqaruvi amaliyotiga kiritiladi. Asta-sekin iqtisodiy tahlil metodologiyasining mustaqil yo'nalishlari ishlab chiqiladi: qiyosiy, texnik-iqtisodiy, operativ, iqtisodiy-matematik, funksional-qiymat va hokazo.

M.I.Bakanov, A.D.Sheremet, S.B.Barngolts, V.F.Paliy, I.I.Poklad, P.I.Savichev, I.I.Karakoz, E.V.Dolgopolov, M.F.Dyachkov, A.Sh.Margulis, A.I.Muravyov, V.I.Samborskiy, N.V.Dembinskiy, G.M.Tatsiy, N.G.Chumachenko, V.I.Strajev, S.G.Ovsiyannikov, N.A.Rusak, L.I.Kravchenko, B.I.Maydanchik, R.S.Sayfulin, A.F.Aksenenko, G.V.Savit-skaya kabi rus iqtisodchi olimlari bilan bir qatorda iqtisodiy tahlil metodologiyasi rivojiga N.A.Xan, Ayrumov, I.B.Galleyev, O.Maxmudov, I.N.Toporovski, B.A.Zaleskiy, M.R.Rixsiyev, R.R.Radjapov, I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev kabi o'zbekistonlik olimlar ham munosib hissa qo'shdilar (1960-1970 yillar).

Nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan fan sifatida iqtisodiy tahlil rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Hozirgi kunda boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga imkon beruvchi matematik usullarni yanada keng qo'llash borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Fanning mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yutuqlarini amaliyotga joriy qilish jarayoni davom etmoqda. Ushbu jarayonda mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan A.Vahobov, A.Sotvoldiyev, A.Shoalimov, B.Hasanov, R.Rajabov, shuningdek, Toshkent moliya institutining respublikadagi yagona ixtisoslashtirilgan "Moliyaviy tahlil" kafedrasida professor-o'qituvchilari A.Ibroximov, A.Abdug'aniyev, T.Shog'iyosov, X.Ahmadjonov, Sh.Shoyoqubov, G.Ibragimov, M.Raximov, B.Xakimov, N.Ishonqulov, Z.Sagdillayeva kabi olimlari faol ishtirok etmoqda.

Iqtisodiy tahlilni nazariy jihatdan rivojlantirish istiqbollari unga yaqin fanlar, birinchi navbatda, matematika, statistika, buxgalteriya hisobi va boshqalarning rivojlanishiga bog‘liq. Bundan tashqari, tahlil taraqqiyoti amaliyot talablariga ham uzviy bog‘liq. Ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida u amaliyotda keng qo‘llanilmadi, chunki joylarda boshqaruv qarorlarini asoslash zarurati mavjud emas edi, barcha qarorlar yuqoridan belgilab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, korxonalar va mulkchilik shakllari raqobati mazkur fanga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keldi.

1.2. Iqtisodiy fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o‘rni

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida korxonalar boshqaruvida tahlilning ahamiyati ortadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tgunga qadar rejali iqtisodiyot talablariga javob beruvchi iqtisodiy tahlil tizimi mavjud edi. Axborotlarning asosiy iste‘molchisi tarmoq vazirliklari va idoralari, statistika va moliyaviy organlar qiyofasida davlat hisoblanardi.

Barcha iqtisodiy fanlar, jumladan iqtisodiy tahlil iqtisodiyotda, ijtimoiy munosabatlarda, fuqarolik-huquqiy muhiti va boshqa sohalarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarga bo‘ysunadi. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida yangi axborotdan foydalanuvchilar, biznesni tashkil qilish va yuritishning yangi shart-sharoitlari vujudga keladi. Ishlab chiqarish munosabatlari barcha iqtisodiy fanlar uchun umumiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shuning evaziga barcha iqtisodiy fanlar bir tizimga birlashadi, bunda ularning har biri boshqasidan farqlanuvchi o‘z predmetiga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi ta‘sirida alohida iqtisodiy subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish ahamiyati ham tobora ortib boradi. Fanlar rivojlanishi bilan uning tarmoqlari differentsiatsiyasi sodir bo‘ladi. Ijtimoiy fanlar differentsiatsiyasi natijasida iqtisodiy tahlil shakllangan. Avval iqtisodiy tahlilning alohida shakllari asosan balansshunoslik, buxgalteriya hisobi va statistika kabi hisob fanlariga taalluqli bo‘lgan. Lekin korxonalarda iqtisodiy ishlar chuqurlashuvi ta‘sirida tahlilni ixtisoslashtirilgan bilimlar tizimi sifatida ajratish zarurati yuzaga keldi, chunki hisob fanlari amaliyotning barcha talablariga javob berishga qodir emas edi.

Mustaqil fanni shakllantirgan iqtisodiy tahlil qator holatlarda statistika, rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, matematika va boshqa unga bevosita bog‘liq fanlarga oid ma‘lumotlardan kompleks va tizimli ravishda foydalanadi.

Iqtisodiy tahlil iqtisodiyot nazariyasi bilan uzviy aloqaga ega. Ma‘lumki, iqtisodiyot nazariyasi barcha iqtisodiy fanlar taraqqiyotining nazariy asosi hisoblanadi va iqtisodiy qonuniyatlar, ularning ta‘sir mexanizmlarini o‘rganadi. Analitik tadqiqotlar o‘tkazishda ushbu qonuniyatlar ta‘sirini hisobga olish zarur. O‘z navbatida, iqtisodiy tahlil muayyan tarzda iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘p sonli analitik tadqiqotlar u yoki bu iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo‘lishi haqida ma‘lumotlarni o‘zida jamlaydi. Ushbu ma‘lumotlarni o‘rganish yangi, oldin ma‘lum bo‘lmagan qonuniyatlarni ifodalash, korxonalar, mamlakat yoki jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining global prognozlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Iqtisodiy tahlil maxsus fan sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat qonuniyatlarini yorituvchi boshqa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Bulardan biri tarmoqlar iqtisodiyoti hisoblanib, u ham iqtisodiy fanlarning metodik va metodologik asosi sanaladi. Iqtisodiyotni bilmay turib xo‘jalik faoliyatining izchil tahlilini amalga oshirishning iloji yo‘q. Iqtisodiyot taraqqiyotning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini o‘rganadi, samarali va oqilona xo‘jalik yuritish yo‘llari va usullarini ilmiy asoslaydi. Iqtisodiy tahlil umumiy va o‘ziga xos iqtisodiy qonuniyatlar hamda tushunchalar talablariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan korxonalar faoliyatining rivojlanishini o‘rganadi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasini ko‘rib chiqish zarurati shunga bog‘liqki, rivojlanayotgan va amaliy talab yuqori bo‘lgan fan sifatida tahlil “Moliya nazariyasi”, “Moliya”, “Moliyaviy menejment” kabi turli moliyaviy fanlarning asosiy instrumenti va mazmuniga aylandi. Lekin professional darajada iqtisodiy tahlil o‘tkazish uchun tahlilning aniq maqsadlariga mutanosib javob beruvchi uslubiyot bilan birga axborot bazasini chuqur anglash ham talab etiladi. Tahlilda foydalaniladigan axborotlarning salmoqli qismi buxgalteriya hisobi tizimida shakllanadi. Iqtisodiy tahlilni o‘tkazish uchun buxgalteriya hisobidan tashqari boshqaruv va moliyaviy hisobotlar ham axborot bazasi hisoblanadi.

1.3. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari

Iqtisodiy tahlil umumqabul qilingan tamoyillarga qat'iy asoslanishi lozim. Korxonalarining xo'jalik faoliyati tahlilida tamoyillar bilimning turli jabhalari uchun qo'llaniladi: obyektivlik, ilmiylik, tizimlilik, aniqlik, komplekslilik, muntazamlik, taqqoslanuvchanlik. Ixtiyoriy darajadagi xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda ularga asoslanish talab qilinadi. Obyektivlik tamoyili tadqiq etilayotgan hodisa, vaziyat, jarayonlar tekshirilgan va ishonchli iqtisodiy axborotlar tizimida ifodalangan obyektiv voqelikni aks ettirishi lozim.

Ilmiylik tamoyili tahlil o'tkazishda ilmiy asoslangan metodika va tartiblarga tayanish lozimligini anglatadi.

Tizimlilik tamoyili – tadqiq etilayotgan jarayonlar, iqtisodiy hodisalar, xo'jalik operatsiyalari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda, yagona tizimda o'rganilishini anglatadi.

Aniqlik tamoyili o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar konkret real ma'lumotlarga asoslanishi lozim, natijalar esa aniq analitik hisob-kitoblarga asoslanadi.

Komplekslilik tamoyili tizimli tahlilning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va butun va uning qismlariga dialektik yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi. Tahlil va sintez birligi haqida mulohazalarga tayangan holda hodisa va jarayonlarning barcha jihatlarini ichki aloqadorlikda hamda omillar ta'sirida o'rganish asosida xo'jalik faoliyati haqida aniq bilimlarga ega bo'lish va uni to'g'ri baholash mumkin. Demak, kompleks yondashuv faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olish, korxonalar iqtisodiyotidagi sabab bog'lanishlarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

Muntazamlik tamoyili hodisadan hodisagacha emas, balki oldindan belgilangan vaqt oralig'ida doimiy ravishda, uzluksiz tahlil olib borilishini talab qiladi.

Amaliylik tamoyili korxonalar faoliyatida kamchilik va xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash va kelgusida bu holatlarga yo'l qo'ymaslikni anglatadi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar belgilangan natijalarga erishish maqsadida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Taqqoslanuvchanlik tamoyili taqqoslanuvchanlik shartiga rioya qilinishini talab qiladi. Taqqoslanuvchanlik ta'minlanishi uchun taqqoslanayotgan davrlarda ko'rsatkichlar o'lchanishi va aks ettirilishi yagona uslubiyot bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Korxonalar faoliyatini tavsiflovchi axborot barcha ma'lumotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli, ixcham, qulay va qayta ishlashda tushunarli bo'lishi lozim. Mutanosib axborot manbalarida aks ettirilgan ma'lumotlar va natijalar foydali, mazmunli va turli hisobot davrlari uchun taqqoslanuvchan bo'lishi darkor.

1.4. Iqtisodiy tahlilning mazmuni

Tahlil (uni xo'jalik faoliyatiga bog'lamasdan va mustaqil fan sifatida ajratmay) azaldan mavjud va insoniyatning jami ilmiy va amaliy faoliyati asosida yotuvchi ancha keng tushuncha hisoblanadi. Tahlil obyekt va hodisalarni qismlarga ajratib o'rganish jarayonini o'zida aks ettiradi. Tahlilga teskari jarayon sifatida sintez namoyon bo'lib, u bilan tahlil ko'pincha amaliy yoki bilish faoliyatida uyg'unlashadi. O'rganilayotgan obyekt turi, uning strukturasi murakkabligi, o'rganilayotgan jarayonning mavhumlik darajasi va ularni amalga oshirish usullariga bog'liq ravishda tahlil turli shakllarda namoyon bo'ladi, jumladan ko'pincha ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar(kimyoviy tahlil, matematik tahlil, biologik tahlil, iqtisodiy tahlil)da tadqiqot so'zining sinonimi hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar hamda obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi.

Boshqaruv funksiyasi sifatida rejalashtirish, hisob, tahlil va boshqaruv qarorlari o'zaro chambarchas bog'langan. Tahlil boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy asosi hisoblanadi, uning yordamida iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi, faoliyat natijalarining o'zgarishi omillar asosida tadqiq qilinadi, biznes-rejalar va boshqaruv qarorlari asoslanadi, ularning ijrosi ustidan nazorat amalga oshiriladi, samaradorlikni oshirish zaxiralari aniqlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan boshqaruv funksiyalarisiz hech qanday boshqaruv qarorini qabul qilish mumkin emas.

Amaliy iqtisodiy fanlar tizimida markaziy o'rinni egallovchi iqtisodiy tahlil bevosita xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qator o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo'lishini o'rganish, korxonalarining aniq sharoitida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning qonuniyatlari hamda tendensiyalarini aniqlash, ularni

tadqiq qilish asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi. Masalan, talab va taklif qonuniyati. Talab o'ta harakatchan va o'zgaruvchan, chunki uning miqdori va dinamikasiga ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tusdagi ko'p sonli omillar ta'sir qiladi. Tovarga talabning o'zgarishiga, misol tariqasida olsak, reklamadan foydalanish, moda, afzal ko'rish, atrof-muhit, did, tovarlar hammabopligi, daromadlar miqdori, buyum foydaliligi, o'rnini bosuvchi tovarlar uchun narxlar, aholi soni o'zgarishi ta'sir etishi mumkin.

Tahlilning keyingi muhim funksiyasi joriy va istiqboldagi rejalarni ilmiy asoslash hisoblanadi. Ilmiy asoslangan reja korxonalar faoliyati samarasini baholash mezonini sanaladi. O'tgan yillar (5-10 yil) uchun korxonalar faoliyat natijalarini iqtisodiy tahlil qilmasdan, istiqbol uchun asoslangan prognozlashsiz va korxonalar iqtisodiyotining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganmay turib, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan kamchilik va xatoliklarni aniqlamasdan ilmiy asoslangan rejani ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarining optimal variantini tanlashning iloji yo'q.

Rejalashtirish zamonaviy korxonalarda moliyaviy resurslar, birinchi navbatda, pul mablag'lari bilan bog'liq, ular oxir-oqibatda moddiy, mehnat va boshqa resurs turlariga o'zgaradi. Korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ulardan samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, sotish va investitsion rejalarni professional darajada tayyorlash bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun eng muhim omil hisoblanadi.

Rejalar va boshqaruv qarorlari bajarilishi, resurslardan tejamli foydalanish ustidan nazorat korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi va tahlilning asosiy funksiyalaridan biri sanaladi. Rejalar bajarilishini baholash rejada ko'zda tutilgan xo'jalik operatsiyalarini bajarish muddati tugashi bo'yicha amalga oshiriladi. Erishilgan natijalarni baholashda kamchilik va xatolar aniqlanadi, ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlil real foyda keltirganda o'zini oqlaydi. Iqtisodiy tahlilning haqiqiy nafi ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida foydalanilmagan zaxiralarni aniqlashdan ham iborat.

Iqtisodiy tahlilning muhim funksiyalaridan biri – resurslardan samarali foydalanishdagi foydalanilmagan zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda fan va amaliyot

yutuqlari, ilg'or tajribalar o'rganilishini hisobga olgan holda korxonani muvaffaqiyatli rivojlantirish va daromadlilik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tahlil tasnifida texnik-iqtisodiy tahlil, moliyaviy-iqtisodiy tahlil, boshqaruv tahlili, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-ekologik tahlil va marketing tahlili kabilar o'rin olgan.

Iqtisodiy tahlil boshqaruv obyekti (xo'jalik faoliyati)ning asosiy va yirik bo'limlari hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish, obyektlari, vazifalarni yechish usullari o'ziga xoslikka ega.

Moliyaviy-iqtisodiy tahlil (korxonaning moliya xizmati, moliya va kredit organlari) korxonaning faoliyati natijalariga: moliyaviy reja bajarilishi, o'z va qarz kapitaldan foydalanish samaradorligi, foyda miqdorini oshirish zaxiralarini aniqlash, rentabellik o'sishi, korxonaning moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyati yaxshilanishi kabilarga asosiy e'tibor qaratadi.

Buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslanuvchi moliyaviy tahlil tashqi tahlil hisoblanadi va quyidagi xususiyatlarga ega:

- tahlil subyektlari (axborotlardan foydalanuvchilar) ko'pligi;
- tahlil subyektlari maqsad va manfaatlari rang-barangligi;
- hisob va hisobotning namunaviy metodikalari, standartlari mavjudligi;
- tahlilning faqat korxonaning ommaviy hisobotiga yo'nalganligi;
- korxonaning faoliyati haqida axborotlardan foydalanuvchilar uchun natijalarning maksimal oshkorligi.

Moliyaviy (tashqi) tahlil jarayonida quyidagilarni aniqlash bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

- foyda, tushum va xarajatlarning mutlaq ko'rsatkichlari;
- rentabellikning nisbiy ko'rsatkichlari;
- bozor barqarorligi, balans likvidligi, korxonaning to'lov qobiliyati;
- o'z kapitaldan foydalanish samaradorligi;
- qarz mablag'lardan foydalanish samaradorligi;
- kapitalni avanslash samaradorligi (investitsion tahlil);
- korxonaning moliyaviy ahvoli va emitent korxonaning reyting bahosining iqtisodiy diagnostikasi.

Boshqaruv tahlili korxonaning barcha xizmatlari tomonidan olib borilib, bunda rahbariyatga rejalashtirish, nazorat, optimal boshqaruv qarorlari qabul qilish, moliyaviy siyosat masalalari bo'yicha strategiya

va taktika ishlab chiqish, marketing faoliyati, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika, texnologiyasi uchun zaruriy axborotlarni taqdim etish maqsad qilinish, operativ xarakterga ega. Uning natijalari esa tijorat siri hisoblanadi.

Boshqaruv tahliliga xos xususiyatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tahlil natijalarining korxonah rahbariyatiga yo‘nalganligi;
- tashqaridan tahlilni tartibga solish mavjud emasligi;
- korxonah faoliyatini, moliyaviy va texnik jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish majmuaviyligi;
- hisob, tahlil, rejalashtirish va qaror qabul qilish integratsiyasi;
- tijorat sirini saqlash maqsadida tahlil natijalari maxfiyligi.


Boshqaruv yoki ichki xo‘jalik ishlab chiqarish tahlili predmeti quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-rejani asoslash;
- marketing tizimi;
- xo‘jalik faoliyati samaradorligining kompleks iqtisodiy tahlili;
- texnik-tashkiliy daraja va ishlab chiqarishning boshqa shart-sharoitlari;
- ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish;
- tannarx, mahsulot hajmi va foydaning o‘zaro aloqasi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti tahlilni ichki boshqaruv va tashqi moliyaviy tahlilga differentsiatsiyalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ichki boshqaruv tahlili – boshqaruv hisobining tarkibiy qismi, ya’ni korxonah rahbariyati, ma’muriyatining axborot-analitik ta’minotidir. Tashqi moliyaviy tahlil esa moliyaviy hisobning tarkibiy qismi sanaladi.

Analitik jarayon va baholash uchun qanday turdagi hisobot manba sifatida xizmat qilishiga bog‘liq ravishda iqtisodiy tahlil turkumlanadi (1.1-chizma).

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarish tizimining muhim elementi hisoblanadi, undan investitsion loyihalarni baholashda oldindan prognozlash varianti sifatida; moliyaviy shart-sharoit va natijalarni prognozlash instrumenti sifatida; ishlab chiqarishni boshqarishdagi joriy muammolarni aniqlash; har bir faoliyat yuritayotgan obyektga tegishli ichki zaxiralarni aniqlash, korxonaning moliyaviy ahvolini baholash maqsadida foydalanish mumkin.



1.1-chizma. Iqtisodiy tahlilning turkumlanishi

1.5. Iqtisodiy tahlilning predmeti va vazifalari

Ixtiyoriy fan asosini uning predmeti tashkil qiladi. Fan predmeti mazkur fan nimani o'rganishini, metodi esa – qanday o'rganishini, ya'ni ushbu tadqiqot predmetini o'rganishda qanday uslublardan foydalanilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida quyidagilar bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi:

- obyektiv iqtisodiy qonunlar va subyektiv tushdagi omillar ta'siri ostida yuzaga keluvchi o'zaro aloqadorlikdagi iqtisodiy jarayonlar tadqiqi;

- biznes-rejalarni ilmiy asoslash va ularning bajarilishini obyektiv baholash;

- ijobiy va salbiy omillarni aniqlash hamda ularning ta'sirini miqdoriy o'lchash;

- xo'jalik taraqqiyoti tendensiyalari va proporsiyalarini oydinlashtirish, foydalanilmagan ichki xo'jalik zaxiralarini aniqlash;

- ilg'or tajribani umumlashtirish, optimal qarorlar qabul qilish.

Iqtisodiy tahlil korxonadagi iqtisodiy ishlardan iborat iqtisodiy fanlarning muhim qismi hisoblanadi. U o'z predmeti, obyekt va iqtisodiy jarayonlar, hodisalar, vaziyatlarni tadqiq qilish usullariga ega.

Ixtiyoriy fan, jumladan iqtisodiy tahlil predmetini ta'riflash murakkab vazifa. Mazkur muammo o'n yillar davomida ishlab chiqilmoqda, lekin predmetni ta'riflash bo'yicha yagona va yakuniy nuqtayi nazar hozircha mavjud emas. Iqtisodiy tahlil predmetining adabiyotlarda tez-tez uchraydigan va ozmi-ko'pmi uning mohiyatiga mutanosib bo'lgan mavjud ta'riflarini olimlar quyidagicha guruhlaydi:

- korxonalarining xo'jalik faoliyati;
- xo'jalik jarayonlari va hodisalari.

Ayni bir obyekt turli fanlarda turli jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin. Qayd qilish joizki, tahlil jarayon sifatida xo'jalik faoliyatining o'zini emas, balki iqtisodiy jarayonlar oqibati sifatida xo'jalik yuritish natijalarini o'rganadi.

Iqtisodiy tahlil predmetini ta'riflashda professor S.B.Barngolts va professor A.D.Sheremet tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ularning nuqtayi nazariga ko'ra, moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati ajralmas o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi va xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda kompleks yondashuv talab qilinadi.

Iqtisodiy tahlil predmeti deganda, professor A.D.Sheremet ta'rificha, korxonalar, birlashmalar, assotsiatsiyalarning xo'jalik jarayonlari, iqtisodiy axborotlar tizimida o'z aksini topuvchi ularning obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vujudga keluvchi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va yakuniy moliyaviy natijalari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil nazariyasida mahalliy olimlarning ta'riflari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tahlil muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida professor M.Pardayev, professor A.V.Vahobov, professor A.T.Ibragimovlarning ishlari ayniqsa e'tiborga molik.

Professor M.Pardayev nuqtayi nazariga muvofiq, iqtisodiy tahlil predmeti obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vujudga keluvchi xo'jalik faoliyati, korxonalar iqtisodiy ahvoli ko'rsatkichlarini yuksaltirish yo'llarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur muammoni ko'rib chiqishga yakun yasagan holda xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy tahlil o'z predmeti sifatida xo'jalik subyektlarida obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida sodir bo'lgan hamda ma'lum axborot tizimlarida aks etgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar hamda ularning yakuniy natijalarini o'rganadi.

Quyidagilar iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1. Iqtisodiy qonunlar ta'sir xarakterini o'rganish, korxonaning konkret shart-sharoitida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash.

2. Joriy va istiqboldagi rejalarni ilmiy asoslash: o'tgan 5-10 yil uchun korxonada faoliyat natijalarini chuqur iqtisodiy tahlil qilmasdan, istiqbol uchun asoslangan prognozlarisiz, korxonada iqtisodiyoti rivojlanishidagi qonuniyatlarni o'rganmay turib, xato va kamchiliklarni aniqlamasdan ilmiy asoslangan rejani ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarining optimal variantini tanlash mumkin emas.

3. Reja va boshqaruv qarorlari bajarilishi, resurslardan tejamli foydalanish ustidan nazorat qilish va erishilgan natijalarni baholash maqsadida tahlil nafaqat dalillar keltirish, balki xato va kamchiliklarni aniqlash hamda iqtisodiy jarayonlarga tezkor ta'sir qilish maqsadida olib borilishi lozim. Aynan shu sababga ko'ra tahlil tezkorligi va amaliylikini oshirish zarur.

4. Obyektiv va subyektiv, ichki va tashqi omillarning xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganish.

5. Samaradorlikni yuksaltirish zaxiralarini izlash, korxonaning ilg'or tajriba, fan va amaliyot yutuqlarini o'rganish asosida faoliyat yuritishi.

6. Iqtisodiyotning erishilgan darajasi, rejalar bajarilishi va ko'rsatkichlar dinamikasi asosida korxonada faoliyati natijalarini baholash, mavjud imkoniyatlardan foydalanish va mahsulot hamda xizmatlar bozorida uning o'rnini aniqlash.

7. Moliyaviy va operatsion risklar darajasini baholash hamda ichki boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, korxonaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida biznes daromadligini yuksaltirish.

8. Aniqlangan zaxiralardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Nazorat savollari

1. Tahlil nima?
2. Fan sifatida iqtisodiy tahlilning shakllanish davri.
3. Xo'jalik subyektlari faoliyatini boshqarishda tahlilning o'rnini nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tahlil turlarini sanab bering.

5. Boshqaruv va moliyaviy tahlil mohiyati nimadan iborat?
6. Mazkur fan rivojlanishiga hissa qoʻshgan mamlakatimiz olimlarini sanab bering.
7. Iqtisodiy tahlilning qanday asosiy tamoyillari mavjud.
8. Iqtisodiy tahlil predmetini taʼriflang.
9. Iqtisodiy fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning oʻrni qanday?
10. Iqtisodiy tahlil vazifalarini sanab bering.

II bob. IQTISODIY TAHLIL METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

2.1. Iqtisodiy tahlil metodi, uning o‘ziga xos xususiyatlari

Keng ma’noda **metod** – real voqelikni o‘rganishdagi yondashuv uslubi, tabiat va jamiyatni tadqiq etish uslubi. Dialektika metodi umumiy tadqiqot metodi sanalib, birinchidan, barcha hodisalar o‘zaro aloqadorlikda va o‘zaro shartlangan tarzda o‘rganilishi, ikkinchidan barcha hodisalar harakatda, o‘zgarish va rivojlanishda o‘rganilishini anglatadi.

Dialektika har bir jarayon, har bir hodisani **yaxlit va qarama-qarshiliklar kurashi** sifatida ko‘rib chiqishni uqtiradi. Bundan ichki qarama-qarshiliklarni, har bir hodisa, har bir jarayonning salbiy va ijobiy jihatlarini o‘rganish zarurati kelib chiqadi. Bu ham tahlilning o‘ziga xos qirralaridan biridir. Masalan, ilmiy texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi o‘sishi, rentabellik va boshqa ko‘rsatkichlar oshishida ijobiy natija beradi, lekin bunda uning atrof-muhitni ifloslantirish, ishsizlikning ortishi va boshqa salbiy jihatlarini ham hisobga olishimiz lozim.

Tahlilda dialektik metoddan foydalanish **korxonalar xo‘jalik faoliyatini o‘rganish barcha o‘zaro aloqalarni hisobga olgan holda olib borilishi lozimpligini** anglatadi. Agar boshqalaridan ajratilgan holda ko‘rib chiqilsa, hech bir hodisa to‘g‘ri tushunilishi mumkin emas. Ma’lumki, yangi texnika joriy qilinishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari, demakki, mahsulot tannarxi ham ortadi. Lekin bunda mehnat unumdorligi o‘sadi. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat haqini tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirishga imkon beradi. Demak, u yoki bu iqtisodiy hodisani tushunish va to‘g‘ri baholash uchun uning boshqa hodisalar bilan barcha o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini o‘rganish zarur. Bu tahlil metodining metodologik qirralaridan biri sanaladi.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri shuki, **u nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatishga, balki ularga miqdoriy tavsif**

berishga imkon beradi, ya'ni faoliyat natijasiga omillar ta'sirini aniqlashni ta'minlaydi. Bu iqtisodiyot holatini aniq baholab, uning natijalari bo'yicha xulosa hamda tavsiyalarni asoslashga imkon beradi.

Tahlilda sabab aloqalarini o'rganish va o'lchashni induksiya va deduksiya metodi bilan amalga oshirish mumkin.

Iqtisodiy tahlilda dialektik metoddan foydalanish **har bir jarayon, har bir iqtisodiy hodisani tizim sifatida, o'zaro bog'liq ko'plab elementlarning majmuyi sifatida ko'rib chiqish lozimligini** anglatadi. Bundan tahlil obyektlarini o'rganishga tizimli yondashuv zarurati kelib chiqadi, bu ham uning xarakterli jihatlaridan biri sanaladi. Tizimli yondashuv o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni elementlarga maksimal detallashtirish (xususiy tahlil), ularni tizimlashtirish va sintezni nazarda tutadi.

Hodisalarni **detallashtirish** o'rganilayotgan obyektida eng muhim va asosiy jihatlarni aniqlash uchun zarur darajada olib boriladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, tahlil metodi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida reja ko'rsatkichlari tizimi, hisob, hisobot va boshqa axborot manbalarini maxsus usullar asosida qayta ishlash yo'li bilan korxonalar faoliyati natijalariga omillar ta'sirini tizimli, kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirishni o'zida aks ettiradi.

Tahlilda tadqiq etiladigan omillar turli alomatlarini bo'yicha tasniflanishi mumkin, bu natijaviy ko'rsatkichlar miqdorini shakllantirishda har bir omilning o'rnini va ahamiyatini aniqroq baholashga imkon beradi.

O'z tabiatiga ko'ra omillar tabiiy-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-iqtisodiy kabilarga ajratiladi.

Tabiiy-iqlim omillari qishloq xo'jaligi, kon sanoati, o'rmon xo'jaligi va boshqa tarmoqlar faoliyat natijalariga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'sirini hisobga olish xo'jalik subyektlari faoliyat natijalarini aniqroq baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga xodimlarning uy-joy sharoiti, korxonalarda ommaviy-madaniy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, xodimlarning ta'lim hamda madaniy jihatdan umumiy darajasi va boshqalar kiritiladi. Ular korxonaning ishlab chiqarish resurslaridan yanada to'liq foydalanish va ularning mehnat samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar korxonaning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish to‘liqligi va samaradorligini, uning faoliyatining yakuniy natijalarini belgilab beradi.

2.1-jadval

Tahlil omillari tasnifi

Tasnifiy belgisi	Omillar guruhi
Tabiatiga ko‘ra	Tabiiy-iqlim Ijtimoiy-iqtisodiy Ishlab chiqarish-iqtisodiy
Natijalarga ta‘sir darajasiga ko‘ra	Asosiy Ikkinchi darajali
Xo‘jalik subyektiga bog‘liqlik darajasiga ko‘ra	Obyektiv Subyektiv
Tadqiqot obyektiga nisbatan	Ichki Tashqi
Tarqalish darajasiga ko‘ra	Umumiy O‘ziga xos
Faoliyat natijalariga ta‘siri davomiyligiga ko‘ra	Doimiy Vaqtinchalik
Ta‘sir xarakteriga ko‘ra	Ekstensiv Intensiv
Aks ettirilayotgan hodisalar xususiyatlariga ko‘ra	Miqdoriy Sifat
O‘z tarkibiga ko‘ra	Sodda Murakkab

Xo‘jalik faoliyati natijalariga ta‘sir darajasiga ko‘ra omillar asosiy va ikkinchi darajali omillarga ajratiladi. Ikkinchi darajalilardan farqli o‘laroq **asosiy** omillar natijaviy ko‘rsatkichga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Turli omillar ichidan asosiy, hal qiluvchisini ajrata olish mahorati tahlil natijalari asosida to‘g‘ri xulosalar chiqarishni ta‘minlaydi.

Xo‘jalik subyektiga bog‘liqlik darajasiga ko‘ra omillar **obyektiv** (odamlar xohish va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan, masalan, tabiiy ofatlar) va **subyektiv** (yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatiga bog‘liq) omillarga ajratiladi.

Tadqiqot obyektiga nisbatan omillar ichki va tashqi, ya‘ni mazkur korxonada faoliyatiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillarga tasniflanadi. Tahlilda korxonada ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ichki omillar tadqiqatiga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

Tarqalish darajasiga ko'ra omillar **umumiy** (iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir qiluvchi) va **o'ziga xos** (iqtisodiyotning alohida tarmog'i yoki korxonalar sharoitida ta'sir qiluvchi). Bunday bo'linish alohida korxonalar, ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olish va ularning faoliyatini yanada aniq baholashga imkon beradi.

Faoliyat natijalariga ta'siri davomiyligiga ko'ra **doimiy** (o'rganilayotgan hodisaga vaqt bo'yicha uzluksiz ta'sir ko'rsatuvchi) va **vaqtinchalik** (ayrimlarining ta'siri davriy hisoblanadi, masalan, yangi texnika, mahsulotlarning yangi turlari, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish va hokazo) omillar farqlanadi.

Ta'sir xarakteriga ko'ra omillar **intensiv** (ishlab chiqarish jarayonida mehnat qizg'inligi, sa'y-harakatlar darajasini tavsiflaydi, masalan, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish, qoramollar mahsuldorligini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish) va **ekstensiv** (natijaviy ko'rsatkichning sifat jihatidan emas, balki miqdoriy o'sishi bilan bog'liq, masalan, ekin maydonini kengaytirish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, hayvonlar bosh sonini ko'paytirish, ishchilar sonini oshirish va hokazo) omillarga bo'linadi.

Tarkibiga bog'liq ravishda omillar bir necha elementdan iborat **murakkab** (kompleks) va tarkibiy qismlarga ajratilmaydigan **sodda** (elementli) turlarga ajratiladi. Murakkab omilga mehnat unumdorligini, sodda omillarga hisobot davrida ish kunlari sonini misol sifatida keltirish mumkin.

2.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar

Iqtisodiy tahlil jarayonida iqtisodiy axborotlarni analitik qayta ishlashda qator o'ziga xos usul va uslublar qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlilning usullarini ikki guruhga ajratish mumkin: **an'anaviy** va **matematik**.

Birinchisiga shunday usullar kiritiladiki, ular iqtisodiy tahlil maxsus bilimlarning ixtisoslashgan tarmog'i sifatida, mustaqil o'quv kursi sifatida yuzaga kelgan vaqtdan boshlab qo'llanilgan. Ko'plab matematik usullar keyinroq, iqtisodiyotda tezkor EHMLardan foydalanish yo'lga qo'yilgan vaqtdan analitik ishlanmalar doirasiga kirgan. Iqtisodiy tahlilning asosiy an'anaviy usul va uslublari sirasiga mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanish, taqqoslash, guruhlash, balans metodi, zanjirli o'rin almashtirish usuli, mutlaq va

nisbiy farqlar, indeks usullarini kiritish mumkin. U yoki bu ko'rsatkichlar, iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va vaziyatlar tahlili mutlaq miqdorlardan (qiymat bo'yicha yoki natural o'lchovlarda ishlab chiqarish hajmi, tovar aylanmasi hajmi, muomala xarajatlari va sarf-xarajatlar miqdori, foyda miqdori) foydalanishdan boshlanadi. Buxgalteriya hisobi va statistikada bo'lgani kabi tahlilda ham mutlaq miqdorlarsiz ish yuritish mumkin emas. Lekin ular buxgalteriya hisobida asosiy o'lchagichlar hisoblansa, tahlilda ko'pincha o'rtacha va nisbiy miqdorlarni hisoblash uchun baza sifatida foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlar analitikligi, tuzilmaviy tartib ko'rsatkichlarini o'rganishda ham yaxshi namoyon bo'ladi. Jamining qismini jamining butun olinganiga nisbatini aks ettirarkan, ular butun jamini ham, uning qismini ham yaqqol tasvirlaydi (masalan, yalpi mahsulotda tayyor mahsulot, qo'shimcha mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishning ulushi).

Tahlil jarayonida o'rtacha miqdorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning «analitik kuchi» o'xshash, bir turdagi ko'rsatkichlar, hodisalar va jarayonlarni mutanosib majmuada umumlashtirishdan iborat. Ular xususiydan umumiyga, tasodifiydan qonuniyatliga o'tishga imkon beradi; ularsiz o'rganilayotgan belgini turli majmualar bo'yicha taqqoslash, turlanayotgan ko'rsatkichlarni vaqt bo'yicha o'zgarishlarini tavsiflashning iloji yo'q: ular alohida qiymat va tebranishlar tasodifiyligini mavhumlashtirishga imkon beradi.

Analitik hisob-kitoblarda, zaruratga ko'ra, "o'rtacha"larning turli shakllari qo'llaniladi: o'rtacha arifmetik, o'rtacha tortilgan, o'rtacha xronologik va b.

2.2.1. Taqqoslash usuli

Bilishning ilmiy usullaridan biri sifatida taqqoslash iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladi. Uning mohiyati – bir turdagi obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash maqsadida ularni qiyoslashdan iborat. Taqqoslash yordamida iqtisodiy hodisalaridagi umumiylik va o'ziga xosliklar aniqlanadi, tadqiq etilayotgan obyektlar darajasida o'zgarishlar belgilanadi, ularning rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari o'rganiladi. Iqtisodiy tahlilda taqqoslashning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- Haqiqatdagi hisobot ma'lumotlarini rejaviy ma'lumotlar bilan taqqoslash. Rejaning bajarilish foizini aniqlash taqqoslash natijasi hisoblanadi;

- Iqtisodiy hodisalar rivojlanishidagi tendensiyalar, qonuniyatlarni aniqlash maqsadida ko'rsatkichlarni dinamikada taqqoslash;

- Tahlil qilinayotgan korxonaga ko'rsatkichlarini tarmoq bo'yicha o'rtacha qiymatlar bilan taqqoslash;

- O'rganilayotgan korxonaning faoliyat ko'rsatkichlarini raqobatchilarning mutanosib ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- optimal qarorlarni tanlash maqsadida turli boshqaruv qarorlari natijalarini taqqoslash;

- samaradorligini baholash maqsadida boshqaruv qarorlari qabul qilingunga qadar va qabul qilingandan keyingi faoliyat natijalarini taqqoslash.

Quyidagilar **ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligining** majburiy sharti hisoblanadi:

- hajm, qiymat, sifat va tuzilmaviy ko'rsatkichlar birligi;

- qiyoslash amalga oshirilayotgan vaqt davri birligi;

- ishlab chiqarish shartlari taqqoslanuvchanligi;

- ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi taqqoslanuvchanligi.

Taqqoslanmaydigan ko'rsatkichlarni qiyoslash tahlil natijalari asosida noto'g'ri xulosa chiqarilishiga olib keladi. Shuning uchun qiyoslashni amalga oshirishdan avval ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirish, ya'ni qiyoslanayotgan ko'rsatkichlarni sanab o'tilgan omillarga muvofiq yagona asosga keltirish lozim.

Agar taqqoslanmaydigan ko'rsatkichlar qiymat bahosining turli darajasi oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, u holda ushbu omilni neytrallashtirish uchun ko'rsatkichlar ayni bir narxda ifodalanadi. Masalan, yalpi mahsulot qiyoslanuvchanligini ta'minlash uchun uning hisobot va bazis davrdagi jismoniy hajmi bazis davri narxlarida ifodalanadi:

$$I_{yam} = \sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0.$$

Bu yerda q_1 i q_0 – mos ravishda hisobot va bazis davrdagi i-turdagi mahsulot ishlab chiqarishning jismoniy hajmi;

p_0 – i-turdagi mahsulotning bazis davrdagi narxi.

Korxonalar faoliyat ko'lamini o'zgarishi tufayli ko'plab ko'rsatkichlar taqqoslanmaydigan bo'lishi mumkin. Masalan, agar hisobot

yili xarajatlar miqdori ($\sum q_1 b_1 + a_1$) bazis yil xarajatlari ($\sum q_0 b_0 + a_0$) bilan taqqoslansa, u holda mazkur ko'rsatkichlarning farqi nafaqat mahsulot tannarxi darajasining o'zgarishi bilan, balki mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar bilan ham shartlangan bo'ladi. Xarajatlarni taqqoslanma ko'rinishga keltirish uchun hajm omilining ta'sirini neytrallash talab etiladi, buning uchun bazis davr xarajatlari miqdorini hisobot davri mahsulot ishlab chiqarishning haqiqatdagi hajmiga ($\sum q_1 b_0 + a_0$) qayta hisoblash zarur va shundan so'ng hisobot davri xarajatlari miqdori taqqoslanadi:

$$I_z = \sum q_1 b_1 + a_1 / \sum q_0 b_0 + a_0.$$

Bu yerda b – i-turdagi mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar;
 a – tadqiq etilayotgan davrda jami mahsulot ishlab chiqarish uchun doimiy xarajatlar.

Taqqoslanayotgan ko'rsatkichlarni **bir tuzilmaga** keltirish uchun mahsulot ishlab chiqarishning haqiqatdagi hajmini bazis davr tarkibiga qayta hisoblash zarur. 2.2-jadvalda keltirilgan misolda ikkala holatda ham ishlab chiqarish tarkibi va narxlar bir xil (bazis davr darajasida), faqat umumiy mahsulot ishlab chiqarish farqlanadi. Bu mahsulotning jismoniy o'sishini to'g'ri baholashga imkon beradi.

2.2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibi

Mahsulot turi	Mahsulot narxi, ming so'm.	Ishlab chiqarish hajmi		Solishtirma og'irlik	
		o'tgan davr	hisobot davri	o'tgan davr	hisobot davri
Tabiiy teridan poyabzal	30	5000	5400	0,5	0,6
Sun'iy teridan poyabzal	6	5000	3600	0,5	0,4
Jami		10000	9000	1,0	1,0

$$YaM_0 = 10000 \times 0,5 \times 30 + 10000 \times 0,5 \times 6 = 180000 \text{ ming so'm};$$

$$YaM_{\text{shartli}} = 9000 \times 0,5 \times 30 + 9000 \times 0,5 \times 6 = 162000 \text{ ming so'm}.$$

Agar mutlaq miqdorlar o'rniga o'rtacha yoki nisbiy miqdorlar qo'llanilsa, qator hollarda ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligiga erishish mumkin. Korxonada ishlab chiqarish bazasini hisobga olmay

turib mahsulot ishlab chiqarish hajmi, foyda miqdori kabi mutlaq ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin emas. Lekin mutlaq ko'rsatkichlar o'rniga nisbiy ko'rsatkichlar, masalan, bir ishchi uchun mahsulot ishlab chiqarish, bir so'm aktivga foyda miqdori olingan bo'lsa, u holda qiyoslash to'laligicha to'g'ri hisoblanadi.

2.2.2. Nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanish

Mutlaq ma'lumotlar bilan birga iqtisodiy tahlilda odatda foiz yoki koeffitsiyentlarda ifodalanadigan nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy miqdorlar, masalan, aholi jon boshi hisobida mahsulot ishlab chiqarishni aniqlash uchun qo'llaniladigan reja topshiriqlarining bajarilish darajasi, me'yorlarga rioya qilinishi, o'sish sur'ati va ko'payish, tarkibi, intensivlik ko'rsatkichlari yoki ulushini tavsiflaydi. Bunday nisbiy ko'rsatkichlar mutlaq sonlarda hisoblansanda, nisbiy miqdorlar toifasiga kiritiladi.

Ishlab chiqarish xodimlarining mehnat unumdorligi, mahsulot birligiga material sarfi kabi ommaviy hodisalarni o'rganishda o'rtacha miqdorlarni qo'llash zarurati vujudga keladi.

Iqtisodiy tahlilda **o'rtacha miqdorlar** bir turdagi hodisalar majmuyini qandaydir belgi bo'yicha umumlashtirilgan miqdoriy tavsifi uchun foydalaniladi, ya'ni bitta son bilan obyektlarning jami majmui tavsiflanadi. Masalan, ishchilarning o'rtacha oylik mehnat haqi o'rganilayotgan ishchilar majmuining mehnatiga haq to'lash darajasining umumlashma tavsifi uchun qo'llaniladi. O'rtacha miqdorlar yordamida turli obyektlar majmualarini qiyoslash mumkin: rentabellik darajasi bo'yicha tumanlar, mehnatga haq to'lash darajasi bo'yicha korxonalar va hokazo.

O'rtacha miqdorlarning keng tarqalgan shakli – o'rtacha arifmetik bo'lib, uning oddiy va tortilgan turlari mavjud. O'lchovlar haqida bevosita ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda o'rtacha garmonik usul qo'llaniladi, o'sishning o'rtacha sur'atini hisoblashda esa o'rtacha geometrikka murojaat qilinadi.

O'rtachani hisoblashning mazkur usullari o'rganilayotgan majmua-ning o'ziga xos jihatlarini tavsiflash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunda ixtiyoriy o'rtacha tortilgan miqdor hisoblash manbasi bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlar tarkibining hosilasi ekanligini nazarda

tutish talab etiladi. Sonlarni qatorlarga yanada teng taqsimlash barcha qatorlar uchun yanada tipik o'rtacha miqdorni beradi va aksincha.

Misol, 2016 yilning to'rt kvartali uchun ma'lumotlar bo'yicha mahsulot sotishning o'rtacha kvartal hajmini hisoblash.

Kvartal	I	II	III	IV
Tushum xi, so'm	587612	630544	691406	601417

x_i ning har bir qiymatidan 587612 ni ayirib tashlash, keyin esa "qoldiq"lar bo'yicha o'rtachani hisoblash mumkin:

	0	42932	103794	13805
--	---	-------	--------	-------

$$(0+42932+103794+13805) / 4 = 40133 \text{ so'm.}$$

Izlanayotgan kvartalda sotishning o'rtacha miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

$$X = 40133+587612 = 627745 \text{ so'm.}$$

o'rtacha arifmetikdan tashqari o'rtacha miqdorlarning boshqa shakllari ham qo'llaniladi. Birinchi navbatda bu **o'rtacha geometrik** bo'lib, u miqdorni emas, balki miqdorlarning individual qiymatlari ko'paytmasini o'zgarimas saqlashga imkon beradi:

$$\sqrt[n]{X_{geom}} = x_1 * x_2 * \dots * x_n$$

O'rtacha geometrik asosan o'sish sur'atini o'rganishda keng qo'llaniladi.

Misol, 2016 yilning to'rt kvartali davomida korxonada mahsulot ishlab chiqarishida foydalanilgan xomashyo narxining o'sish sur'ati har xil bo'lgan. Yilning to'rt kvartali uchun ma'lumotlar bo'yicha yil uchun o'rtacha kvartallik narx o'sish sur'atini topish talab qilinadi.

Kvartal	I	II	III	IV
O'sish sur'ati	1,05	1,09	2,01	1,56

Narx o'sish sur'ati quyidagini tashkil qilgan: $1,05 \cdot 1,09 \cdot 2,01 \cdot 1,56 = 3,59$

Agar o'rtacha o'sish sur'atini hisoblash uchun o'rtacha arifmetik formulasidan foydalanilsa, yillik o'sish sur'ati o'rtacha 1,43 martani tashkil qilganligini ko'ramiz:

$$(1,05+1,09+2,01+1,56)/4 = 1,43.$$

Olingan qiymat o'sish sur'atining haqiqiy manzarasini berishi ehtimoldan uzoq, chunki agar har kvartalda narxlar 1,43 marta oshgan, deb taxmin qilinsa, u holda yillik o'sish sur'ati 4,15 martani tashkil qilishi lozim:

$$1,43 \cdot 1,43 \cdot 1,43 \cdot 1,43 = 4,15 \text{ marta.}$$

Bunday qarama-qarshilik yuzaga kelmasligi uchun bir yilda o'rtacha kvartallik narx o'sish sur'atini hisoblash uchun o'rtacha geometrik formulasidan foydalanish talab qilinadi:

$$\sqrt[4]{1,05 \cdot 1,09 \cdot 2,01 \cdot 1,56} = 1,38$$

Iqtisodiy tahlilda **o'rtacha xronologik usul** ham keng qo'llaniladi. Korxonalarni tavsiflash uchun oraliq va oniy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Birinchisiga misol sifatida tovar aylanmasi, foyda, qandaydir davr uchun tushumlar hajmi; ikkinchisiga esa – muayyan sana uchun zaxiralar, asosiy mablag'lar va ishlovchilar soni haqida ma'lumotlarni keltirish mumkin. Oraliq ko'rsatkichlarni o'rtachalashtirish uchun ko'pincha o'rtacha arifmetik formulasi qo'llanilsa, oniy ko'rsatkichlarni o'rtachalashtirish uchun aynan o'rtacha xronologik formulasidan foydalaniladi. Agar X_1, \dots, X_n oniy ko'rsatkichlar qatori berilgan bo'lsa, u holda mazkur qator uchun o'rtacha xronologik Sch quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sch = (X_1/2 + X_2 + \dots + X_{n-1} + X_n/2) / (n-1)$$

Misol, 2016 yildagi do'konda tovar zaxirasining o'rtacha miqdorini topish talab qilinadi, agar har bir kvartal boshi uchun zaxiralar haqida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa (ming so'm):

	1 yanvar	1 aprel	1 iyul	1 oktyabr	1 yanvar
Zaxira	2015	2015	2015	2015	2016
	100	120	111	140	106

O'rtacha xronologik formulasidan foydalangan holda quyidagini topamiz:

$$Sch = (100/2 + 120 + 111 + 140 + 106/2) / (5-1) = 118,5 \text{ ming so'm.}$$

Olingan miqdorning iqtisodiy talqini quyidagicha: 2016 yil davomida korxonada har kuni o'rtacha 118,5 ming so'mga teng tovar zaxirasiga ega bo'lgan.

2.2.3. Iqtisodiy tahlilda guruhlash usuli

Guruhlash – bu ma'lumotlar majmuini uning tarkibi yoki komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish maqsadida guruhlarga ajratishdir.

Iqtisodiy hodisalarni ilmiy tasniflash, ularni turdosh guruh yoki guruhchalarga birlashtirishni ularni batafsil o'rganish asosidagina amalga oshirish mumkin. Tasodifiy belgilariga ko'ra hodisalarni guruhlash mumkin emas: ularning siyosiy-iqtisodiy tabiatini tushuntirish zarur. Ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar va sabablar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Tahlil maqsadiga bog'liq ravishda tipologik, tkzilmaviy va analitik (sabab-oqibat) guruhlashdan foydalaniladi. **Tipologik guruhlashga** misollar – faoliyat turi bo'yicha aholi guruhlari, mulkchilik shakli bo'yicha korxonalar guruhlari va b.

Tuzilmaviy guruhlar ko'rsatkichlarning ichki tuzilishi, ularning alohida qismlari nisbatini o'rganishga imkon beradi. Ularning yordamida kasb-kori, mehnat staji, yoshi, mehnat me'yorlarini bajarishi bo'yicha ishchilar tarkibi; mahsulot tannarxi tarkibi va boshqalar o'rganiladi.

Analitik guruhlar (mohiyatan tipologik va tuzilmaviyni o'zida qamrab oluvchi) o'rganilayotgan hodisalar, obyektlar va ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro munosabatlarni aniqlashga mo'ljallangan. Pri postroenii Analitik guruhlarni tuzishda ikki o'zaro aloqador ko'rsatkichlardan biri boshqasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida, boshqasi esa birinchisining ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Lekin har bir aniq holat uchun omilli va natijaviy alomatlarning o'zaro bog'liqligi o'zgarishi mumkinligini nazarda tutish talab qilinadi (omilli alomat natijaviy sifatida namoyon bo'lishi mumkin va aksincha).

2.3-jadval

Korxonalarni mehnat qurollari bilan ta'minlanganligi bo'yicha guruhlash

Fond bilan qurollanganligiga ko'ra korxonalar guruhi	Guruhdagi korxonalar miqdori	Guruh bo'yicha fond bilan qurollanganlikning o'rtacha darajasi	Bir ishchining o'rtacha ishlab chiqarishi, mln so'm
3,5 mln so'mgacha	2	3,25	4,45
3,5 – 4,0	3	3,76	5,10
4,1 – 4,5	3	4,23	5,73
4,5 mln so'mdan ziyod	2	4,75	6,30

Shunday qilib, axborotlarni to'g'ri guruhlash ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish, o'rganilayotgan hodisalar mohiyatini yanada chuqurroq anglash, tahlil materiallarini tizimlashtirish, ularning asosiylari, xarakterlilari va o'ziga xoslarini ajratishga imkon beradi.

2.2.4. Iqtisodiy tahlilda balans usuli

Balans usuli – bu xo'jalik faoliyatining o'zaro aloqador ko'rsatkichlarini ularning o'zaro ta'sirini izohlash va o'lchash uchun, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini hisoblash uchun maxsus qiyoslashdir.

Tahlilning balans usulini qo'llashda alohida ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqa ularni turlicha qiyoslash orqali olingan natijalar tengligi shaklida ifodalanadi. Xo'jalik faoliyatining ikki natijasi tengligini keltirib chiqarish yo'li bilan uning ko'p sonli ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ilk tarixiy misol buxgalteriya balansi bo'lganligi uchun tahlilning mazkur usuli balans metodi nomini oldi. U korxonaning mehnat, moliyaviy resurslar, xomashyo, yoqilg'i, materiallar, ishlab chiqarishning asosiy vositalari va boshqalar bilan ta'minlanganligini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Masalan, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi aniqlangan holda balans tuzilib, unda bir tomondan, mehnat resurslariga ehtiyoj, boshqa tomondan – ularning haqiqatda mavjudligi ko'rsatiladi.

Korxonalarining to'lov qobiliyatini aniqlash uchun to'lov balansidan foydalanilib, unda to'lov mablag'larining to'lov majburiyatlari bilan o'zaro nisbati aniqlanadi.

Tayyor mahsulot balansi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q_b + T = S + Q_o.$$

Bu erda Q_b – yil boshi uchun tovar qoldig'i;

T – tovar mahsulot ishlab chiqarish;

S – sotish;

Q_o – yil oxiri uchun tovar qoldig'i.

Ba'zan balans usuli alohida omillarning natijaviy o'kratkich o'sishiga ta'sir miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladi. Masalan, uch omilning ikkitasi ta'siri ma'lum bo'lsa, u holda uchinchisining ta'sirini natijaviy ko'rsatkichning umumiy o'sishidan dastlabki ikki omil ta'siri natijasini ayirib tashlab aniqlash mumkin:

$$S = Q_b + T - Q_o.$$

2.2.5. Zanjirli o‘rin almashtirish usuli

Zanjirli o‘rin almashtirish va uning matematik o‘zgarishiga asoslangan xususiy ko‘rsatkichlarning mutlaq va nisbiy miqdorlarining **farqlar (tafovut) usuli** alohida omillarning ularning o‘zaro munosabatlashuv natijasiga ta‘sirini o‘lchashda keng qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Omillar ta‘siri xususiy (omilli) ko‘rsatkichlar orqali, natija esa – umumlashtiruvchi (natijaviy) ko‘rsatkich orqali aks ettiriladi. Xususiy va umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanish hisoblash formulasi ko‘rinishida belgilanadi, uning bir tomonida xususiy ko‘rsatkichlar va ular ustida bajariladigan matematik amallar, boshqa tomonda esa ushbu ko‘rsatkichlar ta‘sirida o‘zgaradigan umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar qayd qilinadi. Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarning bazis (reja) dan haqiqatda og‘ishi oldindan belgilanadi.

Zanjirli o‘rin almashtirish usulining mohiyati hisoblash formulasiga kiruvchi xususiy ko‘rsatkichlarning bazis miqdorini mazkur ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi miqdoriga ketma-ket almashtirishdan va hosila o‘rin almashtirishning o‘rganilayotgan umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar miqdori o‘zgarishiga ta‘sirini o‘lchashdan iborat. Xususiy ko‘rsatkichning bazis miqdorini har bir almashtirishdan so‘ng hisoblash formulasida nazarda tutilgan barcha matematik amallar haqiqatda bajariladi va olingan natijadan oldingisi chiqarib tashlanadi (ushbu ko‘rsatkich almashtirilgunga qadar). Natijalar farqi ushbu xususiy ko‘rsatkich o‘zgarishining umumlashtiruvchiga ta‘sirining izlanayotgan miqdorini ko‘rsatadi, chunki qiyoslanayotgan ketma-ket hisoblashlarda boshqa barcha xususiy ko‘rsatkichlar miqdori bo‘yicha bir xil. *Xususiy ko‘rsatkichning bazis miqdorini almashtirish amalda o‘rin almashtirish deyiladi.* O‘rin almashtirishlar soni hisoblash formulasiga kiruvchilar soniga teng, ketma-ket hisoblashlar soni esa ulardan bittaga ko‘p, chunki umumlashtiruvchi ko‘rsatkich o‘zgarishining umumiy miqdorini aniqlash uchun bazis hisoblash keltirilib, unda barcha ko‘rsatkichlar bazis miqdorlarda aks ettiriladi.

a, b, v, g ko‘paytiruvchilar ko‘rinishidagi xususiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oluvchi hisoblash formulasida zanjirli o‘rin almashtirishlarni quyidagicha ifodalash mumkin (2.4-jadval).

Hisob-kitobni tekshirish **balans og‘ishlarni** tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi: alohida xususiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishi ta‘siridagi

og'ishlarning algebraik miqdori umumlashtiruvchi ko'rsatkichning bazis miqdoridan og'ishga teng bo'lishi lozim.

2.4-jadval

Tartib raqami		O'zaro munosabatlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar miqdori				Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar miqdori	Umumlashtiruvchi ko'rsatkich o'zgarishi	
hisoblash	o'rin almash-tirish	a	b	v	g		xususiy ko'rsatkich ta'siri ostida	o'zgarishlarni hisoblash
		1	-	bazis	bazis	bazis		
2	1	haq.	bazis	bazis	bazis	A_1 - qayta hisoblangan	a	$A_1 - A_0$
3	2	haq.	haq.	bazis	bazis	A_2 - qayta hisoblangan	b	$A_2 - A_1$
4	3	haq.	haq.	haq.	bazis	A_3 - qayta hisoblangan	v	$A_3 - A_2$
5	4	haq.	haq.	haq.	haq.	A_4 -haqiqat	g	$A_4 - A_3$

Bizning misolimizda: $(A_1 - A_0) + (A_2 - A_1) + (A_3 - A_2) + (A_4 - A_3) = A_4 - A_0$.

Mazkur xususiy ko'rsatkich ta'siri ostida umumlashtiruvchi ko'rsatkich o'zgarish miqdori hisoblash uchun qabul qilingan o'rin almashtirishlar ketma-ketligiga bog'liq bo'lib, u ixtiyoriy bo'lishi mumkin emas, balki omillarning birgalikda ta'siri jarayonida o'zaro aloqadorlikning oldindan sifatli tahliliga asoslangan bo'lishi lozim.

Xususiy ko'rsatkichlarning bazis miqdorlarini haqiqiysiga almashtirish ketma-ketligi haqida masalaning to'g'ri hal etilishi barcha xususiy ko'rsatkichlarni miqdor, tuzilma va sifat ko'rsatkichlariga ajratish imkonini beradi. Dastlab miqdor va tuzilmaning xususiy ko'rsatkichlari miqdori o'zgaradi, keyin esa sifat ko'rsatkichlarini o'rin almashtirish bajariladi. Biroq ko'pincha bir vaqtning o'zida bir emas, balki bir nechta miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'lchashga to'g'ri keladi. Bu holda o'rin almashtirishlar ketma-ketligini aniqlash uchun qaysi ko'rsatkich **asosiy**, boshqalariga bog'liq emas, qaysilari – hosila ekanligi aniqlanadi. Bunday holatlarda o'rin almashtirish asosiydan boshlanadi, keyin esa oldingisiga bog'liq keyingi ko'rsatkichni o'rin almashtirishga o'tiladi.

Masalan, mahsulot hajmining bazis davrdan og‘ishiga (Q) ishchilar soni (Is), ish kunlari miqdori (Ik) va ish kunining o‘rtacha davomiyligi (D) o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash talab qilinadi. Mazkur holatda ishchilar soni asosiy miqdoriy ko‘rsatkich hisoblanadi, ish kunlarining o‘rtacha soni ularning ishga kelgan kunlari soniga, ish kunining o‘rtacha davomiyligi esa ishchilar soni, ularning ishga kelgan kunlari va har bir ishchining ish kuni davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan ikkinchi ko‘rsatkich birinчисiga, uchinchi esa – birinchi va ikkinchiga bog‘liqligi kelib chiqadi. Hisoblash formulasida ushbu ko‘rsatkichlarning miqdorlarini almashtirish (o‘rin almashtirish) mazkur miqdoriy ko‘rsatkichlarning bir-biriga bog‘liqligi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Hisob-kitobga bir ishchining o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishini (MU_s ning sifat ko‘rsatkichi) ham kiritamiz. Ko‘rib chiqilayotgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqa quyidagi hisoblash formulasi bilan ifodalanadi:

$$I_s \times I_k \times D \times MU_s = YaM.$$

2.5-jadval

Mahsulot hajmini omilli tahlil qilish uchun ma‘lumotlar

Ko‘rsatkich	Shartli belgi	Bazis davr	Hisobot davri	O‘zgarish	
				mutlaq	nisbiy, %
Taqqoslama narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi, mln so‘m.	YaM	3750112	3889265	139153	3,71
Xodimlarning o‘rtacha soni, kishi	Xs	213	235	22	10,33
Bir ishchining o‘rtacha yillik ishlab chiqarishi, mln so‘m	Yi	17606,16	16550,06	-1056,10	-6,00
Bir yilda bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdori	Ik	270	276	6	2,22
Bir ishchining o‘rtacha kunlik ishlab chiqarishi, ming so‘m	MU _k	65,21	59,96	-5,24	-8,04
Ish kunining o‘rtacha davomiyligi, soat	D	7,8	7,6	-0,2	-2,56
Bir ishchining o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishi, ming so‘m	MU _s	8,36	7,89	-0,47	-5,62

Zanjirli o‘rin almashtirish usulida mahsulot hajmiga mehnat omillari ta‘sirini hisoblash

Tartib raqami		O‘zaro ta‘sirlashuvchi xususiy ko‘rsatkichlar				Umumlashtiruvchi ko‘rsatkich YaM	Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning o‘zgarishi	
Hisoblash	O‘rin almashtirish	Xs	Ik	D	MU _s		xususiy ko‘rsatkichning ta‘sirida	O‘zgarishlarni hisoblash
1	-	bazis	bazis	bazis	bazis	A ₀ - Bazis		
		213	270	7,8	8,36	3750112	x	x
2	1	Haq.	bazis	bazis	bazis	A ₁ - qayta hisoblangan	Xs	A ₁ - A
		235	270	7,8	8,36	4137448		387336
3	2	Haq.	Haq.	bazis	bazis	A ₂ - qayta hisoblangan	Ik	A ₂ - A ₁
		235	276	7,8	8,36	4229391		91943
4	3	Haq.	Haq.	Haq.	bazis	A ₃ - qayta hisoblangan	D	A ₃ - A ₂
		235	276	7,6	8,36	4120945		-108446
5	4	Haq.	Haq.	Haq.	Haq.	A ₄ -haqiqat	MUs	A ₄ - A ₃
		235	276	7,6	7,89	3889265,04		-231680

Og‘ishishlar balansi: $+387336+91943-108446-231680= +139153$ ming so‘m.

Analitik hisoblash to‘g‘ri amalga oshirilgan, chunki xususiy ko‘rsatkichlar miqdorining o‘zgarishi ta‘sirida og‘ishishlarning yig‘indisi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning haqiqatdagisi bilan bazaviysining farqiga teng. Hisoblashlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xodimlar sonining 22 kishiga ortishi hisobiga yalpi mahsulot hajmi 387336 ming so‘mga, bir ishchining o‘rtacha ish kunining 6 kunga ortishi hisobiga 91943 ming so‘mga ko‘paygan. O‘rtacha ish kuni davomiyligining 0,2 soatga kamayishi hisobiga yalpi mahsulot hajmi 108446 ming so‘mga, ishchining bir soatlik mehnat unumining 0,47 ming so‘mga kamayishi hisobiga esa 231680 ming so‘mga kamaygan. Barcha omillar ta‘sirida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 139153 ming so‘mga ortgan. Korxonalar rahbariyati tomonidan ish kuni

davomiyligining nazoratini kuchaytirilsa hamda ishchilar malakasini oshirilsa mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish imkoniyatidan to'liq foydalanilgan bo'lar edi. Bu erda -108446-231680=-340126 ming so'm foydalanilmagan ichki rezerv hisoblanadi.

2.2.6. Mutlaq farqlar usuli

Farqlar usuli, ya'ni xususiy ko'rsatkichlarning haqiqatdagi va bazis miqdorlari o'rtasidagi farqni topish, keyin esa ushbu farqning umumlashtiruvchi ko'rsatkichning rejadan yoki boshqa bazadan og'ishiga ta'sirini aniqlash – zanjirli o'rin almashtirish usulining oldindan ma'lum texnik soddalashtirishidir. Farqlar (o'zgarishlar) ning umumiy og'ishga ta'siri zanjirli o'rin almashtirishdagi kabi ketma-ketlikda aniqlanadi, lekin og'ishlar miqdori bevosita har bir hisoblash yakunida olinadi (oldingi hisoblash natijasi ayirib tashlanmagan holda). Ushbu ko'rsatkichning farqini hisoblashdan oldingi barcha ko'rsatkichlar to'liq haqiqatdagi miqdorda, keyingilarning barchasi esa bazis miqdorda hisoblash uchun kiritiladi.

$$U=x*y \quad \begin{aligned} \Delta U_x &= \Delta x*y_0; \\ \Delta U_y &= \Delta y*x_1. \end{aligned}$$

$$U=x*y*z \quad \begin{aligned} \Delta U_x &= \Delta x*y_0*z_0; \\ \Delta U_y &= \Delta y*x_1*z_0; \\ \Delta U_z &= \Delta z*x_1*y_1. \end{aligned}$$

$$U=x*y*z*q \quad \begin{aligned} \Delta U_x &= \Delta x*y_0*z_0*q_0; \\ \Delta U_y &= \Delta y*x_1*z_0*q_0; \\ \Delta U_z &= \Delta z*x_1*y_1*q_0; \\ \Delta U_q &= \Delta q*x_1*y_1*z_1. \end{aligned}$$

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z + \Delta U_q.$$

Masalan, mahsulot hajmiga yuqorida ko'rib chiqilgan xususiy ko'rsatkichlarning bazis miqdordan og'ishi ta'sirini quyidagi tarzda darhol topish mumkin:

1. Ishchilar soni ortishining ta'siri.

$$\Delta YaM_{xs} = \Delta Xs \times Ik_0 \times D_0 \times Mu_{s0} = (+22) \times 270 \times 7,8 \times 8,36 = +387336 \text{ m.s.}$$

2. Yiliga bir ishchi ish kunlari miqdorining ortishi ta'siri.

$$\Delta YaM_{Ik} = \Delta Ik \times Xs_1 \times D_0 \times Mu_{s0} = (+6) \times 235 \times 7,8 \times 8,36 = +91943 \text{ m.s.}$$

3. Ish vaqtining o'rtacha davomiyligi kamayishi ta'siri.

$$\Delta Y_{aM_D} = \Delta D \times X_{S_1} \times I_{k_1} \times M_{u_{s_0}} = (-0,2) \times 235 \times 276 \times 8,36 = -108446 \text{ m.s.}$$

4. O'rtacha soatlik mehnat unumining pasayishining ta'siri.

$$\Delta Y_{aM_{Mus}} = \Delta M_{u_s} \times X_{S_1} \times I_{k_1} \times D_1 = (-0,47) \times 235 \times 276 \times 7,6 = -231680 \text{ m.s.}$$

Ko'ramizki, mutlaq farqlar usuli yordamida zanjirli o'rin almashtirish usulini qo'llashdagi kabi natijalar olinadi. Bu erda alohida omillar hisobiga natijaviy ko'rsatkich o'sishining algebraik miqdori uning umumiy o'sishiga tenglashishini kuzatib borish zarur.

2.2.7. Nisbiy farqlar usuli

Ushbu usul faqatgina multiplikativ modellarda natijaviy ko'rsatkich o'sishiga omillar ta'sirini o'lchash uchun qo'llaniladi. Bu erda koeffitsiyentlar yoki foizlar ko'rinishida ifodalangan omilli ko'rsatkichlarning nisbiy o'sishlari qo'llaniladi.

$U=xyz$ turidagi multiplikativ modellar uchun mazkur usulda omillar ta'sirini hisoblash metodikasini ko'rib chiqamiz.

Natijaviy

$$\begin{aligned} U=x*y & \quad \Delta U_x = U_0 * \Delta x/x_0; \\ & \quad \Delta U_y = (U_0 + \Delta U_x) * \Delta y/y_0. \end{aligned}$$

$$U=x*y*z \quad \Delta U_z = (U_0 + \Delta U_x + \Delta U_y) * \Delta z/z_0;$$

$$U=x*y*z*q \quad \Delta U_q = (U_0 + \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z) * \Delta q/q_0;$$

$$\Delta U = \Delta U_x + \Delta U_y + \Delta U_z + \Delta U_q.$$

Ushbu qoidaga muvofiq birinchi omil ta'sirini hisoblash uchun natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdorini o'nlik kasrda ifodalangan birinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytirish zarur.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdoriga uning birinchi omil hisobiga o'zgarishini qo'shish lozim, keyin esa hosil bo'lgan miqdor ikkinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytiriladi.

Uchinchi omilning ta'siri ham shunga o'xshash aniqlanadi: natijaviy ko'rsatkichning bazaviy miqdoriga uning birinchi va ikkinchi omil hisobiga o'sishini qo'shish va hosil bo'lgan miqdorni uchinchi omilning nisbiy o'sishiga ko'paytirish lozim.

Ko'rib chiqilgan metodikani 2.5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda mustahkamlaymiz.

$$\Delta Y_{aM_{Xs}} = Y_{aM_0} \times \Delta X_s / X_{s0} = 3750112 \times 22 / 213 = +387336 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_{aM_{Ik}} = (Y_{aM_0} + \Delta Y_{aM_{Xs}}) \times \Delta I_k / I_{k0} = (3750112 + 387336) \times 6 / 270 = +91943 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_{aM_D} = (Y_{aM_0} + \Delta Y_{aM_{Xs}} + \Delta Y_{aM_{Ik}}) \times \Delta D / D_0 = (3750112 + 387336 + 91943) \times (-0,2) / 7,8 = -108446 \text{ m.s.}$$

$$\Delta Y_{aM_{Mus}} = (Y_{aM_0} + \Delta Y_{aM_{Xs}} + \Delta Y_{aM_{Ik}} + \Delta Y_{aM_D}) \times \Delta M_{us} / M_{us0} = (3750112 + 387336 + 91943 - 108446) \times (-0,47) / 8,36 = -231680 \text{ m.s.}$$

Ko'rinib turibdiki, hisoblash natijalari oldingi usullardan foydalangan holda olingan natijalar bilan bir xil.

Agar ko'p sonli (8, 10 va undan ortiq) omillar ta'sirini hisoblash talab qilinsa, nisbiy farqlar usulini qo'llash qulay sanaladi. Oldingi usullardan farqli ravishda bu erda hisoblash amallari miqdori sezilarli darajada qisqaradi, bu esa uning afzalligini belgilab beradi.

2.2.8. Indeks metodi

Bu metod iqtisodiy tahlilda alohida elementlari o'lchanmas sanalgan murakkab hodisalarni o'rganishda qo'llaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar kabi indekslar ham reja topshiriqlari bajarilishini baholash, mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi, o'rtacha oylik mehnat haqi, ishlab chiqarish hajmi kabi jarayon va hodisalarning dinamikasini aniqlash uchun zarur. Indekslar yordamida turli tumanlarda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar ko'lami va darajasi taqqoslanadi (hududiy indekslar). Indeksning boshqa vazifasi alohida omillarning natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sirini o'rganishdan iborat (mahsulot tannarxi, rentabellik, fond qaytimi va boshqalar o'zgarishi).

Omili tahlil instrumenti sifatida indekslar vazifasi $\sum a_1 b_1 = L_a L_b \sum a_0 b_0$ tenglamasida ifodalanadi (bu erda **a** – miqdoriy omil, **b** – sifat omili).

$L_a \sum a_0 b_0$ ifodasi **a** omili o'zgarishi ta'sirida bazis daraja o'zgarishini tavsiflaydi, $L_a L_b \sum a_0 b_0$ ifodasi esa quyidagilarni ko'rsatadi:

1) ikkala omilning bir vaqtda ta'siri natijasida bazis daraja o'zgarishi va

2) buning oqibati sifatida – hisobot darajasi.

Umumiy indeks xususiy indekslarga (subindekslar) ajratilgan holda aniqlangan og‘ishishlarga alohida omillar ta’siri aniqlanadi. Ajratish maxsuslashtirilgan hisob yoki zanjirli o‘rin almashtirish usuli deb nom olgan ketma-ket zanjirli usulda olib boriladi. Farqlar usuli zanjirli o‘rin almashtirish usulining ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Maxsuslashtirilgan hisobning o‘ziga xosligi shundaki, alohida omilning ta’sir darajasini aniqlar ekanmiz, uni hisobot davri shartlariga tatbiqan ko‘rib chiqamiz, o‘rganilayotgan omil bilan bir vaqtda ta’sir qilgan boshqa barcha omillar – bazis davr darajasida ko‘rib chiqiladi. Omillarni maxsus o‘rganish usulida amalga oshirilgan hisoblashga misol keltiramiz. Birinchi omilni (ishchilar soni) a deb belgilaymiz, ikkinchisi (o‘rtacha ishlab chiqarish) – b , ularning bazis davrdagi belgisi – 0, hisobot davrida esa – 1.

Ishlab chiqarish hajmi indeksi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I = a_1 b_1 / a_0 b_0.$$

Bu yerda a – ishchilar soni;

b – bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarish.

Mazkur indeksdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmiga har bir omilning ta’sirini aniqlaymiz.

Birinchi subindeks $I_a = a_1 b_0 / a_0 b_0$.

Ikkinchi subindeks $I_b = a_0 b_1 / a_0 b_0$.

Qayd qilish joizki, xususiy indekslar (subindekslar) maxrajida ayni bir bazis miqdor bo‘lsa, ularning suratida faqat bir omil hisobot darajasiga ega. Quyidagicha deb faraz qilamiz:

$a_0 = 100$; $a_1 = 110$; $b_0 = 4000$; $b_1 = 4200$;

$I = 110 \times 4200 / 100 \times 4000 = 462000 / 400000 = 1,15$;

$I_a = 110 \times 4000 / 100 \times 4000 = 440000 / 400000 = 1,10$;

$I_b = 100 \times 4200 / 100 \times 4000 = 420000 / 400000 = 1,05$.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikkala omilning ta’siri yig‘indisi 60000 (440000-400000)+(420000-400000) ga teng, ya’ni ish hajmining umumiy o‘sishi miqdoridan kichik (62000).

Bu esa alohida omillarni ajratib olgan holda o‘rganish hisobot davridagi ish hajmining bazis davrdan mavjud og‘ishini to‘liq izohlashga imkon bermasligini anglatadi.

Umumiy o‘shish (+62000) qo‘shiluvchilarga ajraladi: (10×4000) + (100×200) + (10×200).

Omillar ta’siri shunday: a omil– 40000 (10×4000);

b omil – 20000 (100×200).

2000 [62000 – (40000+20000)] ga teng uchinchi miqdor ishchilar sonining mutlaq o‘sishi va o‘rtacha ishlab chiqarish ko‘paytmasini o‘zida aks ettiradi (10×200). Alohida omillar ahamiyatini aniqlashning ikkinchi usuli ketma-ket zanjir usulida xususiy indekslar tuzishga asoslanadi. Misolimizdagi ma’lumotlardan foydalangan holda, ketma-ket zanjir usulida qo‘llaniladigan subindekslar formulalarini keltiramiz:

$$I_a = a_1 b_0 / a_0 b_0;$$

$$I_b = a_1 b_1 / a_0 b_0.$$

Raqam qiymatlarni qo‘yamiz:

$$I_a = 110 \times 4000 / 100 \times 4000 = 440000 / 400000 = 1,10,$$

$$I_b = 110 \times 4200 / 110 \times 4000 = 462000 / 440000 = 1,05.$$

Bunda subindekslar metodi o‘zgarishigicha qoldi, lekin alohida omillar ta’sirida ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishidagi mutlaq ko‘rsatkichlar boshqa qiymatga ega bo‘ldi. Masalan, **a** omil= 40000 (440000-400000), **b** omil= 22000 (462000-440000). Bo‘linmas qoldiq yo‘q.

Har bir omilning ahamiyatini aniqlashda oldingi omillar miqdori ham maxrajda, ham suratda hisobot davri darajasida qabul qilinadi. Bizning misolimizda **a** omil uchun **b** omil ta’sir darajasini oydinlashtirishda formulaning ham maxraji, ham suratida hisobot qiymatlaridan foydalanildi. Bu mazkur metodning umumiy tamoyilidir.

Alohida omillar qo‘shilishini hisoblash asosida o‘zaro aloqador ko‘rsatkichlar tizimi yotadi. Har bir navbatdagi hisoblash (omil ta’siri o‘zgarishi) oldingisidan kelib chiqadi. Shuning uchun alohida omilning ta’sirini tavsiflovchi mutlaq miqdor ayni bir hodisaning hisob miqdorlari o‘rtasidagi farq sifatida ta’riflanadi. Bu miqdorlar o‘zaro aloqador va hisoblashga kiritilgan ko‘rsatkichlar (omillar) soni bilan farqlanadi. Har bir yangi hisoblash oldingisidan shunisi bilan farqlanadiki, undagi hisob ko‘rsatkichlari soni bazis ko‘rsatkichlar hisobiga bittaga ortadi, mos ravishda bazis ko‘rsatkichlar bittaga kamayadi.

Agar o‘zaro hisoblash tizimi omillarni maxsuslashtirilgan qiyoslash usulida qo‘llaniladigan usul bilan taqqoslansa, natija, ya’ni zanjir metodida hisoblanadigan alohida omillar ta’sir ko‘rsatkichlari hisoblash ketma-ketligiga bog‘liqligini payqash mumkin. Masalan, misolimizdagi ikki omil (**a** va **b**) ga qaytib, har birining ta’sirini aniqlashda hisoblashlar ketma-ketligini o‘zgartirgan holda alohida omillar ta’sirining boshqa mutlaq ko‘rsatkichlariga ega bo‘lamiz:

$$I_b = a_0 b_1 / a_0 b_0 = 100 \times 4200 / 100 \times 4000 = 420000 / 400000.$$

b omil hisobiga ish hajmi ortishining mutlaq miqdori = 20000 (420000-400000).

$$I_a = a_1 b_1 / a_0 b_1 = 110 \times 4200 / 100 \times 4200 = 462000 / 420000.$$

a omil hisobiga ish hajmi ortishining mutlaq miqdori = 42000 (462000 - 420000).

O‘z navbatida, mazkur holatda ham balans hisobi mavjud (42000+20000=62000). Biroq o‘z oldimizga nafaqat balanslashtirilgan natija olish vazifasini, balki har bir omil ta‘sirining to‘g‘ri raqamli ifodasini topishni ham qo‘ygan holda to‘g‘ri natijalar olish uchun hisoblashda qanday ketma-ketlikka rioya qilish borasidagi masalani oldindan hal etish lozim. Hisoblash ketma-ketligiga bog‘liq bo‘lgan ehtimoliy variantlar miqdori omillarning faktorial sonini o‘zida namoyon etadi. Ikki omilda variantlar soni 2 ga teng (1×2), to‘rttada– 24 ($1 \times 2 \times 3 \times 4$) va hokazo.

2.2.9 Korrelyatsion tahlil usullari

Agar ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqa qat’iy determinatsiyalangan bo‘lmasa, u holda u korrelyatsion hisoblanadi. Korrelyatsion bog‘lanish - bu shunday to‘liqsiz bog‘lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaning har xil qiymatlari mos keladi. Bu holda omillarning to‘liq soni noma’lumdir.¹

U shunisi bilan tavsiflanadiki, o‘rganilayotgan asosiy omillar bilan birga natijaviy ko‘rsatkichga asosiy ta‘sirini buzib ko‘rsatuvchi qo‘shimcha omillar ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Korrelyatsion metodni qo‘llashning majburiy sharti tendensiya va rivojlanish qonuniyatini aniqlashga imkon beruvchi o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar qiymatlarining ommaviyligi hisoblanadi. Natijaviy ko‘rsatkich va omillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa shakli tadqiqot uchun ko‘p sonli kuzatishlardan foydalanilgan holatdagina aniqlanadi. Bunda katta sonlar qonuniga muvofiq boshqa omillar ta‘siri silliqlashadi, neytrallashadi. Korrelyatsiya juft va ko‘plikda bo‘lishi mumkin.

Juft korrelyatsiya – ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi aloqa, ulardan biri omil, boshqasi natijaviy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ko‘plikdagi korrelyatsiya – bir necha omil va bitta natijaviy ko‘rsatkich o‘rtasidagi aloqa.

¹ Soatov N.M., Tillaxo‘jayeva G.N. Statistika. Darslik. TDIU. 2006 y. 350 b.

Korrelyatsion tahlil ikki vazifani hal qilishga yo‘naltirilgan:

- Bog‘liqlikning zichligini aniqlash;
- Omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta‘sirini miqdoriy baholash.

Hodisalar o‘rtasida bog‘liqlikning zichligi korrelyatsion munosabat bilan o‘lchanadi.

Korrelyatsion nisbatning turli qiymatlarida aloqalar uzviyligini sifat jihatidan baholash

Korrelyatsion nisbat miqdori	0,1-0,3	0,3-0,5	0,5-0,7	0,7-0,9	0,9-0,99
Aloqa uzviyligi	Kuchsiz	Sezilsiz	Sezilarli	Yuqori	Ancha yuqori

To‘g‘ri chiziqli bog‘lanishda korrelyatsion munosabat korrelyatsiya koeffitsiyenti deb ataladi va **r** harfi bilan belgilanadi. Korrelyatsion munosabat (korrelyatsiya koeffitsiyenti) 0 dan 1 gacha qiymat qabul qiladi:

Agar $r = 0$, u holda ko‘rsatkichlar o‘rtasida aloqa mavjud emas; u holda $r = 1$, u holda aloqa – funksional;

Agar $r =$ manfiy miqdor, u holda ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqa teskari.

2.7-jadval

Mahsulot tannarxi va material sarf-xarajatlar aloqasi uzviyligi

Sex	Mahsulot birligi tannarxi, so‘m X_1	Mahsulot birligiga material sarf-xarajatlar, so‘m X_2	X_1^2	X_2^2	$X_1^{2*} X_2^2$
1	254	56	64516	3136	14224
2	230	50	52900	2500	11500
3	241	54	58081	2916	13014
4	251	56	63001	3136	14056
5	264	60	69696	3600	15840
6	270	62	72900	3844	16740
n=6	$\sum X_1 = 1510$	$\sum X_2 = 338$	$\sum X_1^2 = 381094$	$\sum X_2^2 = 19132$	$\sum X_1 X_2 = 85374$

Ko'rsatkichlar uzviylik koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$r = \overline{X_1 X_2} - \overline{X_1} \cdot \overline{X_2} / \lambda X_1 \lambda X_2.$$

bu yerda, 1. $X_1 X_2 = \sum X_1 X_2 / n = 85374 / 6 = 14229$.

$$2. \overline{X_1} = \sum X_1 / n = 1510 / 6 = 251,667.$$

$$3. \overline{X_2} = \sum X_2 / n = 338 / 6 = 56,33.$$

$$4. \lambda X_1 = \sqrt{\sum X_1^2 / n - \overline{X_1}^2} = \sqrt{381094 / 6 - 251,667^2} = 13,4.$$

$$5. \lambda X_2 = \sqrt{\sum X_2^2 / n - \overline{X_2}^2} = \sqrt{19132 / 6 - 56,33^2} = 4,0.$$

$$r = \overline{X_1 X_2} - \overline{X_1} \cdot \overline{X_2} / \lambda X_1 \lambda X_2 = (14229 - 251,667 \cdot 56,33) / 13,4 \cdot 4,0 = 0,98.$$

Hisoblash natijasi ko'rsatadiki, mahsulot birligining tannarxining o'zgarishi 98% moddiy xarajatlariga bog'liq, boshqa omillar ulushiga esa uning darajasi o'zgarishining 2%i to'g'ri keladi.

2.2.10. Integral usul va uning iqtisodiy tahlilda qo'llanishi

Mazkur usul zanjirli o'rin almashtirish usuliga xos kamchiliklarni chetlab o'tishga imkon beradi va omillar bo'yicha bo'linmas qoldiqni taqsimlash bo'yicha usullar qo'llanilishini talab qilmaydi, chunki unda omilli yuklamalar qayta taqsimlanishining logarifmik qonuniyati amal qiladi.

Integral usul omillar bo'yicha natijaviy ko'rsatkich og'ishlarini to'liq bo'linishiga erishish imkonini beradi va universal xarakterga ega.

Universal hisoblash vositalari mavjud bo'lmagan holatda integratsiyalash jarayonlarini bajarish natijasi hisoblanuvchi omillar ta'sirini hisoblash formulasini qo'llash, shuningdek, hisoblash uchun oldindan shakllantirilgan ishchi formulalardan foydalanish mumkin.

Multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash formulasi:

$$U = x^*y \quad \begin{aligned} \Delta U_x &= \Delta x^*y_0 + \Delta x^*\Delta y / 2 ; \\ \Delta U_y &= \Delta y^*x_0 + \Delta x^*\Delta y / 2 . \end{aligned}$$

$$U = x*y*z \quad \Delta U_x = 1/2\Delta x*(y_1*z_0 + y_0*z_1) + \Delta x*\Delta y*\Delta z / 3;$$

$$\Delta U_y = 1/2\Delta y*(x_1*z_0 + x_0*z_1) + \Delta x*\Delta y*\Delta z / 3;$$

$$\Delta U_z = 1/2\Delta z*(x_1*y_0 + x_0*y_1) + \Delta x*\Delta y*\Delta z / 3.$$

$$U = x*y*z*q \quad \Delta U_x = 1/6\Delta x*[3q_0*y_0*z_0 + y_1*q_0(z_1+\Delta z) + q_1*z_0(y_1+\Delta y) + z_1*y_0(q_1+\Delta q)] + \Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$$

$$\Delta U_y = 1/6\Delta y*[3q_0*x_0*z_0 + x_1*q_0(z_1+\Delta z) + q_1*z_0(x_1+\Delta x) + z_1*x_0(q_1+\Delta q)] + \Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$$

$$\Delta U_z = 1/6\Delta z*[3q_0*x_0*y_0 + x_0*q_1(y_1+\Delta y) + y_1*q_0(x_1+\Delta x) + x_1*y_0(q_1+\Delta q)] + \Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$$

$$\Delta U_q = 1/6\Delta q*[3z_0*x_0*y_0 + x_0*z_1(y_1+\Delta y) + y_1*z_0(x_1+\Delta x) + x_1*y_0(z_1+\Delta z)] + \Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4.$$

Demak, ko‘rib turganimizdek, integral usuli - biron bir ko‘rsatkichga omillar ta‘sirini aniqlashda qo‘llaniladi. Xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda voqelikni tashkil etuvchi omillar va ularga ta‘sir etuvchi sabablar o‘zgarib turadi. Tahlil jarayonida ularning bir-biri bilan bog‘liqlikda ekanligi e‘tiborga olinishi lozim. Iqtisodiy hodisalarni o‘rganish va ularga baho berishda ko‘rsatkichning o‘zgarishiga ikkita va undan ortiq omillarni ta‘sir etishini hisoblashda integral usuli ko‘proq qo‘llaniladi. Bu usulning mazmunini quyidagi misol orqali ko‘rib chiqamiz (2.8-jadval).

2.8-jadval

Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta‘sirining tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Belgi	Biznes reja	Haqiqat	Farqi (+;-)
1	Xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni, kishi	X	100	110	+10
2	Har bir xodimga to‘g‘ri keladigan ish kuni, kun	K	280	275	-5
3	Xodimlarning o‘rtacha bir kunlik mehnat unumdorligi, so‘m	Mu	17500	18100	+600
4	Mahsulot hajmi, ming so‘m	Mh	490000	547525	+57525

Jadval ma‘lumotlari asosida mahsulot hajmiga mehnat omillari ta‘sirini integral usuli yordamida aniqlaymiz.

$$M_x = X * K * M_y.$$

$$\Delta Mx_X = \frac{1}{2} \Delta X * (K_1 * My_0 + K_0 * My_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{10}{2} * \\ *(275 * 17500 + 280 * 18100) + \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = 49392,5.$$

$$\Delta Mx_K = \frac{1}{2} \Delta K * (X_1 * My_0 + X_0 * My_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{(-5)}{2} * \\ *(100 * 17500 + 110 * 18100) + \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = -9347,5.$$

$$\Delta Mx_{My} = \frac{1}{2} \Delta My * (X_1 * K_0 + X_0 * K_1) + \frac{1}{3} \Delta X * \Delta K * \Delta My = \frac{600}{2} * \\ *(110 * 280 + 100 * 275) + \frac{1}{3} * 10 * (-5) * 600 = 17480.$$

$$\Delta Mx = \Delta Mx_X + \Delta Mx_K + \Delta Mx_{My} = 49392,5 - 9347,5 + 17480 = 57525.$$

O'rganilayotgan korxonada xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha sonining 10 kishiga ortishi mahsulot hajmining 49392,5 ming so'mga o'sishiga olib kelgan. O'rtacha ish kunlarining rejaga nisbatan 5 kunga qisqarishi mahsulot hajmining 9347,5 ming so'mga qisqarishiga olib kelgan. Shunga qaramasdan, xodimlarning bir kunlik mehnat unumining 600 so'mga oshishi hisobiga mahsulot hajmi 17480 ming so'mga ko'paygan. Har uchala omil ta'sirida mahsulot hajmi 57525 ming so'mga oshganligini ijobiy baholash mumkin. Yo'qotilgan ish kunlari korxonada tomonidan foydalanilmagan ichki imkoniyat sifatida qaraladi.

Karrali va aralash modellarda omillar ta'sirini hisoblash formulasi:

$$U = x / y \quad \Delta U_x = \Delta x / \Delta y * \ln y_1 / y_0 \\ \Delta U_y = \Delta U - \Delta U_x$$

$$U = x / (y+z) \quad \Delta U_x = [\Delta x / (\Delta y + \Delta z)] * \ln (y_1 + z_1) / (y_0 + z_0) \\ \Delta U_y = [(\Delta U - \Delta U_x) / (\Delta y + \Delta z)] * \Delta y \\ \Delta U_z = [(\Delta U - \Delta U_x) / (\Delta y + \Delta z)] * \Delta z$$

Usulning muhim xususiyati shundaki, u omillar tizimi modeliga kiruvchi elementlar miqdori va ularning o'rtasidagi aloqa shaklidan qat'iy nazar turli vazifalarni yechish uchun umumiy yondashuvni yuzaga keltiradi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy tahlil metodlarini ta'riflang.
 2. Materialistik dialektikaning umumiy metodini batafsil tavsiflang. Uning asosiy elementlarini sanab bering.
 3. Umumiy ko'rinishdagi dialektik metod ta'riflaridan foydalangan holda iqtisodiy tahlil metodlarining asosiy xususiyatlarini sanab bering.
 4. Tahlil usullari va uslublarini tasniflash asosida qanday tamoyillar yotadi?
 5. Omilli tahlil deganda nima tushuniladi?
 6. Omillar qanday tasnifiy belgilar asosida guruhlanadi?
 7. Iqtisodiy tahlilda taqqoslash usuli qanday o'rin tutadi?
 8. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirishning asosiy usullarini sanab bering.
 9. Nisbiy miqdorlarning asosiy turlarini tavsiflang.
 10. O'rtacha miqdorning keng tarqalgan ko'rinishlarini ayting.
 11. Tipologik, tuzilmaviy va analitik guruhlash nimaga mo'ljallangan?
 12. Iqtisodiy tahlilda balans usuli nima maqsadda qo'llaniladi?
 13. Zanjirli o'rin almashtirish, mutlaq farqlar, nisbiy farqlar, integral usullari mohiyati, qo'llanish sohasi va ularda hisoblash jarayonlarini tavsiflang.
 14. Integral usul afzalliklarini tavsiflang.
1. Keltirilgan ma'lumotlar asosida mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni barcha mumkin bo'lgan usullarda hisoblang:

Ko'rsatkich	Bazis davr	Hisobot davri
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm.	4800	5920
Xodimlar soni	15	16
Bir ishchining ishlab chiqarishi, ming so'm.	320	370

2. Integral usulni qo'llagan holda mahsulot hajmiga ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ta'sirini tahlil qiling.

Ko'rsatkich	Shartli belgi	Bazis davr	Hisobot davri
Mahsulot hajmi, ming so'm.	V	42820	44575
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm.	AICHF	46005	46890
Fond qaytimi	Fq	?	?

3. Keltirilgan ma'lumotlar asosida mahsulot hajmiga ishchilarning bir soatlik mehnat unumdorligi, ish kunining o'rtacha davomiyligi, bir ishchi tomonidan ishlangan kunlarning o'rtacha soni va ishlovchilar tarkibida ishchilar salmog'i o'zgarishining ta'sirini tahlil qiling:

Ko'rsatkich	Shartli belgi	Hisobot yili uchun reja	Hisobot yili uchun haqiqatda
Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm.	V	848500	877780
Sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni	Xs	4657	4598
shu jumladan, ishchilar soni	Is	3394	3353
Yil davomida barcha ishchilar tomonidan ishlangan kunlar miqdori	Ik	818632,8	780913,7
Yil davomida barcha ishchilar tomonidan ishlangan soatlar miqdori	kishi-soat	6219196,7	6383698,5

4. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida xodimlar soni va mehnat unumdorligining mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirini indeks usulda hisoblang.

III bob. MAHSULOT(ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI

3.1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining mazmuni va vazifalari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – korxonalar faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Mahsulot sotish hajmi uning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, tannarx darajasi, foyda miqdori, rentabellik darajasi, korxonaning moliyaviy ahvoli, uning to‘lov qobiliyati va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar bog‘liq bo‘ladi.


Mahsulot ishlab chiqarish tahlilining maqsadi raqobatchilarga nisbatan mahsulot sotish hajmini oshirish yo‘llarini topish, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalangan holda bozordagi ulushni kengaytirish va buning natijasi sifatida – korxonada foydasini oshirish hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni kompleks maqsadli tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonaning raqobat pozitsiyasini va bozor konyunkturasi o‘zgaranda resurslar bilan o‘zgaruvchan manyovra qilish qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Mazkur umumiy vazifa quyidagi xususiy analitik vazifalarni hal qilish yo‘li bilan bajariladi:

- Mahsulot ishlab chiqarishning prognoz hajmi bajarilishi va dinamikasi o‘zgarishi ustidan tizimli nazorat;
- Hajm bo‘yicha bitimlar bajarilishini baholash, yetkazib berishlar maromiyligi, mahsulotlar butligi;
- Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga omillar ta‘sirini aniqlash;
- obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha korxonada faoliyatini baholash;
- Mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha aniqlangan zaxiralarni o‘zlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish hajmini o‘rganish ish faolligining muayyan diapazonida, ya‘ni relevant qator taqdim etuvchi min-max chegarasida

amalga oshiriladi. Tahlil nafaqat mutlaq min-max chegarasida, balki oʻzgarmas doimiy xarajatlar chegarasida ham amalga oshirilishi mumkin. Relevant qator minimal mumkin, maksimal mumkin, optimal va haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini tashkil qiladi.



3.1-chizma. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlili obyektlari

Mahsulot ishlab chiqarishning minimal hajmi – mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitlari hamda mahsulot uchun narxlarda daromadlar va xarajatlar tengligiga erishiladigan hajm hisoblanadi.

Maksimal hajm ishlab chiqarish omillarining maksimal yuklamasini taʼminlaydi.

Optimal sifatida shunday ishlab chiqarish hajmi eʼtirof etiladiki, bunda mavjud ishlab chiqarish shart-sharoitida muayyan narx diapazonida maksimal foyda olish taʼminlanadi. Optimallashtirish

vazifasi amaliydan ko‘ra ko‘proq nazariy sanalsa-da, biroq mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda bilish zarur bo‘lgan mo‘ljallanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlili uchun **axborot manbalari** sifatida tashkilotlar biznes-rejasi, operativ reja-grafiklar, 1-S shakli (yillik) - “Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to‘g‘risida”, 1-S shakliga ilova - “Sanoat korxonalarining 2017 yilda mahsulot yetkazib berish va moddiy resurslarni olishga shartnomalar tuzishining borishi yuzasidan so‘rov”, 1-korxonalar shakli - “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”, 2-shakl - “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”, Tayyor mahsulot harakati haqida ma‘lumotnoma va birlamchi hisobga olishning ayrim ma‘lumotlari hamda mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalardan foydalaniladi.

3.2. Ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasi tahlili

Korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot natural, shartli-natural va qiymat ko‘rsatkichlari yordamida o‘lchanadi.

Natural ko‘rsatkichlar tahlil uchun qulay va korxonalar tomonidan bajarilgan ishlar hajmini nisbatan aniq tavsiflaydi. Lekin natural ko‘rsatkichlar qo‘llanilishi chegaralangan, chunki aksariyat korxonalar bir emas, balki bir necha turdagi mahsulotlar tayyorlaydi, bu esa turli mahsulotlarni jamlashni istisno etadi. Natural ko‘rsatkichlarni qo‘llash cheklanganligi shartli-natural ko‘rsatkichlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Masalan, yigirish ishlab chiqarishida mahsulotlar hisobi kilonomerlarda, to‘qimachilik ishlab chiqarishida – hisob kalavada olib boriladi va hokazo.

Tahlilda qiymat ko‘rsatkichlardan yalpi va tovar mahsulotlari ko‘proq qo‘llaniladi, ular mahsulot ishlab chiqarish hajmining bajarilish darajasini tavsiflaydi.

Yalpi mahsulot tarkibiga asosiy va qo‘shimcha sexlar tomonidan ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar, o‘zlari ishlab chiqargan yarimfabrikatlar, tashqariga chiqarilgan sanoat xarakteridagi ish va xizmatlar, o‘z asbob-uskunalarini kapital ta‘mirlash, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o‘zgarishi, maxsus mo‘ljallangan instrumentlar va o‘z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar kiritiladi. Yalpi mahsulotdan farqli o‘laroq, tovar mahsulotlar tarkibiga buyurtmachilar xomashyosi qiymati va tugallanmagan ishlab chiqarish

qoldiqlari o‘zgarishi, o‘z ishlab chiqarishidagi yarimfabrikatlar va instrumentlar kiritilmaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari o‘shishi yoki kamayishi faqatgina korxonalar qatorida va ishlab chiqarishning uzoq tsikli bilan hisobga olinadi.

Tahlil mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o‘rganish, bazis va zanjirli o‘shish sur‘ati hamda ko‘payishni hisoblash bilan boshlanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda ifodalanishi lozim, uning asosi sifatida esa bazis davr narxlari qabul qilinadi. Masalan, i-davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmini bazis davr narxida aniqlash uchun uning miqdorini n oldingi davrlar uchun narxlar indeksi ko‘paytmasiga bo‘lish lozim:

$$215000:1,30=165384;$$

$$220000 : (1,35*1,30)=125356 \text{ va hokazo.}$$

O‘shishning bazis sur‘ati har bir keyingi darajani dinamik qatorning birinchi yiliga nisbati bilan, zanjirli sur‘ati – oldingi yilga nisbati bilan aniqlanadi.

3.1- jadval

Ishlab chiqarish dinamikasi tahlili

Yil	Joriy narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	Narx indeksi	Bazis yildagi narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	Ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, %	
				bazis	zanjirli
2011	200 000	1,0	200 000	100	100
2012	215 000	1,30	165384	82,7	82,7
2013	220 000	1,35	125356	62,6	75,8
2014	339150	1,20	209352	104,6	167,0
2015	336006	1,10	254550	127,3	127,6

3.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dastlabki ikki yil mahsulot ishlab chiqarishja inqiroz sodir bo‘lgan, keyingi yillarda esa biroz o‘shish qayd qilingan. Yakunda 4 yilda ishlab chiqarish hajmi 27,3 % ga o‘sgan.

Keyingi tahlillarda o‘rtacha geometrik yoki o‘rtacha arifmetik tortilgan bo‘yicha aniqlanadigan mahsulot o‘shishining o‘rtacha yillik sur‘ati aniqlanadi.

Uning o‘rtacha geometrigini hisoblaymiz:

$$T = \sqrt[n-1]{T_1 * T_2 * T_3 * T_4 * T_5} = \sqrt[4]{1,0 * 0,827 * 0,758 * 1,670 * 1,276} = \\ = \sqrt[4]{1,335} = 1,074 = 107,4\%.$$

Demak, mahsulot ishlab chiqarish o‘rishining o‘rtacha yillik sur‘ati 7,4% ni tashkil qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini o‘rgangandan so‘ng 1-S shakli (yillik) - “Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to‘g‘risida” hisobot shakli ma‘lumotlari bo‘yicha taqqoslama narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi bajarilishini baholash zarur. Ushbu hisobot shaklida mahsulot (ish, xizmat) hajmi quyidagicha aks ettiriladi:

- a) taqqoslama ulgurji narxlarda;
- b) hisobot davrining amaldagi narxlarida.

Taqqoslama narxlar mahsulot ishlab chiqarish o‘rishi sur‘ati va reja bajarilishini aniqlash uchun zarur.

3.2-jadval ko‘rsatkichlari korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejasini uddalaganligidan darak beradi. mahsulot (ish, xizmat) hajmi reja taqqoslama narxlarda 34162 ming so‘mga yoki 15,50% ga ortig‘i bilan bajarilgan, oldingi yilga nisbatan o‘rish 45198 ming so‘m yoki 21,59% ga teng. Mavjud narxlarda mahsulot o‘rishi 18,82 % ni tashkil qiladi.

3.2-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili		Og‘ish			
		reja	haq.	rejaning		o‘tgan yildan	
				summa, ming so‘m	% da	summa, ming so‘m	% da
A	1	2	3	4	5	6	7
Korxonaning ulgurji narxlarida mahsulot (ish, xizmat) hajmi:							
- taqqoslama narxlarda	209352	220388	254550	+34162	+15,50	+45198	+21,59
- hisobot yilining amaldagi narxlarida	229243	237940	272389	+34448	+14,48	+43146	+18,82

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymat va natural ko‘rsatkichlari o‘rish sur‘atlarini taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi variantlar ehtimol tutiladi:

– qiymat ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘ati natural ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o‘zgarishi asosan narx o‘shishi bilan shartlangan;

– natural ko‘rsatkichlar o‘shish sur‘ati qiymat ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori – mahsulot hajmining o‘zgarishi mahsulotning jismoniy hajmi o‘shishi bilan vujudga kelgan.

3.3. Strukturaviy o‘zgarishlarning mahsulot hajmiga ta’siri tahlili

Mahsulot strukturasi - ayrim mahsulot turlarining jami ishlab chiqarishda tutgan ulushidir.

Mahsulot ishlab chiqarish strukturasi o‘zgarishi barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar: qiymat bahosida ishlab chiqarish hajmi, material sig‘imi, tovar mahsulot tannarxi, foyda, rentabellikka ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Agar qimmatroq mahsulotning ulushi ortsa, u holda uni ishlab chiqarish hajmi qiymat ifodasida o‘sadi va aksincha. Yuqori rentabelli mahsulotning ulushi oshganda va mos ravishda past rentabelli mahsulot ulushi kamayganda ham foyda miqdorida xuddi shunday holat sodir bo‘ladi.

Struktura o‘zgarishining asosiy sabablari:

- har xil kategoriyadagi iste‘molchilarning mahsulotga bo‘lgan talabining o‘zgarishi;

- korxonani uskuna va moddiy resurslar bilan yetarli ta‘minlanmagani;

- zarur malakali mutaxassislarning yetishmasligi;

- korxonaning kam mehnat sig‘imli, yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko‘proq ishlab chiqarishga intilishi.

Ishlab chiqarish strukturasi sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar darajasiga ta’sirini hisoblashni zanjirli o‘rin almashtirish usulida amalga oshirish mumkin bo‘lib, u mahsulot strukturasi tashqari barcha omillarni mavhumlashtirishga imkon beradi:

$$V_{\text{haq}} = \sum Q_{\text{haq}} * D_{i \text{ haq}} * P_{i \text{ reja}} = 35755 \text{ mln so‘m.}$$

$$V_{\text{shartli}} = \sum Q_{\text{haq}} * D_{i \text{ reja}} * P_{i \text{ reja}} = 36656,4 \text{ mln so‘m.}$$

$$\Delta V_{\text{str.o‘zg.}} = V_{\text{haq}} - V_{\text{shartli}} = 67000 - 61750 = -901,41 \text{ mln so‘m.}$$

Bu yerda,

V_{haq} – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi;

$V_{shartli}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi reja strukturada;

$\sum Q_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot natural miqdori;

$D_{i haq}$, $D_{i reja}$ – i- turdagi mahsulotning strukturasi haqiqatda va rejada;

$P_{i reja}$ – i- turdagi mahsulotning rejadagi bahosi.

3.3-jadval

Tovar mahsuloti strukturasi tahlili

Mahsulot	Mahsulot birligining ulgurji narxi, so‘m	Mahsulot i/ch hajmi, dona		Mahsulot strukturasi		Reja narxida mahsulot i/ch, mln so‘m			Strukturaviy o‘zgarish-larning mahsulot hajmiga ta’siri, ming so‘m
		reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqiy mahsulot reja strukturada	haqiqatda	
Kaptiva	85000	100	95	12,82	11,88	8500	8717,95	8075	-642,95
Epika	70000	120	110	15,38	13,75	8400	8615,38	7700	-915,38
Lasetti	48000	140	145	17,95	18,13	6720	6892,31	6960	67,69
Neksiya	32000	200	220	25,64	27,50	6400	6564,10	7040	475,90
Damas	26000	220	230	28,21	28,75	5720	5866,67	5980	113,33
jami		780	800	100	100	35740	36656,41	35755	-901,41

$$V_{shartli(Kaptiva)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 12,82 * 85000 = 8717,95 \text{ mln so‘m.}$$

$$V_{shartli(Epika)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 15,38 * 70000 = 8615,38 \text{ mln so‘m.}$$

$$V_{shartli(Lasetti)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 17,95 * 48000 = 6892,31 \text{ mln so‘m.}$$

$$V_{shartli(Neksiya)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 25,64 * 32000 = 6564,10 \text{ mln so‘m.}$$

$$V_{shartli(Damas)} = \sum Q_{haq} * D_{i reja} * P_{i reja} = 800 * 28,21 * 26000 = 5866,67 \text{ mln so‘m.}$$

3.3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, agar ishlab chiqarish hajmi barcha turdagi mahsulotlar bo'yicha rejalashtirilgan struktura bo'yicha bo'lganda, umumiy mahsulot hajmi reja narxida 36656,41 mln so'mni tashkil qilar edi.

Haqiqatdagi strukturada u 901,41 mln so'mga kam. Bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmida nisbatan arzon mahsulotlar ulushi ortganligidan darak beradi.

3.4. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti tahlili

Umumiy mahsulot hajmi bo'yicha reja bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi mumkin. Lekin bu hali ishlab chiqarish rejasi barcha mahsulotlar, ya'ni mahsulotlar assortimenti bo'yicha bajarilganligini anglatmaydi. Mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi yoki ortig'i bilan bajarilishi bir mahsulotni rejadan tashqari ishlab chiqarish va ayni vaqtda boshqa mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarmaslik natijasi ham bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot sharoitida reja bajarilishi tahlili yuqori turuvchi organlar orqali davlat tomonidan korxonalar faoliyati ustidan nazorat shakli hisoblangan. Hozirgi vaqtda, ya'ni tovarlar yetkazib berish, davlat buyurtmasi, bozor konyunkturasini o'rganish, asosida korxonada mustaqil ravishda reja ishlab chiqayotgan bir paytda reja bajarilishi tahlili quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- shartnoma majburiyatlarining bajarilish darajasi;
- rejalashtirish sifati;
- menejment sifati.

Ayni vaqtda umumiy hajmda va assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar bilan ta'minlash, uskunalarni jihozlash, shtat jadvalini tuzish va boshqa rejalar tuzish uchun boshlang'ich baza hisoblanadi.

Yo'riqnoma va amaliyotda ko'pincha aralash qo'llaniladigan nomenklatura hamda assortiment tushunchalarini farqlash talab qilinadi.

Nomenklatura – bu mahsulotlar nomlari va ularning mutanosib turlari uchun belgilangan kodlar ro'yxatidir.

Assortiment – har bir tur bo'yicha ishlab chiqarish hajmi ko'rsatilgan holda mahsulot nomlari ro'yxatidir.

U to‘liq, guruhli va guruh ichida bo‘lishi mumkin.

To‘liq assortiment – tayyorlanadigan mahsulotlarning barcha turlari va ko‘rinishlarining tugal ro‘yxati; guruhli assortiment turdosh guruhdagi mahsulotlarni birlashtiradi. Guruhga kiruvchi mahsulotlar uning guruh ichidagi assortimentini tashkil qiladi.

Assortiment va mahsulot ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishda korxonada, bir tomondan, mazkur mahsulot turiga talabni, boshqa tomondan – mehnat, xomashyo, texnik, texnologik, moliyaviy va tasarrufida mavjud boshqa resurslardan samaraliroq foydalanishni hisobga olishi lozim. Assortimentni shakllantirish tizimi quyidagilarni tashkil qiladi:

- xaridorlarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash;
- ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini baholash;
- mahsulotning hayot tsiklini o‘rganish, yangi, yanada mukammal mahsulot turlarini joriy qilish va ishlab chiqarish dasturlaridan ma‘naviy eskirgan hamda iqtisodiy samarasiz mahsulotlarni chiqarib tashlash bo‘yicha o‘z vaqtida chora-tadbirlar qo‘llash;
- mahsulotlar assortimentida o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi va risk darajasini baholash.

3.4.-jadval

Assortiment bo‘yicha reja bajarilishi tahlili

Mahsulot nomi	Mahsulot birligining ulgurji narxi, so‘m	Naturada ishlab chiqarish, dona		Qiymat ifodasida ishlab chiqarish, ming so‘m		Assortiment hisobida ishlab chiqarish
		reja	haq.	reja	haq.	
1	2	3	4	5	6	7
A	7779	4255	4630	33100	36019	33100
B	14251	1486	1701	21175	24240	21175
V	2282	4735	4045	10806	9230	9230
G	14826	6451	5760	95641	85400	85400
D	23348	1195	1550	27900	36190	27900
E	x	x	x	31766	63471	31766
Jami	x	x	x	220388	254550	208571

Mahsulotlar assortimenti bo‘yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash odatda ayni nomli koeffitsiyent yordamida hisoblanib, u assortiment bo‘yicha ishlab chiqarish rejasining

bajarilishiga kiritilgan umumiy haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarishni uning umumiy rejaviy ishlab chiqarishga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi (rejadan tashqari tayyorlangan mahsulot assortiment bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishida hisobga olinmaydi).

$$\text{Assortiment bo'yicha reja bajarilishining o'rtacha foizi } 94,6\% \\ \frac{(208571 * 100)}{220388}$$

Assortiment bo'yicha reja bajarilmasligining sabablari:

Tashqi: bozor konyunkturasi, mahsulotlarning alohida turlariga talab o'zgarishi, moddiy-texnik ta'minot holati, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirmaslik.

Ichki: ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi kamchiliklar, asbob-uskunalarining texnik holati yomonligi, uning turib qolishi, avariya, elektr energiyasi etishmasligi, ishlab chiqarish madaniyati pastligi va boshqalar. Assortiment bo'yicha reja bajarilishini aniqlashning boshqa usullari ham mavjud. *Eng kam foiz usuli* sodda usullardan biri sanaladi. Mazkur usul qo'llanilganda haqiqatdagi miqdor rejalashtirilgan kam bo'lgan majburiy assortimentlar pozitsiyalari bo'yicha rejaning bajarilish foizi aniqlanadi. Olingan foizlarning eng kichigi assortiment bo'yicha reja bajarilishining jamlanma ko'rsatkichi sifatida qabul qilinadi, lekin u 100% dan ziyod bo'lmasligi lozim.

3.5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

Korxonada faoliyati maromiyligi deganda sexlar tomonidan ishlab chiqarishning sutkalik yoki oylik grafiklariga qat'iy rioya qilingan holda detallar, yarimfabrikatlar va mahsulotlarni bir maromda ishlab chiqarish tushuniladi.

Bir maromda ishlab chiqarish mahsulotlarni bir xil miqdorda ishlab chiqarilishi degani emas. Reja grafigi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari tizimli tarzida oshib borishini nazarda tutadi. Oy davomidagi o'sish sur'ati grafikka mutanosib bo'lishi lozim.

Bunda korxonaning dispetcherlik xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri tashkil etilgan dispetcherlik xizmati istalgan vaqtda quyidagi savollarga mukammal javob bera olishi talab qilinadi: u yoki bu detallarning qanday miqdori qayta ishlashning u yoki bu bosqichida turibdi, materiallar zaxirasi holati qanday, qanday dastgohlar qanday

rejimda ishlamoqda, tanavorlar yetkazib beruvchi hamkorlar qanday ishlamoqda, qancha detalni tuzatish talab qilinadi va hokazo. Dispatcherlik xizmati materiallari bo'yicha shoshilinch tartibda mahsulot ishlab chiqarish grafigi bajarilishini ta'minlovchi choralar qo'llanilishi lozim. Faqat shu holatdagina korxonalar maromiy ishlashi mumkin.

Biroq ishlab chiqarishning ayrim uchastkalarida smena grafigidan ortda qolish holatlari tez-tez uchraydi. Ular, odatda, tuzatiladigan va batamom yaroqsiz mahsulot paydo bo'lishi, avariya tufayli uskunalarining ko'zda tutilmagan to'xtab qolishi, buzilish va tuzatishlar, maxsus instrumentlar mavjud emasligi, tugallanmagan ishlab chiqarish but emasligi, ish o'rinlariga materiallarni o'z vaqtida yetkazib bermaslik, ishlab chiqarishning qandaydir bosqichida texnologik jarayon buzilishi va boshqalar bilan bog'liq bo'ladi.

Hatto bir uchastkada mahsulot ishlab chiqarish smena grafigi bajarilmasligi boshqa uchastkalardagi normal ishlab chiqarish ritmi buzilishiga olib kelishi va bu bilan ish vaqti hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli darajada foydalana olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Demak, nomaromiy faoliyat barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni yomonlashtiradi: mahsulot sifati pasayadi; tugallanmagan ishlab chiqarish va omborlarda tayyor mahsulotlarning rejadan tashqari qoldiqlari hajmi ortadi, buning oqibati o'laroq kapital aylanishi sekinlashadi; shartnoma bo'yicha yetkazib berishlar bajarilmaydi va korxonalar mahsulotlarni o'z vaqtida jo'natmaganligi uchun jarima to'laydi; tushum o'z vaqtida kelib tushmaydi, shuning uchun pul oqimida ham tanqislik yuzaga keladi. Korxonalar faoliyati maromiyligi oy ichida kunlar yoki dekada bo'yicha, bo'linmalar bilan birga olinganda oylar va choraklar bo'yicha oylik (choraklik) mahsulot ishlab chiqarishga foizlarda aniqlanadi. Birinchi dekadadagi mahsulotlarning o'tgan oyning uchinchi dekadasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga nisbati ham maromiylik ko'rsatkichi hisoblanadi. Yil davomida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tavsiflash uchun oylar bo'yicha, bo'linmalar bilan birga olinganda dekadalar bo'yicha dinamik qatorlar tuzish maqsadga muvofiq.

Maromiylik bo'yicha reja bajarilishini baholash uchun **bevosita** va **bilvosita** ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Bevosita ko'rsatkichlar – maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, dekada, oy, chorak uchun mahsulot ishlab chiqarishning yillik ishlab chiqarish hajmidagi ulushi.

Maromiylikning bilvosita ko'rsatkichlari – ish vaqtidan tashqari ishlar uchun qo'shimcha to'lov mavjudligi, korxonada aybigo ko'ra turib qolishlar to'lovi, yaroqsiz mahsulot tufayli yo'qotishlar, mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermaslik va jo'natmaganlik uchun jarimalar to'lash va b.

Maromiylik koeffitsiyenti maromiylik hisobida qabul qilingan mahsulotlarni reja hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

3.5-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili (dekabr oyi uchun)

Dekadalar	Hisobot yili		Maromiylik hisobida qabul qilinadi	Salmog'i, %	
	reja	haq.		reja	haq.
I-dekada	6165	5728	5728	30	27
II-dekada	70897	7425,3	7089,7	34,5	35
III-dekada	7295,3	8061,7	7295,3	35,5	38
Jami	20550	21215	20113	100	100

$$\text{Maromiylik koeffitsiyenti} = 20113/20550 = 0,978$$

Korxonada tomonidan dekabr oyi uchun mahsulot ishlab chiqarish rejasini ortig'i bilan bajarilgan. Biroq u dekabr oyi mobaynida bir maromda ishlamagan, buni dekadalar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Masalan, I dekadada oylik ishlab chiqarishning 27% i (rejada 30%) ishlab chiqarilgan, uchinchi dekadada ishlab chiqarish sur'ati oshirilib, mahsulot ishlab chiqarish 38 % ni tashkil qilgan, reja bo'yicha esa 35,5% bajarilishi lozim edi.

Variatsiya koeffitsiyenti (Kv) sutka (dekada, oy, chorak) uchun reja topshirig'idan o'rtacha kvadratik og'ishning o'rtacha sutkalik (o'rtacha dekadalik, o'rtacha oylik, o'rtacha choraklik) rejaviy mahsulot ishlab chiqarishga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$Kv = \frac{\sqrt{\sum (x - \bar{x})^2 / n}}{\bar{X}_{ni}} = \frac{\sqrt{[(27 - 30)^2 + (35 - 34,5)^2 + (38 - 35,5)^2] / 3}}{33,3} = \frac{\sqrt{5,41}}{33,3} = 0,069.$$

$$\bar{X}_{ni} = \frac{100}{3} = 33,3.$$

Nomaromiylik – bu mahsulot sotish qiyinchiliklari, tashkilotchilik, texnologiyalar va ishlab chiqarish moddiy-texnik ta’minotining past darajasi. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlilida turli dekadalarda ish kunlari sonini hisobga olish talab qilinadi, chunki bunga alohida dekadalar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishning ulushi bog‘liq bo‘ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili uchun asosan operativ-texnik hisob, dekada ma’lumotlari, davriy hisobot ma’lumotlaridan foydalaniladi.

3.6. Mahsulot sotishning mohiyati, vazifalari va tahlil manbalari

Korxonada faoliyatining asosiy natijaviy ko‘rsatkichi sotilgan mahsulot hajmi hisoblanadi.

Sotilgan mahsulot uchun yetkazib beruvchi korxonada qilingan xarajatlarni qoplash va xo‘jalik faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini oladi. Mahsulot sotishda foyda olinib, uning bir qismi korxonada qoladi va uning kapital qo‘yilmalari, aylanma mablag‘larni to‘ldirish, rag‘batlantirish jamg‘armalarini shakllantirish va boshqalarga yo‘naltiriladi, bir qismi esa davlat byudjetiga kiritiladi.

Sotish hajmi ishlab chiqarish majmuasi sifatida korxonada faoliyatining yakuniy natijasi bo‘lganligi uchun tushum tahlili butun korxonada bo‘yicha ham, uning tuzilmaviy bo‘linmalari yoki mahsulotlar turlari kesimida ham, shuningdek, uning ixtisoslashtirilgan xo‘jalik birliklari bo‘yicha, yetakchi mustaqil ishlab chiqarish faoliyati (sexlar, filiallar) bo‘yicha amalga oshiriladi. Albatta, bunday tahlil butun korxonaning moliyaviy oqimlarida muayyan bo‘linma tushumini ajratish mumkin bo‘lgan, shuningdek, agar ushbu tushum miqdori umuman korxonada uchun jiddiy bo‘lganda ma’noga ega bo‘ladi. mahsulot ishlab chiqarish tahlilida bo‘lgani kabi tushum tahlilda ham analitik xizmatlar va chiziqli bo‘linmalar xodimlarining sezilarli darajada vaqt sarflashi talab qilinadi. Shuning uchun korxonada va uning alohida bo‘linmalari istiqbolini aniqlash uchun qanday foydali axborot berishiga qarab uni o‘zini oqlagan deb hisoblash mumkin.

Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq belgilanadi.

Mazkur ko‘rsatkichning moliyaviy hisobotga kiritilishi shu bilan izohlanadiki, kiritilayotgan o‘zgarishlar maqsadlaridan biri moliyaviy hisobot analitikligini oshirish hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur ko‘rsatkich korxonalar o‘z tasarrufidagi mahsulotni sotishdan olingan daromadni tavsiflaydi. U foyda ko‘rsatkichlarining barcha keyingi hisoblashlari uchun baza hisoblanadi. Bu esa korxonalar hisobotida “Sotishdan sof tushumlar” ko‘rsatkichi paydo bo‘lishiga olib keldi.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq mahsulotni sotishdan olingan tushumlar uning bank muassasalari hisobiga tovarlar uchun to‘lovi yoki tovarlar jo‘natish va xaridorga hisob-kitob hujjatlarini ko‘rsatishiga asosan aniqlanadi. Umumqabul qilingan atamashunoslikka muvofiq, tushumni uning to‘lovi asosida aks ettirish **kassa usuli**, tushumni uning jo‘natilishi asosida aks ettirish esa **hisoblash usuli**, deb yuritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga tushumni jo‘natish bo‘yicha sotish asosida aks ettirish usuli ko‘proq mos keladi. Aynan ushbu usul bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarda qabul qilingan standart hisoblanadi. Biroq shuni ham hisobga olish zarurki, tushumni jo‘natish bo‘yicha sotish asosida aks ettirish (hisoblash usuli) usulida korxonalar ushbu sotilgan mahsulotlar bo‘yicha ulardan daromadlar ro‘yxatga olingan hisobot davrida shubhali debitorlik qarzlarning bir qismini hisobdan chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Korxonaning boshqa tashkilot va korxonalar bilan, shuningdek, alohida shaxslar bilan hisoblashlari bo‘yicha shubhali qarzlarning miqdori zaxiralanadi hamda foyda va zararlar hisobiga kiritiladi.

Belgilangan muddatda (agar belgilangan muddat bo‘lmasa, buning uchun me‘yoriy zarur vaqt davomida) qaytarilmagan va mutanosib kafolatlar bilan ta‘minlanmagan korxonaning debitorlik qarzi shubhali, deb e‘tirof etiladi.

Shubhali qarzlarning bo‘yicha zaxiralar yil oxirida amalga oshirilgan korxonaning debitorlik qarzi inventarizatsiyasi natijalari asosida tashkil qilinadi. Zaxira miqdori qarzdorning moliyaviy ahvoli (to‘lov qobiliyati) va qarzni to‘liq yoki bir qismini qaytarish ehtimolini baholashga bog‘liq ravishda har bir shubhali qarz bo‘yicha alohida belgilanadi.

Agar shubhali qarzlarning bo‘yicha zaxira tashkil qilingandan keyingi yil oxirigacha ushbu zaxiraning qandaydir qismi foydalanilmagan bo‘lsa, u holda sarflanmagan summa mutanosib yilning foydasiga qo‘shiladi. Bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarda shubhali debitorlik qarzlarni

hisobdan chiqarish oxirgi 3-5 yil uchun sotilgan mahsulot hajmiga foiz nisbatidan kelib chiqqan holda potensial shubhali qarzlarni hisoblash asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu mutanosiblik tamoyilidan chetga chiqmaslikka imkon berib, unga muvofiq mazkur hisobot davrida daromad olinishini ta'minlagan xarajatlar aks ettiriladi.

Hisoblash usuli o'ziga xos afzalliklarga ega chunki u:

- a) bozor iqtisodiyoti talablariga ko'p jihatdan mos keladi;
- b) Hozirgi vaqtda O'zbekistonda mavjud daromad va xarajatlarni aks ettirish nomutanosibligini bartaraf etadi: aksariyat hollarda daromadlar kassa usulida, xarajatlar esa hisoblash usulida aks ettiriladi;
- c) xalqaro standartlarga mos keladi va potensial investorlar uchun yagona qoniqarli hisoblanadi;
- d) aksariyat hollarda korxonalar moliyaviy ahvoli o'zgarishiga olib kelmaydi, chunki ko'pincha ular mahsulotlarni oldindan to'lov shartlariga ko'ra sotadi.

Tahlilning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- rejaning bajarilish darajasini va mahsulotlar sotish dinamikasini baholash;
- turli omillarning ushbu ko'rsatkichlar miqdori o'zgarishiga ta'sirini aniqlash;
- mahsulot sotishni oshirishning ichki xo'jalik zaxiralarini aniqlash;
- aniqlangan zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

3.7. Mahsulotni sotishdan tushumni shakllantirish omillari

Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum tashkilotning ishlab chiqarish tsikli yakunlanganligi, ishlab chiqarishga bo'naklangan tashkilot mablag'larining pul shaklida qaytganligi va barcha mablag'larning yangi tsikli boshlanganligini tavsiflaydi. Mahsulot sotish hajmidagi o'zgarishlar tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sotishdan tushumlar o'zgarishi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

- sotish hajmi o'zgarishi;
- sotilgan mahsulotning chiqarish narxi o'zgarishi;
- sotish tarkibi o'zgarishi.

Sotishdan tushumlarning umumiy o'zgarishi quyidagi tarzda omilli og'ishlar miqdori ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\Delta T = T_1 - T_0 = \Delta T_q + \Delta T_p + \Delta T_c.$$

Bu yerda

T_1 – hisobot yilidagi tushum;

T_0 – bazis yildagi tushum;

ΔT_q – sotish hajmi o'zgarishi natijasida og'ish;

ΔT_c – sotish tarkibi o'zgarishi natijasida og'ish;

ΔT_p – sotilgan mahsulotning chiqarish narxi o'zgarishi natijasida og'ish.

Bunda tushumni (T) sotish narxining (r) sotish hajmiga (q) ko'paytmasi sifatida tasavvur qilamiz. Bunda bazis yildagi tushum quyidagiga teng bo'ladi:

$$T_0 = p_0 * q_0.$$

Joriy yildagi tushum esa:

$$T_1 = p_1 * q_1.$$

Bu yerda p_0, p_1 – bazis va joriy yildagi sotish narxi;

q_0, q_1 – bazis va joriy yildagi sotish hajmi.

Bundan kelib chiqqan holda sotish hajmi o'zgarishining (o'zgarmas narxlar holatida) tushum o'zgarishiga ta'sirini hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$\Delta T_{q_1} = p_0 * q_1 - p_0 * q_0 = p_0(q_1 - q_0) = p_0 * \Delta q.$$

Sotish narxi o'zgarishining (o'zgarmas hajmda) tushum o'zgarishiga ta'sirini hisoblash quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta T_{p_1} = p_1 * q_0 - p_0 * q_0 = q_0(p_1 - p_0) = q_0 * \Delta p.$$

Tahlil jarayonida sotish tarkibining o'zgarishi kabi omillar ta'siri ham aniqlanadi. Bunda alohida assortiment pozitsiyalarning bazis va tahlil davrida sotishning umumiy hajmidagi ulushi belgilanadi, keyin esa strukturaviy o'zgarishlarning umumiy sotish hajmiga ta'siri hisoblanadi. Sotilgan mahsulot assortimenti o'zgarishi natijasida olinmay qolgan tushum – salbiy, rejadan tashqari tushum ijobiy baholanadi.

Yanada batafsil tahlilda strukturaviy o'zgarishlarning yanada aniqroq bahosi talab qilinadi.


3.8. Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

Mahsulot sotish tahlili har oy, chorak, yarim yil va yil uchun o'tkaziladi. Bu jarayonda uning haqiqatdagi ma'lumotlari rejaviy, oldingi davrlar bilan taqqoslanadi, rejaning bajarilish foizi, rejadan mutlaq og'ish, tahlil davridagi o'sish sur'ati va ko'payish, ko'payishning bir foizi uchun mutlaq qiymat hisoblanadi.

Baholash jarayonida farq kuzatilgan assortiment pozitsiyalarini ajratish zarur:

- haqiqatda ishlab chiqarish hajmining reja bilan farqi, shu sababli mahsulot sotish hajmi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmagan;
- haqiqatda ishlab chiqarish hajmining rejalangan sotish hajmi bilan farqi, shu sababga ko'ra korxonada sotilmagan mahsulotlarning me'yoridan ortiqcha zaxiralari to'planib qolgan.

Analitik ishlarni amalga oshirish jarayonida ushbu vaziyatlarning tashkilot uchun oqibatlarini baholanadi. Birinchi holatda – bu shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarima sanksiyalari, ikkinchisida – mavjud me'yoridan ortiqcha zaxiralar bilan bog'liq xarajatlarning yuzaga kelishi: ombor xarajatlari, mulk solig'i oshishi, aylanma mablag'lar aylanuvchanligi sekinlashuvi, kapitalning zaxiralarda qotib qolishi va boshqalar.



3.1-chizma. Mahsulot sotish hajmining omilli tahlili sxemasi

Quyida ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari, ombordagi mahsulot qoldiqlarini sotish va dinamikasining qiyosiy tahlili tovar balansi doirasida amalga oshiriladi.

Mahsulot sotish tahlilining ikki variantini qo'llash mumkin. Agar tashkilot tushumi tovar mahsulotlar jo'natilishi bilan aniqlansa, u holda tovar mahsulotlar balansi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$O_{yb} + T = R + O_{yo}.$$

Bundan: $R = O_{yb} + T - O_{yo}$

Agar tushum jo'natilgan mahsulot to'lovi amalga oshirilgandan so'ng aniqlansa, u holda tovar balansini quyidagicha yozish mumkin:

$$O_{yb} + T + OT_{yb} = Z + OT_{yo} + O_{yo}.$$

$$R = O_{yb} + T + OT_{yb} - OT_{yo} - O_{yo}.$$

Bu yerda O_{yb} , O_{yo} – davr boshi va oxiri uchun omborlardagi tayyor mahsulot qoldig'i;

T – tovar mahsulotlar ishlab chiqarish;

R – hisobot davrida mahsulot sotish hajmi;

OT_{yb} , OT_{yo} – davr boshi va oxiri uchun xaridorlar tomonidan to'lanmagan jo'natilgan mahsulot qoldig'i.

Mazkur omillarning mahsulot sotish hajmiga ta'sirini hisoblash omilli ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini rejaviy bilan taqqoslash va ularning har biri uchun mutlaq hamda nisbiy o'sishlarni hisoblab chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.6-jadval

Mahsulot sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili (ming so'mda)

№	Ko'rsatkich	Shartli belgi	Hisobot yili		Rejadan og'ish	Sotish hajmiga ta'sir
			reja	haq.		
1	Yil boshida tayyor mahsulot qoldig'i	Q_{yb}	16166	25352	+9186	+9186
2	Tovar mahsulot ishlab chiqarish	T	268682	281126	+12444	+12444
3	Yil oxirida tayyor mahsulot qoldig'i	Q_{yo}	24394	26098	+1704	-1704
4	Mahsulot sotish (moddalar:1+2-3)	R	260454	280380	+19926	X

Bizning misolimizda mahsulot sotish rejasi 19926 ming soʻmga yoki 7,6% ziyod bajarilgan ($19926 * 100 : 260454$). Ulardan 9186 ming soʻm yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldiqlari ortishi ulushiga toʻgʻri keladi. Tovar mahsulotlarni rejadan tashqari ishlab chiqarish 12444 ming soʻmni tashkil qiladi va sotish ham xuddi shu miqdorga ortgan. Biroq tayyor mahsulot qoldiqlarining rejadan tashqari oʻsishi yil oxirida sotish hajmining 1704 ming soʻmga kamayishiga olib keldi.

3.7-jadval

Sotish hajmiga taʼsir qiluvchi omillar tahlili natijalarini umumlashtirish

№	Omillar	Summa, ming soʻm	Rejaga nisbatan foizda
1.	Yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldigʻining ortishi	+9186	+3,5
2.	Tovar mahsulotni rejadan tashqari ishlab chiqarish	+12444	+4,7
3.	Yil oxiri uchun tayyor mahsulot qoldigʻining ortishi	-1704	-0,6
Σ	Jami	+19926	+7,6

Hisoblashni tekshirish:

$+9186 + 12444 - 1704 = +19926$ ming soʻm;

$+3,5 + 4,7 - 0,6 = +7,6\%$.

Tahlil jarayonida omborlarda rejadan tashqari qoldiqlar vujudga kelishi, xaridorlar tomonidan mahsulotlar uchun oʻz vaqtida toʻlovlar amalga oshirilmasligining sabablarini aniqlash va mahsulot sotish hamda tushum olishni jadallashtirish boʻyicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

3.9. Mahsulotlar yetkazib berish boʻyicha shartnoma majburiyatlari tahlili

Yetkazib berish boʻyicha shartnoma majburiyatlari bajarilishini hisobga olgan holda sotish koʻrsatkichlarini amaliyotda qoʻllash juda muhim ahamiyatga ega, chunki korxonada rahbariyatining ishlab chiqarilayotgan mahsulotning natural-moddiy tarkibi va uning xaridorlar bilan shartnomalarda nazarda tutilgan talablarga mutanosibligiga eʼtiborini kuchaytiradi. Pul muomalasini tartibga solish uchun mahsulot sotishdan tushumlar miqdorini ham bilish lozim.

Mazkur ko'rsatkich bo'yicha reja bajarilishini baholashga o'tishdan avval umumiy miqdor va mahsulotlar assortimenti bo'yicha sotish rejasining yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari hamda tovar mahsulotlar ishlab chiqarish rejasi bilan muvofiqligini, shuningdek, rejaviy sotish hajmining xaridorlar bilan shartnomalar orqali ta'minlanganligini tekshirish zarur. Amaliyotda shartnomalarning umumiy summasi sotish rejasidan kam bo'lgan, ya'ni rejalashtirilayotgan sotish ta'minlanmagan holat uchrab turadi. Mahsulotlarning rejalashtirilgan natural-moddiy tarkibi bilan shartnomalar va ularga ilova qilingan spetsifikatsiyalarda qayd qilingan xaridorlar buyurtmalari o'rtasida tafovut undan ham ko'proq kuzatiladi.

Bundan tashqari, yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari sotishini rejalashtirishda taxminan hisoblanadi, chunki yil boshi uchun ushbu qoldiqlar haqida hisobot ma'lumotlari mavjud bo'lmaydi (kelgusi yil rejasi hisobot yili yakunlangunga qadar ishlab chiqiladi). Shu sababli mahsulotlarning rejaviy balansi real bo'lmasligi mumkin. Yil boshi uchun balans bo'yicha sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlarini aniqlash uchun ularning sotish hajmining rejaviy hisoblashlari uchun qabul qilingan miqdori bilan taqqoslanadi. Tekshirish natijalari bo'yicha zaruratga ko'ra sotishning rejalashtirilgan umumiy hajmiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Mahsulotning natural-moddiy tarkibi bo'yicha xaridorlar bilan shartnomalarga sotish rejasi mutanosibligiga oid yanada batafsil tahlil rejalashtirilgan ishlab chiqarish assortimenti va yil boshi va oxiri uchun sotilmay qolgan tayyor mahsulot qoldiqlari haqida ma'lumotlar jalb qilinishini taqozo etadi.

Sotish rejasi asoslanganligi va realligi tekshirilgandan so'ng uning bajarilishini baholashga o'tish talab qilinadi.

Mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilishi quydagi formula bo'yicha aniqlanadi (foizlarda):

$$Kn = (N^0 - Nn) : N^0 * 100\%.$$

Bu yerda Kn – shartnoma majburiyatlari rejasi bajarilishi foizi, %;
 N^0 – tuzilgan shartnomalar uchun rejaviy mahsulot hajmi, ming so'm;

Nn – shartnomalar bo'yicha yetkazib berilmagan mahsulot, ming so'm.

Shartnomalar bo'yicha rejaning bajarilmasligi korxonaga uchun tushum kamayishi, jarima sanksiyalari to'lashga olib keladi. Bundan tashqari, raqobat sharoitida korxonaga mahsulot sotish bozorini yo'qotishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish tanazzuliga sabab bo'ladi.

Shartnoma majburiyatlari bajarilishi tahlili alohida shartnomalar, mahsulot turlari, yetkazib berish muddatlari kesimida tashkil etilishi lozim.

3.8-jadval

Mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, ming so'm

Hisobot davri	Reja bo'yicha shartnomalar tuzish uchun mahsulot ishlab chiqarish		Shartnoma majburiyatlari bo'yicha yetkazib berilmagan mahsulot		Mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, %	
	hisobot oyi uchun	yil boshidan buyon	hisobot oyi uchun	yil boshidan buyon	hisobot oyi uchun	yil boshidan buyon
Yanvar	500	500	-	-	100	100
Fevral	520	1020			100	100
Mart	520	1540	15	40	97,1	97,4
va boshqalar						

3.9-jadval

Umuman korxonaga bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilishi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (ming so'mda)

№	Ko'rsatkich	Hisobot yili uchun reja	Hisobot yili uchun haqiqatda
1.	Taqqoslama narxlarda sotish	260454	280380
2.	Yetkazib berishlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi	X	20950
3.	Yetkazib berish bo'yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda mahsulot sotish hajmi	X	239504
4.	Sotish rejasining bajarilish foizi	X	91,9

Bizning misolimizda umumiy hajm bo'yicha mahsulot sotish rejasini 107,6% ga bajarilgan. Biroq mahsulot yetkazib berish bo'yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda reja 91,9% ($239504 * 100 : 260454$) ga bajarilib, yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligi 20950 ming so'mni tashkil qiladi.

Yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar hisobga olingan holda sotish hajmi 239504 ming so'm (260454 – 20950).

Yetkazib berishlar borishini tezkor tahlil qilish uchun axborot manbalari sifatida asosan operativ-texnik va statistik hisob ma'lumotlari, kuzatish materiallari xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobi ham axborot manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin, lekin kechikuvchi xarakteri bilan bog'liq ravishda ancha chegaralangan holda qo'llaniladi. Axborot texnologiyalarini qo'llash assortiment kesimida, shuningdek, yetkazib berishlar muddatlari bo'yicha har bir oluvchi bo'yicha jo'natmalar haqida tezkor axborot olishga imkon beradi.

3.10. Mahsulot sifati tahlili

Hozirgi sharoitda zamonaviy turdagi mahsulotlarni zaruriy miqdorda va yuqori sifatli ishlab chiqarish hal qiluvchi vazifalardan biri sanaladi.

Mahsulot sifati – mahsulot sotish o'sishiga imkon beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va korxonalar raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Mahsulot sifati – uning mo'ljallanganligiga muvofiq muayyan ehtiyojni qondirish uchun yaroqliligini shartlovchi mahsulotlar xususiyatlari majmuyidir.

Sanoatning turli tarmoqlari mahsulotlari o'ziga xos sifat parametrlariga ega. Mashinasozlik milliy iqtisodiyot uchun yangi texnikalar yaratish va amaldagi texnikalarni rekonstruksiya qilishda yetakchi tarmoq hisoblanadi. Engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida sifatni tavsiflovchi belgilar tovarlarning iste'mol xususiyatlarini oshirish, masalan, matolar asilligi, bo'yoq chidamliligi, mahsulotlar mustahkamligi, kaloriyalilik va boshqalar hisoblanadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish hajmi texnik taraqqiyot darajasini tavsiflaydi.

Tabiiyki, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning ilk davrida katta xarajatlarni talab qiladi, lekin bu loyiha quvvatlarini o'zlashtirish, kelgusida seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarish natijasida o'zini qoplaydi. Tobora mahsulot tannarxi kamayib, mos ravishda uning ulgurji narxlari ham pasayadi. Bu ham ishlab chiqaruvchilar, ham iste'molchilar uchun foydali hisoblanadi.

Mahsulotlarning sifatini tashkil etuvchi bir yoki bir nechta xususiyatlarining miqdoriy tavsifi **sifat ko'rsatkichi**, deb yuritiladi.

Mahsulotlar **sifat ko'rsatkichining umumiy, individual** va bilvosita ko'rsatkichlari mavjud. Sifat ko'rsatkichlari mahsulotlarning parametrik, iste'mol, texnologik dizayn xususiyatlarini, uning standartga muvofiqligi, ishonchliligi va chidamliligini tavsiflaydi.

Umumiy ko'rsatkichlar turi va mo'ljallanganligidan qat'iy nazar barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatini masalan, quyidagilarning ulushini tavsiflaydi:

- umumiy ishlab chiqarishda yangi mahsulotlar ulushi;
- sertifikatlangan va sertifikatlanmagan mahsulotlar ulushi;
- xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulotlar ulushi;
- eksport qilinayotgan, jumladan yuksak rivojlangan sanoat mamlakatlariga jo'natilayotgan mahsulotlar va boshqalar.

Mahsulot sifatining **individual (yagona) ko'rsatkichlari** uning xossaligidan birini tavsiflaydi:

- foydalilik (sut yog'liligi, ko'mirning yonuvchanligi, rudada temir miqdori, oziq-ovqat mahsulotlarida oqsil miqdori va boshqalar);
- ishonchlilik (chidamlilik, ishda buzilmasligi);
- konstruktorlik va texnologik qarorlar samaradorligini aks ettiruvchi texnologiklik (mehnat sig'imi, energiya sig'imi va hokazo);
- mahsulotlar estetikligi.

Bilvosita ko'rsatkichlar – bular sifatsiz mahsulotlar uchun jaramalar, yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va ulushi, reklama qilingan mahsulotlar ulushi, yaroqsizga chiqarishdan yo'qotishlar va boshqalar.

Mahsulot sifatini tahlil qilish asosida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- mahsulotlarning texnik darajasi baholanadi;
- bazaviy va nazariy mumkin bo'lgan darajaga nisbatan alohida mahsulotlar bo'yicha ushbu darajaning og'ishi aniqlanadi;
- tayyorlash va yetkazib berish sifatini tavsiflovchi parametrlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlil qilinadi;
- mahsulotlar texnik darajasini sekinlashtiruvchi omillar aniqlanadi;
- mahsulot sifatini oshirish, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish va yo'qotishlarni qisqartirish imkoniyatlari asoslanadi.

Mahsulot sifatini tahlil qilish uchun foydalaniladigan axborot tahlil qilinayotgan obyektning deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi (konstruksiyalar haqida ma'lumotlar, mehnat vositalari va predmetlarida qo'llaniladigan texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish va sotish natijalari, reklama haqida ma'lumotlar va boshqalar)

Axborot manbalari sifatida sinov hujjatlari, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning laboratoriya nazorati ma'lumotlari, texnik nazorat bo'limi (TNB) ma'lumotlari va boshqalar xizmat qiladi.

Mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishini umumlashtirma baholash uchun turli usullar, jumladan ball usuli qo'llaniladi. Baholashning ball usuli mohiyati shundan iboratki, mahsulot sifatining o'rtacha tortilgan bali aniqlanadi hamda uning haqiqatdagi va rejadagi darajasini taqqoslash yo'li bilan sifat bo'yicha reja bajarilishining foizi topiladi.

Sifat nav bilan tavsiflanadigan mahsulotlar bo'yicha har bir navning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi, o'rtacha navlilik koeffitsiyenti, taqqoslama shartlarda mahsulotning o'rtacha tortilgan narxi hisoblanadi. Birinchi ko'rsatkich bo'yicha reja bajarilishini baholashda mahsulotning umumiy hajmida har bir navning haqiqatdagi ulushi rejadagi bilan, sifat dinamikasini o'rganish uchun esa – o'tgan davrlar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. O'rtacha navlilik koeffitsiyenti barcha navdagi mahsulotlar qiymatining yuqori nav bahosi bo'yicha qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

3.10-jadvaldan ko'rinadiki, mahsulot ishlab chiqarish rejasi 98,8 % bajarilgan, yuqori navli mahsulot ishlab chiqarish 104,9 % , birinchi navli – 90,9 %. Biroq bu navlilik bo'yicha reja bajarilganligini tavsiflamaydi. O'rtacha navlilikning rejadagi va haqiqatdagi koeffitsiyentlarini, shuningdek, mahsulot birligining o'rtacha sotilgan bahosini aniqlash talab qilinadi.

3.10-jadval

Mahsulot (un mahsuloti) sifati tahlili

Nav	Birlik uchun ulgurji narx, so'm.	Naturada ishlab chiqarish, dona		Reja bajarilishi, %	Salmog'i, %		Qiymat ifodasida ishlab chiqarish, ming so'm	
		reja	haq.		reja	haq.	reja	haq.
Oliy	2500	1420	1490	104,9	56,35	59,84	3550	3725
Birinchi	2200	1100	1000	90,9	43,65	40,16	2420	2200
Jami	X	2520	2490	98,8	100	100	5970	5925

1. O‘rtacha navlilik koeffitsiyenti:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2500 * 2520} = 0,948 .$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2500 * 2490} = 0,952 .$$

2. Mahsulot birligining o‘rtacha sotilgan bahosi:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{5970 \text{ ming so'm}}{2520} = 2369,03 \text{ so'm} .$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{5925 \text{ ming so'm}}{2490} = 2379,5 \text{ so'm} .$$

Sifat ortishi hisobiga o‘rtacha narx 10,47 so‘mga oshgan. (2379,5 – 2369,04).

Sifatning mahsulotlar hajmiga ta’siri:

$$(2379,5 - 2369,04) * 2490 = +26,045 \text{ ming so'm} .$$

Mahsulotlarning navli tarkibining uni ishlab chiqarish hajmiga qiymat ifodasida ta’sirini hisoblash uchun mahsulot ishlab chiqarish tarkibi tahlilida qo‘llaniladigan usullardan ham foydalanish mumkin.

3.11-jadval ma’lumotlari bo‘yicha ushbu hisoblashni mutlaq farqlar usulida bajaramiz.

3.11-jadval

Mahsulot nav tarkibining mahsulot ishlab chiqarishga ta’siri (qiymat ifodasida un mahsuloti)

Mahsulot navi	Mahsulot birligi uchun ulgurji narx, so‘m	Mahsulot tarkibi, %			Struktura o‘zgarishi hisobiga o‘rtacha narx o‘zgarishi, so‘m.
		reja	haq.	og‘ish, (+,-)	
Oliy nav	2500	56,35	59,84	+3,49	87,25
Birinchi nav	2200	43,65	40,16	-3,49	-76,78
Jami	X	100	100	-	10,47

Nav belgilangan mahsulotlarning barcha turlari bo‘yicha shunga o‘xshash hisoblash bajariladi, natijalar umumlashtiriladi.

Mahsulot sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri detallar, yarimfabrikatlar va tayyor mahsulotlar yaroqsiz bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi. Yaroqsizga chiqarishdan yo‘qotish odatda mahsulot tannarxi tahlili jarayonida tadqiq qilinadi.

Reklamatsiya yetkazib berilayotgan mahsulotlar sifatiga rioya qilmaslikka doir e'tirozlarni ma'lum darajada tavsiflaydi. Reklamatsiya mahsulotlardagi nuqsonlarni bartaraf qilish, texnologiyalar va mahsulotlar konstruksiyasini yaxshilash, yuqori sifatli materiallarni qo'llash va boshqalar bo'yicha tezkor choralar qabul qilish uchun signal hisoblanadi.

Mahsulotlar **butligi**, deganda tayyor mahsulotning mazkur turi uchun zaruriy instrumentlar, detallar va moslamalar majmui mavjudligi tushuniladi. Masalan, traktor, avtomobil yoki boshqa mashina agar tegishli instrumentlar va ehtiyot qismlari bilan ta'minlangan bo'lsa, iste'molchilar uchun jo'natishga tayyor hisoblanadi. Qonun but bo'lmagan mahsulotlarni jo'natish va ularni hisobotga kiritishni taqiqlaydi. Shuning uchun ushbu talablarga rioya qilinishini tekshirish hamda hamkor korxonalariga uzellar, detallar, priborlar, ehtiyot qismlari, instrumentlar va moslamalar yetkazib bermaslik sabablarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari

1. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlili ketma-ketligini bayon qiling.
3. Ishlab chiqarish tarkibi va mahsulot hajmiga strukturaviy o'zgarishlar ta'siri tahlilida qanday usullar qo'llaniladi?
4. Mahsulotlar assortimenti tahlili metodikasini tavsiflang.
5. Mahsulotlar assortimenti tahlili maqsadi nimalardan iborat?
6. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili usullarini aytib bering.
7. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi buzilishining salbiy oqibatlarini sanab bering.
8. Mahsulot sotish hajmi tahlilida qanday vazifalar hal qilinadi?
9. Shartnoma majburiyatlarini bajarish tahlili qanday maqsadda va qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
10. Mahsulot sotishning zararsiz hajmi tahlili korxonalar faoliyatini boshqarishda qanday ahamiyatga ega?
11. Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

12. Yetishmagan ko'rsatkichlarni hisoblang va assortiment rejasi bajarilishini baholang, tahlil qiling va xulosa yozing.

Mahsulot nomi	Taqqoslama narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm		Ishlab chiqarish strukturasi, %		Reja bajarilishi, %	Struktura bo'yicha og'ishish, % (+,-)	Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot
	reja	haq.	reja	haq.			
1	2	3	4	5	6	7	8
A	12800	12860					12800
B	4500	4370					4370
V	3900	4200					3900
Jami	21200	21430					21070

13. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha mahsulot hajmiga strukturaviy o'zgarishlar ta'sirini hisoblang, tahlil qiling va xulosa yozing.

Mahsulot	Mahsulot birligining ulgurji narxi, so'm	Mahsulot i/ch hajmi, dona		Mahsulot strukturasi		Reja narxida mahsulot i/ch, mln so'm			Strukturaviy o'zgarishlarning mahsulot hajmiga ta'siri, ming so'm
		reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqiy mahsulot reja strukturada	haqiqatda	
A	700	18285,7	18371,4						
B	350	12857,0	12485,7						
C	750	5200,0	5600,0						
Jami		36342,7	36457,1						

14. Yetishmagan ko'rsatkichlarni hisoblang va mahsulot ishlab chiqarish maromiyligiga baho bering, tahlil qiling va xulosa yozing.

Oylar	Mahsulot ishlab chiqarish							
	ming so'mda				Oy yakuniga ko'ra % larda			
	1-dekada	2-dekada	3-dekada	Oy bo'yicha	1-dekada	2-dekada	3-dekada	Oy bo'yicha
Oktabr	83,2	112,0	124,8	320,0				100
Noyabr	80,3	111,2	117,5	309,0				100
Dekabr	85,3	105,7	150,0	341,0				100
IV-kvartal uchun o'rtacha	82,9	109,6	130,8	323,3				100

15. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha mahsulot sotish hajmi o'sishining bazis va zanjirli sur'atini hisoblang, tahlil qiling va xulosa yozing.

Yil	Sotish hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, %	
		Bazis	Zanjirli
xxx1	90200		
xxx2	92400		
xxx3	93800		
xxx4	94100		
xxx5	96300		

16. Balansli bog'lanish usulidan foydalangan holda mahsulot sotish hajmiga quyidagi omillar ta'sirini hisoblang:

- a) yil boshi va oxiri uchun tayyor mahsulot qoldiqlari o'zgarishi;
- b) mahsulot ishlab chiqarish o'zgarishi.

Ko'rsatkichlar	Reja	Haq.	Omillarning sotish hajmiga ta'siri
Yil boshida tayyor mahsulot qoldig'i	500	550	
Mahsulot ishlab chiqarish	10200	11000	
Yil oxirida tayyor mahsulot qoldig'i	450	620	
Mahsulot sotilishi			

IV bob. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIGI TAHLILI

4.1. Mehnat resurslari tahlilining vazifalari, asosiy yo'nalishlari va axborot manbalari

Iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichida, reja va o'tgan davrlarga nisbatan mehnatdan foydalanish jarayonida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligini aniqlab olish zarur. Korxonalarda mehnatdan foydalanish tahlilining asosiy vazifasi shundan iboratki, mehnat unumdorligi o'sishiga to'sqinlik qiluvchi, ish vaqti yo'qotilishiga sabab bo'luvchi barcha omillar aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatini tavsiflovchi mehnat ko'rsatkichlari sifatida quyidagilardan foydalaniladi: mehnat unumdorligi, xodimlar soni, mehnat haqi fondi va o'rtacha mehnat haqi darajasi.

Mehnat resurslari tahlilining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Mehnat unumdorligi qismida – rejaning bajarilish darajasi va o'sish sur'ati (dinamika) ni aniqlash; ekstensiv va intensiv omillar, xususan, mehnat unumdorligiga yangi texnikani joriy qilish, ish vaqtdan foydalanish, mahsulotlar assortimenti o'zgarishi va boshqalar ta'sirini aniqlash; qo'llanilayotgan ishlab chiqarish me'yorlari sifati va bajarilish darajasining mehnat unumdorligi darajasiga ta'sirini aniqlash.

Mehnat resurslari tarkibi, harakati va mehnat resurslaridan foydalanish qismida – xodimlar soni tarkibi va tarkibini hamda tuzilma o'zgarishining mehnat unumdorligi, dinamika va harakat ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish.

Mehnat resurslari tahlilining maqsadi zaxiralar va foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni aniqlash, ushbu zaxiralarni ishga tushirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hisoblanadi.

Mehnat ko'rsatkichlari tahlili uchun asosiy axborot manbalari sifatida quyidagilar xizmat qiladi: mehnat bo'yicha rejalar, 1 – mehnat shakli “Mehnat bo'yicha hisobot”, 3-moliya shakli “Tashkilot

xarajatlari to‘g‘risida”, ishchilar harakati bo‘yicha kadrlar bo‘limining statistik hisoboti, sexlar, bo‘limlar, korxonalar xizmatlarining tezkor hisoboti, ishlab chiqarish bo‘linmalari va xizmatlar hamda korxonaning mehnat resurslari bilan bog‘liq boshqa hisobotlar.

Tahlilning kompleksligini ta‘minlash uchun statistik hisobotdan tashqari boshqa axborot manbalarini ham jalb qilish talab etiladi: ishlab chiqarish va yaroqsiz mahsulotlarni hisobga olish bo‘yicha birlamchi hujjatlar, mehnat haqi hisoblash bo‘yicha hisob registrlari, bir martalik kuzatishlar natijalari (fotografiyalar, xronometraj va boshqalar) hamda bir martalik statistik tekshirishlar va hokazo.

Mehnat resurslari tahlili quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- korxonaning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi;
- ish vaqtidan foydalanish samaradorligini baholash;
- mehnat unumdorligini o‘rganish.

4.2. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi tahlili

Korxonaning xodimlar bilan ta‘minlanganligi va undan foydalanish samaradorligiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi, foyda va boshqa ko‘rsatkichlar bog‘liq bo‘ladi. Faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarish o‘shishiga ayni paytda mavjud yoki undan kamroq ishchilar sonida mehnat unumdorligini oshirish hisobiga erishish lozim.

Korxonaning jami xodimlari ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlab chiqarish xodimlari.
2. Noishlab chiqarish xodimlari.

Ishlab chiqarish xodimlariga – asosiy faoliyatda band bo‘lgan xodimlar – korxonaning asosiy faoliyati (mahsulotlar tayyorlash va sanoat xarakteridagi ishlarni bajarish, ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarish va hokazo) bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar kiritiladi. Ushbu guruh xodimlari quyidagi toifalarga ajratiladi: ishchilar, xizmatchilar, mutaxassislar va boshqaruv xodimlari.

Barcha turdagi transport, bolalar bog‘chasi va yaslilar, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari va sport-sog‘lomlashtirish sohasidagi xodimlar *noishlab chiqarish xodimlari* toifasiga kiritiladi.

Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi uning toifalar va kasblar bo'yicha haqiqatda mavjud ko'rsatkichini rejadagi ehtiyoji bilan taqqoslash asosida aniqlanadi.

Ishchilar soni o'zgarishini tahlil qilishda mazkur korxonada zaruriy mehnat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganligini aniqlash zarur. Ishchilarning haqiqatdagi sonini reja bilan shunchaki taqqoslash yo'li bilan ushbu savolga to'g'ri javob olishning iloji yo'q. Hisobot bo'yicha ishchilar miqdori rejaga nisbatan kam bo'lib chiqishi mumkin. Lekin bu ishlab chiqarish mehnat resurslari bilan ta'minlanmaganligini anglatmaydi, chunki korxonaning rejalashtirilgan ishchilar soniga ehtiyoji yangi texnikalarni joriy qilish, qo'shimcha ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va ishchilarning muayyan miqdorini ozod qilishga imkon beruvchi qator boshqa tashkiliy-texnik tadbirlar o'tkazish yo'li bilan qisqartirilgan bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, ishchilarning haqiqatdagi umumiy miqdorining rejaga muvofiqligi ham korxonaning zaruriy mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini anglatmaydi, chunki bir kasb bo'yicha mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan bir vaqtda boshqa kasblar bo'yicha yetishmaslik kuzatilishi mumkin. Bundan korxonaning mehnat bo'limi va kadrlar bo'yicha materiallari ma'lumotlari bo'yicha ishchilar tarkibini o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Mehnat resurslari ta'minlanganligi va samarali foydalanish tahlili uchun 1- mehnat shakli – "Mehnat bo'yicha hisobot" statistik shakl qo'llaniladi.

Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi analitik jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

4.1-jadvaldan ko'rinadiki, asosiy faoliyat xodimlarining soni hisobot yilida rejaga nisbatan pasayib, 96,8% ni tashkil qilgan, o'tgan davrga nisbatan esa – 86,8%. Ishchilar soni rejaga nisbatan oshgan, o'tgan yilga nisbatan esa kamayib, mos ravishda 114,7% va 92,6% ni tashkil qilgan. Rahbarlar va mutaxassislar soni hisobot bo'yicha reja darajasida 100% bo'lgan, o'tgan yilga nisbatan 75,4%.

Tahlil jarayonida ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish zarur. Xodimlar tarkibi tarmoq xususiyatlari, mahsulotlar nomenklaturasi, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Xodimlarning har bir toifasi salmog'i texnika va ishlab chiqarishni tashkil etish taraqqiy etishi bilan o'zgaradi.

Avtomatlashtirilmagan korxonalarda ishchilarning salmog‘i o‘sishi ishlab chiqarish xodimlari tarkibi yaxshilanganligidan darak beradi.

4.1 jadval

Mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik

Xodimlar toifasi	O‘tgan davr uchun xodimlar soni	Reja bo‘yicha xodimlar soni	Hisobot davridagi xodimlar soni	Haqiqatda, % da	
				Rejaga nisbatan	O‘tgan davrga nisbatan
Asosiy faoliyat xodimlari	874	784	759	96,8	86,8
Ulardan:					
Ishchilar	649	524	601	114,7	92,6
Xizmatchilar	172	120	118	98,3	68,6
Rahbarlar va mutaxassislar	53	40	40	100,0	75,4

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot murakkablashuvi, avtomatlashtirilgan uchastka va sexlar joriy qilinishi mutaxassislar ulushi ortishini talab qiladi. Boshqaruvni takomillashtirish, orgtexnikadan foydalanish bilan xizmatchilar ulushini kamaytirish ta‘minlanadi.

4.2-jadval

Mehnat resurslari tarkibi tahlili

Xodimlar toifasi	Xodimlar tarkibi						Salmog‘ining o‘zgarishi, ±	
	o‘tgan yil uchun		reja		haqiqatda		rejaga nisbatan	o‘tgan yilga nisbatan
	kishi	%	kishi	%	kishi	%		
Asosiy faoliyat xodimlari, jami	874	100	784	100	759	100	-	-
jumladan:								
Ishchilar	649	74,2	524	79,6	601	79,2	-0,4	+5,0
Xizmatchilar	172	19,7	120	15,3	118	15,5	+0,2	-4,2
Rahbarlar va mutaxassislar	53	6,1	40	5,1	40	5,3	+0,2	-0,8

4.2-jadval ma‘lumotlari asosiy faoliyat xodimlari tarkibida oldingi va hisobot davrida tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Rejaga nisbatan ishchilar salmog‘ining kamayishi xizmatchilar, rahbarlar va mutaxassislar salmog‘i ortishi bilan bir vaqtda sodir

bo'lgan, o'tgan yilga nisbatan esa aksincha, ishchilar salmog'i ortgani holda boshqa toifadagi xodimlarning salmog'i kamayishi sodir bo'lgan. Bu korxonada boshqaruvi tarkibidagi o'zgarishlar bilan shartlangan bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar soni kamayishi zarur malakali mutaxassislar mavjud emasligi natijasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida ishtirokiga ko'ra, ishchilar, asosiy – bevosita asosiy mahsulot tayyorlash bilan band va qo'shimcha – qo'shimcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha turlari bilan band – toifaga ajratiladi. Bunday bo'linish ishchilar sonini tahlil qilish va mehnat unumdorligini yuksaltirishning zaxiralarini aniqlashda jiddiy ahamiyatga ega. Biroq yillik va joriy statistik hisobotda bunday ma'lumotlar keltirilmaydi. Bu turli korxonalarda guruhlashning bir xilligini o'rnatish qiyinligi bilan, ba'zan esa asosiy va qo'shimcha toifaga kiritiladigan kasblar ro'yxati mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Asosiy toifaga bevosita korxonada mahsulotini ishlab chiqaruvchi ishchilar, qo'shimcha toifaga ishlab chiqarish uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlovchi ishchilar va qo'shimcha sexlar ishchilari (ta'mirlash-mexanik, instrumental, transport, energetik va hokazo) kiritiladi.

Ishlab chiqarish talablariga nafaqat xodimlarning umumiy soni, balki uning sifat tarkibi ham mutanosibligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xodimlarning jinsi, yoshi, staji, kasbi, tarif razryadi va to'lov tizimi bo'yicha taqsimlanishi haqida statistik hisobot ma'lumotlarini o'rganish yo'li bilan tekshiriladi. Korxonalarda ba'zan malakasi kam xodimlar mavjud bo'lgan holda yetakchi kasb xodimari yetishmaydi. Statistik hisobot, shuningdek, mehnat resurslarini birlamchi hisobga olish ma'lumotlari asosida ishchilarni malaka razryadlari bo'yicha guruhlash amalga oshiriladi, har bir razryaddagi ishchilar sonining o'rtacha tortilgani sifatida o'rtacha tarif razryadi hisoblab chiqarilib, reja hamda o'tgan davr ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

4.3. Xodimlar qo'nimsizligi tahlili

Xodimlar soni, tarkibi va malakasi tahlili mehnat resurslari harakatini o'rganish bilan to'ldirilishi lozim bo'lib, u turli sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, qarilik bo'yicha nafaqaga chiqish, o'qish uchun, xizmat safari, yuqori lavozimga ko'tarilish, boshqa korxonaga ishga o'tish, ishlar va shartnoma muddati tugashi bilan bog'liq ravishda

o'zgarishi mumkin. Shular bilan bir qatorda, xodimlarni ularning o'z xohishiga ko'ra, mehnat intizomini buzganligi uchun, malaka talablariga javob bermasligi uchun bo'shatish, ya'ni xodimlar qo'nimsizligi ham xodimlar tarkibi va mehnat unumdorligining salbiy o'zgarishiga, ish vaqtidan to'liq foydalanmasligiga sabab bo'ladi.

Mehnat resurslari harakatini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar dinamikasi hisoblanadi va tahlil qilinadi:

– xodimlarni ishga qabul qilish aylanmasi koeffitsiyenti (K_{iq}):

$$K_{iq} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan xodimlar soni}}{\text{Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni}};$$

– ishdan ketish bo'yicha aylanma koeffitsiyenti (K_k):

$$K_b = \frac{\text{Ishdan bo'shatilgan xodimlar soni}}{\text{Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni}};$$

– qo'nimsizlik koeffitsiyenti (K_q):

O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganligi uchun

$$K_q = \frac{\text{ishdan bo'shatilgan xodimlar soni}}{\text{Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni}};$$

– kadrlar doimiyligi koeffitsiyenti (K_{kd}):

$$K_{kd} = \frac{\text{Yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni}}.$$

Tahlil etilayotgan korxonada mehnat resurslari harakati tahlili quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

4.3-jadval

Xodimlar qo'nimsizligi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1.	Ro'yxat bo'yicha ishchilar soni	649	601
2.	Ishga qabul qilinganlar soni	118	109
3.	Ishdan bo'shatilganlar soni	163	155
	Jumladan :		
3 a	O'z xohishiga ko'ra	53	45
3 b	Ishga kelmaganligi va boshqa mehnat intizomi buzilishlari uchun bo'shatilganlar	87	80
3 v	O'qishga kirganligi, pensiyaga chiqqanligi bilan bog'liq tarzda	23	30
4.	Ishga qabul qilish bo'yicha aylanma koeffitsiyenti	0,182	0,181
5.	Ishdan bo'shatishlar bo'yicha aylanma koeffitsiyenti	0,251	0,258
6.	Xodimlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti	0,216	0,208

Ma'lumotlar ko'rsatadiki, hisobot davri uchun o'z xohishiga ko'ra, ishga sababsiz kelmaganligi va boshqa mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatilganlar soni 125 tani tashkil qiladi (45+80), o'z navbatida, xodimlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti 0,208% ni tashkil qiladi. O'tgan yilda bu ko'rsatkich 0,216%ga teng edi .

Xodimlar qo'nimsizligi yil davomida yangi xodimlarni ishga qabul qilish va tayyorlashga to'g'ri kelishini anglatadi. Yangi qabul qilingan xodimlar, odatda, ishlab chiqarishning rejalashtirilgan darajasiga darhol erisha olmaydi, ularning yangi joyga moslashishi, ish joyi va operatsiyalarni o'zlashtirishi davridagi mehnat unumdorligi doimiy xodimlarga nisbatan pastroq bo'ladi. Ishchi xodimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni oldindan ko'zda tutish uchun o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shashlarning aniq sabablarini bilish lozim. Statistik hisobotda ushbu sabablar keltirilmaydi, joriy hisobda ham bunday ma'lumotlar mavjud emas. Ularni ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish asosida aniqlash mumkin. Tadqiqot ma'lumotlari bo'yicha qo'nimsizlikning asosiy sabablari quyidagicha: mehnat turidan qoniqmaslik, sharoitlar yomonligi, oylik mehnat haqi kamligi, ushbu kasbda o'sish imkoniyati mavjud emasligi, ish vaqtining uzunligi va boshqalar.

Tahlil yakunida korxonada xodimlarini ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish, ularning mehnat, ijtimoiy-madaniy, uy-joy-maishiy shart-sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ular kelgusi yil uchun ijtimoiy taraqqiyot rejasi va jamoaviy shartnoma ishlab chiqishda hisobga olinadi.

4.4. Ish vaqtidan foydalanish tahlili

Ishlab chiqarish hajmining o'sishi, mehnat jamoasining har bir a'zosiga mahsulotlar ishlab chiqishning ortishi, shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanishning eng muhim shartlaridan biri ish vaqtidan tejamkor va samarali foydalanish hisoblanadi. Ish vaqti qay darajada to'liq va oqilona foydalanilayotganligiga mehnat samaradorligi, barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarish bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ish vaqtidan foydalanish tahlili korxonadagi analitik ishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ish vaqtidan foydalanish tahlili ikki yo'nalishda olib boriladi: ish vaqtidan yo'qotishlarni va undan unumsiz foydalanishni aniqlash.

Tahlil uchun asosiy ma'lumotlar manbasi 1-mehnat statistik hisobot shakli bo'lib, unda ish vaqtidan foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar majud bo'ladi: yil uchun ishlab berilgan kishi-kun va kishi-soatlarning umumiy miqdori.

Ish vaqtidan foydalanish tahlili metodikasini ko'rib chiqishdan oldin qisqacha tarzda ishlab berilgan vaqtni hisobga olishning amaldagi tartibi haqida to'xtalib o'tamiz. Ishlab berilgan kishi-kuni va kishi-soatlarning haqiqatdagi miqdori haqida ma'lumotlar tabel hisobi ma'lumotlari bo'yicha olinadi. Tabel hisobining hozirgi tashkiliy shakli ishlab berilgan kishi-kuni va kishi-soatlarning haqiqatdagi miqdori haqida ishonchli ma'lumot bera olmaydi.

Xodimning ish vaqti fondini rejalashtirishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: *ish vaqtining kalendar fondi*, u barcha smenalarda uzrli va uzrsiz kishi-kunilarning umumiy soni bilan o'lchanadi; *ish vaqtining nominal fondi*, buni hisoblashda kalendar bo'yicha kunlarning umumiy sonidan bayram va dam olish kunlari chiqarib tashlanadi; *ish vaqtining maksimal fondi*, buni hisoblashda nominal fondni hisoblashda qabul qilingan kunlar soni navbatdagi ta'tillar davomiyligiga kamaytiriladi (kunlarda).

Ish vaqti fondini kishi-soatlarda rejalashtirishda xodimlarning ayrim guruhlarida ish kuni davomiyligi qisqartirilganligini hisobga olish zarur. Qisqartirilgan ish kuniga ega xodimlar guruhiga, masalan, tungi smena ishchilari, o'smirlar, og'ir va zararli ishlar bilan bandlar, emizikli onalar va boshqalar kiritiladi.

Ish kunning o'rtacha davomiyligi xodimlarning u yoki bu guruhining ish kuni davomiyligining umumiy hisobdagi ushbu guruhlarning ulushiga o'rtacha tortilgani sifatida aniqlanadi.

Masalan, agar 500 kishi 8 soatdan, 300 kishi 7 soatdan, 100 kishi 6 soatdan ishlasa, u holda ish kunining o'rtacha davomiyligi 7,44 soatni tashkil qiladi.

$$\frac{500 * 8 + 300 * 7 + 100 * 6}{500 + 300 + 100}$$

Shunday qilib, haqiqatdagi ish vaqtining o'rtacha davomiyligi muayyan darajada mehnat resurslari tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Ish vaqtidan foydalanish tahlilida haqiqatda ishlab berilgan kishi-kuni va kishi-soatlarni rejadagi hisobot yili va o'tgan yil ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali ish vaqti yo'qotishlari aniqlanadi.

Ish vaqti fondi (IVF) xodimlar soni, bir xodim tomonidan yil uchun ishlab berilgan kunlarning o'rtacha miqdori, ish kunining o'rtacha davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlikni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$IVF = XS * K * D$$

4.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'tgan yil bilan taqqoslaganda ish vaqtidagi umumiy yo'qotish 37,01 ming kishi-soatga teng bo'lsa, reja bilan qiyoslanganda 42,16 ming kishi-soatga ortiq bo'ldi.

4.4- jadval

Ish vaqtidan foydalanish tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil uchun reja	Hisobot yil uchun haqiqatda	Og'ish, (+,-)	
					o'tgan yildan	rejadadan
1.	Xodimlarning o'rtacha soni(XS)	974	936	952	-22	16
2.	Bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni (K)	264	260	258	-6	-2
3.	Bir xodimning bir yilda ishlagan ish soatlari (S)	2030,16	2028,00	2038,20	8,04	10,20
4.	Ish kunining o'rtacha davomiyligi (D)	7,69	7,8	7,9	0,21	0,10
5.	Ish vaqti fondi (IVF) ming kishi-soat	1977,38	1898,21	1940,37	-37,01	42,16

Ish vaqti fondi o'zgarishi quyidagi omillar ta'siri hisobiga sodir bo'lgan:

a) xodimlar soni

$\Delta IVF_{XS} = (XC_1 - XC_0) * K_0 * D_0 = (952 - 974) * 264 * 7,69 = -44,663$ ming kishi-soat;

b) bir yilda bir xodimning ish kunlari soni (ish vaqtining butun kunlik yo'qotishlari)

$\Delta IVF_K = XC_1 * (K_1 - K_0) * D_0 = 952 * (258 - 264) * 7,69 = -43,925$ ming kishi-soat;

v) ish kuni davomiyligi (smena ichida ish vaqti yo'qotishlari)

$\Delta IVF_D = XC_1 * K_1 * (D_1 - D_0) = 952 * 258 * (7,9 - 7,69) = +51,579$ ming kishi-soat.

Bizning misolimizda 88,588 ming kishi-soat (44,663+43,925) ish vaqti yo‘qotilishi xodimlar soni qisqarishi va yil uchun bir xodim uchun ish kunlari soni kamayishi hisobiga yuzaga kelgan. Ish vaqtining umumiy yo‘qotishi ish kuni davomiyligi uzaytirilishi hisobiga qisman qoplangan.

Ish vaqti yo‘qotilishini o‘rgangandan so‘ng ish vaqtining unumsiz sarflanishi aniqlanadi.

Ish vaqtining unumsiz sarflanishi yaroqsiz mahsulotlar tayyorlash, ularni tuzatish oqibatida ish vaqtini yo‘qotish, shuningdek, texnologik jarayondan chetlashish (ish vaqtining qo‘shimcha sarfi) bilan bog‘liq ish vaqti sarfidan yuzaga keladi. Ish vaqtining unumsiz sarflanishi yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar haqida ma‘lumotlarga asosan hisoblanadi.

4.5. Mehnat unumdorligi tahlili

Mehnatdan foydalanish samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichi – mehnat unumdorligi bo‘lib, uning darajasi bir xodim uchun ishlab chiqarilgan mahsulot ko‘rsatkichi va vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot ko‘rsatkichi bilan ifodalanishi mumkin.

Mehnatdan foydalanish samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlarni tavsiflaydi:

- mehnat unumdorligining o‘shish sur‘ati;
- mehnat unumdorligi oshishi hisobiga mahsulot o‘shishi ulushi;
- bazis yilga nisbatan jonli mehnat tejami (yil hisobida xodimlar);
- mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod;
- mehnat unumdorligining o‘shish sur‘atining o‘rtacha oylik mehnat haqi o‘shishiga nisbati.

Mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasiga korxonada faoliyatining ko‘plab ko‘rsatkichlari, jumladan mehnat ko‘rsatkichlari: mahsulot ishlab chiqarish, xodimlar soni, mehnat haqi fondi, tannarx va boshqalar bog‘liq bo‘ladi.

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari tahlilining asosiy yo‘nalishi nafaqat reja qanday bajarilganligini aniqlashdan iborat, balki o‘shish dinamikasini aniqlash, rejani bajarmaslik yoki ortig‘i bilan bajarish sabablarini oydinlashtirish: mexanizatsiya vositalaridan foydalanish, asosiy va qo‘shimcha ishlarga qo‘l mehnatini jalb qilish, smena ichida va kunlab ish vaqti yo‘qotilishi mavjudligi, ishlab chiqarish me‘yorlari

tarkibi va ularning texnikaning zamonaviy darajasiga muvofiqligini aniqlash ham uning vazifasiga kiradi. Tahlilda korxonalar, sexlar, uchastkalar va alohida ish joylarida mavjud mehnat unumdorligini oshirish zaxiralarini aniqlash va ulardan foydalanish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni qayd qilish zarur.

Korxonalarda mehnat unumdorligini hisobga olish va tahlil qilish uchun bir xodimning o'rtacha ishlab chiqarish ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bunda ishlab chiqarishni aniqlashning uchta usuli farqlanadi: qiymat, *natural* va *mehnat*. Bir xodim uchun o'zgarmas narxlarda mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichi mufassal ko'rsatkich hisoblanadi. Mehnat unumdorligining mazkur ko'rsatkichi kamchiliklardan xoli emas – xomashyo va materiallar narxi darajasiga bog'liqligi, mahsulotlar assortimenti, narxlar asoslanganligi va boshqalar. Narxlar o'zgarmasligiga rioya qilish mehnat unumdorligi darajasini o'lchash to'g'riligini ta'minlaydi, chunki aksincha holatda ko'rsatkichlar qiymat omili ta'sirida buzib ko'rsatiladi. Assortimentga kelsak, yo'l qo'yilgan o'zgarishlar mehnat unumdorligi darajasida aks ettiriladi, chunki mahsulotlarning har bir turi buyumlashgan, mehnatdan tashqari ushbu ishlab chiqarishga o'tkazilgan va yana ushbu ishlab chiqarishda sarflangan jonli mehnatni o'z ichiga oladi.

$$\text{Mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichi} = \frac{\text{Qiymat ifodasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni}}.$$

Qator tarmoqlarda ishlab chiqarishni umumiy qiymat ko'rsatkichi bilan birgalikda uni natural ifodada o'lchash mumkin – dona, tonna, metr va boshqa ko'rsatkichlarda.

$$\text{Bir xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi} = \frac{\text{Tonna, kg, dona va metrda ifodalanadigan mahsulot hajmi}}{\text{Xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni}}.$$

Ishlab chiqarishning natural o'lchovlari kon sanoati va bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarishdarda qo'llanildi. Bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlab chiqarishning bir necha markasi yoki navi shartli-natural birliklarda o'lchanishi mumkin. Domna sexlarda mahsulot shartli ravishda qayta ishlangan chugun hisobidagi og'irlikka, marten sexlarida – oddiy uglerodli po'latga, sement zavodlarida – shartli portlandtsementga keltiriladi va hokazo.

Buning uchun mutanosib ayirboshlash koeffitsiyentlari qo'llaniladi. Ishlab chiqarishni bunday o'lchash aniq va obyektiv tuyulsa-da, lekin bir turdagi mahsulot bo'lsa ham (masalan, ko'mir yonuvchanligi) turli sifati tufayli mehnat unumdorligining haqiqiy darajasini aks ettirmaydi. Shuningdek, bir turdagi korxonalarda mehnat sarfi bir xil emasligi uchun undan qiyosiy tahlilda foydalanib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishni aniqlash uchun qo'llaniladigan o'lchovlarning uchinchi turi mehnat o'lchovidir.

$$\text{Mehnat unumdorligi (mehnat)} = \frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarishga vaqt sarfi}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi}}$$

Mehnat o'lchovi real mehnat sarflarini yanada to'liq aniqlash imkonini beradi. Mehnat o'lchovlari sex, uchastka bo'yicha xodimlarning ishlab chiqarishini alohida operatsiyalarja yoki smena uchun har bir xodimga, turli-tuman mahsulot ishlab chiqarishda oy uchun hisoblashda qo'llaniladi. Ishlab chiqarishni aniqlash uchun me'yorlashtirilgan ish vaqti – norma-soatdan foydalaniladi. O'zgarmas (barqaror) me'yordlarda norma-soatlarda o'lchangan ishlab chiqarish ishlab chiqarishning alohida uchastkalarida mehnat unumdorligi o'zgarishini yetarlicha to'liq tavsiflaydi. Umuman korxonada bo'yicha mehnat unumdorligini baholash uchun, mahsuldorlik ko'rsatkichi o'sishini tahlil qilishda norma-soatlarda o'lchangan ishlab chiqarish, odatda, qo'llanilmaydi. Axir ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish me'yorlari faqatgina baylashib ishlovchilar mehnat sarfini o'ziga qamrab oladi va vaqtincha ishlovchilar, ustiga-ustak boshqa toifadagi xodimlar mehnat sarfini tavsiflamaydi.

Mehnat unumdorligi darajasini baholash uchun umumlashtiruvchi, xususiy va qo'shimcha ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiritiladi:

– o'rtacha yillik xodim uchun mahsulot ishlab chiqarish

Mahsulot hajmi

($\frac{\quad}{\quad}$);

Xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni

- bir ishchi uchun mahsulot ishlab chiqarish

Mahsulot hajmi

($\frac{\quad}{\quad}$);

Xodimlarning o'rtacha ro'yxat soni

$$\begin{aligned}
 & \text{-bir kishi-kuni uchun mahsulot ishlab chiqarish} \\
 & \qquad \qquad \qquad \text{Mahsulot hajmi} \\
 & \qquad \qquad \qquad \hline
 & \qquad \qquad \qquad \text{Ishlangan kishi-kunilarning umumiy soni} \\
 & \text{- bir kishi-soat uchun mahsulot ishlab chiqarish;} \\
 & \qquad \qquad \qquad \text{Mahsulot hajmi} \\
 & \qquad \qquad \qquad \hline
 & \qquad \qquad \qquad \text{Ishlangan kishi-kunlarning umumiy soni}
 \end{aligned}
 ;$$

Tahlil jarayonida ushbu ko‘rsatkichlar dinamikasini, ularning darajasi bo‘yicha rejaning bajarilishini o‘rganish, qiyosiy tahlil o‘tkazish va ularning o‘zgarish sabablarini aniqlash zarur.

Mehnat unumdorligining eng umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi – bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik mahsulot, ya’ni uning yillik ishlab chiqarishi (MU_x). Uning miqdori nafaqat o‘rtacha kunlik (KI) va o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishga (SI), balki xodimlarning umumiy sonida ishchilarning ulushi (I_{ul}), yil uchun bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdoriga (K) va ish kuni davomiyligiga (D) bog‘liq (4.1-chizma).

O‘rtacha soatlik ishlab chiqarish qancha yuqori bo‘lsa, ish vaqtining smena ichida va butun kun davomida yo‘qotilishi qancha kam bo‘lsa, yilda bir ishchining o‘rtacha ishlab chiqarishi shuncha ko‘p bo‘ladi.

Bunda bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ishlab chiqarishni quyidagi omillar ko‘paytmasi ko‘rinishida tasvirlash mumkin:


$$MU_x = I_{ul} * K * D * SI.$$

O‘z navbatida, bir ishchining o‘rtacha yillik ishlab chiqarishini quyidagi omillar ko‘paytmasi ko‘rinishida tasvirlanadi:

$$MU_i = K * D * SI.$$

Bundan $MU_x = I_{ul} * MU_i$.

Mazkur omillar ta’sirini hisoblash determinatsiyalangan omilli tahlil usullarining biri bilan bajariladi.



4.1-chizma. Mehnat unumdorligi omilli tizimining tarkibiy-mantiqiy modeli

4.5-jadval

Mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		Og'ish (+,-)	
			reja	haq.	o'tgan yildan	rejadan
1	Taqqoslama ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi (ming so'mda)	251222	266669	315642	64420	48973
2	Korxonada xodimlarining o'rtacha soni	1233	1114	1161	-72	47
3	Ishchilarning o'rtacha soni	974	936	952	-22	16

4	Xodimlarning umumiy sonida ishchilarning ulushi (3-qator *100: 2 - qator.)	78,99	84,02	82,00	3,00	-2,02
5	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot (ming so'mda)	257,93	284,90	331,56	73,63	46,65
6	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot (ming so'mda)	203,75	239,38	271,87	68,12	32,49
7	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotning rejadan og'ishi (ming so'mda)	X	X	X	X	32,49
	Jumladan:					
a	Xodimlarning umumiy sonida ishchilarning ulushi o'zgarishi hisobiga (-2,02*284,9:100)	X	X	X	X	-5,76
b	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot o'zgarishi hisobiga (+46,65*82:100)	X	X	X	X	38,26

Bizning misolimizda bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot rejaga nisbatan 32,49 ming so'mga oshgan. Bu o'zgarish ishchilar ulushining rejadan 2,02 % kamayishi hamda bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotning 46,65 ming so'mga ortishi oqibatida sodir bo'ldi. Ishchilar ulushining rejadan 2,02 % kamayishi mehnat unumdorligining 5,76 ming so'mga qisqarishiga olib keldi. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi 46,65 ming so'mga o'sishi, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotning 38,26 ming so'mga oshishiga sabab bo'ldi.

Korxonani to'liq baholash va mehnat unumdorligini oshirish zaxiralarini aniqlash uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar bilan birga *mehnat unumdorligi darajasining xususiy ko'rsatkichlari*: ish vaqti birligi uchun olingan mahsulotlar miqdori haqida yoki i-turdagi

mahsulot birligini ishlab chiqarishga bevosita mehnat xarajatlari haqida ma'lumotlarni ham tahlil qilish zarur. Dastlabkisi mahsulot ishlab chiqarish hajmini bevosita mehnat xarajatlariga bo'lish orqali, ikkinchisi – bevosita mehnat xarajatlarini (kishi-soatlarda) mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi darajasi ustidan tezkor nazorat qilish uchun yil davomida alohida turdagi ishlar yoki ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha uning darajasining qo'shimcha ko'rsatkichlaridan foydalaniladi: bajarilgan ish birligiga mehnat sarfi yoki ish vaqti birligi uchun bajarilgan ishlar miqdori.

4.6. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishiga omillar ta'sirini hisoblash

Ishlab chiqarish rejasi bajarilishining keyingi tahlilini bir ishlovchi tomonidan ishlab chiqarish bo'yicha emas, balki bir ishchi tomonidan ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshiramiz. Buni qator sabablar bilan izohlash mumkin: ishchilar – bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchilar bo'lib, aynan ularning mehnati intensivligi ishlab chiqarish hajmi o'rinishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ishlangan vaqtlar ko'rsatkichlari ishchilar toifasi bo'yicha mehnat hisobotlarida keltiriladi. Ishchi tomonidan ishlab chiqarish mehnatning ishlab chiqarish quvvati va uning intensivligiga bog'liq bo'ladi. Mehnatning ishlab chiqarish quvvati darajasi texnik jihozlanganlik bilan belgilanadi. Mehnatning ishlab chiqarish quvvati ishning mehnat sig'imi kamayishi bilan birgalikda ortib boradi. Mehnat intensivligi uning vaqt birligidagi miqdori bilan o'lchanadi, darajasi esa ish vaqtidan foydalanishga bog'liq.

Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotning o'zgarishi quyidagi omillarga bog'liq:

K – bir yilda bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari miqdori;

D- ish kunining o'rtacha davomiyligi;

SI – ishchining o'rtacha bir soatlik ishlab chiqarishi.

Demak, bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi yil davomida bir ishchi tomonidan ishlangan kunlarning o'rtacha miqdoriga, ish kunining o'rtacha davomiyligi va ishchining o'rtacha soatlik ishlab chiqarishiga bog'liq bo'ladi.

Omillarni hisoblash uchun zanjirli o‘rin almashtirish usulidan foydalanish zarur.

Hisoblash mexanizmi mohiyati quyidagilardan iborat: bir ishchining yillik ishlab chiqarishi yil davomida bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdorining ish kunining o‘rtacha davomiyligi va ishchining o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishi ko‘paytmasiga teng. Agar ko‘paytmadagi ko‘paytuvchilarni ishora qilingan ketma-ketlikda asta-sekin o‘rin almashtirsak, har bir omilning ta‘sirini aniqlash mumkin.

Omillar qiymatini o‘rin almashtirishga kirishishdan avval bir ishchining yillik ishlangan kunlarining o‘rtacha soni va ish kunining o‘rtacha davomiyligini hisoblab chiqish lozim (4.6-jadval)

4.6-jadval

Bir ishchining o‘rtacha yillik ishlab chiqarishi tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili		Og‘ish (+,-)	
			reja	haq.	o‘tgan yildan	reja-dan
1	Taqqoslama ulgurji narxlarda korxonaning mahsulot (ish, xizmat) lari hajmi, ming so‘m	251222	266669	315642	64420	48973
2	Ishchilarning o‘rtacha soni	974	936	952	-22	16
3	Barcha ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarning umumiy miqdori, ming kishi-kun	257,14	243,36	245,62	-11,52	2,26
4	Barcha ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarning umumiy miqdori, ming kishi-soat	1977,38	1898,21	1940,37	-37,01	42,16
5	Bir ishchi uchun o‘rtacha yillik ishlab chiqarish, ming so‘m (str.1 : str.2)	257,93	284,90	331,56	73,63	46,65
6	Bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari soni (3-modda : 2-modda)	264	260	258	-6	-2
7	Ish kunining o‘rtacha davomiyligi, soatlarda (4-modda : 3-modda)	7,69	7,80	7,90	0,21	0,10
8	Bir ishchining o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishi, so‘m (1-modda : 4-modda)	127,05	140,48	162,67	35,62	22,19

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi o'tgan yilga nisbatan 73,63 ming so'mga, rejaga nisbatan esa – na 46,65 ming so'mga oshgan. Bunda ish vaqtidan foydalanish yomonlashgan: har bir ishchi o'tgan yilga qaraganda 6 kun, rejaga nisbatan esa – 2 kun kam ishlagan. Ish vaqtidan yo'qotishlar ish vaqtidan tashqari ishlash hisobiga qisman qoplangan. Ish vaqtining davomiyligi ish vaqtidan tashqari ishlash hisobiga o'tgan yil bilan taqqoslanganda 0,21 soatga, rejaga nisbatan esa–0,1 soatga uzaygan. O'rtacha soatlik ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 35,62 so'm, rejaga nisbatan esa – 22,19 so'mga oshgan.

Shunga muvofiq, rejadan tashqari o'rtacha soatlik ishlab chiqarish va ish kuni davomiyligi uzayishi hisobiga ishchilarning o'rtacha yillik ishlab chiqarishi o'sishi bo'yicha rejaning bajarilishiga erishilgan.


Zanjirli o'rin almashtirish usulida ishlab chiqarish o'sishiga uchala omildan har birining ta'sir miqdorini aniqlash mumkin (4.7-jadval, boshlang'ich ma'lumotlar 4.6-jadvaldan olingan).

4.7-jadval

Tartib raqami		O'zaro ta'sirlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar			Umumlashtiruvchi ko'rsatkich O'rtacha yillik ishlab chiqarish, ming som	Oldingi hisoblashdan og'ish, ming so'm	Og'ish sabablari
hisoblash	o'rin almashtirish	ish kunlari soni	ish kuni avomiyligi	o'rtacha soatlik ishlab chiqarish, so'm			
A	B	1	2	3	4	5	6
1	reja	reja 260	reja 7,8	reja 140,48	284,89		
2	1	haqiqat 258	reja 7,8	reja 140,48	282,70	-2,19	Kunlar sonining kamayishi
3	2	haqiqat 258	haqiqat 7,9	reja 140,48	286,33	3,62	Ish vaqti davomiyligi ortishi
4	Hisobot 3	haqiqat 258	haqiqat 7,9	haqiqat 162,67	331,55	45,22	Soatlik ishlab chiqarish ortishi

5-ustun bo'yicha og'ishlar balansi: $-2,19+3,62+45,22=+46,65$ ming so'm, bu esa haqiqatdagi va rejadagi o'rtacha yillik ishlab chiqarish o'rtasidagi farqqa teng ($331,56 - 284,90$).

Ichki zaxiralarni aniqlash va ularning realizatsiyasi mehnat unumdorligi tahlilining vazifalaridan biri hisoblanadi. Bizning misolimizda agar korxonada ish vaqtining rejalangan fondidan to‘liq foydalanganda bir ishchining mehnat unumdorligi 2,19 ming so‘mga ortiq bo‘lishi mumkin edi va bu 2084,88 ming so‘mlik miqdorda ($2,19 \cdot 952$) qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga imkon berar edi. Ushbu holatda ish vaqtdan to‘liq foydalanish hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulot o‘shirishini zaxira emas, balki boy berilgan imkoniyat deb hisoblash mumkin. Kelgusi tahlillarda soatlik ishlab chiqarishning bu darajada o‘shirishiga sabab bo‘lgan va ish vaqtdan yo‘qotishlarni yuzaga keltirgan omillarni aniqlash lozim.



4.2-chizma. Mehnat unumdorligi o‘shirish zaxiralari

Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat sarfi o‘zgarishi nisbatlarining quyidagi variantlarini qo‘llash mumkin, ular ayni vaqtda mavjud iqtisodiy shart-sharoitlarda mehnat unumdorligi o‘shirishini ta‘minlash bo‘yicha boshqaruv strategiyasini tanlashda hisobga olinishi lozim:

- a) mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarfi kamaygan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortishi sodir bo‘lmoqda;
- b) mahsulot ishlab chiqarish hajmi mehnat sarfiga nisbatan tezroq o‘smoqda;
- c) mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmas mehnat sarfi sharoitida o‘smoqda;
- d) mehnat sarfi kamaygan holda mahsulot hajmi o‘zgarmasligicha qolmoqda;

e) mahsulot hajmi mehnat sarfiga nisbatan sustroq sur'atda kamaymoqda.

4.7. Mahsulotning mehnat sig'imi va soatlik ishlab chiqarish tahlili

Mehnat sig'imi – bu detallar, uzellar, yarimfabrikatlar, mahsulot ishlab chiqarish uchun ish vaqti sarfi hisoblanadi. Ishlab chiqarishni texnik takomillashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot, ishni tashkil qilishning ilg'or usullarini joriy qilish yo'li bilan erishilgan mahsulotning mehnat sig'imini kamaytirish evaziga mehnat unumdorligi o'sishining yuqori ulushiga erishiladi.

Mahsulotning mehnat sig'imi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasida teskari mutanosiblik mavjud – mehnat sig'imi kamayganda ishlab chiqarish o'sadi va aksincha.

Mehnat sig'imi qisqarishi hisobiga mehnat unumdorligining ortish foizi quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$Fm = \frac{100 * A}{100 - A}$$

Bu yerda Fm – mehnat unumdorligining o'sish foizi;

A – ishlab chiqarilgan mahsulot mehnat sig'imining kamayish foizi.

Mahsulot birligi ishlab chiqarish uchun mehnat sig'imining qisqarishi ishchilarning o'rtacha soatlik ishlab chiqarishi miqdoriga ham bevosita ta'sir qiladi. Mehnat sig'imi o'zgarishining ishchilarning mehnat unumdorligiga ta'sirini 1000 so'mlik mahsulot hisobida solishtirma mehnat sig'imi ko'rsatkichidan foydalangan holda kuzatish mumkin.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shundan darak beradiki, solishtirma mehnat sig'imi o'tgan yilga nisbatan 21,9 % ga (100-78,10), rejaga nisbatan esa 13,64 % (100 – 86,36) kamaygan. Ushbu omil hisobiga asosan soatlik ishlab chiqarish o'sishi ta'minlangan, u esa mehnat sarfi darajasi va me'yorlarning bajarilish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mehnat sig'imi qisqarishi hisobiga soatlik ishlab chiqarishni 15,8 % ($\frac{100 * 13,64}{100 - 13,64}$) ga oshirish rejalashtirilgan.

Haqiqatda soatlik ishlab chiqarish 28,04 % ga, jumladan mehnat sigʻimi qisqarishi hisobiga 28,04 % ($\frac{100 * 21,9}{100 - 21,9}$) ga oʻsdi.

Meʼyorlarning bajarilish darajasi avvalgidek oʻzgarmasdan qoldi, oʻrtacha soatlik ishlab chiqarish ortishiga esa butunlay mehnat sigʻimi qisqarishi evaziga erishildi.

4.8-jadval

Mehnat sigʻimining mehnat unumdorligiga taʼsiri

T/r	Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yil	Hisobot yili		Koʻrsatkichning oʻzgarishi		
			reja	haq.	reja oʻtgan yilga nisbatan	haqiqatda oʻtgan yilga nisbatan	haqiqatda rejaga nisbatan
1	Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming soʻm.	251222	266669	315642	106,15	125,64	118,36
2	Ishlangan kishi-soatlarning umumiy miqdori, ming kishi-soat.	1977,38	1898,21	1940,37	96,00	98,13	102,22
3	Ming soʻmlik mahsulot uchun mehnat sarfi, soat (2 - modda : 1 - modda)	7,87	7,12	6,15	90,44	78,10	86,36
4	Bir ishchining oʻrtacha soatlik ishlab chiqarishi, soʻm (str.1 : str.2)	127,05	140,48	162,67	110,58	128,04	115,79

Mehnat sigʻimi kamayishiga taʼsir qiluvchi aniq sabablarni belgilash uchun tashkiliy-texnik tadbirlar rejasi, yetkazib berishlar rejasi, ishlab chiqarish meʼyorlarini qayta koʻrib chiqish, bajarilishini tekshirish talab qilinadi. Mehnat sigʻimining bunday tahlili mahsulot tayyorlashning meʼyorlashtirilgan mehnat sigʻimi, norma-soatlarda asosiy ishchilar mehnat sarfi boʻyicha maʼlumotlar asosida olib boriladi.

Bazis, reja va amaldagi hisobot davri me'yorlari bo'yicha me'yorlashtirilgan mehnat sig'imi o'zgarishini tahlil qilish mahsulot mehnat sig'imi kamayishi bo'yicha ishlarni baholashga imkon beradi.

Norma-soatlarda mehnat sig'imining qisqarishi turli omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga quyidagilar kiritiladi: yanada mukammal mehnat asboblari paydo bo'lishini ta'minlovchi ilmiy-texnik taraqqiyot, yangi texnik qarorlar, foydalanilayotgan mashina, uskuna va instrumentlarning qo'llanilish sohasini takomillashtirish va kengaytirish; mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash bilan bog'liq chora-tadbirlar, ishchilar malakasi ortishi, ilmiy asoslangan ishlab chiqarish me'yorlarini joriy qilish va mehnatni me'yorlashtirishni tartibga solish; sotib olinadigan yarimfabrikatlar ulushi o'zgarishi.

Nazorat savollari

1. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi miqdoriy va sifat parametrlari bo'yicha qanday tahlil qilinadi?

2. Ishchilar sonining rejadan mutlaq va nisbiy og'ishlari nimani ko'rsatadi?

3. Korxonalarda mehnat resurslari harakatlanishini tavsiflash uchun qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi va ularning darajasi qanday aniqlanadi?

4. Ish vaqti fondiga qanday omillar ta'sir qiladi? Butun kunlik va smena ichidagi ish vaqti yo'qotishlari qanday aniqlanadi?

5. Mehnat unumdorligining umumlashtiruvchi, xususiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini ayting. Ular qanday hisoblanadi?

6. Mahsulot strukturasi va assortimentining mehnat unumdorligiga ta'siri qanday hisoblanadi?

7. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishiga qanday omillar ta'sir qiladi? Ular qanday hisoblanadi?

8. Ishchining soatlik ishlab chiqarishiga mehnat sig'imining ta'siri qanday hisoblanadi?

9. Ishga qabul qilish, ishdan bo'shash, xodimlar qo'nimsizligi bo'yicha aylanma koeffitsiyentlarini hisoblagan holda ishchilar harakatlanish ko'rsatkichlarini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	Soni, kishi
Ishga qabul qilingan ishchilar soni	297
Ishdan bo'shatilgan ishchilar soni	329
Jumladan:	
- shartnoma muddati va ish tugashi munosabati bilan boshqa korxonaga, qurilish va tashkilotlarga o'tkazilgan	21
- o'qishga kirganligi, harbiy xizmatga chaqirilganligi, pensiyaga chiqqanligi munosabati bilan	103
- o'z xohishiga ko'ra	100
- sababsiz ishga kelmaganligi va boshqa mehnat intizomidagi qoidabuzarliklar uchun	105
Ro'yxat bo'yicha ishchilar soni	1337

10. Mehnat unumdorligi dinamikasi va rejasining bajarilishini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Reja	Haqiqat	O'tgan yilga nisbatan reja, % da	O'tgan yilga nisbatan haqiqat, % da	Rejaning bajari-lishi, %
A	1	2	3	4	5	6
Mahsulot hajmi, ming so'm	338360	357000	363860			
Ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha soni	1897	1878	1870			
Jumladan ishchilar	1359	1320	1337			
Ishlab chiqarish xodimlarining umumiy sonida ishchilarning ulushi	?	?	?			
O'rtacha yillik ishlab chiqarish, ming so'm:						
a) bir xodimning	?	?	?			
b) bir ishchining	?	?	?			

11. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi rejasidan og'ishga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblang.

№	Ko'rsatkichlar	Reja	Hisobot	Og'ish (+,-)	
				summa	% da
1	Mahsulot hajmi, ming so'm	357000	363860		
2	Barcha ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarning umumiy miqdori, ming kishi-kun	306240	304836		
3	Barcha ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarning umumiy miqdori, ming kishi-soat	2388672	2362479		
4	Ishchilarning o'rtacha soni, kishi	1320	1337		
5	Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi				
6	Bir ishchining bir yilda ish kunlari soni				
7	Ish kunining o'rtacha davomiyligi, soatlarda				
8	Bir ishchining o'rtacha soatlik ishlab chiqarishi, so'm				

12. Foizlar farqi usulida mehnat resurslaridan foydalanishni tavsiflovchi omillarning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini hisoblang (tahlil uchun 11-topshiriqdagi jadval ma'lumotlaridan foydalaning).

t/r	Ko'rsatkichlar	Reja bajarilishi, %	Ko'rsatkich darajalari farqi, %	Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri, ming so'm	Omillar nomi
1	Ishchilarning o'rtacha soni				
2	Ishlangan kishi-kunlarning umumiy miqdori				
3	Ishlangan kishi-soatlarning umumiy miqdori				
4	Mahsulot hajmi				

V bob. MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

5.1. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining vazifalari va axborot ta'minoti

Ishlab chiqarish jarayoni mehnat vositalari va mehnat predmetlarining uzluksiz doiraviy aylanishini o'zida aks ettiradi. Buning natijasida ular shaxsiy iste'mol predmetlariga aylanadi va ishlab chiqarish sohasini tark etadi yoki ishlab chiqarishning yangi vositalari sifatida yana uning tarkibiga qo'shiladi.

Uzluksiz ishlab chiqarish jarayonida korxonani mehnat predmetlari bilan ta'minotini tashkil qilish samaradorligi, ulardan ishlab chiqarish jarayonida oqilona foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Mehnat predmetlariga quyidagilar kiritiladi: xomashyo va materiallar, qo'shimcha materiallar, yonilg'i va energiya, ta'mir uchun ehtiyot qismlar va boshqalar. Moddiy resurslarni iste'mol qilish jarayonida ularning moddiy xarajatlarga o'zgarishi sodir bo'ladi, shuning uchun xomashyo, materiallar, yonilg'i va energiyadan tejamkorlik bilan foydalanish mahsulot tannarxini pasaytiradi.

Material sig'imi, mehnat sig'imi, fond sig'imi, kapital qo'yilmalar darajasi, mahsulot tannarxi va korxonada foydasi o'rtasida o'zaro chambarchas aloqa mavjud. Boshlang'ich materiallarning material sig'imi kamayganda chiqindilar kamayishi hisobiga jonli mehnat tejamkorligi vujudga keladi, mahsulot tayyorlash mehnat sig'imi kamayadi.

Ayni vaqtda material sig'imining kamayishi bir xil dastgohda bir xil miqdordagi materillardan foydalangan holda vaqt birligida ko'proq miqdorda tayyor mahsulot olishga imkon beradi. Bu esa mehnat unumdorligi, fond qaytimi ortishiga, fond sig'imi kamayishiga olib keladi. O'z navbatida, muayyan hajmdagi mahsulot yaratish uchun fond sig'imini kamaytirish korxonalarda kapital qo'yilmalar hajmini nisbatan qisqarishini keltirib chiqaradi.

Mahsulotlar tannarxini kamaytirgan holda moddiy resurslardan oqilona foydalanish rentabellik va foyda o'sishi omili sanaladi. Lekin moddiy resurslardan tejamli foydalanish faqatgina ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar oshishiga olib kelmaydi. Mavjud texnologik tizimlarda inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish hajmining o'sishi shunga olib keldiki, tabiiy resurslarning tugash sur'ati va atrof-muhitning ifloslanish darajasi yo'l qo'yib bo'lmaydigan chegaraga yetib qoldi².

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yirik mutaxassislar E. fon Vaytsezeker, Eymari B. Lovins, L. Xanter Lovins texnologik tizimlarning rivojlanish tendensiyalari tahlili asosida quyidagi xulosaga keldilar:

Resurslar mahsuldorligini to'rt karra oshirish mumkin va shunday qilish lozim. Boshqacha aytganda, tabiiy resurslarni qayta ishlash hisobiga olinayotgan boyliklar to'rt karra oshishi darkor. Shuning evaziga biz ikki hissa yaxshi yashab, ikki hissa kamroq sarflashimiz mumkin bo'ladi³.

Moddiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tejash variantlarini izlash tahlilning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Moddiy resurslar tahlilining asosiy bosqichlari:

- moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash;
- moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining moddiy sarflar miqdoriga ta'sirini baholash;
- korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish;
- materiallarni sarflash me'yorlari asoslanganligini tahlil qilish;
- moddiy resurslarga optimal ehtiyojni asoslash.

Moddiy resurslar tahlili uchun axborot manbalari sifatida moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanish haqida va ishlab chiqarish xarajatlari haqida statistik hisobot, ta'minot bo'limining tezkor ma'lumotlari, moddiy resurslar kirimi, sarfi va qoldig'i haqida analitik buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, shuningdek, moddiy-texnik ta'minot rejalari, xomashyo va materiallar yetkazib berish shartnomalari kabilar xizmat qiladi.

² Иноземцев В.Л. За пределами экономического общества. М.: Academia- Наука, 1998. С. 578.

³ Мидоуз Донелла, Мидоуз Денис, Рандерс Й. За пределами допустимого: глобальная катастрофа или стабильное будущее? Новая постиндустриальная волна на Западе. Антология / Под ред. В.Л. Иноземцева. М.: Academia, 1999. С.600.

5.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik tahlili

Moddiy ta'minotni to'g'ri tashkil qilish korxonalar uzluksiz ishlashining asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Materiallarga rejaviy ehtiyoj quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M = M_e + Z_{m_{yo}} - Z_{m_{yb}}.$$

Bu yerda M – materiallarga rejaviy ehtiyoj;

M_e – rejadagi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlash uchun materiallarga ehtiyoj;

$Z_{m_{yo}}$ – davr oxiri uchun materiallar zaxirasi;

$Z_{m_{yb}}$ – davr boshi uchun materiallar zaxirasi.

Davr boshida zaxira tashkil qilish uchun moddiy resurslarga ehtiyoj uchta baho asosida aniqlanadi: 1) natural o'lchov birliklarida, bu ombor binolariga ehtiyojni belgilash uchun zarur; 2) qiymat bo'yicha – aylanma mablag'larga ehtiyojni aniqlash uchun; 3) ta'minlanganlik kunlarida – yetkazib berish grafigi bajarilishini rejalashtirish va nazorat qilish maqsadida.

Korxonaning kunlar bo'yicha zaxiralar bilan ta'minlanganligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Z_k = \frac{Z_{mi}}{R_{lgi}};$$

Bu yerda Z_k – kunlar bo'yicha xomashyo va materiallar zaxirasi;

Z_{mi} – i-turdagi material resurslarning natural yoki qiymat ko'rsatkichlarida ifodalangan zaxiralari;

R_{lgi} – i-turdagi material resurslarning xuddi shu o'lchov birligida bir kunlik sarfi.

Materiallarning bir kunlik sarfi tahlil davri uchun i-turdagi material resurslarning jami sarfini davrdagi kalendar kunlar miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi.

Zaxiralarni qoplashning ichki va tashqi manbalari mavjud.

Tashqi manbalarga tuzilgan shartnomaga muvofiq yetkazib beruvchilardan olingan material resurslar taalluqli sanaladi.

Ichki manbalar – bu xomashyoni chiqitga chiqarishni kamaytirish, ikkilamchi xomashyodan foydalanish, material va yarimfabrikatlarni o'zi tayyorlash, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy qilish natijasida materiallarni tejash.

Material resurslar bilan ta'minlanganlik tahlili jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

1) material resurslarga ehtiyojlarning ularni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi va uning bajarilishi;

2) yetkazib berishlar maromiyligi va ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga yetkazib berishdagi buzilishlar ta'siri;

3) tovar zaxiralari bilan haqiqatda ta'minlanganlikning rejadagi bilan muvofiqligi;

4) material resurslar bilan ta'minlash yetarli bo'lmaganligiga bog'liq ravishda ishlab chiqarish hajmining kamayishi.

Material resurslarga ehtiyojlarning yetkazib berish bo'yicha shartnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

- reja bo'yicha ta'minlanganlik koeffitsiyenti Kt.r:

$$K_{tr} = \frac{\text{Tuzilgan shartnomalar bo'yicha summa}}{\text{Rejaviy ehtiyoj}};$$

- haqiqatda ta'minlanganlik koeffitsiyenti Kt.h:

$$K_{t.h} = \frac{\text{Haqiqatda yetkazib berilgan material resurslar qiymati}}{\text{Rejaviy ehtiyoj}}.$$

Keltirilgan koeffitsiyentlar tahlili materiallarning har bir turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Yetkazib beruvchilardan olingan materiallar miqdori, ularning standartlar, texnik shartlar va shartnoma shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Agar materiallar pasaytirilgan navlilikda olingan bo'lsa, u holda bu mahsulot birligiga sarf-xarajatlar ortishiga yoki tayyor mahsulotlar sifatining mutanosib yomonlashishiga olib keladi. Bunday holatlar yengil sanoat uchun xos sanaladi. Mashinasozlik korxonalariga nomutanosib profilli metalloprokatlar kelib tushishi, odatda, materiallarni ortiqcha sarflash va chiqindi ko'payishiga, mehnat sig'imi ortishi va mahsulot tannarxi qimmatlashishiga sabab bo'ladi. Bundan yetkazib beruvchilardan olingan materiallar sifati va assortimenti

shartnoma shartlariga muvofiq yoki muvofiq emasligini oydinlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Tahlil jarayonida material resurslarni tashish ehtiyojining ularni yetkazib berish shartnomalari bilan ta'minlanganligi va haqiqatda bajarilishini tekshirish zarur.

5.1-jadval

Material resurslarning shartnomalar bilan ta'minlanganligi va haqiqatda bajarilishi

Materiallar nomi	Rejaviy ehtiyoj, tonna	Ehtiyojlarni qoplash manbalari, tonna		Shartnomalar tuzish, tonna	Yetkazib beruvchilardan kelib tushdi, tonna	Ehtiyojlar -ning shartnomalar bilan ta'minlanganligi, %	Shartnomalar -ning bajarilishi, %
		ichki	tashqi				
A	1	2	3	4	5	6=gr.4:gr.3	7=gr.5:gr.4
Saralangan konstruksion po'lat	1100	300	800	700	650	87,5	92,8
Ingichka listli po'lat	160	-	160	150	150	93,7	100,0
Mis prokat	1800	100	1700	1450	1450	85,3	100,0
Latun prokat	400	30	370	360	350	97,3	97,2

5.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sifatli po'lat materialiga ehtiyoj rejasi yetkazib berish bo'yicha shartnomalar hamda ichki qoplash manbalari bilan to'liq ta'minlanmagan.

Reja bo'yicha ta'minlanganlik koeffitsiyenti:

$$Kt.r = (300 + 700) : 1100 = 0,909.$$

Haqiqatda yetkazib berish rejasi 86,3 % ga bajarilgan.

$$Kt.r = (650 + 300) : 1100 = 0,863.$$

5.3. Ombor zaxiralari holati tahlili

Ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda ombor zaxiralarini to'ldirishni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir nomlanishdagi materiallar bo'yicha me'yorlar o'rnatilgan bo'lishi va

shu doirada ushbu zaxiralar o'zining maksimal miqdoridan minimal miqdorigacha tebranishi lozim.

Korxonaning moddiy qimmatliklar zaxirasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: normal saqlash zaxiralari – joriy va sug'urta (ehtiyot); texnologik va mavsumiy zaxiralar.

Zaxiraning maksimal me'yoriga sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning barchasi kiradi va u materiallarning navbatdagi partiyasi kelib tushgan vaqtdagi zaxiralar holatini aks ettiradi. Minimal me'yorga joriy zaxira kiritilmaydi. Bu me'yor joriy zaxira to'liq sarflangan va yetkazmalarning keyingi partiyasi kelib tushishi kutilayotgan davrdagi zaxiralar holatini aks ettiradi.

Tahlilda har bir nomlanishdagi materiallar ishlab chiqarish uchun sarflash kunlarida ifodalangan zaxiraning minimal me'yori bilan taqqoslanadi. Shu maqsadda quyidagi shaklli analitik jadval qo'llaniladi (5.2-jadval).

5.2-jadval

Material resurslar zaxira holati tahlili

Materiallar markasi nomi	O'rtacha sutkalik sarf, kg	Haqiqatdagi zaxira		Zaxira me'yori, kunlar		Maksimal me'yordan og'ish	
		kg	kunlar	maksimal	minimal	kunlar	kg
Po'lat markasi U-10	50	4800	96	35	25	+61	+3050
8mm li po'lat	51,4	3600	70	94	80	-24	-1233,6

Hisoblash: $96 - 35 = +61$ kun;

$61 * 50 = +3050$ kg.

Ushbu misolda hatto maksimal me'yor bilan taqqoslanganda ham U-10 po'latda sezilarli qoldiq mavjud. Ayni vaqtda boshqa turdagi po'lat 1233,6 kg kam.

5.4. Material resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Zaxiralarni tizimli aniqlash va mobilizatsiyalash, material sarflar va mahsulotning material sig'imini kamaytirish zarurati tahlilda

material resurslardan foydalanish samaradorligini har tomonlama tavsiflovchi va mahsulotning material sig'imini kamaytirish borasida korxonada faoliyatini rejalashtirish, hisobga olish, natijalarni tahlil qilishga imkon beruvchi ko'rsatkichlar tizimi qo'llanilishini nazarda tutadi. Material resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari **umumiy** va **xususiy**ga ajratiladi.

Umumiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiritiladi: mahsulotning material sig'imi; material qaytimi; mahsulot tannarxida material sarflarning ulushi; material resurslardan foydalanish koeffitsiyenti.

Material resurslar samaradorligining **xususiy ko'rsatkichlari** material resurslarning alohida elementlarini iste'mol qilish samaradorligini tavsiflash, shuningdek, alohida mahsulotlar material sig'imini baholash uchun qo'llaniladi. Alohida mahsulotlarning solishtirma material sig'imi qiymat, natural-qiymat va natural ifodada hisoblanishi mumkin.

Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash tartibi va ularning o'zgarish tendensiyalarini ko'rib chiqamiz.

Mahsulotning material sig'imi material sarfining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi va ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir so'miga to'g'ri keluvchi material sarfini ko'rsatadi:

$$M_e = \frac{M_z}{N_v}.$$

Bu yerda M_z – material sarfi; N_v – qiymat yoki natural ko'rsatkichlardagi mahsulot hajmi. Material sarfi tarkibiga xomashyo, asosiy va qo'shimcha materiallar, sotib olingan yarimfabrikatlar, yonilg'i, energiya kiritiladi.

Material qaytimi – material sig'imiga teskari ko'rsatkich, iste'mol qilingan resurslarning 1 so'miga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni tavsiflaydi:

$$M_0 = \frac{N_v}{M_z}.$$

Mahsulotlarning turlari bo'yicha **solishtirma material sig'imi** mahsulot birligi ishlab chiqarish uchun material sarfining mahsulotning ulgurji narxiga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich ham natural, ham qiymat ifodasida ifodalanishi mumkin. Solishtirma material sig'imini natural ifodada mahsulot tayyorlash uchun nisbatan bir

turdagi materiallar (1 kvт./s. elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun shartli yoqilg‘i miqdori yoki 1 kilomer kalava ishlab chiqarish uchun paxta tolasi miqdori) sarflanadigan korxonalaridagina aniqlash mumkin. Aksariyat korxonalarda mahsulot turli materiallardan tayyorlanadi, shuning uchun solishtirma material sig‘imini hisoblash faqat qiymat ifodasida amalga oshiriladi.

Material resurslardan foydalanish koeffitsiyenti – bu haqiqatdagi material sarfining rejalashtirilgan kalkulyatsiya bo‘yicha hisoblangan material sarfi miqdori va mahsulotning haqiqatdagi ishlab chiqarishi hamda assortimentiga nisbatidir.

Bu ko‘rsatkich haqiqiy material xarajatlari qiymatini reja bo‘yicha material xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi indeksiga ko‘paytmasiga bo‘lish orqali aniqlanadi va material sarfi me‘yoriga rioya qilinishini ko‘rsatadi:

$$K_m = \frac{M_h}{M_r * I_q}$$

Agar foydalanish koeffitsiyenti 1 dan katta bo‘lsa, materiallar ortiqcha sarflanayotganligini; K_m ning 1 dan kichik qiymati material resurslar tejalayotganligini anglatadi.

Material sig‘imining xususiy ko‘rsatkichlari material resurslarning alohida turlaridan (xomashyo sig‘imi, metall sig‘imi, energiya sig‘imi va boshqalar) foydalanish samaradorligini tavsiflash uchun, shuningdek, alohida mahsulotlarning material sig‘imi darajasini (mahsulot birligiga ishlatilgan barcha materiallar qiymatining uning ulgurji narxiga nisbati) tavsiflash uchun qo‘llaniladi.

5.5. Material resurslardan foydalanish tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha rejani muvaffaqiyatli bajarish uchun korxonada nafaqat xomashyo, yoqilg‘i va boshqa mehnat vositalari bilan o‘z vaqtida hamda to‘liq ta‘minlanishi zarur, balki ulardan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. Bu esa materiallarni sarflashning ilg‘or me‘yorlarini qo‘llash, yaroqsiz mahsulot chiqarishga yo‘l qo‘ymaslik yoki bu holatni minimumga tushirish, materiallardan faqat bevosita mo‘ljallanganligiga ko‘ra foydalanish, chiqindilarni to‘g‘ri qo‘llashni taqozo etadi.

Sanoat korxonalari sarfining umumiy miqdorida materiallar sarfi miqdori tayyorlanayotgan mahsulotning material sig‘imiga bog‘liq ravishda muhim ahamiyat kasb etadi. Material sarfi ulushi yetarli darajada keng oraliqda tebranadi – u yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida eng yuqori bo‘lsa, kon sanoati tarmoqlarida eng past ko‘rsatkichga ega.

Materiallarni saqlash, moddiy qimmatliklarni yo‘qotish va hisobdan chiqarish, keraksiz materiallarni tashqarida sotish, yo‘qotishlar uchun aybdor shaxslardan undirish masalalari, shuningdek, moddiy qimmatliklar qoldiqlarini inventarizatsiya qilish natijalari material resurslardan foydalanish tahlilida o‘z aksini topishi lozim.

Bunday tahlil materiallar qanchalik samarali sarflanayotganligi va mahsulot hajmi hamda tannarxiga qanday ta‘sir qilayotganligini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Mahsulotlar tannarxi kalkulyatsiyasi asosida tovar mahsulotning haqiqatdagi va rejalashtirilgan material sig‘imi aniqlanadi, keyin esa ular o‘rtasidagi farq topiladi.

2. Sarflardan olingan farqni tovar mahsulotni haqiqatdagi ishlab chiqarishga ko‘paytirgan holda materiallar tejalishi yoki ortiqcha sarfining umumiy miqdori topiladi. Hosil bo‘lgan umumiy miqdor material sig‘imi o‘zgarishining mahsulot tannarxiga ta‘sirini tavsiflaydi.

3. Materiallar tejalishi yoki ortiqcha sarfi miqdorini mos ravishda tovar mahsulotning haqiqatdagi yoki rejalashtirilgan material sig‘imiga bo‘lish yo‘li bilan tejash hisobiga qancha qo‘shimcha mahsulot olinganligi yoki ortiqcha sarf hisobiga ishlab chiqarish qancha kamayganligi aniqlanadi.

5.3-jadval

Tovar mahsulot material sig‘imi tahlili

t/r	Ko‘rsatkichlar	Hisobot yili		Rejadan og‘ish
		reja	haq.	
	A	1	2	3
1.	Moddiy xarajatlar, ming so‘m	143252	166730	+23478
2.	Ulgurji narxlarda korxonaning tovar mahsuloti, ming so‘m	220388	254550	+34162
3.	Tovar mahsulot material sig‘imi, so‘m (1-modda : 2-modda)	0,650	0,655	+0,005

4.	Rejadagi material sig'imi o'zgarishining ta'siri:	X	X	X
4.1	Mahsulot tannarxiga material sarflar(3-modda gr.3 *2-modda gr.2), ming so'm	X	X	+1272,7
4.2	Mahsulot hajmi, ortishi (+), kamayishi (-) (4.1-satr. ust .3 : 3-satr ust.1), ming so'm	X	X	-1958

Korxonada haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarishda 1272,7 ming so'mlik miqdorda materiallar ortiqcha sarflanishiga yo'l qo'ydi. Ushbu ortiqcha sarf bir so'm mahsulot uchun rejaga nisbatan haqiqatdagi sarf o'sishi bilan yuzaga kelgan. Sarflarning rejalashtirilgan me'yoriga rioya qilinganda korxonada qo'shimcha ravishda 1958 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarishi mumkin edi.

Asosiy va ikkinchi darajali kabi turlarga ajratiladigan (paxta tozalash va yog' zavodlari, go'sht kombinatlari va boshqa korxonalar), xomashyoning bir turidan bir necha turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladigan sanoat tarmoqlarida materiallardan foydalanish tahlilida tadqiqotning boshqa usuli qo'llaniladi. Bu yerda mahsulot birligiga materiallar sarfi ko'rsatkichi ishlatilmaydi, balki foydalaniladigan material birligiga mahsulot chiqish me'yorlari foizlarda aniqlanadi.

Tahlil haqiqatdagi chiqishlarni normativ bilan taqqoslash usulida olib borildi. Agar asosiy mahsulot chiqishi ortayotgan bo'lsa, korxonada faoliyatiga ijobiy baho berish mumkin bo'ladi.

Tovar ishlab chiqarishning umumiy material sig'imini yanada chuqurroq tahlil qilish asosida material sarfining qaysi elementlari uning o'zgarishiga ta'sir qilganligini aniqlaymiz. Sarf elementlari: xomashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarimfabrikatlar, qo'shimcha materiallar, yoqilg'i, energiya kesimida material sig'imining xususiy ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

5.4-jadval

Xususiy ko'rsatkichlar material sig'imining umumlashtirma ko'rsatkichiga ta'siri

Ko'rsatkich	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Rejadan og'ish
Taqqoslama narxlarda mahsulot ishlab chiqarish, ming so'm	220388	254550	+34162
Moddiy xarajatlar, ming so'm,	143252	166730	+23478

jumladan:			
- xomashyo va materiallar	45179	52946	+7767
Yarimfabrikatlar	84629	96474	+11845
Yoqilg'i	7934	8909	+975
Energiya	2865	5092	+2227
- boshqa moddiy xarajatlar	2645	3309	+464
Umumiy material sig'imi, tiyin, jumladan:	65,0	65,5	+0,5
- xomashyo qismida material sig'imi	20,5	20,8	+0,3
- yarimfabrikatlar material sig'imi	38,4	37,9	-0,5
- yoqilg'i material sig'imi	3,6	3,5	-0,1
- energiya sig'imi	1,3	2,0	+0,7
- boshqa materiallar bo'yicha material sig'imi	1,2	1,3	+0,1

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mahsulot material sig'imining rejaga nisbatan 0,5 tiyinga ortishi boshqa material sarflari bo'yicha xomashyo sig'imi, energiya sig'imi va mahsulot sig'imi mos ravishda 0,3; 0,7; 0,1 tiyinga ortishi oqibatida sodir bo'lgan. Boshqa teng sharoitlarda ushbu omillar hisobiga material sig'imi 1,1 tiyinga kamayishi mumkin edi (0,3 + 0,7 + 0,1). Qolgan materiallar bo'yicha mahsulot material sig'imining 0,6 tiyinga kamayishi e'tiborga loyiq (0,5 + 0,1).

Mahsulot material sig'imining o'zgarishi natijalari tannarx kalkulyatsiyasi asosida alohida mahsulotlar solishtirma material sig'imi tahlili bilan tasdiqlanishi lozim. Tahlil qilinayotgan korxonada mahsulot turli materiallardan tayyorlanganligi uchun va ularning katta qismi sotib olinadigan yarimfabrikatlardan iborat ekanligi sababli natural ko'rsatkichlarda solishtirma material sig'imini hisoblash maqsadga muvofiq emas.

Solishtirma material sig'imi tahlili uslub va usullari obyektни tanlashga bog'liq bo'ladi. Yangi mahsulotlar bo'yicha funksional-qiyamat tahlili asosida ushbu buyum o'z funksiyalarini bajarishi uchun mutlaq zaruriy minimum xarajatlarni hamda konstruktsiya va texnologiyalar nomukammalligi, mahsulot tayyorlashning samarasiz usuli bilan bog'liq qo'shimcha yoki ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlash mumkin. Yangi turdagi mahsulotlarni loyihalashtirish va konstruktorlik yechimlarni tanlash bosqichida konstruktiv va nisbiy material sig'imi tahlili o'tkaziladi. Korxonaning sa'y-harakatlari mahsulot konstruktsiyasi hamda materialdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish uchun

detal va uzellar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltilgan bo‘lishi lozim.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning eng yaxshi xorij namunalariga mutanosibligini aniqlash maqsadida eski mahsulot bo‘yicha ham bunday tahlilni amalga oshirish zarur.

Materiallardan foydalanish va uning mahsulot hajmiga ta‘sirini tahlil qilish yakunida material resurslardan foydalanishni yaxshilash asosida mahsulot hajmi o‘shishi uchun zaxiralar hisobi bajariladi. Ushbu hisobda materiallarning turli shakllari bo‘yicha sarflarni qisqartirishning aniqlangan barcha imkoniyatlari hisobga olinmaydi, balki yetishmasligi ishlab chiqarish o‘shishini chegaralab qo‘ygan materiallar bo‘yichagina hisob ishlari amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Korxonaning materiallar bilan ta‘minlanganligi va ulardan foydalanish tahlili oldida qanday asosiy vazifalar turadi?

2. Tahlilning asosiy bosqichlarini ayting.

3. Materiallardan foydalanish samaradorligining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?

4. Material sig‘imining xususiy ko‘rsatkichlarini ayting.

5. Solishtirma material sig‘imi o‘zgarishi sabablarini ayting.

6. Korxonalarda materiallar me‘yordan ortiqcha sarflanishiga olib keladigan qanday sabablar mavjud?

7. Material resurslar tejalishi zaxiralarining tashuvchilari hisoblanuvchi omillarning asosiy guruhlarini ayting.

8. Quyidagi ma‘lumotlar bo‘yicha xomashyo va materiallarning ombor holatini tahlil qiling.

Materiallar nomi	1-sana uchun haqiqatda qoldiq	Xarajat kunida haqiqatda qoldiq	Zaxira me‘yori, kunlarda		Me‘yordan og‘ish, kunlarda	Natural ifodada me‘yordan og‘ish
			maksimum	minimum		
A	1	2	3	4	5	6
Po‘lat U-10, kg	4800	96	35	15		
Po‘lat 8mm, kg	350	7	20	10		

9. Mahsulotning material sig‘imi ko‘rsatkichlarini aniqlang, u bo‘yicha biznes-reja bajarilishini baholang, uning dinamikasini tahlil qiling.

Ko‘rsatkich	O‘tgan yil	Hisobot yili		O‘tgan yilga nisbatan % da	Rejaga nisbatan % da
		reja	haq.		
Material sarfi, ming so‘m	33400	33496	33473		
Tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	76430	76715	77468		
Tovar mahsulot material sig‘imi, so‘m					

10. Oldingi jadval ma’lumotlari bo‘yicha rejaga nisbatan material sig‘imi o‘zgarishining mahsulot hajmiga ta’sirini hisoblang.

VI bob. MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH TANNARXI TAHLILI

6.1. Mahsulot tannarxi tahlili vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va axborot ta‘minoti

Mahsulot tannarxi – ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichidir. Unda xo‘jalik faoliyatining barcha jihatlari, barcha ishlab chiqarish resuruslaridan foydalanish natijalari aks ettiriladi. Mahsulot va xizmatlar tannarxi darajasiga foyda miqdori va rentabellik darajasi, korxonaning moliyaviy holati va to‘lov qobiliyati bog‘liq bo‘ladi.

Tannarxni pasaytirish muammolari ayniqsa hozirgi bosqichda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uni kamaytirish zaxiralarini izlash ko‘plab korxonalarga o‘z raqobatdoshligini oshirish, bankrotlikdan qochish va bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab qolishga ko‘maklashadi.

Tannarx ishlab chiqarish yoki mahsulotlar (ish, xizmatlar) – tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya, asosiy vositalar, mehnat resurslari, shuningdek, ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa sarflarni qayta ishlash jarayonida foydalaniladigan qiymat bahosini o‘zida aks ettiradi.

Avvallari mahsulot tannarxini pasaytirish tovarlar va xalq iste‘moli mollarining chakana narxini pasaytirish uchun obyektiv baza sifatida foydalanilgan. Haqiqatan, ushbu ko‘rsatkichning pasayishi bozor munosabatlari sharoitida ham oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste‘moli tovarlari narxini pasaytirish, real mehnat haqi, aholining turmush darajasini oshirishning obyektiv sharti hisoblanadi.

Bunday sharoitda korxonalar o‘rtasida o‘z mahsulotlarini sotish bozorlari uchun raqobat kurashi shakllanadi, kuchayadi va bu kurashda narxi siyosati keng qo‘llaniladi. Bunda korxonalar ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan tovarlar va mahsulotlar narxini turli yo‘llar bilan pasaytiradi, buning natijasida esa raqobat kurashida g‘olib chiqishga erishadi.

Tannarx tahlili quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha olib boriladi:

- tannarxning umumlashtiruvchi koʻrsatkichlari dinamikasi va uning oʻzgarish omillari tahlili;

- sarf-xarajatlarning iqtisodiy elementlari boʻyicha tannarx tahlili;

- 1 soʻmlik mahsulot uchun sarf-xarajat tahlili;

- sarf-xarajat tuzilmasi va dinamikasi tahlili;

- sarf-xarajatlarning moddalari boʻyicha tannarx tahlili;

- tannarxning moddalari boʻyicha omilli tahlili;

- tannarxni pasaytirish zaxiralarini aniqlash.

Tannarx tahlili vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- tannarx boʻyicha biznes-reja asoslanganligini baholash;

- tannarx boʻyicha eng muhim koʻrsatkichlar dinamikasini oʻrganish va ular boʻyicha tannarxni aniqlash;

- koʻrsatkichlar dinamikasiga taʼsir qiluvchi omillarni aniqlash va ular asosida haqiqatdagi sarf-xarajatlarning rejadagidan ogʻish miqdori va sabablarini topish;

- mahsulotlar tannarxini pasaytirish zaxiralarini aniqlash.

Asosiy axborot manbalari sifatida statistik hisobot maʼlumotlari; 3-moliya shakli “Tashkilot xarajatlari toʻgʻrisida”, 1 – mehnat shakli “Mehnat boʻyicha hisobot”, material, mehnat va pul mablagʻlari sarf-xarajatlarini aks ettiruvchi sintetik va analitik hisob maʼlumotlari, Mahsulot va alohida buyumlar (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish uchun sarf-xarajatlar haqida normativ maʼlumotlar.

6.2. Korxonalar xarajatlari tasnifi

Turli tasnifiy belgilarga koʻra korxonalar xarajatlarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

Ishlab chiqarish jarayonidagi funksiyalariga bogʻliq ravishda:

- ishlab chiqarish xarajatlari

- noishlab chiqarish xarajatlari

Mahsulot qiymatiga kiritilishiga bogʻliq ravishda:

- bevosita xarajatlar

- bilvosita xarajatlar

Sotilgan mahsulot bilan hisobdan chiqarish vaqtiga bogʻliq ravishda:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar

- davr xarajatlari.

Sotilgan mahsulot o'zgarishiga javob reaksiyasiga bog'liq ravishda:

- o'zgaruvchan xarajatlar
- doimiy xarajatlar
- doimiy-o'zgaruvchan xarajatlar

Tasniflashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, ularga muvofiq nazorat qilinadigan xarajatlar, mahsulot birligi uchun o'rtacha xarajatlar va boshqalar ajratiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- materiallar uchun bevosita xarajatlar
- mehnatga haq to'lash uchun bevosita xarajatlar
- qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari

Materiallar uchun bevosita xarajatlar va mehnatga haq to'lash uchun bevosita xarajatlar birlamchi xarajatlar, deb yuritiladi.

Mehnatga haq to'lash uchun bevosita xarajatlar va qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari konversion xarajatlar deyiladi. Konversion xarajatlar – bu materiallar qiymatini tayyor mahsulotga kiritish bo'yicha xarajatlardir.

Materiallar uchun bevosita xarajatlar va konversion xarajatlar miqdori mahsulotning to'liq ishlab chiqarish tannarxini hosil qiladi.

Noishlab chiqarish xarajatlari – bu bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlardir.

Noishlab chiqarish xarajatlari sotish xarajatlari, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar, umumiy va ma'muriy, boshqaruv, kreditlar bo'yicha foizlar to'lash xarajatlari va bevosita korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini noishlab chiqarish xarajatlaridan ajratish korxonaning faoliyat natijalariga ta'sir qiluvchi omillarning ixtisoslashtirilgan tahlili zarurati bilan o'zaro bog'liq.

Davr xarajatlari hisobotda ishlab chiqarish xarajatlarini korxonaning noishlab chiqarish xarajatlarining korxonaning asosiy faoliyati bilan bog'liq qismidan ajratish maqsadida alohida keltiriladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi va oqibati shuki, davr xarajatlari material-ishlab chiqarish zaxiralari qiymatiga kiritilmaydi va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarida kelgusi hisobot davrlariga o'tkazilmaydi.

Moliyaviy xarajatlar korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bogʻliq xarajatlardan iborat: kredit resurslari jalb qilish, qimmatli qogʻozlar bilan operatsiyalar, valyuta bilan operatsiyalar, uzoq muddatli ijaraga mablagʻ olish.

Favqulodda xarajatlar – bu korxonada faoliyatida favqulodda kamdan-kam hollarda yuzaga keladigan sarf-xarajatlar (zararlar). Ular odatiy faoliyat uchun xos emas va bir necha yillar davomida takrorlanmaydi, korxonaning boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bogʻliq emas (tabiiy ofat, urush, inqilob va boshqalar tufayli yoʻqotishlar).

6.2.1. Oʻzgaruvchan xarajatlar, doimiy va doimiy-oʻzgaruvchan xarajatlar

Oʻzgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oʻzgarishi bilan oʻzgarib boradi. Ularga materiallar uchun bevosita xarajatlar va mehnatga haq toʻlash uchun bevosita xarajatlar kiritiladi. Oʻzgaruvchan xarajatlarga dastgohlar tomonidan isteʼmol qilinadigan elektr energiyasi uchun toʻlov (ishlangan kishi-soatlarga proporsional), ishchilar mehnatiga haq toʻlash va boshqalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Oʻzgaruvchan xarajatlarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarish hajmi oʻsishi bilan mahsulot birligi uchun oʻzgaruvchan xarajatlar oʻzgarmasligicha qoladi (boshqa teng shart-sharoitlarda).

6.1-jadval

Xarajatlarning umumiy miqdori va mahsulot birligi tannarxining mahsulot hajmiga bogʻliqligi


Mahsulot hajmi, dona	Jami mahsulot tannarxi, mln soʻm.			Mahsulot birligi tannarxi, ming soʻm		
	doimiy xarajatlar	oʻzgaruvchan xarajatlar	jami	doimiy xarajatlar	oʻzgaruvchan xarajatlar	jami
500	50	40	90	100	80	180
1000	50	80	130	50	80	130
1500	50	120	170	33	80	113
2000	50	160	210	25	80	105
2500	50	200	250	20	80	100

Ishlab chiqarish hajmi 5 marta oshdi, mahsulot tannarxining doimiy xarajatlari 5 marta kamaydi ($100 : 20$), mahsulot birligi tannarxi 180 ming so‘mdan 100 ming so‘mgacha pasaydi.

Doimiy xarajatlar – bu mutlaq miqdori ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishida deyarli o‘zgarmaydigan xarajatlardir. Ularga bino uchun ijara to‘lovi, boshqaruv xodimlarining oylik mehnat haqi va boshqalar kiritiladi. Bu xarajatlar vaqt o‘tishi bilan o‘sishi mumkin, lekin ular ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgarmaydi. Ishlab chiqarish hajmi o‘sishi mahsulot birligi hisobida doimiy xarajatlarni tejashga olib keladi va mos ravishda mahsulot tannarxi ham pasayadi.

Doimiy-o‘zgaruvchan xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning aralashmasi hisoblanadi. Doimiy-o‘zgaruvchan xarajatlarning umumiy miqdori ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga muvofiq o‘zgaruvchan xarajatlar o‘zgargan yo‘nalishda o‘zgaradi, biroq bu o‘zgarish to‘g‘ri proporsional tusga ega bo‘lmaydi.

Doimiy-o‘zgaruvchan xarajatlarga misol tariqasida telefon uchun to‘lovni keltirish mumkin, bunda uning doimiy qismi – telefondan foydalanganlik uchun abonent to‘lovi, o‘zgaruvchan qismi – xalqaro so‘zlashuvlar uchun to‘lov.



6.1-chizma. Xarajatlar umumiy miqdorining ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi

Xarajatlar umumiy miqdorining ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi 1-chizmada keltirilgan. Absissa o‘qida mahsulot ishlab chiqarish

hajmi, ordinata o'qida esa – doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar miqdori joylashgan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi ortganda o'zgaruvchan xarajatlar o'sadi, ishlab chiqarish pasayganda kamayib, asta-sekin doimiy xarajatlar chizig'iga yaqinlashadi.

6.3. Ishlab chiqarish xarajatlarning umumiy miqdori tahlili

Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi tahlili xarajatlarni boshqarish tizimida ulkan ahamiyat kasb etadi. U ushbu ko'rsatkichning o'zgarish tendensiyalarini va uning darajasi bo'yicha reja bajarilishini aniqlash, uning o'sishiga omillar ta'sirini belgilash, zaxiralarni aniqlash va mahsulot tannarxini kamaytirish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha korxonada faoliyatini baholashga imkon beradi.

Mahsulot tannarxi tahlili, odatda, korxonaning umumiy xarajatlari dinamikasini o'rganishdan boshlanadi.

6.2-jadval

Korxonada umumiy xarajatlari dinamikasi tahlili, ming so'm

Xarajatlar	Haqiqatda		Hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan % da
	o'tgan yil	hisobot yili	
Jami xarajatlar	180529	223580	123,8
Jumladan:			
- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	167481	189213	112,9
- davr xarajatlari	9612	10043	104,5
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	3436	24324	707,9
- favqulodda zararlar	-	-	-

6.2-jadval ma'lumotlari nafaqat ishlab chiqarish tannarxi – korxonada xarajatlarning asosiy qismi, davr xarajatlari o'zgarishini aniqlashga imkon beradi, balki o'ziga xos bozor munosabatlarida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda mazkur korxonada ishtirok darajasini ham aniqlaydi. Ko'rinib turibdiki, korxonada hisobot yili uchun deyarli barcha turdagi xarajatlar o'tgan davrga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunda korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar 7,07 marta o'sgan, bu esa moliyaviy faoliyat faollashganligidan darak beradi.

6.4. Mahsulotning 1 so‘mi uchun xarajatlar tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulot bir so‘mi uchun xarajatlar – mahsulot tannarxining muhim umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, ishlab chiqarish tannarxining ulgurji narxdagi korxonah mahsuloti hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Mahsulotning bir so‘mi uchun xarajatlar qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u universal, chunki ishlab chiqarishning ixtiyoriy sohasida hisoblanishi mumkin, ikkinchidan, tannarx va foyda o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqani yaqqol ko‘rsatadi.

Tahlil jarayonida bir so‘mlik mahsulot uchun xarajatlar dinamikasini o‘rganish va mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha qiyosiy tahlilni amalga oshirish talab etiladi.

6.3-jadval

1 so‘mlik mahsulot uchun xarajatlar dinamikasi

Yil	Tahlil qilinayotgan korxonah		Raqobatchi korxonah		Tarmoq bo‘yicha o‘rtachah	
	ko‘rsatkich darajasi, tiy.	o‘shish sur‘ati, %	ko‘rsatkich darajasi, tiy.	o‘shish sur‘ati, %	ko‘rsatkich darajasi, tiy.	o‘shish sur‘ati, %
2012	84,2	100	84,0	100	86,5	100
2013	83,6	99,3	83,0	98,8	86,3	99,8
2014	82,5	98,0	81,5	97,0	85,5	98,9
2015	82,0	97,4	81,0	96,4	86,1	99,5
2016	81,3	96,5	80,2	95,5	83,9	97,0

Keltirilgan ma‘lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, tahlil qilinayotgan korxonahda bir so‘mlik mahsulot uchun xarajatlar raqobatlashayotgan korxonahalarga nisbatan sekinroq pasaymoqda. Mazkur ko‘rsatkich darajasi soha bo‘yicha o‘rtachadan pastroq.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning bir so‘mi uchun qilingan xarajatlarni tahlil qilishda belgilangan topshiriqning bajarilishi, sarf-xarajatlar kamayishi, rejaga nisbatan tannarxning mutlaq miqdorda va foizlarda o‘zgarishi sabablari aniqlanadi.

Rejaviy sarf-xarajatlardan og‘ishga ta‘sir qiluvchi omillar

Bir so‘mlik mahsulot uchun haqiqatdagi xarajatlar quyidagi omillar ta‘sirida rejadan og‘ishi qayd qilinadi:

a) mahsulot tarkibi va assortimenti;


- b) mahsulot tannarxi;
- v) ishlatilgan material resurslar uchun narx va tariflar;
- g) mahsulot narxi.

Tannarx darajasiga ta'sir qiluvchi omillar 6.2-chizmada keltirilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi barcha mahsulotlar jami tannarxiga ta'sir o'tkazadi, shuning uchun xarajatlar darajasini o'rganishda mazkur ko'rsatkich hisobga olinmaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tarkibi va assortimentining rejaga nisbatan o'zgarishi. Ushbu omil bir so'mlik mahsulot uchun xarajatlar miqdoriga ta'sir qiladi, chunki tannarxning korxonaga ulgurji narxiga nisbati har xil turdagi mahsulotlar bo'yicha bir xil emas. Ayrim mahsulotlarning narxida tannarx ulushi kamroq, foyda ulushi esa yuqori, boshqa buyumlar narxida buni aksini kuzatish mumkin. Boshqa teng sharoitlarda tannarx ulushi korxonaga bo'yicha o'rtacha narxdan past bo'lgan nisbatan rentabelli mahsulotlarda solishtirma og'irlikning ortishi shunga olib keladiki, 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlarning o'rtacha miqdori pasayadi; nisbatan rentabelli mahsulotlarda solishtirma og'irlik ortishi kuzatilganda 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlarning o'rtacha miqdori ham ortadi. Mahsulot tarkibidagi siljishlar 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlarning o'rtacha miqdori ortishiga, o'z navbatida, uning rentabellik darajasi pasayishiga olib kelmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahsulotning 1 so'mi uchun xarajatlar miqdori qisqarishi uning sifati yaxshilanishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Tabiiyki, mahsulotlar sifatining yomonlashuvi 1 so'mlik mahsulot uchun unumsiz xarajatlarning ortishini keltirib chiqaradi. Tahlilda aynan qanday mahsulotlar hisobiga 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlarda o'zgarish sodir bo'lganligini aniqlash talab qilinadi. Buning uchun birinchi navbatda 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlar miqdori o'rtachadan yuqori va ulushi mahsulotlarning umumiy hajmida sezilarli o'zgargan mahsulot hamda xizmatlarga e'tibor qaratiladi.

Tannarx darajasining o'zgarishi. Xarajatlar darajasiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil mahsulot tannarxining o'zgarishi hisoblanadi. Ushbu o'zgarishlarni aniqlash uchun narxlangan va reja uchun qabul qilingan haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 1 so'mi uchun haqiqatdagi xarajatlar haqiqatdagi mahsulot hajmi uchun reja bo'yicha xarajatlar bilan taqqoslanadi. 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi yiriklashtirilgan omillarni baholash jiddiy amaliy ahamiyatga ega.



6.2-chizma. Xarajatlar darajasiga ta'sir qiluvchi omillar tizimi

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish jarayonida nima va qay tariqa tejamkorlik miqdori va darajasiga ta'sir qilganligini bilish zarur. Rejadan tashqari tejamkorlik mahsulot strukturasi o'zgarishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin yoki kalkulyatsiya moddalari bo'yicha xarajatlar darajasi pasayishi natijasi bo'lishi mumkin.

Material resurslar uchun narx va tariflar o'zgarishi. O'rnatilgan tartibda iste'mol qilinayotgan materiallar narxi, shuningdek, yuk tashish va energiya narxi pasayishi mahsulotlar tannarxi kamayishiga, ularning narxi ko'tarilishi esa tannarx oshishiga olib keladi. Bundan esa 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlar o'zgarishi yuzaga keladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot narxining o'zgarishi teskari yo'nalishda

ta'sir qiladi, xususan, sotish narxlari qancha kam bo'lsa, xuddi shu tannarxda 1 so'mlik mahsulot uchun xarajatlar miqdori shuncha ko'p bo'ladi.

Tovar mahsulot narxi o'zgarishi. Korxonada mahsulotlarining ulgurji narxi pasayganda boshqa teng sharoitlarda ulgurji narxda ishlab chiqarilgan mahsulotning 1 so'mi uchun xarajatlar ortadi. Va aksincha, korxonada mahsulotlarining ulgurji narxi ko'tarilganda mahsulotning 1 so'mi uchun xarajatlar kamayadi.

6.5. Tannarx elementlari va moddalari bo'yicha xarajatlar tahlili

Elementlari bo'yicha ishlab chiqarish uchun xarajatlarni tahlil qilishda nafaqat hisobot, balki o'tgan davr uchun ma'lumotlardan foydalanish va xarajatlarning alohida elementlarining ishlab chiqarish xarajatlari umumiy miqdoriga nisbatini foizlarda aniqlash zarur, bu jadvalda amalga oshirilgan.

Elementlar bo'yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlari smetasini ishlab chiqishga imkon beradi, unda tashkilotning material resurslarga umumiy ehtiyoji, summa asosiy vositalardan amortizatsiya ajratmalari miqdori, mehnatga haq to'lash xarajatlari va korxonaning boshqa pul xarajatlari belgilanadi.

Guruhlash asosida xarajatlarni turdosh iqtisodiy elementlar bo'yicha aks ettirish tamoyili yotadi.

Guruhlash aylanma mablag'larni rejalashtirish va ularning foydalanilishi ustidan nazorat qilish uchun tannarx bo'yicha rejani boshqa bo'limlar bilan muvofiqlashtirish uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy elementlar bo'yicha buxgalteriya hisobi yuritiladi va ishlab chiqarish uchun xarajatlarning umumiy miqdori bo'yicha pul hisoboti tuziladi.

Iqtisodiy elementlar bo'yicha xarajatlarni guruhlash korxonaning material va pul sarf-xarajatlarini ularni mahsulotlarning alohida turlari va boshqa xo'jalik ehtiyojlariga taqsimlamagan holda ko'rsatadi.

Umumiy xarajatlarda alohida iqtisodiy elementlar nisbati ishlab chiqarish xarajatlari nisbatini belgilaydi. Tarkibi bo'yicha xarajatlarni o'rganish shu bilan shartlanganki, o'tgan yil va reja bo'yicha xarajatlari ishlab chiqarishning mutanosib hajmlarini tavsiflaydi va hisobot davri mahsulotida qayta hisoblanmaydi. Shuning uchun

mahsulotlarning turli hajmlarida mutlaq miqdordagi xarajatlarni taqqoslash o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

Mahsulot (ish, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar o‘z iqtisodiy mazmuniga mos ravishda quyidagi elementlarga guruhlanadi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytadigan chiqindi qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xarakteridagi mehnat uchun haq to‘lash;

- ishlab chiqarish xodimlari bo‘yicha ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;

- asosiy vositalar va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq mahsulot tannarxiga ma’muriy, tijorat, umumxo‘jalik va moliyaviy xarajatlar kiritilmaydi. Har bir hisobot davrining mazkur xarajatlari mahsulot sotishdan foyda kamayishi hisobiga yoziladi.

Bundan tashqari, oldinroq mahsulot tannarxiga kiritilgan barcha xarajatlardan bevosita ishlab chiqarish (korxonaning asosiy faoliyati) ga aloqadorlari, ya’ni yuqorida qayd qilinganidek, materiallar uchun bevosita va bilvosita xarajatlar, mehnatga bevosita va bilvosita xarajatlar, ishlab chiqarish xarakteridagi qo‘shimcha xarajatlar ajratiladi.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, moddiy xarajatlarning ulushi oldingi davrga nisbatan oshgan. Bu shartnoma asosida xomashyo va materiallar yetkazib berish ulushi ortishi oqibati bo‘lib, mahsuldorlik o‘sishi va tannarx pasayishiga imkon beruvchi ancha ijobiy holat sanaladi.

Ishlab chiqarish xodimlari mehnat haqining ulushi 20,5% dan 19,1% gacha pasaygan. Ushbu pasayish yangi texnikalarni joriy qilish, texnologiyalarni takomillashtirish, o‘zi ishlab chiqaradigan detal va uzellarni sotib olinadigan mahsulot va yarimfabrikatlar bilan almashtirish negizida mehnat sig‘imi qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Amortizatsiya ajratmalarining ulushi biroz kamaygan bo‘lsa-da, ularning mutlaq miqdori o‘sgan.

Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlarning (ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar, ishlab chiqarish

jarayoniga taalluqli mehnat safari xarajatlari, yaroqsiz mahsulotlardan yo‘qotishlar, bekor to‘xtab turish va boshqalar) ulushi pasaygan. Ishlab chiqarish smetasi bajarilishi, xarajatlar dinamikasi, texnik-iqtisodiy va boshqa ko‘rsatkichlar tahlili jarayonida pirovard rejalashtirilgan davr uchun xarajatlarni kamaytirish imkoniyati aniqlanadi.

6.4-jadval

Iqtisodiy elementlar bo‘yicha xarajatlar tarkibi va dinamikasi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil		Hisobot yili	
	summa, ming so‘m	salmog‘i, %	summa, ming so‘m	salmog‘i, %
Material sarflar	116734	69,7	134720	71,2
Mehnat haqi xarajatlari	34334	20,5	36140	19,1
Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar	7537	4,5	8325	4,4
Amortizatsion ajratmalar	6029	3,6	6433	3,4
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	2847	1,7	3595	1,9
Jami ishlab chiqarish tannarxi	167481	100	189213	100
Jumladan:				
-o‘zgaruvchan xarajatlar	125611	75	144370	76,3
-doimiy xarajatlar	41870	25	44843	23,7

Xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlash bilan bir qatorda ishlab chiqarish xarajatlari **xarajatlar moddalari** (kalkulyatsiya moddalari) bo‘yicha rejalashtiriladi va hisobga olinadi.

Xarajatlar moddalari bo‘yicha tannarxni rejalashtirish va hisobga olish tannarxning mazkur darajasi qanday omillar ta‘sirida shakllanganligi va uni qanday yo‘nalishlarda kamaytirish mumkinligini aniqlash uchun zarur.

Kalkulyatsiya moddalari tahlili rejadagi va haqiqatdagi xarajatlarni taqqoslash, keyin esa birinchi navbatda tannarx tarkibida eng yuqori solishtirma og‘irlikka ega moddalar bo‘yicha og‘ishlarni va ularning sabablarini o‘rganishga asoslangan.

Tannarx bo‘yicha reja bajarilishiga har bir modda bo‘yicha alohida tejamkorlikning ta‘siri nafaqat ushbu modda bo‘yicha xarajatlarni kamaytirish sur‘atiga, balki shu moddaning mahsulot tannarxining umumiy miqdoridagi ulushiga ham bog‘liq. Bu ta‘sir ($s_1 q_1$) modda

bo'yicha xarajatlarning bazis darajasidan og'ishlarning mutlaq miqdorini rejaviy mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga yoki uning boshqa bazis darajasiga bo'lish yo'li bilan foizlarda o'lchanadi

$$\left(\sum_1^n S_r * q_1 \right),$$

$$\text{aynan } DS_i q_1 \% = \frac{DS_i q_1 * 100}{\sum_1^n S_r * q_1}.$$

Tannarxni umumiy pasaytirishda moddalarning alohida guruhlarining ulushli ishtirokini aniqlash tahlilni keyinchalik detallashtirish uchun muhim sanaladi.

Agar shunday dalillar aniqlangan bo'lsa, birinchi navbatda alohida moddalar bo'yicha xarajatlarning bazis darajaga nisbatan ortishi sabablari va noishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish zarur. Keyin esa korxonaga bog'liq bo'lmagan narx va tariflar o'zgarishi omillari, shuningdek, hukumat qaroriga ko'ra mehnat haqi oshirilishining tannarxga ta'sirini aniqlash talab etiladi.

Mahsulot tannarxi va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumotlar bilan tanishilgandan so'ng har bir modda bo'yicha alohida va avvalo ortiqcha xarajatlar aniqlangan moddalar bo'yicha omilli tahlilga o'tiladi.

Demak, bozor munosabatlarida mahsulot tannarxi ahamiyati keskin o'sdi. Iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan mahsulot tannarxining pasayishi ahamiyati korxonaga uchun quyidagilardan iborat:

- korxonaga tasarrufida qoladigan foydaning ortishi, o'z navbatida, nafaqat oddiy, balki kengaytirilgan ishlab chiqarishda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi;
- xodimlarni moddiy rag'batlantirish va korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilish imkoniyati kengayishi;
- korxonaning moliyaviy holati yaxshilanishi va bankrotlik riski darajasi kamayishi;
- o'z mahsulotining sotish narxini kamaytirish imkoniyati mahsulotlar raqobatbardoshligini sezilarli darajada yuksaltirish va sotish hajmini oshirishga imkon beradi;
- aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot tannarxi pasayishi, bu dividendlar to'lash va ularning stavkasini oshirish uchun yaxshi manba hisoblanadi.

6.6. Moddiy xarajatlarning omilli tahlili

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlar eng katta solishtirma og'irlikka ega bo'lib, bu oziq-ovqat sanoatining ayrim tarmoqlarida 90% gacha yetsa, mashinasozlikda qariyb 65%ga teng. Shuning uchun sanoatning material sig'imli tarmoqlarini tahlil qilishda asosiy e'tibor moddiy xarajatlarning asosiy moddalari bo'yicha reja bajarilishi va dinamikasini o'rganishga qaratilib, ulardagi tejamkorlik mahsulot tannarxini umumiy pasaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Moddiy xarajatlarning asosiy qismi, aynan esa: mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo, materiallar va sotib olinadigan yarimfabrikatlar xarajatlari, texnologik ehtiyojlar uchun yonilg'i va energiya hisobotda tannarxni kalkulyatsiyalashda tannarxning mustaqil moddalari sifatida ajratiladi.

Tahlil jarayonida korxonada tomonidan material resurslarni sarflash me'yorlarini pasaytirish bajarilishiga; haqiqatdagi natijalarning rejadagi yoki normativdan og'ishlarini aniqlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Og'ishlar sabablari, shuningdek, mahsulot tannarxini kamaytirish zaxiralarini aniqlash maqsadida haqiqatda qilingan xarajatlarning mahsulot tannarxi darajasiga ta'siri o'rganiladi.

Moddiy xarajatlar darajasining rejaviy va oldingi davrdan, ilg'or me'yor va boshqa taqqoslash bazalaridan og'ishlari sabablarini o'rganishda ushbu sabablar uch guruhga ajratiladi, ular shartli ravishda **narx, me'yor va almashtirish omillari**, deb nomlanadi.

Omillarning uchala guruhining umumqabul qilingan nomlari shartliligi quyidagidan iborat. **Narx omili** deganda, nafaqat xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilarning narxlari, balki transport-tayyorlash xarajatlari o'zgarishi ham tushuniladi. **Me'yor omili** nafaqat moddiy xarajatlari me'yorlari o'zgarishini, balki mahsulot birligiga haqiqatdagi xarajatlarning (solishtirma xarajatlar) o'rnatilgan me'yordan og'ishini ham aks ettiradi. **Almashtirish omili** deganda, faqatgina material resurslarning bir turini boshqasi bilan to'liq almashtirish ta'siri tushunilib qolmay, aralashma (retseptura) dagi nisbat o'zgarishlari va foydali moddalar miqdori ham tushuniladi.

Narx omili, ya'ni materiallarning tayyorlash tannarxini belgilab beruvchi omillar guruhi yetkazib beruvchilarning ulgurji narxlari bo'yicha materiallar qiymati va transport-tayyorlash xarajatlardan shakllanadi.

Transport-tayyorlash xarajatlari darajasi qator shart-sharoitlarga bogʻliq: tashish uzoqligi, transport turi, uning yuk koʻtarish qobiliyatidan foydalanish, yuklash va ombor operatsiyalari mexanizatsiyasi. Ularning xaridor korxonaga taʼsir darajasi turlicha. Ushbu shartlarning taʼsirini aniqlash qiyin, chunki ularning oʻzgarishlari haqida umumlashtirilgan koʻrinishda axborotlar mavjud emas. Odatda, jiddiy oʻzgarishlar (masalan, temir yoʻl transporti oʻrniga samolyotda tashish) haqida maʼlumotlarni taʼminot boʻlimi va buxgalteriya toʻplaydi.

Tannarxni pasaytirishda naturada materiallar tejamkorligi – meʼyor omili va materiallarni oqilona almashtirish – almashtirish omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Gap shundaki, narx omili taʼsirida moddiy xarajatlar tejamkorligi moddiy xarajatlar moddalari boʻyicha miqdor kamayishi orqali tannarx pasayishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Meʼyor omili va almashtirish omili taʼsirida tejamkorlik esa nafaqat ushbu moddalarga bevosita taʼsir koʻrsatadi, balki mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonni yuzaga keltiradi va bu bilan mahsulot birligiga doimiy xarajatlar darajasi qisqarishiga ham bilvosita taʼsir qiladi. Shunday qilib, almashtirish va meʼyor omillari hisobiga moddiy xarajatlar tejamkorligining mahsulotlar tannarxini pasaytirishga taʼsir diapazoni narx omiliga nisbatan kengroqdir.

6.5-jadval

**Oshxona servizi ishlab chiqarishga materiallar sarfi.
Hisobot kalkulyatsiyasi maʼlumotlari**

Materiallar nomi	Reja boʻyicha			Hisobot boʻyicha		
	mahsulot bir- ligiga sarf, kg	material narxi, soʻm	material sarflar miqdori, soʻm	mahsulot birligi- ga sarf, kg	material narxi, soʻm	material sarflar miqdori, soʻm
A	1	2	3	4	5	6
Gil	3,35	1529	5122,1	3,50	1500	5250
Kaolin	15,16	1369	20754	15,26	1380	21058,8
Dala shpati	-	-	480	-	-	-
Kvarts – qum	5,44	1184	6440,9	5,54	1190	6592,6
Pegmatit va b.	-	-	444	-	-	460
Jami	-	-	33241	-	-	33361,4

**Material sarflar miqdoriga “me’yor” omili, “narx” omili va
“materiallarni almashtirish” omili ta’sirini hisoblash**

Materiallar nomi	Moddiy xarajatlar, so‘m			Rejadan og‘ish (+,-)			
	reja, rejaviy me’yor va rejaviy narxlarda	haqiqatda, haqiqiy me’yor va narxlarda	shartli, pri haqiqiy me’yor va rejaviy narxlarda	jami gr.8-gr.7	jumladan quyidagilar hisobiga		
					me’yor gr.9-gr.7	narx gr.8-gr.9	almashtirish
A	7	8	9	10	11	12	13
Gil	5122,1	5250	5351,5	+127,9	+229,4	-101,5	-
Kaolin	20754	21058,8	20890,9				
Dala shpati	480	-	480	-175,2	-	-312,1	+136,9
Kvarts qum	6440,9	6592,6	6559,3	+151,7	+118,4	+33,3	-
Pegmatit va b.	444	460	460	+16	+16	-	-
Jami	33241	33361,4	-	+120,4	+363,8	380,3	+136,9

Oshxona servizi ishlab chiqarish moddiy xarajatlari materiallarni almashtirish va moddiy xarajatlar me’yorlariga rioya qilinmaganligi hisobiga rejaga nisbatan 120,4 so‘m ko‘paygan. Material narxining pasayishi moddiy xarajatlar 380,3 so‘m tejalishiga olib kelgan.

Endi moddiy xarajatlar darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblash metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Avvalo, umumiy og‘ish, ya’ni hisobot bo‘yicha va reja bo‘yicha xarajatlar miqdori o‘rtasidagi farq topiladi (6.6-jadvalning 8-7 g‘alariga qarang).

Materiallarning solishtirma xarajatlari o‘zgarishining moddiy xarajatlar miqdoriga ta’sirini o‘lchash uchun haqiqatdagi va rejaviy xarajatlarni bir xil bahoga taqqoslash zarur. Shu maqsadda qayta hisoblangan ko‘rsatkich miqdori xarajatlarning rejalashtirilgan miqdori (rejaviy miqdorni rejaviy narxga) bilan har bir band bo‘yicha alohida ravishda taqqoslanadi. Farq me’yor hisobiga og‘ishni ko‘rsatadi (gr.9-gr.7).

Narx omili ta'siri sarflangan materiallarning bir xil haqiqatdagi miqdorini ikki bahoda – haqiqatdagi va rejaviy narxda taqqoslash yo'li bilan, ya'ni qayta hisoblangan ko'rsatkichni xarajatlarning haqiqiy miqdoridan chiqarib tashlash natijasi sifatida o'lchanadi (gr. 8 – gr. 9).

Endi esa almashtirish ta'sirini aniqlash qoldi. Bir materialni ikkinchisi bilan to'g'ridan-to'g'ri almashtirish emas, balki retsepturani o'zgartirish, ya'ni rejada nazarda tutilganga qaraganda boshqacha nisbatda bir necha materiallarni saralash amaliyotda tez-tez qayd qilinadi. Almashtirish natijasi haqiqatda foydalanilgan materiallar to'plamining rejaviy tannarxini rejalashtirilgan tannarx bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

Qayta hisoblangan ko'rsatkich uchun ajratilgan grafalarda haqiqatda foydalanilgan materiallar to'plami yoziladi, lekin reja bo'yicha 21234 so'm (20754+480) o'rniga rejaviy tayyorlash tannarxi bo'yicha jami 21370,9 so'm (20890,9+480). O'z navbatida, almashtirish hisobiga qimmatlashish 136,9 so'mga teng bo'lgan bo'lsa, ayni vaqtda sarflangan dala shpatini tayyorlash tannarxi 312,1 so'mga kamaygan (narx omili).

6.7. Mehnat haqi xarajatlari tahlili

Mehnat xarajatlari mahsulot tannarxida sezilarli solishtirma og'irlikka ega va uning darajasi shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat haqi dinamikasi tahlili, uning mahsulot tannarxidagi ulushi, uning miqdorini belgilab beruvchi omillarni o'rganish va ushbu xarajatlar moddasi bo'yicha mablag'larni tejash zaxiralarini izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat haqi ko'plab iqtisodiy funksiyalarni bajaradi, ularning orasida ikkita asosiysini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, u aholi pul daromadlarining asosiy manbasi hisoblanadi, shuning uchun ishlovchilar, ularning oila a'zolari turmush va farovonlik darajasini belgilab beradi. Ularning nafaqat mehnatga, balki boshqa ko'plab ijtimoiy masalalarga nisbatan munosabatini shakllantiradi.

Ikkinchidan, mehnatga haq to'lash xo'jalik mexanizmining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi, ishlab chiqarish samaradorligiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

“Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to‘lash uchun xarajatlar” elementiga quyidagi moddalar kiritiladi:

1. Korxonalarda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakl va tizimlariga muvofiq ishbay baho, tarif stavkalari va lavozim oyliklaridan kelib chiqib hisoblangan mehnat haqi.

2. Rag‘batlantirish xarakteridagi to‘lovlar: ishlab chiqarish natijalari uchun mukofotlar, kasb malakasi uchun tarif stavkalari va oylikka ustamalar.

3. Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq kompensatsiyalash xarakteridagi to‘lovlar: tungi vaqtda ishlash, ish vaqtdan tashqari, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlash uchun tarif stavkalari va oylik mehnat haqiga ustama va qo‘shimcha haq to‘lash.

4. Amaldagi qonunchilikka muvofiq navbatdagi (har yillik) va qo‘shimcha ta‘tillar (foydalanilmagan ta‘til uchun kompensatsiyalar), o‘smirlarning imtiyozli soatlari, onalar ishida bolasini ovqatlantirish uchun tanaffuslar uchun to‘lovlar.

5. Mehnat haqi qisman saqlangan holda majburiy ta‘tildagi xodimlar uchun to‘lovlar va boshqalar.


6.3-chizmada mehnatga haq to‘lash mablag‘lari omilli tizimining mahsulot tannarxidagi tuzilmaviy-mantiqiy modeli tasvirlangan.

Endi modelga kiritilgan asosiy omillarning ta‘sir xarakterini ko‘rib chiqamiz.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlarining o‘zgaruvchan qismi ishbay baholar bo‘yicha to‘lovlar, ishbaychilar va vaqtbaychilar uchun mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha eng yaxshi sifat yoki miqdoriy ko‘rsatkichlarga erishganligi uchun mukofotlar to‘lash hamda mehnat haqining o‘zgaruvchan qismiga taalluqli ta‘tilning bir qismini o‘z ichiga oladi. Ko‘rsatilgan haq to‘lash turlari avvalo ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘ladi. U qanchalik ko‘p bo‘lsa, ishchilarga hisoblanadigan mehnat haqi shuncha yuqori bo‘ladi. Hajm omili tuzilma omili bilan, ya‘ni katta yoki kichik mehnat sig‘imi va mos ravishda mahsulot birligi uchun haq to‘lashga ega alohida mahsulotlarning ulushi o‘zgarishi bilan birgalikda ta‘sir qiladi, bu esa ishbay asosida ishlovchilar mehnati uchun hisoblangan mehnat haqi o‘zgarishiga olib keladi.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlarining o‘zgaruvchan qismi ta‘sir qiluvchi uchinchi omil mahsulot birligi uchun bevosita mehnat haqi to‘lash hisoblanadi. U ham o‘z navbatida, ilmiy-texnik taraqqiyot va ishlab chiqarish hamda mehnatni tashkil qilish yaxshilanishi omillari

ta'sirida o'zgaruvchi mahsulot birligi uchun mehnat sig'imi va soatbay mehnat haqi to'lashga bog'liq bo'ladi.



6.3-chizma. Mahsulot tannarxi tarkibida mehnatga haq to'lash mablag'lari omilli tizimining tuzilmaviy-mantiqiy modeli

6.7.1. Mehnat haqi fondining mutlaq yoki nisbiy tejalishi yoki ortiqcha sarflanishini aniqlash

Mehnat haqi fondidan foydalanishni tahlil qilishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda uning miqdoridagi mutlaq va nisbiy o'zgarishlarni hisoblash zarur.

Mutlaq og'ish ($DMHF_{mut}$) hisobot davrida mehnatga haq to'lash uchun haqiqatda foydalanilgan mablag'larni (MHF_1) mehnat haqining (MHF_0) bazaviy (rejaviy) fondi bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

$$DMHF_{mut} = MHF_1 - MHF_0.$$

Biroq bunda shuni ham hisobga olish zarurki, mutlaq og'ish o'z-o'zicha mehnat haqi fondidan foydalanishni tavsiflamaydi, chunki bu ko'rsatkich mahsulot ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Agar mahsulot hajmining rejadan tashqari o'sish foizi mehnat haqi fondidan yuqori bo'lsa, mehnat haqi fondining mutlaq ortiqcha sarfi tannarx qimmatlashishiga olib kelmaydi, chunki bunda 1 so'mlik mahsulot uchun mehnat haqi rejaviy darajaga nisbatan pasayadi.

Mahsulot hajmi bo'yicha rejaning ortig'i bilan bajarilishi muqarrar ravishda mehnat haqi fondining nisbatan tejab qolinishi va tannarxning rejadan tashqari pasayishi bilan birga sodir bo'lishi lozim, chunki bunda faqat ishbay asosida ishlovchilar uchun haq to'lash va mukofotlar o'sib, vaqtbay mehnat haqi o'zgarmaydi. Umumiy mehnat haqi fondida mehnat uchun vaqtbay asosida mehnat haqi to'lashning ulushi qancha katta bo'lsa, erishiladigan tejamkorlik ham shuncha yuqori bo'ladi.

Nisbiy og'ish hisobot davrida haqiqatda hisoblangan mehnat haqi miqdorining mahsulot ishlab chiqarish hajmi indeksiga tuzatilgan bazaviy fond o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga proporsional ravishda o'zgaruvchi mehnat haqi fondining o'zgaruvchan qismigagina tuzatish kiritilishini yodda tutish talab qilinadi. Bu ishbay baholash asosida ishchilarning mehnat haqi, ishlab chiqarish natijalari uchun ishchilar va boshqaruv xodimlariga mukofotlar va o'zgaruvchan mehnat haqi ulushiga mutanosib ta'til uchun to'lanadigan pul miqdori.

Mehnat haqining doimiy qismi (ishchilarning tarif stavkalari bo'yicha mehnat haqi, moyana bo'yicha xizmatchilarning mehnat haqi, barcha turdagi qo'shimcha haqlar) ishlab chiqarish hajmi ortishi yoki kamayishiga bog'liq ravishda o'zgarib qolmaydi:

$$\Delta MHF_{nis} = MHF_1 - MHF_{kor} = MHF_1 - (MHF_{o'zg0} * i_q + MHF_{o'z-mas0}),$$

Bu yerda ΔMHF_{nis} - mehnat haqi fondi bo'yicha nisbiy og'ish;

MHF_1 - hisobot davridagi haqiqatdagi mehnat haqi fondi;

MHF_{kor} - mahsulot ishlab chiqarish hajmi indeksiga tuzatilgan bazaviy mehnat haqi fondi;

$MHF_{o'zg0}$ - bazaviy davr mehnat haqi fondining o'zgaruvchan qismi;

i_q - mahsulot ishlab chiqarish hajmi indeksi;

$MHF_{o'z-mas0}$ - bazaviy davr mehnat haqi fondining doimiy miqdori.

6.7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mahsulot ishlab chiqarish hajmi indeksi quyidagiga teng:

6.7-jadval

Mehnat haqi fondidan foydalanish tahlili

Ko'rsatkich	Bazis davr	Hisobot davri	Og'ish	
			mutlaq miqdorda	% da
Taqqoslama ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi, ming so'm	220388	254550	+34162	+15,5
Mehnat haqi fondi, ming so'm	32690	34630	+1940	+5,9
Jumladan:				
- o'zgaruvchan qism	22883	23548	+665	+2,9
- o'zgarmas qism	9807	11082	+1275	+13,0

Mehnat haqi fondining mutlaq va nisbiy o'zgarishini hisoblaymiz:

$$\Delta MHF_{mut} = 34630 - 32690 = +1940 \text{ ming so'm.}$$

$$\Delta MHF_{nis} = 34630 - (22883 * 1,1 + 9807) = 34630 - 34978,3 = -348,3 \text{ ming so'm.}$$

Demak, mazkur korxonada mehnat haqi fondidan foydalanishdan 348,3 ming so'm miqdorda nisbatan tejamkorlik mavjud.

**Mahsulot tannarxi tarkibida mehnatga haq to‘lash xarajatlari
o‘zgarishi omillarini hisoblash**

Omil	Algoritm	Algoritm dagi belgisi
A	1	2
Ishchilarning mehnat haqi (ΔMHF)	$\Delta MHF = MHF^1 - MHF^0$	MHF^0, MHF^1 - mos ravishda rejaviy va haqiqatda ishchilarga haq to‘lash
Quyidagi o‘zgarishlar hisobiga o‘zgaruvchan qismda:		
Mahsulot hajmi [$\Delta MHF(N)$]	$[\Delta MHF(N)] = MHF^0 * K - MHF^0$	K – mahsulot hajmining o‘shish koeffitsiyenti
Mahsulot tarkibi [$\Delta MHF(D)$]	$\Delta MHF(D) = MHF^0(N^1) - MHF^0 * K$	$\Delta MHF^0(N^1)$ - haqiqatda ishlab chiqarish va assortimentga qayta hisoblangan reja bo‘yicha mehnatga haq to‘lash xarajatlarining o‘zgaruvchan qismi
Mahsulot birligi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri mehnatga haq to‘lash [$\Delta MHF(o'z)$]	$[\Delta MHF(o'z)] = MHF^1 - MHF^0(N^1)$	$[\Delta MHF(o'z)]$ - hisobot bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning o‘zgaruvchan qismi
Xizmatchilar mehnat haqi (MHF_x)	$\Delta MHF_x = MHF_x^1 - MHF_x^0$	MHF_x^0, MHF_x^1 - rejaviy va haqiqatda xizmatchilarning mehnatiga haq to‘lash
Jumladan o‘zgarishlar hisobiga:		
Xizmatchilar soni	$\Delta MHF_x(Xs) = (Xs^1 - Xs^0) * \overline{MH_x}$	X^0, Xs^1 - reja va hisobot bo‘yicha xizmatchilarning o‘rtacha soni; $\overline{MH_x}$ - reja bo‘yicha xizmatchilarning o‘rtacha mehnat haqi
Xizmatchilarning o‘rtacha mehnat haqi [$\Delta MHF(\overline{MH_x})$]	$\Delta MHF(\overline{MH_x}) = (\overline{MH_x^1} - \overline{MH_x^0}) * Xs^1$	$\overline{MH_x^0}, \overline{MH_x^1}$ - reja va hisobot bo‘yicha xizmatchilarning o‘rtacha yillik mehnat haqi

6.8. Mahsulotlarning alohida turlari tannarxi tahlili

Tannarx tahlilida mahsulotlarning alohida turlari bo'yicha kalkulyatsiyalarni ham ko'rib chiqish zarur. Kalkulyatsiyalarni tekshirish qanday mahsulotlar bo'yicha va qanday sarf-xarajatlar hisobiga tannarx o'zgarishi sodir bo'lganligini belgilashga imkon beradi, mahsulotlar tannarxini kamaytirishda qo'shimcha zaxiralarni aniqlashga ko'maklashadi.

Birinchi navbatda asosiy mahsulotlar bo'yicha haqiqatdagi tannarxni rejadagi va o'tgan davr uchun ma'lumotlar bilan taqqoslash lozim.

Alohida moddalar kesimida turli korxonalarda bir xil mahsulotlar kalkulyatsiyalarini taqqoslash asosida mo'ljal olish lozim bo'lgan va tannarxi nisbatan past xarajatlarni belgilash mumkin. Bunday taqqoslash korxonalar ichki mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv haqidagi masalalarni hal qilishda zarur.

Mahsulot birligi tannarxining o'zgarish sabablarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega:

$$C_1 = \frac{A_i}{VB\Pi_i} + B_i.$$

Bu erda C_i - mahsulot birligi tannarxi;

A_i - doimiy xarajatlar miqdori;

$VB\Pi_i$ - ishlab chiqarish hajmi;

B_i - mahsulot birligi uchun o'zgaruvchan xarajatlar miqdori.

6.9-jadval

«A» mahsulot tannarxini omilli tahlil qilish uchun boshlang'ich ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Shartli belgi	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Rejadan og'ish
Ishlab chiqarish hajmi, dona	$VB\Pi_i$	6760	6040	-720
Doimiy xarajatlar miqdori, ming so'm	A_i	7912	8056	+144
O'zgaruvchan xarajatlar miqdori, so'm	B_i	3800	4100	+300
Mahsulot birligi tannarxi, so'm	C_i	4970,4	5433,7	+463,3

6.9-jadval ma'lumotlari asosida mahsulot birligi tannarxining aniqlanish tartibini ko'rib chiqamiz:

$$\text{Reja bo'yicha } \frac{7912}{6760} + 3800 = 4970,4 \text{ so'm.}$$

$$\text{Hisobot bo'yicha } \frac{8056}{6040} + 4100 = 5433,7 \text{ so'm.}$$

Mazkur model va oldingi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda zanjirli o'rin almashtirish usulida "A" mahsulot tannarxi o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblaymiz.

Mahsulot birligi tannarxining umumiy o'zgarishi quyidagini tashkil qiladi:

$$5433,7 - 4970,4 = +463,3 \text{ so'm.}$$

Jumladan o'zgarishlar hisobiga:

a) mahsulot ishlab chiqarish hajmi

$$5110 - 4970,4 = +139,6 \text{ so'm;}$$

b) doimiy xarajatlar miqdori

$$5133,7 - 5110 = +23,7 \text{ so'm;}$$

v) solishtirma o'zgaruvchan xarajatlar miqdori

$$5433,7 - 5133,7 = +300 \text{ so'm.}$$

Hisoblashni tekshirish: $+139,6 + 23,7 + 300 = +463,3 \text{ so'm}$

$$5433,7 - 4970,4 = +463,3 \text{ so'm.}$$

6.10-jadval

O'rin almashtirish ketma-ketligi	Omil			Mahsulot birligi tannarxi, so'm, C_1
	$VBII_i$	A_i	B_i	
I o'rin almashtirish - reja	reja 6760	reja 7912	reja 3800	reja 4970,4
II o'rin almashtirish – shartli 1	haqiqat 6040	reja 7912	reja 3800	5110
III o'rin almashtirish – shartli 2	haqiqat 6040	haqiqat 8056	reja 3800	5133,7
IV o'rin almashtirish - haq.	haqiqat 6040	haqiqat 8056	haqiqat 4100	haqiqat 5433,7

6.9. Yaroqsiz mahsulot tufayli yo‘qotishlar tahlili

Yaroqsiz mahsulot – bu material, mehnat va pul mablag‘larining samarasiz sarflanishidir. Yaroqsiz mahsulotning yuzaga kelishi, odatda, detal, uzal va mahsulotlar ishlab chiqarishda tasdiqlangan standartlar, texnik talablar va boshqalardan turli chetlashishlarga yo‘l qo‘yilishi bilan izohlanadi. Yaroqsiz mahsulot tuzatiladigan va tuzatilmaydigan turda bo‘ladi. Yaroqsiz mahsulot aniqlangan joyi, xarakteri, yuzaga kelish sabablari va aybdorlariga bog‘liq ravishda tasniflanadi. Mahsulot topshirilgandan so‘ng xaridor tomonidan aniqlangan yaroqsiz mahsulotni tashqi, bevosita korxonada aniqlanganlarini – ichki yaroqsiz mahsulot deb atash qabul qilingan.

Ikkala holatda ham yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar tovar mahsulot tannarxi ortishiga olib keladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar miqdorini aniqlashda to‘liq yaroqsiz (tuzatilmas) mahsulot qiymatidan mos narx bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lgan yaroqsiz mahsulotlar qiymati chiqarib tashlanadi. Bundan tashqari, yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlarning qolgan miqdoridan yaroqsiz mahsulot aybdorlaridan haqiqatda ushlab qolingani miqdor va yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishiga sabab bo‘lgan sifatsiz materiallar yoki yarimfabrikatlar yetkazib berganligi uchun yetkazib beruvchilardan haqiqatda undirilgan miqdor ham ayirib tashlanadi.

Yaroqsiz mahsulotning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: xomashyo va materiallarning sifatsizligi, texnologik jarayon buzilishi, uskunalarning nosozligi, ishchilar ustidan talab qilingan nazorat va ko‘rsatmalar mavjud emasligi– ma‘muriyat aybiga ko‘ra; texnologik jarayonni noto‘g‘ri boshqarish, qoniqarsiz konstruksiya, chizmalardagi xatoliklar – bosh texnolog bo‘limi aybi bilan va boshqalar.

Yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar tahlili, odatda, hisobot davri uchun yaroqsiz mahsulotlar haqida umumiy ma‘lumotlarni o‘tgan davr uchun mutanosib ma‘lumotlar bilan, imkoniyatga ko‘ra, turdosh korxonalar ma‘lumotlari bilan, yaroqsiz mahsulot rejalashtiriladigan korxonalarda esa uning rejalashtirilgan darajasi bilan taqqoslashdan boshlanadi.

Keyin tahlil detallashtiriladi: yaroqsiz mahsulot yuzaga kelish joyi bo‘yicha (birlashmaning qanday ishlab chiqarish birliklarida va aynan qaysi sexlarda), uning yuzaga kelish sabablari bo‘yicha, aybdorlari

bo'yicha. Yaroqsiz mahsulotdan zararlarning aybdorlar tomonidan qoplab berish darajasi ko'rib chiqiladi.

Yakuniy yaroqsiz mahsulot va yaroqsiz mahsulotni tuzatish uchun xarajatlar nisbati dinamikasini o'rganish talab qilinadi. Yakuniy yaroqsiz mahsulotning ulushi qancha yuqori bo'lsa, korxonada detallar va yarimfabrikatlar sifatining operatsiyalararo sexlararo nazorati shunchalik yomon yo'lga qo'yilgan.

6.11 jadval

Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarishdan yo'qotishlar quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi, ming so'mda

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil uchun	Hisobot yili uchun
Butunlay yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar, yarimfabrikatlar va boshqalarning tannarxi.	1645	1530
Yaroqsiz mahsulotni tuzatishga sarf-xarajatlar	60	50
Yaroqsiz mahsulotning foydalanish ehtimoli mavjud holatdagi qiymati		605
Yaroqsiz mahsulot uchun aybdor shaxsdan ushlab qolish miqdori	15,9	25
Yetkazib beruvchilardan sifatsiz materiallar yetkazib berganligi uchun shikoyat asosida undirilgan va yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar kamayishi foydasiga yozilgan summa	33	50
Yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar (1+2-3-4-5-moddalar)	1256,1	900
Tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	167481	189213
Yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar, % da	0,75	0,50

6.11 jadvaldan ko'rinib turibdiki, yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar o'tgan yilda mutlaq miqdorda 1256,1 ming so'mni, hisobot yilida – 900 ming so'mni tashkil qilgan. Yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlarning mutlaq ko'rsatkichidan tashqari nisbiy ko'rsatkich – yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar foizi hisoblanadi. Yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar nisbiy o'lchami ularni qator yillar uchun dinamikasini kuzatib borishga imkon beradi. Masalan, agar o'tgan yilda

yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar mahsulot tannarxining 0,75%ini tashkil qilgan bo‘lsa, hisobot yilida – 0,50 % ($\frac{900}{189213} * 100$).

Demak, 1 so‘mlik mahsulot uchun xarajatlarda yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar ulushi biroz pasaygan, lekin yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar mavjudligining o‘zi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatida kamchiliklar mavjudligidan darak beradi. Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarishning aniq sabablari birlamchi hisobga olish materiallari bo‘yicha aniqlanadi (yaroqsiz mahsulot haqida aktlar, oy uchun yaroqsiz mahsulot haqida jami axborotlar va boshqalar).

6.10. Mahsulot tannarxini pasaytirish zaxiralarini aniqlash metodikasi

Tannarxni pasaytirishning aniqlangan zaxiralari bo‘yicha jamlovchi hisob-kitoblar mahsulot tannarxi tahlilining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Zaxiralarni jamlab hisoblash uchun oldingi tahlil ma’lumotlaridan foydalaniladi. Mahsulot tannarxi tahlilida aniqlangan ortiqcha sarf-xarajatlar va samarasiz yo‘qotishlarga alohida e’tibor qaratish zarur, chunki ular mahsulot tannarxini kelgusida pasaytirish zaxiralari hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar natijasida xarajatlar bo‘yicha qator samarasiz yo‘qotish va ortiqcha sarflar aniqlangan bo‘lib, ularning orasidan korxonada xo‘jalik yuritishdagi tadbirsizlik natijasi hisoblangan qismini ajratib ko‘rsatish talab qilinadi.

Tahlil qilinayotgan korxonada tejamkorlik tartibi buzilishi bilan bog‘liq xarajatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

6.12-jadval

Zaxira nomi	Summa, ming so‘m
I. Moddiy xarajatlar	
Materiallar sarflash me‘yorining rejaga nisbatan ortib ketishi 1 so‘m tovar mahsulot uchun materiallar sarfi reja bo‘yicha 0,650 so‘m, haqiqatda 0,655 so‘m (0,655 – 0650) * 254550	1272,7
Xarajatlar moddalari bo‘yicha xomashyo va qo‘shimcha materiallarning ortiqcha sarfi 0,40 * 254550	1018

II. Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnat haqi	
Ishdan tashqari vaqtlarda ishlaganlik uchun qo'shimcha haq to'lash	500
Kun bo'yi turib qolishlar uchun to'lov	230
III. Yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar	900
Jami	3920,7

Biz tomonimizdan aniqlangan erishilmagan tejamkorlik va zaxiralar miqdori tovar mahsulot tannarxining 2,26% ($3920,7 : 172767 * 100$)ini tashkil qiladi. Ma'lumotnomada asosan hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan zaxiralar aks ettirilgan, lekin haqiqatdagi zaxiralarning chegarasi yo'q, xarajatlarni yuzaga kelish joylari qancha chuqur tahlil qilinsa, ularni shuncha ko'p topish mumkin.

Nazorat savollari

1. Mahsulot tannarxi tahlili mazmunini qanday asosiy yo'nalishlar tashkil qiladi?

2. Mahsulot tannarxi darajasi va dinamikasini tahlil qilishda qanday ko'rsatkich qo'llaniladi, u qanday hisoblanadi va tahlil qilinadi?

3. Xarajatlar darajasi va mahsulotning umumiy tannarxiga qanday omillar ta'sir qiladi?

4. 1 so'mlik tovar mahsulot uchun xarajatlarga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

5. Moddiy xarajatlar miqdoriga qanday omillar ta'sir qiladi?

6. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar tahlilining farqli xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Mehnat haqi xarajatlari tahlili qanday bajariladi?

8. Ishchi va xizmatchilarning mehnat haqi fondiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.

9. Qanday manbalarga asosan alohida turdagi mahsulotlar tannarxi tahlili amalga oshiriladi?

10. Mahsulot birligi tannarxiga qanday omillar ta'sir qiladi?

VII BOB. KORXONANING MOLIVAVIY HOLATI TAHLILI

7.1. Korxonaning moliyaviy holati tahlili mazmuni va vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlar, xodimlar, banklar va kreditorlar oldida ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati natijalari uchun to‘liq iqtisodiy javobgar sanaluvchi korxonaning moliyaviy holati tahlili ahamiyati va o‘rni ortib bormoqda.

Korxonaning moliyaviy holati – uning qarz majburiyatlarini qaytarish qobiliyatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar majmuyidir. U korxonada normal faoliyat yuritishi uchun moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganlik, ularning maqsadga muvofiq joylashtirilishi va samarali foydalanilishi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro moliyaviy munosabatlar, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Korxonaning moliyaviy holati **barqaror, beqaror (inqirozoldi)** va **inqirozli** bo‘lishi mumkin.


Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish va taraqqiy etish qobiliyati, o‘zgaruvchan tashqi va ichki muhitda o‘z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlashi, to‘lov qobiliyati va investitsion jozibadorligini muntazam yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan risk darajasida saqlab turishi uning barqaror moliyaviy holatidan darak beradi va aksincha.

Korxonaning moliyaviy holati, uning barqarorligi ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyat natijalariga bog‘liq bo‘ladi.

Ishlab chiqarish va moliyaviy rejalarning muvaffaqiyatli bajarilishi korxonaning moliyaviy holatiga ijobiy ta‘sir qiladi. Aksincha, mahsulot ishlab chiqarish va sotish tanazzuli natijasida uning tannarxi oshadi, tushum va foyda kamayadi, buning oqibatida – moliyaviy holat va uning to‘lov qobiliyati yomonlashadi. O‘z navbatida, barqaror moliyaviy holat korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini

belgilab beruvchi barcha omillar majmuini mohirona va samarali boshqarish natijasi hisoblanadi.

Tahlilning asosiy maqsadi – xususiy kapitalni o‘stirish va bozorda barqaror vaziyatni ta’minlashdir. Buning uchun korxonada to‘lov qobiliyati va rentabelligini, shuningdek, balans aktiv va passivining optimal tarkibini muntazam saqlab turishi lozim. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili o‘tkazish bosqichlarining o‘zaro aloqasi va asosiy elementlari 7.1-chizmada keltirilgan.



7.1-chizma. Korxonaning moliyaviy holati tahlili bo‘yicha ishlarni o‘tkazish sxemasi

Korxonaning moliyaviy holati tahlilining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy holatini o‘z vaqtida va obyektiv tashxis qilish;

- korxonaning moliyaviy holati, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini yaxshilash imkoniyatlarini izlash;

- moliyaviy resurslardan samaraliroq foydalanish va moliyaviy holatni mustahkamlashga yo‘naltirilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- ehtimoliy moliyaviy resurslarni prognozlash va resurslardan foydalanishning turli variantlarida moliyaviy holat modellarini ishlab chiqish.

Aksariyat mualliflarning fikricha, moliyaviy holat tahlili quyidagi ko‘rsatkichlar blokini o‘z ichiga oladi:

1. Mulkiy holat va kapital tarkibini baholash:

- kapitalni joylashtirish tahlili;

- kapitalni shakllantirish manbalari tahlili.

2. Kapitaldan foydalanish samaradorligi va intensivligi:

- kapital rentabelligi tahlili;

- kapital aylanuvchanligi tahlili.

3. Moliyaviy barqarorlik va to‘lov qobiliyati tahlili:

- moliyaviy barqarorlik tahlili;

- likvidlik va to‘lov qobiliyati tahlili.

4. Kredit qobiliyati va bankrotlik riskini baholash.


Korxonaning moliyaviy holati tahlilining asosiy manbasi bo‘lib buxgalteriya balansi (№ 1-shakl) xizmat qiladi.

7.2. Moliyaviy tahlil bosqichlari va standart usullari

Moliyaviy tahlil iqtisodiy tahlilning eng muhim yo‘nalishlaridan birini o‘zida namoyon qiladi. Buning ustiga, so‘nggi yillarda bu bo‘lim mustaqil fan darajasigacha ko‘tarildi. Raqobatdosh iqtisodiyot shakllanishi ta‘sirida tobora ko‘proq foydalanuvchilar bevosita yoki moliyaviy hisobot ma‘lumotlaridan muayyan hisoblashlar natijasida olish mumkin bo‘lgan to‘liq va ishonchli axborotlar olishga qiziqishi ortib bormoqda. Bunday foydalanuvchilar sirasiga avvalo korxonaning o‘zidagi manfaatdor xizmatlarni (masalan, buxgalteriya bo‘limi,

biznes-reja bo‘limi), shuningdek, aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Tahlil metodologiyasida turli foydalanuvchilar uchun tub farqlar yo‘q, biroq analitiklar uchun ruxsat etilgan axborot bazasida farq mavjud. Tashqi foydalanuvchi qo‘lida faqatgina buxgalteriya hisobotining rasmiy ma‘lumotlari bo‘ladi, ichki foydalanuvchi esa operativ, statistik va buxgalteriya hisobi va hisobotining barcha ma‘lumotlari, hatto birlamchi hujjatlardan ham foydalanishi mumkin.



7.2-chizma. Moliyaviy axborotlardan foydalanuvchilar

Moliyaviy tahlil o‘tkazilishini yetarlicha to‘liq tartibga soluvchi rasmiy hujjatlar bugungi kunda deyarli yo‘q va tahlil olib borayotgan analitik uni o‘z mayliga ko‘ra amalga oshiradi.

Moliyaviy tahlil masalalari bankrotlik va korxonalar sanatsiyasi masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hukumat komissiyasi tomonidan 1997 yil 17 aprelda tasdiqlangan “Korxonalarni moliyaviy tahlil qilish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” da muayyan darajada aks ettirilgan va unda korxonalar moliyaviy tahlilining quyidagi turlari nazarda tutiladi:

1. Moliyaviy holat tahlili – balans valyutasi dinamikasi, passivlar tarkibi, asosiy mablag‘lar va nobyudjet aktivlar dinamikasi, moliyaviy natijalar tahlili.

2. Moliyaviy barqarorlik tahlili – zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirish manbalari ortiqchaligi yoki yetishmasligi ko‘rsatkichlari, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari, qarz va o‘z mablag‘lari nisbati koeffitsiyentlari, zaxira va sarf-xarajatlarning o‘z manbalari bilan ta‘minlanganligi koeffitsiyenti, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti.

3. Korxonaning iqtisodiy barqarorligi tahlili – to‘lov qobiliyatini yo‘qotish (tiklash) koeffitsiyenti, manyovrlashganlik koeffitsiyenti, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mulkning real qiymati koeffitsiyenti.

4. Korxonaning rentabelligi tahlili – sotish rentabelligi koeffitsiyenti, asosiy mablag‘lar rentabelligi koeffitsiyenti, xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti, kapitalning umumiy aylanuvchanligi rentabelligi koeffitsiyenti.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi tomonidan 1996 yil iyulda tasdiqlangan “Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish metodikasi” tahlilni quyidagi ketma-ketlikda olib borishni tavsiya qiladi:

1. Moliyaviy holatni umumiy baholash.
2. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili.
3. Korxonaning to‘lov qobiliyatini baholash.

Ko‘rinib turibdiki, bizning respublikamizda nazariya va amaliyot, moliyaviy tahlil metodikasini bozor munosabatlari talablariga muvofiq shakllantirish masalalari bo‘yicha ancha ishlar qilingan.

Moliyaviy holat tahlili quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- **gorizontal tahlil** – hisobotning har bir pozitsiyasini o‘tgan davr bilan taqqoslash;

- **vertikal (tuzilmaviy) tahlil** – hisobotning har bir moddasini natijaga umumiy ta‘sirini aniqlagan holda yakuniy ko‘rsatkichlar tarkibini aniqlash;

- **trend tahlili** – hisobotning har bir pozitsiyasini o‘tgan davrlar qatori bilan taqqoslash va trendni, ya‘ni tasodifiy ta‘sirlar va alohida davrlarning individual xususiyatlaridan tozalangan ko‘rsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyalarini aniqlash.

Trend yordamida kelajakda ko‘rsatkichlarning ehtimoliy qiymatlari shakllantiriladi, o‘z navbatida istiqbolli, prognoz tahlil olib boriladi;

- **moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili** – hisobotning qiyosiy ma‘lumotlarini hisoblash, ko‘rsatkichlarning o‘zaro aloqasini aniqlash.

Ushbu usullar bilan bir qatorda boshqa usullar, jumladan qiyosiy va omilli tahlildan ham foydalaniladi.

- **qiyosiy tahlil** – korxonada hisobotining alohida ichki xo‘jalik ko‘rsatkichlarini boshqa bo‘linmalar, sexlar bilan qiyoslash, shuningdek, o‘rtacha umumiy iqtisodiy ma‘lumotlar bilan taqqoslash asosida olib boriladi.

- **omilli tahlil** – natijaviy ko‘rsatkichni bevosita tarkibiy qismlarga bo‘lish usuli bilan yoki teskari usulda, ya‘ni alohida elementlar umumiy natijaviy ko‘rsatkichga birlashtirilgan holda amalga oshirilib, alohida omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta‘sirini baholashga imkon beradi.

Buxgalteriya balansining gorizontal va vertikal tahlili

Gorizontal tahlil mutlaq balans ko‘rsatkichlari qiyosiy – o‘shish (pasayish) sur‘atlari bilan to‘ldiriladigan bir yoki bir nechta analitik jadvallar tuzishdan iborat.

Odatda, bir necha davr uchun bazis o‘shish sur‘atlari ko‘rib chiqiladi.

Gorizontal tahlilning maqsadi muayyan davr uchun balansning turli moddalari miqdorining mutlaq va nisbiy o‘zgarishlarini aniqlash hamda ushbu o‘zgarishlarga baho berishdan iborat.

7.1-jadval

Balansning gorizontal tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida	
	ming so‘m	%	ming so‘m	%
Uzoq muddatli aktivlar	39615	100	43656	110,2
Joriy (aylanma) aktivlar	56406	100	85750	152,0
Balans	96021	100	129406	134,7

Ko‘rib chiqilayotgan korxonada balans valyutasi yil davomida 34,7 % ga oshdi va yil oxirida 129406 ming so‘mni tashkil qildi, uzoq muddatli aktivlar 10,2% yoki 4041 ming so‘mga oshdi, aylanma mablag‘lar – 52,0% yoki 29344 ming so‘mga oshdi.

Moliyaviy holatni baholashda balans aktiv va passivining **vertikal (tuzilmaviy) tahlili** muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda asosiy e‘tibor nisbiy ko‘rsatkichlarga qaratiladi.

Vertikal tahlilning maqsadi balans yakunida alohida moddalar ulushini hisoblash va uning o'zgarishlarini baholashdan iborat. Vertikal tahlil yordamida xo'jaliklararo qiyoslash ishlarini amalga oshirish mumkin. Buning ustiga nisbiy ko'rsatkichlar inflyatsion jarayonlarning salbiy oqibatlarini yumshatadi.

7.2-jadval

Balansning vertikal tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida	
	ming so'm	%	ming so'm	%
Uzoq muddatli aktivlar	39615	41,3	43656	33,7
Joriy (aylanma) aktivlar	56406	58,7	85750	66,3
Balans	96021	100	129406	100

Jadval ma'lumotlariga ko'ra balans aktivi tarkibida strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Yil boshiga nisbatan joriy aktivlarning ulushi oshgan.

Gorizontal va vertikal tahlil bir-birini o'zaro to'ldiradi va ular asosida qiyosiy analitik balans tuziladi.

Qiyosiy analitik balans

Qiyosiy analitik balansda balansning aktiv va passividagi asosiy bo'limlarnigina keltirish to'liq ma'noga ega bo'ladi.

Qiyosiy analitik balans hisobot buxgalteriya shakli tarkibini ham, uning alohida ko'rsatkichlari dinamikasini ham tavsiflaydi. U oldingi hisob-kitoblarni tizimlashtiradi.

7.3-jadval

Qiyosiy analitik balans

Ko'rsatkichlar	Mutlaq miqdorlar, ming so'm		Salmog'i, %		O'zgarishlar			
	yil boshida	yil oxirida	yil boshida	yil oxirida	mutlaq miqdor	salmog'i, %	yil boshidagi miqdorga nisbatan % da	balans yakuni o'zgarishiga nisbatan % da
Uzoq muddatli aktivlar	39615	43656	41,3	33,7	+4041	-7,6	+10,2	+12,1
Joriy (aylanma) aktivlar	56406	85750	58,7	66,3	+29344	+7,6	+52,0	+87,9
Balans	96021	129406	100	100	+33385	-	+34,7	100

Qiyosiy analitik balansning barcha ko‘rsatkichlarini uch guruhga ajratish mumkin:

- balans tarkibi ko‘rsatkichlari (gr. 7);
- balans dinamikasi ko‘rsatkichlari (gr. 8);
- balans tuzilmaviy dinamikasi ko‘rsatkichlari (gr. 9).

Qiyosiy balans asosida mulk tarkibi tahlili amalga oshiriladi.

Mulk qiymati tarkibi korxonaning moliyaviy holati haqida umumiy tasavvur beradi. U aktivdagi har bir elementning ulushini ko‘rsatadi.

Mulk qiymati tarkibida har bir korxonada faoliyatining o‘ziga xosliklari aks ettiriladi. 7.3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, korxonada mulki 33385 ming so‘mga yoki 34,7% ga oshgan. Bunda mulk qiymati tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lib, unda aylanma mablag‘larning ulushi oshgan.

Mulk tarkibi va hatto uning dinamikasi investor uchun ushbu korxonaga pul joylashtirish qanchalik afzal, degan savolga o‘z-o‘zicha javob bera olmaydi, faqatgina aktiv holati va qarzlarni qaytarish uchun mablag‘ mavjudligini baholaydi.

Hisobotning trend tahlili

Tendensiyalar rivojlanishi tahlili (trend tahlil) gorizontall tahlilning bir varianti hisoblanib, bunda hisobotning har bir pozitsiyasi o‘tgan davrlar qatori bilan taqqoslanadi va trend, ya’ni tasodifiy ta’sirlar va alohida davrlarning individual xususiyatlaridan tozalangan ko‘rsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyalari aniqlanadi. Bunday tahlil istiqbolga mo‘ljallangan, lekin uni o‘tkazish uchun axborotlar ko‘rib chiqilayotgan korxonalar misolida yaqqol yetarli emas. Trendli tahlil o‘tkazish uchun kamida 5 va undan ortiq davr uchun hisobot ma’lumotlari zarur bo‘ladi. Davrlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarning o‘zgarish tendensiyalariga asoslanib kelgusi davrlar uchun prognoz ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

7.3. Buxgalteriya balansi mazmuni va tarkibi

Buxgalteriya balansi – bu muayyan sana uchun korxonada mulki va uni moliyalashtirish manbalarini pul ko‘rinishida aks ettirish usulidir. Buxgalteriya hisobida «balans» so‘zi bir nechta ma’noga ega: a) schyotlar bo‘yicha yozuvlar olib borishda va xo‘jalik subyektlari mablag‘larini turli kesimda guruhlashda natijalar tengligi; b) asosiy

hisobot shakli yakuni; v) asosiy hisobot shakli nomi. Asosiy hisobot shakli sifatida balans ma'nosi mutlaqo katta, chunki bu hujjat korxonalarining mulkiy va moliyaviy holati haqida yetarlicha aniq va yanglish bo'lmagan tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Hisobot sanasi uchun korxonalar tasarruf etayotgan mulk va qarz huquqlari qiymati balans aktivida aks ettiriladi. Aktivlar iqtisodiy resurslar yoki kelgusi xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha korxonaning potentsiali haqida muayyan tasavvur beradi.

Xususiy kapital, shuningdek, kreditlar, qarzlarni bo'yicha majburiyatlar va kreditorlik qarzi balans passivida aks ettiriladi. Shunday qilib, majburiyatlar (passivlar) korxonalar tomonidan olingan mablag'lar hajmi va ularning manbalarini, aktivlar esa – ushbu mablag'lardan foydalanish yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Amaliyotda balanslarning turli ko'rinishlariga to'qnash kelish mumkin. Batafsil tavsifga to'xtalmasdan ularning tasniflaridan birini keltirib o'tamiz (Kovalyov V.V., Patrov V.V. «Kak chitat balans», M.: «Finansi i statistika, 1998g., s 25-29).


7.4-jadval

Buxgalteriya balanslari tasnifi

Tasnifiy belgi	Balanslar turi
Tuzish vaqti bo'yicha	Kirish, joriy, tugatish, ajratuvchi, birlashtiruvchi
Tuzish manbalari bo'yicha	Inventar, daftar, asosiy
Axborot hajmi bo'yicha	yaxlit, qo'shma, konsolidatsiyalangan
Faoliyat xarakteri bo'yicha	Asosiy faoliyat balansi, noasosiy faoliyat balansi
Faoliyat turlari bo'yicha	Tashkilot balansi, investitsion fond balansi, bank balansi, byudjet tashkiloti balansi
Mulkchilik shakllari bo'yicha	Davlat korxonasi balansi, xususiy korxonalar balansi
Aks ettirish obyekti bo'yicha	mustaqil balans, alohida balans
Analitiklik darajasi bo'yicha	Balans-brutto, balans-netto, shaxmat aylanma balans, o'rta balans, zichlangan balans

Shubhasiz, keltirilgan balanslarning barcha turi ham auditor yoki analitik uchun bilim orttirishlarida ahamiyatga ega bo‘lavermaydi, biroq ularning ayrimlari bilan o‘z ishlarida to‘qnash kelishi muqarrar. Bundan tashqari, ayni bir korxonada ayni bir vaqtda bir necha balansga ega bo‘lishi va ularning valyutalari mos kelishi shart emasligini tushunish zarur (bu, xususan, joriy va tugatish balansiga taalluqli).

U yoki bu bo‘lim va moddalarga ajratishni nazarda tutuvchi balans tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda u quyidagi ko‘rinishga ega:



7.3-chizma. Buxgalteriya balansining statik ko‘rinishi

O‘z faoliyatini amalga oshirish uchun korxonada boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lishi lozim. Bu muassislarda badallari yoki yuqori turuvchi tashkilot tomonidan ajratilgan mablag‘lar bo‘lishi mumkin. O‘z mohiyatiga ko‘ra o‘z mablag‘lari(xususiy kapital)ni namoyon qiluvchi ushbu mablag‘larning manbalari avval boshdan ta‘sis hujjatlarida miqdori kelishib olingan ustav kapitalidan iborat bo‘ladi, biroq korxonada faoliyati natijasida ushbu manbaning tarkibi va manbasi o‘zgaradi.

«O‘z» atamasi bu yerda ushbu korxonani tashkil qilgan shaxslarga (yuridik yoki jismoniy) tegishlilikni anglatadi; boshqacha aytganda, bu shartli ravishda korxonaning o‘z muassislari oldida qarzdorligidir. «Xususiy kapital» tushunchasining iqtisodiy ma‘nosi quyidagicha: u tugatilgan holatda egalari taxminan shuncha summa olishi mumkin. Bu holatda muassislarda o‘zlariga tegishli ulushni korxonaning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari so‘ndirilgandan so‘ng qolgan mulkning qiymat bahosi qismidan olish huquqiga ega bo‘lganligi

uchun ularning real miqdori, birinchidan, amalda doimo hisob bahosidan farqlanadi, ikkinchidan, faqatgina tugatish jarayoni borishida aniqlanishi mumkin.

Ixtiyoriy korxonada, odatda, o'z mablag'lari bilan chegaralanib qolmaydi, balki tashqi manbalardan mablag'lar jalb qiladi: bank kreditlari, qarzlari, kreditorlar. Ushbu jalb qilingan mablag'lar ikkita katta guruhga ajratiladi: uzoq muddatli va qisqa muddatli.

Korxonadan turli manbalardan olingan mablag'lar ikkita katta guruhga ajratiladigan aktivlarga joylashtiriladi: uzoq muddatli aktivlar, ya'ni uzoq muddat (bir yildan ortiq) davomida ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan aktivlar va yil davomida bir necha marta ishlatiladigan aylanma (joriy) aktivlar, ya'ni ularga joylashtirilgan mablag'lar bu vaqt davomida bir necha marta aylantiriladi.

7.4. Balans aktivi moddalarini tahlili

Balans aktivi – bu korxonada tasarrufida mavjud iqtisodiy resurslar bo'lib, ulardan foydalanish kelgusida foyda keltirishi ehtimol qilinadi.

Korxonaning balans aktivi ikki bo'limdan iborat:

1. Uzoq muddatli aktivlar.
2. Joriy (aylanma) aktivlar.

Uzoq muddatli aktivlar, o'z navbatida, quyidagilardan iborat:

- mulkiy aktivlar (aylanma mablag'lar, kapital qo'yilmalar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar);
- nomoddiy aktivlar;
- sho'ba va boshqa korxonalariga berilgan qarzlari;
- uzoq muddatli investitsiyalar (masalan, boshqa korxonalarining qimmatli qog'ozlariga uzoq muddatli qo'yilmalar);
- boshqa aktivlar.

Asosiy vositalar – moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham uzoq vaqt davri davomida (bir yildan ortiq) amal qiluvchi, shuningdek, ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar.

Qayd qilish joizki, iqtisodiy adabiyotlarda ba'zan “asosiy fondlar” so'z birikmasi uchraydi. Buni o'zini oqlagan deb hisoblash qiyin, chunki “fond” atamasining asosiy talqini – bu vositalar manbasi.

Shuning uchun atamashunoslikda va ma'noviy jihatdan chalkashmaslik uchun professional buxgalteriya muhitida keng tarqalgan "asosiy vositalar" so'z birikmasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Asosiy vositalar boshlang'ich va tiklash qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Boshlang'ich qiymat – bu qurilish va asosiy vositalar olish uchun xarajatlar, jumladan yetkazib berish va o'rnatish bo'yicha xarajatlardir. Tiklash qiymati – bu oldin tashkil etilgan asosiy vositalarni zamonaviy sharoitlarda, ya'ni ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining erishilgan darajasi, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va mehnat unumdorligi darajasi hisobga olingan holda ishga tushirish qiymati. Asosiy vositalarni turlari bo'yicha rasshifrovka qilish, ularning harakatlanishi, shuningdek, boshlang'ich (tiklash) qiymati hamda eskirish haqida ma'lumotlar 2-moliya shakli-"Asosiy vositalarning mavjudligi va harakati hamda boshqa nomoliyaviy aktivlar to'g'risida" statistik hisobot shaklida keltirilgan.

Nomoddiy aktivlar. Buxgalteriya hisobi va buxgalteriya hisobotini yuritish bo'yicha qarorga muvofiq xo'jalik faoliyatida uzoq davr (bir yildan ortiq) mobaynida foydalaniladigan va daromad keltiruvchi nomoddiy aktivlarga quyidagilardan vujudga keluvchi huquqlar kiritiladi: a) ilmiy asarlar, adabiyot, san'at asarlari, EHM uchun dasturlar va boshqalarga mualliflik va boshqa shartnomalar; b) ixtirolar uchun patentlar; v) tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi uchun guvohnoma yoki ulardan foydalanish uchun litsenzion shartnomalar; g) nou-xau va boshqalar.


Nomoddiy aktivlarning farqli xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- ushbu aktivlardan foydalanish muddati bir yildan ortiq;
- korxonadan daromad olishga imkon beradi;
- ayrim nomoddiy aktivlar (tovar belgilari va boshqalar) istisno qilingan holda to'laqonli amortizatsiya hisoblanishi.

Kapital qo'yilmalar - qurilish-montaj ishlari, uskunalar sotib olish uchun korxonaning xarajatlari, kapital ishlar uchun boshqa xarajatlar.

Uzoq muddatli (bir yildan ortiq) moliyaviy qo'yilmalar – daromad olish maqsadida qilingan xarajatlar (masalan, boshqa korxonalarga investitsiyalar, qarz berish, sho'ba va qaram korxonalarga investitsiyalar).

Balans aktivlari tarkibining yiriklashtirilgan sxemasi quyidagi chizmada keltirilgan (7.4-chizma).



7.4-chizma. Balans aktivi tarkibi sxemasi

Joriy (aylanma) aktivlar uzoq muddatli aktivlardan farqli o'laroq muntazam doiraviy aylanishda bo'ladi. Odatda, ular:

- faqat bir ishlab chiqarish tsikliga xizmat qiladi;
- o'zining natural shaklini yo'qotadi (qayta ishlanadi yoki bir shakldan boshqasiga o'tadi);
- o'z qiymatini tayyor mahsulot (ish, xizmat) ga bir ishlab chiqarish tsiklining o'zidayoq to'liq o'tkazadi.

Joriy aktivlarning ushbu xususiyati korxonani ishlab chiqarish jarayonida muntazam ishlab chiqarish zaxiralarini yangilashga, ya'ni ularni sotib olishga majbur qiladi.

Joriy (aylanma) aktivlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- *ishlab chiqarish zaxiralari*. Moddalarning mazkur guruhi bo'yicha xomashyo, qo'shimcha materiallar, yonilg'i, sotib olinadigan yarimfabrikatlar, taralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar va tovarlarning haqiqatdagi tannarxi aks ettiriladi.

Sohaga tegishliligiga ko'ra u yoki bu moddaning ulushi sezilarli darajada turlanishi mumkin. Xususan, davomiy ishlab chiqarish tsikliga ega korxonalar balanslarida tugallanmagan ishlab chiqarish, savdo korxonalarida esa tovarlar zaxiralari katta solishtirma og'irlikka ega bo'lishi mumkin.

- banklardagi joriy, hisob-kitob va valyuta hisob raqamlarida va korxonada kassasidagi pul mablag'lari;

- hisob raqamdagi mablag'lar – bu debitorlik qarzining turli ko'rinishlari, ya'ni jo'natilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmatlar uchun boshqa tashkilotlarning va hisob beruvchi shaxslar qarzlari, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga ortiqcha to'langan pullar bo'yicha

qarzdorlik summasi, sho'ba va birlashtirilgan korxonalar qarzdorligi va boshqalar;

- *qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar* – bu qo'yilma muddati bo'yicha bir yildan kam bo'lgan qimmatli qog'ozlar. Qayd qilish zarurki, moliyaviy aktivlarni uzoq va qisqa muddatli turlarga ajratilishi ma'lum ma'noda subyektiv hisoblanadi, chunki qimmatli qog'ozlarni xarid qilish vaqtida korxonalar ularga qanchalik uzoq egalik qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblashini har doim ham oldindan aniq bilish mumkin emas.

Endi balans aktivini tahlil qilishga o'tamiz. Tahlil balans aktivini bo'yicha korxonalar mulki tarkibi va tarkibini o'rganishdan boshlanadi. Balans korxonalar mulki o'zgarishlarini umumiy baholash, uning tarkibida aylanma (mobil) va immobilizatsiyalangan aktivlarni ajratish, uning tarkibi dinamikasini o'rganish imkonini beradi. Tuzilma deganda, mulklarning alohida guruhlar va ushbu guruhlar ichidagi moddalarning foiz nisbati tushuniladi. Korxonalar mablag'larini joylashtirish moliyaviy faoliyat va uning samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, o'z navbatida, korxonalar moliyaviy holati ham ko'p jihatdan asosiy va aylanma vositalarga qanday mablag'lar qo'yilganligi, ularning qanchasi ishlab chiqarish sohasida va muomala sohasida, pul va moddiy ko'rishda ekanligi, ularning qanchalik optimal nisbatda ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shunga bog'liq ravishda korxonalar aktivlarini tahlil qilish jarayonida birinchi navbatda ularning tarkibi, tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish va ularga baho berish talab qilinadi.

7.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan "Karvon" MChJda mol-mulki qiymati 414900 ming so'mga yoki 16 foizga ko'paygan. Korxonalar mulkining ko'payishi joriy aktivlarning 241001 ming so'mga hamda uzoq muddatli aktivlarning 466521 ming so'mga ko'payishi hisobiga to'g'ri kelgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va xarajatlar summasining - 426841 ming so'mga kamayishi korxonalar mulkini shu summaga kamaytirgan bo'lsa, pul mablag'larining o'tgan yilga nisbatan 205137 ming so'mga yoki 8 foizga, debitorlik qarzlarning esa 462705 ming so'mga yoki 18 foizga ko'payishi korxonalar mulkining ko'payishiga sabab bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ulkan miqdorda pul mablag'lari qoldig'i mavjudligi aylanma kapitaldan noto'g'ri foydalanish natijasi bo'lishi mumkin. Ular o'z ishlab chiqarishini kengaytirish yo'li bilan foyda olish

maqsadida tezda aylanmaga kiritilishi yoki boshqa korxonalarining aksiya va qimmatli qog'ozlariga joylashtirilishi lozim.

Bizning misolimizda debitorlik qarzi yil boshidagi 599 597 ming soʻmdan yil oxirida 1 062 302 ming soʻmgacha oshdi, ya'ni 462 705 ming soʻmga koʻpaydi. Agar korxonada oʻz faoliyatini kengaytirsa, u holda xaridorlar soni va odatda, debitorlik qarzi ortadi. Boshqa tomondan, korxonada mahsulot joʻnatishni qisqartirishi mumkin, u holda debitorlar kamayadi. Oʻz navbatida, rost debitorlik qarzining oʻsishi har doim ham salbiy baholanmaydi.

7.5-jadval

“Karvon” MChJ ning buxgalteriya balansi aktivi tahlili

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Oʻzgarishi (+,-)		
		ming soʻm	%	ming soʻm	%	ming soʻm	%	yil boshiga nisbatan %
	1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1	Uzoq muddatli aktivlar	292 622	11,4	466 521	15,6	173 899	4,2	6,8
2	Joriy aktivlar	2 281 206	88,6	2 522 207	84,4	241 001	- 4,2	9,4
	Shu jumladan							
a)	Zaxira va xarajatlar (140+190+200)	1 130 783	43,9	703 942	23,6	- 426 841	- 20,4	- 16,6
b)	Pul mabagʻlari va qimmatli qogʻozlar (320+370+380)	550 826	21,4	755 963	25,3	205 137	3,9	8,0
c)	Debitorlar (210+310)	599 597	23,3	1 062 302	35,5	462 705	12,2	18,0
	Balans aktivining JAMI	2 573 828	100	2 988 728	100	414 900	0,0	16

Muddati oʻtgan qarzdorlik mavjudligi moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki korxonada ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish, mehnat haqi toʻlash va boshqa maqsadlar uchun moliyaviy resurslar tanqisligini boshidan kechiradi. Mablagʻlarni muzlatib

qo'yish kapital aylanuvchanligi sekinlashishiga olib keladi. Shuning uchun har bir korxonada to'lovlarni qaytarish muddatlari qisqarishdidan manfaatdor sanaladi.

Korxonada mol-mulki ko'payishining sabablarini uning manbasini ko'rib chiqish asosida aniqlashtiriladi.

Korxonada omborlarida tayyor mahsulot qoldiqlari ko'payishi, shuningdek, aylanma mablag'larning uzoq vaqtga muzlatilishi, naqd pul yo'qligi, kreditlar va ular bo'yicha foizlar to'loviga ehtiyojlar, yetkazib beruvchilar, byudjet, korxonada ishchilariga mehnatga haq to'lash bo'yicha kreditorlik qarzi o'sishi kabilarga olib keladi. Hozirgi vaqtda – ishlab chiqarish inqirozi, uning samaradorligi pasayishi, korxonaning past to'lov qobiliyati va bankrotlikning asosiy sabablaridan biridir.

7.5. Balans passiv moddalari tahlili

Agar balans aktivida korxonaning mablag'lari aks ettirilsa, passivida ularning shakllanish manbalari ko'rsatiladi.

Korxonada rahbariyati qanday resurs manbalari hisobiga korxonada o'z faoliyatini amalga oshirishi va qanday faoliyat sohalariga kapital joylashtirilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Kapital – foyda olish maqsadida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyoridagi mablag'lardir.

Tegishlilik darajasiga ko'ra foydalanilayotgan kapital o'z va qarz kapitalga ajratiladi.

Xususiy kapital ustav, qo'shilgan, zaxira kapital va taqsimlanmagan foydadan iborat bo'ladi. Buxgalteriya balansida xususiy kapital miqdori aktivlar va majburiyatlar qiymati bahosiga bog'liq bo'ladi.

Ustav kapitali – ustav faoliyatini ta'minlash uchun muassislarning mablag'lari miqdori. Davlat korxonalarida bu to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan davlat tomonidan korxonalariga biriktirilgan mulk qiymati; aksiyadorlik korxonalarida – aksiyalarning nominal qiymati; mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda – mulkdorlar ulushi miqdori; ijara korxonalarida – uning xodimlari hissasi miqdori va hokazo.


Qo'shilgan kapital. Uning asosiy unsurlari: emission daromad (nominaldan yuqori narxda sotishdan daromad qilingan, aksiyalarni

nominal narxi va sotish narxi o'rtasidagi farq) va qayta baholashda uzoq muddatli aktivlar qiymati o'sishi (ikkiyoqlama yozuv natijasi sifatida yuzaga keladi –balans aktivida aks etuvchi inflyatsiya tufayli asosiy mablag'lar qiymati ortishi paydo bo'lgan aktivning manbachi sifatida “Qo‘shilgan kapital” passiv moddasining teng miqdorda o'sishi bilan birga kuzatiladi).

Zaxira kapitali tashkilotda majburiy tartibda yoki bu ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa tashkil etilishi mumkin. U faoliyat to'xtatilganda kreditorlik qarzlarni qaytarish, foyda olinmagan holatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) – bu dividendlar ko'rinishida aksiyadorlar va tashkilot mulkdorlari o'rtasida taqsimlanmagan sof foyda miqdori. Hosil bo'lish vaqtida hisobot davri uchun barcha sof foyda taqsimlanmagan, lekin aksiyadorlar va muassislar tomonidan o'rnatiladigan qoidalar bo'yicha taqsimlashga tayyor sifatida belgilanishi mumkin.

Xususiy kapital ichki va tashqi manbalar hisobiga shakllanadi (7.5-chizma).



7.5-chizma. **Korxonada o'z kapitalni shakllantirish manbalari**

Korxonada foydasi o'z kapitalni to'ldirishning asosiy ichki manbalari hisoblanadi. Ichki manbalar tarkibida foydalanilayotgan o'z asosiy mablag'lar va nomoddiy aktivlarga hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari salmoqli solishtirma og'irlikka ega. Ular xususiy kapital miqdorini oshirmaydi, balki uni qayta investitsiyalash vositasi hisoblanadi. Xususiy kapitalning boshqa shakllariga mulkni

ijaraga berishdan daromadlar, muassislar bilan hisoblashishlar va boshqalar kiritiladi.

Xususiy kapital shakllanishining **asosiy tashqi manbayi** sifatida *aksiyalarni qo‘shimcha emissiya qilish* gavdalanadi. Davlat korxonalariga davlat tomonidan beg‘araz moliyaviy yordam ko‘rsatilishi mumkin.

Boshqa tashqi manbalar qatoriga xayriya maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan korxonalariga bepul beriladigan moddiy va nomoddiy aktivlar kiritiladi.

Qarz kapitali – bu bank va moliyaviy kompaniyalarning kreditlari, qarzarlar, kreditorlik qarzi, lizing va boshqalardir. Qarz kapital uzoq muddatli (bir yildan ortiq) va qisqa muddatli (bir yilgacha) bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy holat barqarorligi ko‘p jihatdan manbalarda o‘z kapitalning ulushiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq faqat o‘z mablag‘lari hisobiga korxonalar faoliyatini moliyalashtirish har doim ham foydali emas, ayniqsa bu ishlab chiqarish mavsumiy tusga ega bo‘lganda yaqqol seziladi. Bunda alohida davrlarda bankdagi hisobda ulkan mablag‘lar to‘planib qoladi, boshqa davrlarda esa ular etishmaydi. Bundan tashqari, shuni ham nazarda tutish kerakki, agar moliyaviy resurslar uchun narx uncha yuqori bo‘lmasa, korxonalar esa kredit resurslari uchun to‘lovlarga nisbatan qo‘yilgan kapitalning yuqori darajali unumini ta‘minlay olsa, u holda jalb qilingan qarz mablag‘lar xususiy kapital rentabelligini oshirishi mumkin. O‘z navbatida, korxonalar moliyaviy holati o‘z va qarz kapital nisbati qanchalik optimalligiga bog‘liq bo‘ladi.

Moliyaviy holatni baholash uchun passivlar tarkibi, ya‘ni mulkka kiritilgan o‘z va qarz mablag‘lari manbayini tahlil qilish zarur, ularning nisbati kelgusida tashkilot istiqbolini belgilab beradi.

Manbalar tarkibini baholash moliyaviy hisobotning ham tashqi, ham ichki foydalanuvchilar tomonidan olib boriladi. Shunga muvofiq tahlilga yondashuvlar turlicha. Masalan, tashqi foydalanuvchilar (banklar, yetkazib beruvchilar va boshqalar) bitimlar tuzishda moliyaviy risk nuqtayi nazaridan mablag‘larning umumiy miqdorida tashkilotlarning o‘z mablag‘lari ulushi o‘zgarishini baholaydi. O‘z mablag‘lari manbalari ulushi kamayishi bilan risk ortib boradi. Mulklar manbalari tarkibining ichki tahlili tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirishning muqobil variantlarini baholash bilan bog‘liq. Tanlovning asosiy mezonlari risk darajasi, moliyalashtirish manbasi narxi, qarzni to‘lash muddati va boshqalar hisoblanadi.

“Karvon” MChJning buxgalteriya balansi passivi tahlili

№	Mol-mulknning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Uzgarishi (+,-)		
		ming so‘m	%	ming so‘m	%	ming so‘m	%	vil boshiga nisbatan %
	1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1	O‘zlik mablag‘lari manbalari	1 105 797	43	1 840 236	62	734 439	19	29
2	Majburiyatlar	1 468 031	57	1 148 492	38	- 319 539	- 19	- 12
	Shu jumladan,							
a)	uzoq muddatli kredit va qarzarlar (570.580.590)	-	-	-	-	-	-	-
b)	qisqa muddatli kredit va qarzarlar 730.740	388 102	15	-	-	- 388 102	- 15	- 15
c)	kreditorlik qarzlari (770)	1 079 929	42	1 148 492	38	68 563	- 4	6
	Balans passivining JAMI	2 573 828	100	2 988 728	100	414 900	-	16

“Karvon” MChJning mol-mulki manbasi ham 414900 ming so‘mga ko‘payib, bu ko‘payishning asosiy manbasini o‘zlik mablag‘larining manbalari tashkil qilgan. Majburiyatlar esa 319539 ming so‘mga kamayib, ularning jami manbalardagi ulushi ham 19 foizga qisqargan. Majburiyatlarning asosiy qismini kreditorlik qarzlari tashkil qilishi korxonada moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Korxonada qisqa muddatli kredit va qarzlarni yil boshiga nisbatan 388102 ming so‘mga kamaygan. Kreditorlik qarzlari ham korxonada jami mulkining 38 foizini tashkil qilib, 1148492 ming so‘mni tashkil qilgan. Bulardan ko‘rinadiki, korxonada mulkining ko‘payishi majburiyatlarning kamayishi, hamda o‘zlik mablag‘lari manbalarining ortishi bilan bog‘liq. Umuman olganda, korxonada mablag‘lari manbasining holati bo‘yicha ijobiy baho berish mumkin.


7.6. Joriy aktivlar tarkibi va dinamikasi tahlili

Korxonada mulkida aylanma kapital – joriy aktivlarga joylashtirilgan kapitalning bir qismi muhim o‘rin tutadi.

Tahlilning asosiy maqsadi – aylanma kapitalni boshqadirdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va undan foydalanish intensivligi va samaradorligini oshirish zaxiralarini topish.

Joriy aktivlar tarkibi tahlil qilinarkan, shuni nazarda tutish zarurki, moliyaviy holat barqarorligi doiraviy aylanma jarayoni bosqichlari bo‘yicha mablag‘larni optimal joylashtirishga sezilarli darajada bog‘liq bo‘ladi.

Aylanma kapitalning doiraviy aylanmasi bosqichlarini quyidagi sxema bo‘yicha tasvirlash mumkin:



Xarid Ishlab chiqarish Sotish
Kapitalning doiraviy aylanmasi uch bosqichdan iborat bo‘ladi:

- 1) tayyorlash;
- 2) ishlab chiqarish;
- 3) sotish.

Ixtiyoriy biznes ishlab chiqarish uchun resurslarning muayyan miqdori joylashtiriladigan pul mablag'larining qandaydir miqdoridan boshlanadi. Xarid bosqichi natijasida aylanma kapital pul shaklidan ishlab chiqarish (mehnat predmeti yoki tovarlar) shakliga o'tadi.

Ishlab chiqarish bosqichida resurslar mahsulot, ish yoki xizmatlarga aylanadi. Mazkur bosqichning natijasi aylanma kapitalning ishlab chiqarish shaklidan tovar shakliga o'tishi hisoblanadi.

Sotish bosqichida aylanma kapital tovar shaklidan yana pul shakliga o'tadi. Pullarning boshlang'ich summasi (P) va mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumlar (P¹) miqdoriga ko'ra ustma-ust tushmaydi. Biznesdan olingan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) nomutanosiblik sabablarini izohlaydi.

Aylanma kapitalning alohida elementlari o'rtasidagi nisbat uning tarkibini belgilab beradi:

Aylanma kapital	
Aylanma fondlar	Muomala fondlari
Ishlab chiqarish zaxiralari	Tayyor mahsulot
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Debitorlik qarzi
Kelgusi davr xarajatlari	Kassa yoki hisob raqamidagi pullar

Kapital qo'yish riskiga bog'liq ravishda aylanma kapitallarning minimal, kichik, o'rta va yuqori riskli qo'yilmalar kabi turlari mavjud.

Tahlil jarayonida avvalo joriy aktivlar mavjudligi va tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganish zarur. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, aylanma kapitalning barqaror tarkibi barqaror, yaxshi yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonidan, undagi jiddiy o'zgarishlar esa – korxonada faoliyatidagi beqarorliklardan darak beradi.

7.7-jadval

Kapital qo'yilmalar riski darajasi bo'yicha aylanma mablag'lar tarkibi

Aylanma mablag'lar guruhi	Balans aktiviga kiritilgan moddalar tarkibi
1	2
1. Minimal qo'yilma riskiga ega aylanma mablag'lar	1.1. Pul mablag'lari: kassa hisob raqami valyuta schyoti boshqa pul mablag'lari 1.2. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar

2. Kichik qo'yilma riskiga ega aylanma mablag'lar	2.1. Debitorlik qarzi (shubhalilari istisno qilingan holda) 2.2. Ishlab chiqarish zaxiralari (turib qolganlari istisno qilingan holda) 2.3. Tayyor mahsulot va tovarlar qoldiqlari (talab bilan foydalanilayotganlari istisno qilingan holda)
3. O'rtacha qo'yilma riskiga ega aylanma mablag'lar	3.1. MBP (qoldiq qiymat bo'yicha) 3.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish 3.3. Kelgusi davr xarajatlari
4. Maksimal qo'yilma riskiga ega aylanma mablag'lar	4.1. Shubhali debitorlik qarzi 4.2. Turib qolgan ishlab chiqarish zaxiralari 4.3. Talab bilan foydalanilmaydigan tayyor mahsulot va tovarlar 4.4. oldingi guruhlariga kiritilmagan aylanma mablag'larining boshqa elementlari
5. Aylanma mablag'larning umumiy miqdori	p.1 + p.2 + p.3 + p.4

7.8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larda ishlab chiqarish zaxiralari uchushi eng katta solishtirma og'irlikka ega: yil boshi uchun – 28,5%, yil oxiri uchun – 25,0%. Yil oxiriga kelib debitorlik qarzi ulushi ham keskin oshgan, bu korxonada moliyaviy vaziyat yomonlashganini bildiradi. Shuningdek, joriy aktivlarga qo'yilmalarga kichik risk darajasi ham kuchaygan. Biroq o'rtacha va yuqori risklar darajasi yetarlicha yuqoriligicha qolgan.

7.8-jadval

Aylanma mablag'lari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Mablag'lar turi	Mablag'lar mavjudligi, mln so'm			Mablag'lar tarkibi, %		
	yil boshi uchun	yil oxiri uchun	o'zgarish	yil boshi uchun	yil oxiri uchun	o'zgarish
A	1	2	3	4	5	6
Ishlab chiqarish zaxiralari	1249,4	1661,4	+412,0	28,5	25,0	-3,5
Tugallanmagan ishlab chiqarish	92,3	216,2	+123,9	2,2	3,2	+1,0
Tayyor mahsulot	619,5	897,1	+277,6	14,1	13,5	-0,6
Qayta sotishga mo'ljalangan tovarlar	198,2	221,4	+23,2	4,5	3,3	-1,2
Kelgusi davr xarajatlari	990,3	1104,4	+114,1	22,4	16,6	-5,8
Pul mablag'lari	383,4	131,7	-251,7	8,7	2,0	-6,7
Valyuta mablag'lari	102,2	575,0	+472,8	2,3	8,6	+6,3

Kassadagi pul mablagʻlari	0,2	0,02	-0,18	0	0	0
Qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar	12,3	-	-12,3	0,2	-	-0,2
Sotib olingan xususiy aksiyalar	48,8	2,7	-46,1	1,1	0,1	-1,0
Debitorlik qarzi	705,1	1844,7	+1139,6	16,0	27,7	+11,7
Jami	4401,7	6654,6	+2252,9	100,0	100,0	-
Operatsion jarayonda ishtiroki boʻyicha:						
- ishlab chiqarish sohasida	2332	2982	+650	53,0	44,8	-8,2
- muomala sohasida	2069,7	3672,6	+1602,9	47,0	55,2	+8,2
Qoʻyilma riski darajasi boʻyicha:						
- minimal	498,1	706,7	+208,6	11,3	10,6	-0,7
- kichik	1854	3273	+1419	42,1	49,2	+7,1
- oʻrtacha	1082,6	1320,6	+238	24,6	19,8	-4,8
- yuqori	967	1354,3	+387,3	22,0	20,4	-1,6

7.7. Balans boʻyicha oʻz aylanma mablagʻlar mavjudligi va korxonaning ular bilan taʼminlanganligi tahlili

Korxonaning moliyaviy holati tahlilida muhim metodologik masala oʻz aylanma mablagʻlari miqdori va ularning saqlanganligini aniqlash hisoblanadi. Ushbu koʻrsatkichning mohiyati shundaki, oʻz aylanma mablagʻlari mavjudligi korxonaning xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlar: tovar-moddiy qimmatliklar xarid qilish, bankdan kreditlar olish va tovar sotish hajmini kengaytirishni taʼminlaydi. Oʻz aylanma mablagʻlari mavjud emasligi yoki etishmasligi – korxonaning moliyaviy holati beqarorligi va uning toʻlovga noqobilligining asosiy sabablaridan biridir.

Oʻz aylanma mablagʻlari haqiqatda mavjudligini aniqlash balans aktivi va passivining I boʻlimidagi maʼlumotlarga asosan ularning farqi sifatida amalga oshiriladi. Oʻz aylanma mablagʻlarini hisoblash algoritmi quyidagi koʻrinishga ega:

$$E^C = C_K - F.$$

Bu yerda E^C - oʻz aylanma mablagʻlari mavjudligi;

C_K - oʻz kapital (balans passivining I boʻlimi);

F – uzoq muddatli aktivlar (balans aktivining I boʻlimi).

Agar korxonaga uzoq muddatli kredit va qarzlardan foydalansa, u holda o'z aylanma mablag'lari miqdorini (E^T) aniqlash uchun o'z kapital va uzoq muddatli majburiyatlar miqdoridan uzoq muddatli aktivlarni ayirib tashlash zarur.

Uzoq muddatli kreditlar va qarz mablag'lari asosan kapital qo'yilmalar hamda asosiy vositalarni sotib olish uchun foydalanilishiga bog'liq ravishda o'z aylanma kapitalni hisoblashda uzoq muddatli majburiyatlar miqdorini hisobga olish o'zini to'liq oqlaydi:

$$E^T = (C_K + K^T) - F.$$

O'z aylanma mablag'lari mavjudligi boshqacha usullarda ham aniqlanishi mumkin: joriy (joriy aktivlardan qisqa muddatli majburiyatlarni ayirib tashlash yo'li bilan. Moliyaviy tahlilning jahon amaliyotida ushbu ko'rsatkich **sof aylanma kapital** yoki **ishchi kapital** nomini olgan.

7.9-jadval

O'z aylanma mablag'lari mavjudligi va ularning dinamikasini hisoblash

ming so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun
	Hisoblashning birinchi usuli		
1.	O'z mablag'lari manbalari	1 105 797	1 840 236
2.	Uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar	-	-
3.	Jami manbalar (1-modda + 2-modda)	1 105 797	1 840 236
4.	Uzoq muddatli aktivlar	292 622	466 521
5.	Balans bo'yicha o'z aylanma mablag'lari mavjudligi (3-modda -4-modda)	813 175	1 373 715
	Hisoblashning ikkinchi usuli		
6.	Zaxira va xarajatlar	1130783	703942
7.	Debitorlik qarzi	599597	1062302
8.	Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	-	-
9.	Pul mablag'lari	550826	755963
10.	Boshqa joriy aktivlar	-	-
11.	Jami aylanma (joriy) aktivlar (6 + 7 + 8 + 9 + 10 -moddalar)	2281206	2522207
12.	Qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar	388 102	-
13.	Kreditorlik qarzi	1 079 929	1 148 492
14.	Boshqa qisqa muddatli majburiyatlar	-	-
15.	Jami qisqa muddatli majburiyatlar (12 + 13 + 14 - moddalar)	1468031	1148492
16.	O'z (sof) aylanma kapital miqdori (11 - 15 -moddalar)	813 175	1 373 715

O‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi aniqlangandan so‘ng tahlil jarayonida o‘z aylanma mablag‘lari dinamikasi ko‘rib chiqiladi, rejadagidan va o‘tgan yillarning haqiqatdagi ma‘lumotlaridan mutlaq va nisbiy og‘ishlar aniqlanadi. Kelgusida moliyaviy barqarorlik tahlili o‘tkazishda tashkilotning zaxiralarga ehtiyoji bilan o‘z aylanma mablag‘lari miqdorini taqqoslash o‘tkaziladi. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘shir sur‘atlarini taqqoslash tashkilotning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganligi haqida mulohaza yuritishga imkon beradi.

7.10 -jadval

“Karvon” MChJ ning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganligi tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun
1.	Balans bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi	813 175	1 373 715
2.	Material aylanma mablag‘lar (zaxiralar va sarflar)	1117934	703501
3.	O‘z aylanma mablag‘lari ortiqchaligi (+), etishmasligi (-) (1-modda –2 -modda)	-304 759	670 214
4.	Zaxira va xarajatlarda aylanma mablag‘lar ulushi, % (1-modda : 2-modda * 100)	72,74	195,27

“Karvon” MChJ ning balans bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘larining naqd hajmi yil boshida 813175 ming so‘mni, yil oxirida 1373715 ming so‘mni tashkil qildi, ya‘ni 560540 ming so‘mga ko‘paydi. Korxonada aylanma mablag‘lar bilan to‘liq ta‘minlangan. O‘z aylanma mablag‘lari ortiqchaligi yil oxirida 670214 ming so‘mni tashkil qildi va zaxira hamda xarajatlarning o‘z aylanma mablag‘lari bilan qoplanish darajasi 195,27 foizni tashkil etdi.

Keyingi tahlillar borishida korxonaning o‘z aylanma mablag‘lari o‘zgarish sabablarini aniqlash zarur. Aylanma mablag‘larda ustav kapitali o‘zgarishi, korxonaning xo‘jalik aylanmasida qolgan foyda kabilar ularning miqdoriga ta‘sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Tahlilning keyingi bosqichi o‘z aylanma mablag‘lari ortiqcha yoki kamligini aniqlanadi. O‘z aylanma mablag‘lari etishmasligi turli sabablarga ko‘ra kelib chiqishi mumkin. Tahlil jarayonida korxonada faoliyatiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillarni ajratish talab qilinadi. Birinchisiga foyda rejasining bajarilmasligi, rejalashtirilgandan ortiqcha xarajatlar qilish, mahsulot tannarxi qimmatlashishi va

boshqalar taalluqli sanaladi. Noto'liq moliyalashtirish, boshqa maqsadlar uchun mablag'larni rejadan tashqari jalb qilish kabilar ham korxonaga bog'liq bo'lmagan sabablar sirasiga kiritiladi. Keyin esa o'z aylanma mablag'lari yetishmovchiligini qoplash manbalari aniqlanib, ularga quyidagilar mansub sanaladi:

1. Tayyor mahsulotning me'yoridan yuqori darajadagi qoldiqlarini sotish.

2. Debitorlik qarzi kamaytirish.

3. Maqsadli kreditlar olish.

4. Boshqa tadbirlar (foйда olishga erishish, zarar keltirayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, me'yoridan ortiqcha tovar-moddiy qimmatliklarni sotish).

7.8. Likvidlik ko'rsatkichlari tahlili

Likvidlik qimmatliklarni pulga, ya'ni mutlaq likvid mablag'larga oson aylanish qobiliyatini anglatadi. Likvidlikni aktivni sotish uchun zarur vaqt va aktivni sotishdan olingan summa sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Likvidlik ko'rsatkichlari korxonaning muayyan vaqt uchun, lekin favqulodda vaziyatlar holatida ham qobiliyatini baholash uchun qo'llaniladi.

Likvidlik va to'lov qobiliyati bir-biri bilan aynan o'xshash emas.

To'lov qobiliyati korxonada zudlik bilan qaytarishni talab qiluvchi kreditorlik qarzi bilan hisoblash uchun yetarli pul mablag'lari va ularning muqobillari mavjudligini bildiradi. To'lov qobiliyatining asosiy belgilari quyidagilardan iborat: a) hisob raqamida yetarli miqdordagi mablag'lar mavjudligi; b) muddati o'tgan kreditorlik qarzi mavjud emasligi. Likvidlik koeffitsiyentlari esa moliyaviy holatni qoniqarli sifatida tavsiflashi mumkin, ammo, agar joriy aktivlarda nolikvid va muddati o'tgan debitorlik qarzining ulushi salmoqli bo'lsa, mohiyatan, bu baho xato bo'lishi mumkin.

Nolikvid, ya'ni umuman yoki jiddiy moliyaviy yo'qotishlarsiz bozorda sotishning imkoni bo'lmagan aktivlar, ba'zan esa o'zini oqlamagan debitorlik qarzi balansda ajratib ko'rsatilmaydi, ya'ni aylanma mablag'larning sifat tavsifi tashqi analitikka ma'lum bo'lmaydi, shuning uchun rasmiy nuqtayi nazarda hatto haqiqatdagi

qimmatini shubhali bo'lgan aktivlar ham likvidlikni baholashda qo'llaniladi.

Likvidlik dinamikasi to'lov qobiliyatiga nisbatan kamroq. Gap shundaki, korxonada ishlab chiqarish faoliyati barqarorlashuvi bilan unda asta-sekin aktivlar va mablag'lar manbayining muayyan tarkibi shakllanadi, ularning keskin o'zgarishlari esa nisbatan kamdan-kam holatda qayd qilinadi. Aksincha, to'lov qobiliyati bo'yicha moliyaviy holat ancha o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, buning ustiga kundankunga o'zgarish kuzatiladi: kecha korxonada to'lov qobiliyatiga ega edi, biroq bugun vaziyat tubdan o'zgardi – navbatdagi kreditor bilan hisoblashish vaqti keldi, korxonada hisobida esa pul yo'q, chunki oldinroq yetkazib berilgan mahsulot uchun to'lov o'z vaqtida kelib tushmadi. Boshqacha aytganda, u o'z debitorlarining moliyaviy intizomsizligi tufayli to'lov qobiliyatiga ega bo'lmay qoldi.

Korxonada likvidligi va to'lov qobiliyatini umumiy baholash uchun quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

Joriy likvidlik koeffitsiyenti, shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda qoplash koeffitsiyenti, umumiy qoplash koeffitsiyenti, deb ham ataladi (K_{uq}).

Joriy likvidlik koeffitsiyenti joriy aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatiga teng va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{jl} = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar (1-sh. 390-satr)}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar (1-sh. 600-satr)}}$$

Joriy likvidlik koeffitsiyenti umumiy likvidlikni tavsiflaydi va korxonaning joriy majburiyatlari qay darajada joriy aktivlar bilan qoplanishini, ya'ni joriy majburiyatlarning 1 pul birligiga joriy aktivlarning qancha pul birligi to'g'ri kelayotganligini ko'rsatadi. Agar nisbat 1:1 dan kam bo'lsa, u holda joriy majburiyatlar joriy aktivlardan ortib ketgan. K_{jl} ning maqbul darajasi – 2.

Agar joriy likvidlik koeffitsiyenti yuqori bo'lsa, u holda bu zaxiralarga joylashtirilgan mablag'lar aylanuvchanligi sekinlashishi, debitorlik qarzining oqlanmagan o'sishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Koeffitsiyentning doimiy pasayishi o'sib borayotgan to'lovga noqobillik riskidan darak beradi.

Tez likvidlik koeffitsiyenti (K_{jl}) qoplashning oraliq koeffitsiyenti hisoblanadi va tovar-moddiy zaxiralar ayirib tashlangan holda joriy aktivlar bilan qanday qismni qaytarish mumkinligini ko'rsatadi. Tez likvidlik koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_{tl} = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar} + \text{debitorlik qarzi}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}.$$

Ushbu ko'rsatkichning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan me'yori 1 dan yuqori bo'lishi tavsiya qilinadi, lekin debitorlik qarzining oqlanmagan o'sishi tufayli favqulodda yuqori bo'lishi ham mumkin.

Ayrim yevropalik analitiklarning ishlarida ko'rsatkichning mo'ljal qilingan quyi qiymati sifatida 1 keltiriladi, lekin bu baho ham shartli tusga ega. Shunday bo'lsa-da, unga to'la yaqqol va asoslangan ta'rif berish mumkin. Kreditorlik va debitorlik qarzi ishga taalluqli munosabatlarda bo'lgan kontragentlar o'rtasidagi o'zaro kreditlashning qandaydir shaklini o'zida aks ettiradi. Ma'lumki, umumiy olganda iqtisodiyot bo'yicha taqdim etilgan va olingan kreditlar miqdori teng. Ixtiyoriy korxonada o'z xaridorlariga taqdim etgan kredit miqdori (debitorlik qarzi) yetkazib beruvchilardan olingan kredit miqdoridan ortib ketmasligiga harakat qilishi lozim.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (K_{ml}) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{ml} = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}.$$

U qisqa muddatli majburiyatlarning qanday qismi mavjud naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag'lar hisobiga qaytarilishi mumkinligini ko'rsatadi. Uning miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, qarzlarni qaytarish kafolati shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq agar hajmi va muddati bo'yicha pul mablag'lari tushumi va chiqimini balanslashtirish va sinxronlashtirishni uddalay olsa, uning uncha ko'p bo'lmagan qiymatida ham korxonada to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun mazkur ko'rsatkich darajasi bo'yicha qandaydir umumiy me'yor va tavsiyalar mavjud emas. Korxonada muddati o'tgan majburiyatlar mavjudligi yoki mavjud emasligi, ularning chastotasi va davomiyligi uning to'lov qobiliyatiga doir umumiy manzarani to'ldiradi.

Likvidlikning turli ko'rsatkichlari nafaqat korxonada rahbarlari va moliyaviy xodimlarda, balki analitik axborotlarning turli iste'molchilarida ham qiziqish uyg'otadi: mutlaq likvidlik koeffitsiyenti – xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilar uchun; tez likvidlik koeffitsiyenti – banklar uchun; joriy likvidlik koeffitsiyenti – korxonada aksiya va obligatsiyalari xaridorlari va ushlovchilari uchun.

7.11-jadval ma'lumotlariga ko'ra tahlil qilinayotgan korxonada likvidlik koeffitsiyentlari yil oxirida belgilangan me'yordan yuqori darajada.

Likvidlik masalasini ko'rib chiqishda analitikdan aylanma mablag'larning ayrim unsurlarini alohida o'rganish talab qilinadi, chunki korxonaning "nozik joylar"i ular bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

7.11-jadval

"Karvon" MChJ ning likvidlik koeffitsiyentlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Satrlar raqami	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun
Pul mablag'lari	320	550826	755963
Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	370	0	0
Debitorlik qarzi	210	599597	1062302
Zaxira va xarajatlar (kelgusi davr xarajatlari chiqarib tashlanadi)	140	1117934	703501
Qisqa muddatli majburiyatlar	600	1468031	1148492
Hisoblashlar			
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Kjl	1,55	2,20
Tez likvidlik koeffitsiyenti	Ktl	0,78	1,58
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	Kml	0,38	0,66

Korxonada to'lov qobiliyati tahlilining natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, u mutloq to'lov qobiliyatiga ega. Oraliq qoplash koeffitsiyenti me'yor darajasi (1)dan yuqori, ya'ni 1,58 koeffitsiyentni tashkil etgan. Umumiy qoplash koeffitsiyenti ham me'yor darajasi(2)dan yuqori. To'lov qobiliyatining barcha ko'rsatkichlari yil boshiga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega. To'lov qobiliyatining bunday o'sishining asosiy sababi qisqa muddatli majburiyatlarning kamayishi hamda to'lash uchun mablag'lar summasining ortishidir. Korxonada qarzlarni yanada kamaytirish va aylanma mablag'larni ko'paytirish choralari ko'rilsa, uning moliyaviy holati yanada barqarorlashadi.

7.9. Balans likvidligi tahlili

Balans likvidligi tahliliga ehtiyoj moliyaviy cheklanishlar kuchaygan va korxonaning kredit qobiliyatini baholash zarur bo'lgan sharoitda yuzaga keladi. **Balans likvidligi** korxonada majburiyatlarini uning

aktivlari bilan qoplash darajasi sifatida ta'riflanadi, ularning pulga shakliga o'tish muddatlari majburiyatlarni qaytarish muddatlariga mos keladi. Aktivlar likvidligi – aktivlarni pul mablag'iga aylanish vaqti bo'yicha balans likvidligiga teskari kattalikdir. Aktivlarning mazkur turi pul shakliga o'tishi uchun qancha kam vaqt talab qilinsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi. Likvidlik tahlili likvidlik darajasi bo'yicha guruhlangan va kamayish tartibida joylashtirilgan aktivlar bo'yicha mablag'larni qaytarish muddatlari o'sish tartibida joylashtirilgan passivlar bo'yicha majburiyatlar bilan taqqoslashdan iborat.

Iqtisodiy adabiyotlarda likvidlik ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish, ularni hisoblash ketma-ketligi va korxonalar balans likvidligining ayrim ko'rsatkichlari nomini ifodalash bo'yicha turli yondashuvlar mavjud.

Biroq ularning har biri quyidagi asosiy qoidalardan kelib chiqishi lozim:

Birinchidan, korxonalar balans likvidligini aks ettiruvchi va unga bevosita aloqador ko'rsatkichlardangina foydalanish.

Ikkinchidan, ko'rsatkichlar balans likvidligi darajasini bevosita aks ettirishi yoki likvidlik darajasiga mutanosib omillar, shartlar ta'sirini aniqlashi lozim.

Uchinchidan, ko'rsatkichlar korxonalar aylanma mablag'larining turli elementlarining pul naqdasiga aylanish darajasini ko'rsatishi lozim.

To'rtinchidan, korxonalar balans likvidligining asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini farqlash zarur va ularning tahlili muayyan ketma-ketlikda olib borilishi zarur.

Asosiy ko'rsatkichlar korxonalar balans likvidligi mohiyati, iqtisodiy mazmunini aks ettirsa, **qo'shimcha ko'rsatkichlar** – korxonalar balans likvidligini konkretlashtiruvchi ayrim jihatlarni aks ettiradi.

Balans likvidligi ko'rsatkichlari sifatida professor E.A. Akramov quyidagilarni sanab o'tadi⁴:

1. Likvidlikning umumiy koeffitsiyenti.
2. Joriy likvidlik koeffitsiyenti.
3. Likvidlikning oraliq koeffitsiyenti.
4. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti.

Balans likvidligining qo'shimcha ko'rsatkichlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

⁴ Акрамов Э. А. Анализ финансового состояния предприятия. Т., 2000, С. 56, 61-62.

- korxonaning tashqi majburiyatlarining alohida guruhlarini qaytarish muddatlariga muvofiq korxonada aktivlarining alohida guruhlarining likvidlik darajasini hisobga olgan holda balans likvidligi tahlili jarayonini chuqurlashtiruvchi ko'rsatkichlar.

- balans likvidligiga moliyaviy resurslar konkret tarkibi va korxonada jami aylanma mablag'larining umumiy ta'sirini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.

Ko'rsatkichlarning birinchi guruhi korxonada aktivlarini ularni sotiluvchanlik darajasiga bog'liq ravishda mutanosib guruhlarga ajratish, passivlarni esa ularni qaytarish muddati kelishiga bog'liq ravishda guruhlarga ajratishni, shuningdek, aktiv va passivlar guruhlarini taqqoslash, uning alohida elementlari bo'yicha korxonada balans likvidligi darajasini aniqlashni taqozo etadi.

Korxonaning tashqi majburiyatlarini qaytarish uchun aktivlarning turli shakllardan foydalanish mumkin. Ularga aylanuvchanlik darajasi, ya'ni ularning naqd pul mablag'lariga aylanish tezligi ta'sir qiladi. Aktivlarning mazkur turi pul shakliga o'tishi uchun qancha kam vaqt talab qilinsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Likvidlik darajasi, ya'ni pul mablag'lariga aylanish tezligiga bog'liq tarzda korxonada aktivlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. **Yuqori likvid aktivlar A_1** - joriy hisoblashishlarni bajarish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining barcha moddalari bo'yicha miqdori. Ushbu guruhga pulga tenglashtirish mumkin bo'lgan qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar (qimmatli qog'ozlar) ham kiritiladi.

2. **Tez sotiladigan aktivlar A_2** - debitorlik qarzi. Ushbu aktivlar likvidligi turlicha bo'lib, subyektiv va obyektiv omillar: korxonaning moliyaviy xodimlari malakasi, to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlar va ularning to'lov qobiliyati, xaridorlarga kreditlar taqdim etish shartlari kabilarga bog'liq bo'ladi.

3. **Sekin sotiladigan aktivlar A_3** - «Kelgusi davr xarajatlari» moddasi istisno qilingan holda «Zaxiralar va sarf-xarajatlari» aktivi II bo'limining, shuningdek, «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» (boshqa korxonalar nizam jamg'armasiga qo'yilmalar miqdoriga kamaytirilgan) moddalari.

4. **Qiyin sotiladigan aktivlar A_4** - nisbatan uzoq davr mobaynida xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun mo'ljallangan aktivlar. Oldingi

guruhga kiritilgan moddasini istisno qilgan holda balans aktivi I bo‘limi «Uzoq muddatli aktivlar» moddalarini kiritish mumkin.

Aktivlarning dastlabki uch guruhi (yuqori likvid aktivlar, tez sotiladigan aktivlar va sekin sotiladigan aktivlar) joriy xo‘jalik davri mobaynida muntazam o‘zgarishi mumkin va korxonaning joriy aktivlariga taalluqli sanaladi. Joriy aktivlar boshqa mulkka nisbatan yuqori likvid bo‘ladi.

Korxonada aktivlarining tarkibiy qismlarini qaytarish muddati kelishi hisobga olingan holda balans passivi bilan taqqoslash uchun quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Muddati kelgan majburiyatlar P_1 - kreditorlik qarzi, dividendlar bo‘yicha hisoblashlar, boshqa qisqa muddatli majburiyatlar, shuningdek, muddatida qaytarilmagan ssudalar.

2. Qisqa muddatli passivlar P_2 tarkibiga quyidagilar kiradi: qisqa muddatli qarzlilar, qisqa muddatli kreditlar, xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar.

3. Uzoq muddatli passivlar P_3 - uzoq muddatli kreditlar va qarz mablag‘lari.

4. Doimiy passivlar P_4 - balans passivi I bo‘limi jami. Aktiv va passiv balansini saqlash uchun ushbu guruh jamini “Kelgusi davr xarajatlari” miqdoriga kamaytirish talab qilinadi

Balans likvidligini aniqlash uchun keltirilgan guruhlar jamini aktiv va passiv bo‘yicha taqqoslash lozim. Agar quyidagi nisbatlar o‘rinli bo‘lsa, balans mutlaq likvid hisoblanadi:

$$A_1 \geq \Pi_1,$$

$$A_2 \geq \Pi_2,$$

$$A_3 \geq \Pi_3,$$

$$A_4 \leq \Pi_4.$$

Bunda, agar quyidagi uchta shart bajarilgan bo‘lsa:

$$A_1 \geq \Pi_1,$$

$$A_2 \geq \Pi_2,$$

$$A_3 \geq \Pi_3.$$

Ya‘ni joriy aktivlar korxonaning tashqi majburiyatlaridan oshib ketsa, u holda albatta oxirgi tengsizlik ham bajariladi: $A_4 \leq \Pi_4$,

U korxonada o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligini tasdiqlaydi va moliyaviy barqarorlikning minimal shartiga rioya qilinayotganligini anglatadi. Dastlabki uch tengsizlikdan birining bajarilmasligi balans

likvidligi buzilganligidan darak beradi. Bunda aktivlarning bir guruhi bo'yicha mablag'lar yetishmasligi boshqa guruhdagi ortiqcha mablag' bilan kompensatsiyalanmaydi, chunki kompensatsiya faqat qiymat bo'yicha bo'lishi mumkin; real to'lov vaziyatida kamroq likvid aktivlar yuqori likvid aktivlarning o'rnini bosa olmaydi.

Balans likvidligi jadval ko'rinishida quyidagicha rasmiylashtiriladi (7.12-jadval).

7.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "Karvon" MChJda balans likvidligiga qo'yilgan to'rtta shartdan faqat birinchisi ham yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan. Ya'ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to'lov majburiyatlari summasidan kichik. Biroq, ikkinchi, uchinchi hamda to'rtinchi shartlar bo'yicha yil boshiga ham, yil oxiriga ham bajarilgan ($A_1 < P_1$, $A_2 > P_2$, $A_3 > P_3$, $A_4 < P_4$). Bulardan ko'rinadiki, korxonada balans likvidlikka ega. Bunday natijalarni ijobiy baholash mumkin.

Eng ko'p likvid mablag'lar (A_1) va tez sotiladigan aktivlarni (A_2) eng ko'p muddatli majburiyatlar (P_1) va qisqa muddatli passivlar (P_2) bilan taqqoslash joriy likvidlikni baholashga imkon beradi. Sekin sotiladigan aktivlarni (A_3) uzoq muddatli passivlar (P_3) bilan taqqoslash istiqboldagi likvidlikni aks ettiradi. Joriy likvidlik ko'rib chiqilayotgan payt oralig'iga yaqin vaqtda korxonaning to'lov qobiliyati (yoki to'lovga noqobilligi) dan darak beradi.

Istiqboldagi likvidlik kelgusi tushum va to'lovlarni taqqoslash asosida to'lov qobiliyati prognozini o'zida aks ettiradi.

Bir necha davr uchun likvidlik balansi korxonaning moliyaviy holati o'zgarish tendensiyalari haqida tasavvur beradi.

Balans likvidligi moliyaviy reja tuzish uchun axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Balans likvidligi yordamida korxonada tugatilgan holat uchun prognoz hisoblashlar olib borish mumkin.

Balans likvidligini kompleks baholash uchun (L) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadigan likvidlikning umumiy ko'rsatkichidan foydalanish talab qilinadi⁵¹:

$$L = \frac{a_1 A_1 + a_2 A_2 + a_3 A_3}{a_1 P_1 + a_2 P_2 + a_3 P_3},$$

⁵ Шеремет А.Д., Суиц В.П. Аудит. М.: Инфра – М., 1995. С.210.

Balans likvidligi tahlili

Aktiv	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun	Passiv	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun	To'lash uchun	
						yil boshi uchun	yil oxiri uchun
1	2	3	4	5	6	7	8
Doimiy harakatdagi aktivlar (320,370,380)	550826	755963	Muddati kelgan to'lov majbur. (601)	2199,6	3452,7	-1652,9	-2743,4
Tez sotiluvchi aktivlar (210)	599597	1062302	Qisqa muddatli passivlar (600-601)	1079929	1148492	-529103	-392529
Sekin sotiluvchi aktivlar (140,190,200)	1130783	703942	Uzoq muddatli passivlar (490)	388102	-	211495	1062302
Qiyin sotiluvchi aktivlar (130)	292622	466521	Doimiy passivlar (480)	-	-	1130783	703942
Jami aktiv	2573828	2988728	Jami passiv	1105797	1840236	-813175	-1373715

Bu yerda A_j, Π_j - aktiv va passiv bo'yicha mutanosib guruhlar jami, a_j - o'lchov koeffitsiyentlari, $j = 1, 2, 3$.

Balans likvidligi umumiy ko'rsatkichi korxonaning jami likvid mablag'lari miqdorining barcha to'lov majburiyatlari (ham qisqa, ham uzoq muddatli)ga nisbatini ko'rsatadi. Bunda likvid mablag'lar va to'lov majburiyatlarining turli guruhleri mablag'lar tushishi va majburiyatlarni qaytarish nuqtayi nazaridan ularning ahamiyatini hisobga oluvchi o'lchov koeffitsiyentlari bilan birga ko'rsatilgan miqdorga kirishiga oid shart bajarilishi lozim. Ushbu ko'rsatkich turli hisobot davrlariga taalluqli korxonalar balanslarini, shuningdek, turli korxonalar balanslarini taqqoslashga imkon beradi va qaysi balans likvidroq ekanligini aniqlaydi.

Balans likvidligi tahlili yordamida likvidlik nuqtayi nazaridan korxonalaridagi moliyaviy vaziyat o'zgarishiga baho beriladi. Ushbu ko'rsatkich hisobot asosida ko'plab salohiyatli hamkorlar orasidan eng ishonchlisini tanlab olishda ham qo'llaniladi.

7.10. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili

«To'lov qobiliyati» va «kredit qobiliyati» tushunchalaridan farqli o'laroq «moliyaviy barqarorlik» ancha keng tushuncha hisoblanadi, chunki korxonalar faoliyatining turli jihatdan baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalar o'zining iqtisodiy mazmuni va hisoblash metodikasiga ko'ra bir-biridan tamomila farqlanadi. V.G.Artemenko, M. V. Bellendir («Finansoviy analiz», izdatelstvo «Delo i servis», M. 1999g., s.27) ta'kidlaganidek, moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy holati mohiyatini ifodalaydi, korxonaning to'lov qobiliyati esa – korxonaning moliyaviy holati namoyon bo'lishining tashqi shakli, chunki, tegishli darajada moliyaviy barqarorliksiz na korxonaning to'lov qobiliyati, na uning balans likvidligi bo'lishi mumkin.

U yoki bu sana uchun moliyaviy holat barqarorligini tahlil qilish bu sanadan oldingi davr mobaynida korxonalar moliyaviy resurslarni qanchalik to'g'ri boshqarganligini oydinlashtirishga imkon beradi. Muhimi, moliyaviy resurslar holati bozor talablariga mos bo'lishi va korxonaning rivojlanish ehtiyojlariga javob berishi lozim, chunki

yetarli bo‘lmagan moliyaviy barqarorlik korxonaning to‘lov qobiliyatini izdan chiqarib, unda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mablag‘lar bo‘lmasligiga olib kelsa, ortiqcha moliyaviy barqarorlik – korxonada xarajatlarini ortiqcha zaxiralar bilan og‘irlashtirib, taraqqiyotga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shunday qilib, *moliyaviy barqarorlik mohiyati moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan belgilanadi.*

O‘z navbatida, moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati bilan har tomonlama bog‘liq. Tabiiyki, ishlab chiqarish hamda korxonada faoliyatining ham ichki, ham tashqi shart-sharoitlari ta‘sirini o‘zida aks ettiradi.

Moliyaviy barqarorlikka ta‘sir o‘tkazuvchi **ichki omillar** sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat) tarkibi, uning to‘lovga qobil umumiy talabdagi ulushi;
- to‘langan ustav kapitali miqdori;
- korxonaning xarajatlari va daromadlari nisbati;
- mulk va moliyaviy resurslar holati, jumladan zaxiralar va ehtiyot qismlar, ularning tarkibi va tuzilishi.

Tashqi omillarga xo‘jalik yuritishning iqtisodiy shartlari, jamiyatda hukmron texnika va texnologiyalar, to‘lovga qobil talab va iste‘molchilarning daromad darajasi, davlatning soliq va kredit siyosati, korxonalar faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha qonunchilik hujjatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi va boshqalar ta‘siri kiritiladi.

Moliyaviy barqarorlik korxonada faoliyatining butun jarayonini belgilab beruvchi eng muhim dastak va shart hisoblanadi. Korxonada moliyaviy barqarorligini tahlil qilish muhimligi va mo‘ljallanganligi ham shundan kelib chiqadi.

Korxonada faoliyatining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishni boshlashdan avval uni baholashga yondashuvni ishlab chiqish zarur. U moliyaviy barqarorlik tushunchasini konkretlashtirishdan, uning mohiyati va mazmunini ta‘riflashdan, uning darajasini baholash ko‘rsatkichlari tizimini chegaralashdan iborat.

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi moliyaviy tahlil bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari mualliflari tomonidan turlicha talqin qilinadi.

Moliyaviy barqarorlikning mazmuni va mohiyati

Manbalar	Mazmuni
Artemenko V.G., Belendir M.V. Finansoviy analiz. 2-e izdanie, M.: Delo i Servis, 1999. S.26.	“Moliyaviy barqarorlik – daromadlarning xarajatlardan barqaror ortishi, korxonada pul mablag‘lari bilan erkin manyovra qilishi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha uzluksiz jarayonda ulardan samarali foydalanish haqida darak beruvchi tavsifdir”
Seleznyova N.N., Ionova A.F. Finansoviy analiz. M.: Yuniti. 2002. S.343.	“Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy resurslar, ularning taqsimlanishi va foydalanilish holati bo‘lib, tashkilotning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan risk darajasi sharoitida to‘lov qobiliyati va raqobat qobiliyatini saqlagan holda foyda va kapitilini oshirish asosida rivojlanishini ta‘minlaydi”
Akramov E.A. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. T. 2000. S. 45.	“Korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasi uning zaxira va xarajatlari yoki material aylanma mablag‘larining ularni qoplash manbalariga nisbati sifatida ta‘riflanadi. Aynan shu korxonaning moliyaviy barqarorligi mohiyati va asosiy mazmunini tashkil qiladi”
Kovalyov V.V., Kovalyov Vit. V. Analiz finansovoy ustoychivosti. 2-e izdanie, M.: Prospekt. 2005. S. 265	“Moliyaviy barqarorlik deganda korxonaning moliyalashtirish manbalarining butun boshli tarkibini saqlash qobiliyati tushuniladi”
Makareva V.I., Andreeva A.V. Analiz finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti organizatsii. M.: Finansi i statistika. 2005. S. 18.	“Moliyaviy barqarorlik tashkilotlarning aktivlari holati va tarkibi, ularning manbalar bilan ta‘minlanganligi bilan tavsiflanadi. U tijorat hamkori sifatida tashkilot ishonchliligining asosiy mezonini hisoblanadi”

Ko‘rinib turibdiki, moliyaviy barqarorlik tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar tomonidan turlicha bayon qilinadi.

Ayrimlari uning mohiyati ta‘rifida asosiysi – moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish deb hisoblasa, boshqalari – daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi, korxonaning pul mablag‘larini erkin ishlatishi; zaxira va sarf-xarajatlarning ularni qoplash manbalariga nisbati, deb hisoblaydi.

Moliyaviy barqarorlik mutlaq ko‘rsatkichlari tahlili

Moliyaviy barqarorlik mutlaq ko‘rsatkichlari zaxiralar holati va ularning shakllanish manbalari bilan ta‘minlanganligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Zaxira va sarf-xarajatlarning holatini baholash uchun balans aktivi II bo‘limining “Tovar-moddiy zaxiralar” moddalari guruhi ma‘lumotlaridan foydalaniladi.

Zaxira va sarf-xarajatlarning shakllanish manbalarini tavsiflashda uchta asosiy ko‘rsatkich qo‘llaniladi:

1. O‘z aylanma mablag‘lari (O‘AM) mavjudligi – o‘z mablag‘lari manbalari (balans passivining birinchi bo‘limi) va uzoq muddatli aktivlar (balans aktivining I bo‘limi) o‘rtasidagi farq. Bu ko‘rsatkich sof aylanma kapitalni tavsiflaydi. Uning oldingi davrga nisbatan ortishi korxonaning faoliyatining istiqbolda rivojlanishidan dalolat beradi.

$$O'AM = O'MM - UMA$$

Bu yerda O‘MM – o‘z mablag‘lari manbalari;

UMA – uzoq muddatli aktivlar.

2. Zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirishning o‘z va uzoq muddatli qarz manbalari mavjudligi (O‘UM), u quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$O'UM = O'AM + UQM,$$

Bu yerda UQM – uzoq muddatli qarz mablag‘lari.

3. Zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirishning asosiy manbalarining umumiy miqdori (JAM), oldingi ko‘rsatkichga qisqa muddatli qarz mablag‘lari (QQM) miqdorini qo‘shish yo‘li bilan topiladi.

$$JAM = O'UM + QQM$$

Zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirish manbalari mavjudligining uchala ko‘rsatkichiga zaxiralarning shakllanish manbalari bilan ta‘minlanganligi bo‘yicha uch ko‘rsatkich mos keladi:

1. O'z aylanma mablag'lari ortiqchaligi (+) yoki etishmasligi (-) ($\Delta O'AM$)

$$O'AM = O'AM - ZX.$$

Bu yerda ZX – zaxira va sarf-xarajatlar (balans aktivi II bo'limining 140-satri).

2. Zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirishning o'z va uzoq muddatli qarz manbalari ortiqchaligi (+) yoki etishmasligi (-) ($\Delta O'UM$)

$$O'UM = O'UM - ZX.$$

3. Zaxiralarni shakllantirishni asosiy manbalarining umumiy miqdori ortiqchaligi (+) yoki etishmasligi (-) (ΔJAM)

$$JAM = JAM - ZX.$$

Zaxira va sarf-xarajatlarni qoplash uchun mablag'lar manbalari ortiqchaligi (yoki etishmasligi)ni aniqlash, o'z navbavtida, tashkilotdagi moliyaviy holat turini aniqlashga imkon beradi. Moliyaviy barqarorlikning to'rt turi mavjud:

Birinchisi – mutlaq barqaror moliyaviy holat:

$$\Delta O'AM \geq 0,$$

$$\Delta O'UM \geq 0,$$

$$\Delta JAM \geq 0.$$

Vaziyatning uch o'lchamli ko'rsatkichi $\bar{s}=(1,1,1)$;

Ikkinchisi – normal barqaror moliyaviy holat, u korxonaning to'lov qobiliyatini kafolatlaydi.

$$\Delta O'AM \leq 0,$$

$$\Delta O'UM \geq 0,$$

$$\Delta JAM \geq 0.$$

Vaziyatning uch o'lchamli ko'rsatkichi $\bar{s}=(0,1,1)$;

Uchinchisi - beqaror moliyaviy holat, to'lov qobiliyati buzilishi bilan birga kuzatilib, o'z mablag'lari manbalarini to'ldirish va qarz mablag'lari jalb qilish hisobiga muvozanatni tiklash imkoniyati saqlanib qoladi.

$$\Delta O'AM \leq 0,$$

$$\Delta O'UM \leq 0,$$

$$\Delta JAM \geq 0.$$

Vaziyatning uch o'lchamli ko'rsatkichi $\bar{s}=(0,0,1)$;

To'rtinchisi – inqirozli moliyaviy holat, u bankrotlikka yaqin bo'lib, korxonaning pul mablag'lari, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzi kreditorlik qarzi va muddati o'tgan ssudalarni qoplamaydi.

$$\Delta O'AM \leq 0,$$

$$\Delta O'UM \leq 0,$$

$$\Delta JAM \leq 0.$$

Vaziyatning uch o'lchamli ko'rsatkichi $\bar{S}=(0,0,0)$.

Mutlaq va normal barqaror moliyaviy holat korxonada faoliyati rentabelligining yuqori darajasi va moliyaviy intizomni buzish holatlari mavjud emasligini tavsiflaydi.

Beqaror moliyaviy holat moliyaviy intizom buzilishi, pul mablag'lari tushumida uzilishlar, korxonada faoliyatining daromadliligi pasayishi bilan tavsiflanadi.

Inqirozli moliyaviy holat muntazam to'lovsizlik mavjudligi bilan izohlanadi (bank oldida muddati o'tgan ssuda qarzadorligi, yetkazib beruvchilar oldida muddati o'tgan qarzadorlik, byudjetga boqimandalik mavjudligi).

Moliyaviy barqarorlikning ekspress-tahlili

Ehtimoliy variantlar (N)	$\Delta O'AM$	$\Delta O'UM$	ΔJAM	Moliyaviy barqarorlik turi
1	+	+	+	Mutlaq
2	-	+	+	Normal
3	-	-	+	Beqaror
4	-	-	-	Inqirozli moliyaviy holat

Bu erda “-” to'lov yetishmasligi;

“+” - to'lov ortiqchaligi.

Korxonaning zaxira va sarf-xarajatlari miqdori hamda ularni qoplash bo'yicha jami manbalarning miqdori haqida ma'lumotlarga asoslangan holda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini ta'riflaymiz.

7.14-jadval ma'lumotlariga ko'ra ko'rib chiqilayotgan davrda zaxira va sarf-xarajatlarni shakllantirish manbalarining barcha turlari 1,4 martadan ziyodga oshgan:

$$816,2 : 357,8 = 2,28; 2244,3 : 1450,5 = 1,54.$$

$3201,9 : 2202,1 = 1,45$, biroq yil oxirida korxonaning holati yomonlashgan va zaxiralarning qoplash manbalari bilan ta'minlanganligida yetishmovchilik kuchaygan. Uch unsurli ko'rsatkich moliyaviy vaziyatni inqirozli sifatida tavsiflaydi.

Moliyaviy barqarorlik tahlili

Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun
1	2	3	4
O'z mablag'lari manbalari	O'MM	1 105 797	1 840 236
Uzoq muddatli aktivlar	UA	292 622	466 521
O'z aylanma mablag'lari mavjudligi (1-modda –2-modda)	O'AM	813 175	1 373 715
Uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar	UMKQ	-	-
Zaxira va xarajatlarni shakllantirish uchun o'z va uzoq muddatli qarz mablag'lari mavjudligi (3-modda + 4-modda)	O'UM	813 175	1 373 715
Qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar	QKQ	388 102	-
Asosiy manbalarning umumiy miqdori (5 -modda + 6 - modda)	JAM	1 201 277	1 373 715
Zaxira va xarajatlar	Z	1 117 934	703 501
O'z aylanma mablag'lari ortiqchaligi (+), etishmasligi (-) (3-modda – 8-modda)	$\Delta O'AM$	- 304 759	670 214
Zaxira va xarajatlarni shakllantirish uchun o'z va uzoq muddatli qarz mablag'lari manbalari ortiqchaligi (+), etishmasligi (-) (5 -modda –8 -modda)	$\Delta O'UM$	- 304 759	670 214
Zaxira va xarajatlarni shakllantirishning asosiy manbalarining umumiy miqdori ortiqchaligi (+), etishmasligi (-) (7 -modda –8-modda)	ΔJAM	83 343	670 214
Moliyaviy barqarorlik turining uch komponentli ko'rsatkichi	$\Delta O'AM$ $S = \Delta O'UM$ ΔJAM	0,0,1	1,1,1

“Karvon” MChJning moliyaviy barqarorligini mutloq ko‘rsatkichlar asosidagi tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonada moliyaviy holat yil boshida nobarqaror holatda bo‘lib, yil oxiriga kelganda mutloq barqaror holatga o‘zgargan. Chunki yil boshida zaxira va xarajatlarni qoplashga o‘z va uzoq muddatli qarz manbalari yetarli bo‘lgan, yil oxirida esa o‘z manbalari yetarli bo‘lgan. Korxonada yil oxirida zaxira va xarajatlarni moliyalashtirishda uzoq hamda qisqa muddatli majburiyatlardan umuman foydalanilmagan. Korxonada mutloq barqarorlik holati uzoq va qisqa muddatli qarzlarni jalb etish imkonini ham beradi. Bu korxonaning moliyaviy holatini yanada barqarorlashishiga olib keladi.

Moliyaviy holat barqarorligi quyidagilar asosida tiklanishi mumkin:

- joriy aktivlarda kapital aylanuvchanligi tezlashishi bilan, buning natijasida uning 1 so‘mlik tushumga nisbatan qisqarishi sodir bo‘ladi;
- zaxira va sarf-xarajatlarning asosli tarzda kamaytirilishi bilan;
- o‘z aylanma kapitalning ichki va tashqi manbalar bilan to‘ldirilishi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tahlili

Korxonaning moliyaviy barqarorligi namoyon bo‘lishining ayrim jihatlarini tahlil qilish uchun iqtisodiy adabiyotlarda tavsiya qilingan korxonaning moliyaviy barqarorligi koeffitsiyentlari tizimidan foydalaniladi.

Mazkur koeffitsiyentlar korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashni kelgusi detallashtirish, korxonada moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rsatkichining alohida jihatlarini qo‘shimcha aks ettirish uchun xizmat qilishga mo‘ljallangan.

Biroq moliyaviy barqarorlik darajasi tahlilga tortiladigan ko‘rsatkichlar miqdori haqida iqtisodchi olimlar o‘rtasida yakdil fikr mavjud emas. Ba‘zan ko‘rsatkichlar tizimiga korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashga umuman aloqasi bo‘lmagan ko‘rsatkichlar ham kiritiladi, masalan, eskirish va asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyentlari, korxonada mulkning real qiymati koeffitsiyenti, bankrotlik koeffitsiyenti va boshqalar. Turli mualliflar tomonidan korxonaning moliyaviy barqarorligining aynan bir xil ko‘rsatkichlari turlicha ta’riflanadi.

Prof. N.N. Seleznyova, A.F. Ionova moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish uchun 11 ta ko‘rsatkichni tavsiya qiladi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari

T/r	Koeffitsiyentlar	Darslik va o'quv qo'llanmalari mualliflari ⁶					
		G.V. Savitskaya	N.N.Seleznyova, A.F. Ionova	E.A. Akramov	N.P. Lyubushin va b.	V.G. Artemenko, M.V. Bellendir	A.V. Vahobov va b.
		1	2	3	4	5	6
1	Joriy aktivlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi koeffitsiyenti	+	+	+		+	+
2	Material zaxiralarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi koeffitsiyenti		+			+	
3	Xususiy kapitalning manovrirlashganligi koeffitsiyenti	+	+	+	+	+	+

⁶ Савицкая Г.В. Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий, М.: Инфра. 2003.
 Селезнёва Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. М.: Юнити, 2002.
 Акрамов Э.А. Анализ финансового состояния предприятия, Т., 2000.
 Любушкин Н.П. и др. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия, М.: Юнити, 2001.
 Артеменко В.Г., Беллендир М.В. Финансовый анализ, М.: Дело и сервис, 1999.
 Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 600 b.

Korxonaning moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari sifatida uning asosiy ko'rsatkichiga haqiqatan ham qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qiladigan va uning alohida jihatlarini aks ettira oladigan ko'rsatkichlarning cheklangan doirasidan foydalanish talab qilinadi.

Moliyaviy barqarorlikning barcha nisbiy ko'rsatkichlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh – aylanma mablag'lar holatini belgilovchi ko'rsatkichlar:

- o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti;
- moddiy zaxiralarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti;
- o'z mablag'lari manyovrlashganlik koeffitsiyenti.

Ikkinchi guruh – moliyaviy mustaqillik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar:

- muxtorlik koeffitsiyenti;
- o'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti.

Hisobot davri uchun hisoblab topilgan haqiqatdagi koeffitsiyentlar me'yor bilan, ularning oldingi davr uchun qiymatlari bilan, o'xshash korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi va real moliyaviy holat, tashkilot faoliyatining kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi.

Moliyaviy barqarorlikning nisbiy ko'rsatkichlari mazmuni va hisoblash usullari quyida keltirilgan:

1. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

$$K_{o'mt} \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari} - \text{uzoq muddatli aktivlar}}{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}} \geq 0,1.$$

Korxonaning moliyaviy barqarorlik uchun zarur o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini tavsiflaydi.

2. Moddiy zaxiralarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

$$K_{mzt} \frac{\text{O'z aylanma mablag'lari}}{\text{Moddiy zaxiralar}} = 0,6 - 0,8.$$

Tovar-moddiy zaxiralar qay darajada o'z manbalari bilan qoplanganligi va jalb qilingan qarz mablag'larga muhtoj emasligini ko'rsatadi. Ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkich darajasi avvalo, tashkilotning moddiy zaxiralariga bog'liq ravishda baholanadi. Agar uning miqdori asoslangan talabdan sezilarli darajada yuqori bo'lsa, u

holda o‘z aylanma mablag‘lari moddiy zaxiralarning atigi bir qismigina qoplay oladi, ya’ni ko‘rsatkich birdan kichik bo‘ladi. Va aksincha, faoliyatini uzluksiz amalga oshirish uchun tashkilotda yetarlicha moddiy zaxiralar bo‘lmaganda ko‘rsatkich birdan katta bo‘lishi mumkin, lekin buni yaxshi moliyaviy holat belgisi sifatida qabul qilish mumkin emas.

3. Xususiy kapital manyovrlashganlik koeffitsiyenti (K_m)

$$K_m = \frac{\text{O‘z aylanma mablag‘lari}}{\text{O‘z mablag‘lari manbalari (balans passivi I bo‘l. 480-modda)}}$$

Moliyaviy nuqtayi nazardan tashkilot mablag‘larining o‘z manbalari qanchalik mobilligini ko‘rsatadi. K_m ning optimal darajasi 0,5 ga teng.

Ko‘rib chiqilayotgan koeffitsiyent darajasi tashkilot faoliyati xarakteriga bog‘liq bo‘ladi: fond sig‘imli ishlab chiqarishda uning normal miqdori material sig‘imlidagilarga nisbatan past bo‘lishi lozim, chunki bu holatda o‘z mablag‘larining salmoqli qismi asosiy ishlab chiqarish fondlarini qoplash manbayi hisoblanadi. Moliyaviy nuqtayi nazardan manevrchanlik koeffitsiyenti qancha yuqori bo‘lsa, tashkilotning moliyaviy holati shunchalik yaxshidir.

4. Qarz mablag‘larni uzoq muddatli jalb qilish koeffitsiyenti

$$K_{qmu} = \frac{\text{Uzoq muddatli qarz mablag‘lar}}{\text{O‘z mablag‘lari manbalari + Uzoq muddatli qarz mablag‘lar}}$$

O‘z mablag‘lari bilan bir qatorda ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirish uchun faoliyatning qanday qismi uzoq muddatli qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotganligini ko‘rsatadi. Qarz mablag‘lari jalb qilish darajasi bo‘yicha chet el amaliyotida turlicha, gohida esa qarama-qarshi fikrlar mavjud. Moliyalashtirishning uzoq muddatli manbalarining jami miqdorida xususiy kapital ulushi ancha yuqori bo‘lishi lozim, degan fikr ancha keng tarqalgan. Mazkur ko‘rsatkichning eng quyi chegarasi ham ko‘rsatiladi - 0,6 (yoki 60%).

Xususiy kapital ulushi yuqori bo‘lgan korxonaga kreditorlar o‘z mablag‘larini bajonidil joylashtiradi, chunki bunday korxonada sezilarli darajada moliyaviy mustaqillikka ega, o‘z navbatida esa yuqori ehtimollik bilan o‘z mablag‘lari hisobiga qarzlarni qaytarishi mumkin. Qayd qilish joizki, moliyaviy mustaqil (tashqi investorlar va kreditorlardan) kompaniyalar shu so‘zning to‘liq ma’nosida deyarli

uchramaydi, bundan tashqari, manbalarning u yoki bu tarkibi nuqtayi nazaridan moliyaviy mustaqillik talqini turli mamlakatlarda jiddiy farqlanishi mumkin. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) ma'lumotlariga ko'ra manbalarning umumiy miqdorida jalb qilingan mablag'lar ulushi o'rtacha olinganda Yaponiyada - 85%, GFRda – 64%, AQShda – 55% (Brigxem, Gapenen, T.2, 1047-bet) ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlarda investitsion oqimlar mutlaqo rang-barang tabiatga ega; masalan, AQShda moliyaviy resurslarning asosiy oqimi aholidan kelib tushsa, Yaponiyada – banklardan kelib tushadi. Shuning uchun jalb qilingan kapital to'planganligi koeffitsiyentining yuqori qiymati korporatsiyalarga bank tomonidan ishonch darajasi yuqoriligi, demakki, uning moliyaviy ishonchliligidan darak beradi.

5. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti:

$$K_{\text{mm}} = \frac{\text{Balans passivining I bo'limi, 480-modda}}{\text{Balans jami, 780-modda}}$$

Mazkur koeffitsiyent yaqin davrlarda moliyaviy holat o'zgarishi istiqbollardan darak beradi. Koeffitsiyentning optimal qiymati – 0,6. Bu korxonaning o'z mablag'lari miqdori moliyalashtirish manbalari jami miqdorining 60% ini tashkil qilishini anglatadi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining yuqori darajasi tashkilotning barqaror moliyaviy ahvoli, uning moliyaviy manbalari maqbul tarkibi va kreditorlar uchun moliyaviy riskning past darajasini o'zida namoyon qiladi. Bunday holat tushkunlik davrlarida ulkan yo'qotishlardan himoya va tashkilotning o'zi uchun kredit olish kafolati bo'lib xizmat qiladi.

6. Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti

$$K_{\text{qo'}} = \frac{\text{Qarz mablag'lar, 770-modda}}{\text{O'z mablag'lar, 480-modda}} \geq 1.$$

Tashkilot faoliyatining qanday qismi o'z mablag'lari, qanday qismi qarz mablag'lar hisobidan moliyalashtirilayotganligini ko'rsatadi.

Koeffitsiyent ortishi aylanma mablag'larga o'z ehtiyojlarini qoplash uchun korxonada mablag'larning o'z manbalari yetarli emasligidan dalolat beradi. Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti birdan katta qiymatga ega bo'lsa, u holda korxonada

mazkur ko'rsatkich bo'yicha nochorligi haqida xulosa qilish qabul qilingan.

7. Moliyalashtirish koeffitsiyenti

$$K_m = \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari, 480-modda}}{\text{Uzoq muddatli va qisqa muddatli qarz manbalari, 570 + 730-moddalar}} \geq 1.$$

O'z va jalb qilingan qarz mablag'lari manbalari nisbatini tavsiflashga mo'ljallangan va o'z mablag'lari manbalarining uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'lari miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi. Kapital jalb qilishning ushbu koeffitsiyenti jalb qilingan kapital yoki uzoq va qisqa muddatli qarz manbalarning korxonaga mulkining umumiy miqdoriga nisbatini ifodalaydi.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar bevosita korxonaning moliyaviy barqarorligiga bog'liq va uning moliyaviy holatini tahlil qilish amaliyotida keng qo'llaniladi.

7.16-jadval ko'rsatkichlari moliyaviy holat barqarorligini tasdiqlaydi. Analitik jadvalda keltirilgan barcha moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari me'yoriy darajadan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

7.16-jadval

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Holatiga ko'ra		O'zgarishlar	Taklif qilinayotgan me'yorlar
			yil boshi uchun	yil oxiri uchun		
1	2	3	4	5	6	7
1.	O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	Ko'mt	0,36	0,60	0,25	>0,1
2.	Zaxira va xarajatlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi koeffitsiyenti	Kzxt	0,73	1,95	1,23	0,6 - 0,8
3.	Xususiy kapitalning manyovrlashganligi koeffitsiyenti	Km	0,74	0,75	0,01	>0,1
4.	Uzoq muddatli qarz mablag'larni jalb qilish koeffitsiyenti	Kumj	-	-	-	>0,6

5.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Kmm	0,43	0,62	0,19	>0,5
6.	Qarz va xususiy kapital nisbat koeffitsiyenti	Knqo'	1,33	0,62	-0,70	≤1
7.	Moliyalashtirish koeffitsiyenti	Km	2,85	-	-	1

Demak, korxonaning moliyaviy barqarorligi korxonaning moliyaviy holati namoyon bo'lishining eng muhim shakllaridan biri sifatida gavdalanadi va bu ko'rsatkichni ko'rsatkichlar tizimi bazasida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7.11 Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi tahlili

Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi korxonaning ishlab chiqarish fondlarining qiymat ifodasini o'zida aks ettiradi. Ulardan foydalanish darajasining ortishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi va bu, eng avvalo, ularning aylanuvchanligi tezlashishida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish va muomala vaqti kamayishi oqibatida bo'naklangan aylanma mablag'larning maksimal darajada tezkor doiraviy aylanmasi fiksirlangan vaqt davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, aylanuvchanlik tezlashishi korxonaning to'lov qobiliyati mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining iqtisodiy tahlili quyidagilarni nazarda tutadi:

- barcha aylanma mablag'larning, jumladan alohida iqtisodiy elementlar bo'yicha dinamikasini baholash;
- aylanuvchanlikning o'tgan davrdan og'ishlarini aniqlash;
- aylanma tezligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- aylanuvchanlikni tezlashtirish zaxiralarini aniqlash.

Korxonaning moliyaviy holati aktivlarga joylashtirilgan mablag'lar qanchalik tez real pullarga aylanayotganligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi tezlashishi ularga ehtiyojni kamaytiradi: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish tanavorlari zaxiralari kamroq talab qilinadi, o'z navbatida,

ularni saqlash uchun sarf-xarajatlar darajasi pasayishiga olib keladi. Bu esa oxir-oqibat rentabellik ortishi va korxonaning moliyaviy holati yaxshilanishiga imkon beradi.

Aylanma vaqti sekinlashishi aylanma mablag‘larning zaruriy miqdorini oshirishga va qo‘shimcha sarf-xarajatlarga olib keladi, demak, korxonaning moliyaviy holati yomonlashadi.

Aylanma mablag‘lar tezligi – ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining tashkiliy-texnik darajasining majmuaviy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta‘minlaydi.

Mablag‘larning aylanma bo‘lish vaqti davomiyligiga tashqi va ichki toifadagi omillar ta‘sir qiladi.

Tashqi toifadagi omillarga korxonaning faoliyat sohasi, tarmoqqa oidligi, korxonaning ko‘lami, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va unga bog‘liq bo‘lgan korxonaning xo‘jalik yuritishi kabilarni kiritish mumkin.

Ichki omillar – korxonaning narx siyosati, aktivlar tarkibi, zaxiralarni baholash metodikasi.

Aylanuvchanlikni aniqlash uchun qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi koeffitsiyenti, u tahlil davri davomida korxonaning aylanma mablag‘lari bajargan aylanmalar miqdorini o‘zida aks ettiradi; kunlarda aylanuvchanlik, ya‘ni korxonaning aylanma mablag‘lari to‘liq aylanmani amalga oshiradigan davr davomiyligi (kunlarda).

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi koeffitsiyenti (K_a) mahsulot sotish hajmining aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘iga nisbati

sifatida quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: $K_a = \frac{S}{O'Q}$.

Bu yerda, K_a – aylanuvchanlik koeffitsiyenti;

S – mahsulot sotishdan tushum;

$O'Q$ – aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i.

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i vaqtning turli paytlarida ko‘rsatkichning qiymatlari jami bo‘yicha hisoblanadigan o‘rtacha xronologik moment qatori sifatida ta‘riflanadi:

$$\overline{O'Q} = \frac{1/2O'Q_1 + O'Q_2 + \dots + 1/2O'Q_n}{n-1}$$

Bu yerda, $\overline{O'Q}$ – aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldig‘i;
n – oylar soni.

Aylanuvchanlik koeffitsiyentining o‘shishi aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ortayotganligidan guvohlik beradi.

Aylanuvchanlik koeffitsiyenti ayni vaqtda tahlil davri uchun aylanma mablag‘lar aylanmasi sonini ko‘rsatadi va tahlil davrining kunlari miqdorini kunlarda ifodalangan bir aylanma davomiyligiga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanishi mumkin (\bar{X}):

$$Ko = \frac{D}{\bar{X}}.$$

Bu yerda, \bar{X} - kunlarda ifodalangan bir aylanma davomiyligi;

D – tadqiq qilinayotgan kunlar soni (yil – 360 kun, chorak – 90, oy – 30 kun).

Kunlarda aylanuvchanlik (\bar{X}) yoki bir aylanish davri quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\bar{X} = \frac{O'q * D}{P}.$$

Aylanmadagi mablag‘lar yuklama koeffitsiyenti mahsulot sotishdan tushumlarning bir so‘miga bo‘naklangan aylanma mablag‘lar miqdorini tavsiflaydi:

$$K_{yuk} = \frac{O'Q}{P}.$$

Bu yerda K_{yuk} – aylanmadagi mablag‘lar yuklama koeffitsiyenti, tiyin.

Yuklama koeffitsiyenti qancha kam bo‘lsa, aylanma mablag‘lardan shunchalik samarali foydalanilmoqda.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, joriy yildagi aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi o‘tgan davrga nisbatan 19,5 kunga tezlashgan. O‘tgan davr uchun aylanma mablag‘lar o‘rtacha 3,28 marta aylangan bo‘lsa, hisobot davri uchun 4 martaga to‘g‘ri keladi.

Aylanuvchanlik tezlashishi aylanma kapitalga ehtiyoj kamayishi, mahsulot hajmi o‘shishiga, demakki, olinadigan foyda ortishiga imkon beradi.

Aylanuvchanlik sekinlashuvi korxonaning xo‘jalik faoliyatini loaqal o‘tgan yilgi darajada davom ettirish uchun qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilinishini talab qiladi.

**“Karvon” MChJda aylanma mablag‘lar
aylanuvchanligi tahlili**

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgi	O‘tgan davr	Hisobot davri	Og‘ish
1. Sotishdan tushum	R	7478805	10051984	2573179
2. Aylanma mablag‘larining o‘rtacha qoldig‘i	\overline{CO}	2281206	2522207	241001
3. Aylanuvchanlik koeffitsiyenti (1-modda : 2-modda)	Ko	3,28	3,99	0,71
4. Aylanuvchanlik, kunlarda (str.2*360 : str.1)	\overline{X}	109,81	90,33	-19,48
5. Aylanma mablag‘larining mustahkamlash koeffitsiyenti (2-modda : 1-modda), tiyin	Kzs	0,31	0,25	-0,05

Aylanma mablag‘larni aylanmadan chiqarib olish (jalb qilish) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$DO'Q = (\overline{X}_1 - \overline{X}_0) * T_{1kun}.$$

Bu erda $\overline{X}_1, \overline{X}_0$ – aylanma mablag‘larning bir aylanmasi davomiyligi (kunlarda);

T_{1kun} - sotishdan bir kunlik tushum.

$$\Delta O'Q = (90,33 - 109,81) * \frac{10051984}{360} = -543877,2.$$

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi tezlashishi natijasida xo‘jalik aylanmasida 543877,2 ming so‘mlik aylanma mablag‘lar bo‘shashligi kuzatilgan.

Aylanma mablag‘larning bir iqtisodiy funksional shakldan (ularning bosqichlari) boshqasiga o‘tish tezligini baholashga imkon beruvchi aylanma mablag‘larning alohida elementlari aylanuvchanligining xususiy ko‘rsatkichlarini hisoblash ham tahlil uchun muayyan qiziqish uyg‘otadi.

Nazorat savollari

1. Korxonaning moliyaviy holati, deganda nima tushuniladi va uning tahlili ahamiyati nimaning hisobiga ortadi?

2. Moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari nimalardan iborat?

3. Moliyaviy holat tahlili uchun qanday usullar qo‘llaniladi?

4. Buxgalteriya hisoboti, jumladan namunaviy shakllari bo‘limlarining tarkibi va mazmuni qanday?

5. Korxonaning mulki holati tahlili ahamiyati, obyektlari va metodikasini bayon qiling.

6. Moliyaviy mustaqillik nima, uni tavsiflovchi mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash metodikasi qanday?

7. To‘lov qobiliyati va likvidlik nima, ularning farqi nimadan iborat? Ular qanday ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi va ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblash metodikasi qanday?

8. Aylanma kapital (aylanma mablag‘lar) dan foydalanish samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlanadi?

9. Aylanma kapitalning xususiy ko‘rsatkichlari aylanuvchanligini hisoblash metodikasi qanday?

10. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘llari nimalardan iborat?

11. Keltirilgan balans asosida quyidalarni aniqlang:

- o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi;
- korxonalar mablag‘lari manbalari mavjudligi va tarkibidagi o‘zgarishlar;
- korxonalar aktivlari mavjudligi va strukturasiidagi o‘zgarishlar;
- aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi va intensivligi ko‘rsatkichlari;
- moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari;
- likvidlik koeffitsiyentlari.

Tahlil natijalari bo‘yicha xulosa chiqaring.

1 yanvar uchun korxonalar balansi

Aktiv	Summa, ming so‘m		Passiv	Summa, ming so‘m	
	1.01.16	1.01.17		1.01.16	1.01.17
I. Uzoq muddatli aktivlar			I. O‘z mablag‘lari manbalari		
Asosiy vositalar	81997	83749	Ustav kapitali	75480	87480
Nomaterial aktivlar			Qo‘shimcha kapital	5670	5670
Uzoq muddatli investitsiyalar	2752	4715	Zaxira kapitali	71260	66754

Kapital qo'yilmalar	5473	1019	Xarid qilingan xususiy aksiyalar		
Uzoq muddatli debitorlik qarzi			Taqsimlanmagan foyda	23853	30039
Uzoq muddatli muddati uzaytirilgan xarajatlar			Maqsadli tushumlar	2975	8029
I bo'lim bo'yicha jami	90222	89483	Pirovard xarajatlar zaxirasi		
II. Joriy aktivlar			I bo'lim bo'yicha jami	179238	197972
Tovar-moddiy zaxiralar – jami	85735	114998	II. Majburiyatlar		
Kelgusi davr xarajatlari	22435	328	Uzoq muddatli majburiyatlar	7210	10367
Muddati kechikkan xarajatlar	-	24921	Joriy majburiyatlar	93863	134284
Debitorlar – jami	77937	98905	Jumladan: joriy kreditorlik qarzi	74621	134284
Ulardan: muddati o'tgan	4088	2310	jumladan: yetkazib beruvchilar va pudratchilar	417	17306
Boshqa debitorlik qarzlari	10761	24950	Sho'ba va qaram jamiyatlar	7883	-
Pul mablag'lari	3982	13988	Boshqa muddati uzaytirilgan majburiyatlar	544	2444
Qisqa muddatli investitsiyalar			Olingan bo'naklar	12780	26256
Boshqa joriy aktivlar			To'lovlar bo'yicha qarzdorlik	15111	23662
II bo'lim bo'yicha jami	190089	253140	To'lanadigan qarzdorlik	29842	48615
			Boshqa kreditorlik qarzlari	8044	16001
			II bo'lim bo'yicha jami	101073	144651
Balans aktivi bo'yicha jami (I+ II)	280311	342623	Balans passivi bo'yicha jami (I+II)	280311	342623

Ma'lumotnoma:
uzoq muddatli kredit va qarzlار
qisqa muddatli kredit va qarzlار

1.01.16 uchun
7210
19242

1.01.17 uchun
10367
-

VIII bob. KORXONA FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI

8.1. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari tahlilining mazmuni va vazifalari

Korxonalar faoliyatini baholash uchun qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar tizimida foyda muhim oʻrin tutadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi oʻsishi, assortiment kengayishi va yangilanishi hisobiga boʻlgani kabi, tannarxni kamaytirish hisobiga jamgʻarmalarning muntazam ortib borishi korxonalar rahbarlari manfaatlariga mos keladi.

Foyda korxonalar faoliyatining turli jihatlari (ishlab chiqarish, taʼminot, mahsulot sotish va moliyaviy)ni aks ettiruvchi sifatga oid sintetik koʻrsatkich hisoblanadi. Korxonalar tomonidan olinadigan foyda miqdori sotilgan mahsulot hajmi, uning sifati, assortimenti, tannarx darajasi va boshqa omillar bilan bogʻliq. Olingan foyda oz yoki koʻp darajada rentabellik miqdori, oʻz aylanma mablagʻlari holati, korxonaning toʻlov qobiliyatini belgilab beradi.

Foyda – bu korxonaning maxsus tizimli ishlab chiqaradigan resursi, biznes taraqqiyotining yakuniy maqsadi. Koʻrib chiqilayotgan iqtisodiy tushunchaning mohiyati shundaki, foydaning zaruriy darajasi – bu:

- Korxonaning joriy va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy ichki manbayi.
- Korxonaning bozor qiymati oshishining asosiy manbayi.
- Korxonaning kredit qobiliyati indikatorini.
- Mulkdorning bosh manfaati, chunki u kapital va biznesni yuksaltirish imkoniyatini taqdim etadi.
- Barqaror va mustahkam foyda darajasi mavjudligida korxonaning raqobatbardoshlik qobiliyati indikatorini.
- Korxonalar davlat oldida oʻz majburiyatlarini bajarish kafili, jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirish manbayi.

Foydalilikning zaruriy darajasini saqlash bozor iqtisodiyotida korxonalar normal faoliyat yuritishi uchun obyektiv qonuniyat sanaladi. Foydaning muntazam ravishda yetishmasligi va uning qoniqsiz dinamikasi biznesning samarasizligi va riskliligi, ya'ni bankrotlikning asosiy ichki sabablaridan biri haqida darak beradi. Foydani boshqarish uchun foyda shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bo'yicha obyektiv tizimli tahlilni amalga oshirish zarur, bu uni oshirish zaxiralarini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil ichki subyektlarda ham, tashqi subyektlarda ham qiziqish uyg'otadi, chunki foyda o'sishi korxonaning potensial imkoniyatlari o'sishini belgilab beradi, uning ishbilarmon faollik darajasini oshiradi, ta'rischilar daromadlari miqdorini oshiradi va korxonaning moliyaviy holatini tavsiflaydi.

Tahlil uchun asosiy axborot manbai "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" 2-shakl hisoblanadi. Amaldagi 2-hisobot shakli oldingisidan farqlanadi. Bu o'zgarishlar quyidagi holatlar bilan bog'liq:

1) bozor sharoitida moliyaviy hisobotlardan yangi foydalanuvchilar, avvalo, aksiyadorlar, shuningdek, boshqa investorlarning paydo bo'lishi;

2) korxonalar menejerlarining yangi axborot so'rovlari vujudga kelishi;

3) moliyaviy bozorlarning asosiy mezonlari va xo'jalik boshqaruvi talablariga javob beruvchi foyda haqida hisobotning yanada aniqroq tarkibini ishlab chiqarish zarurati.

Moliyaviy natijalar tahlilining vazifalari:

- Moliyaviy natijalar rejasi (prognozi) ni baholash.
- Moliyaviy natijalar tarkibi va dinamikasini o'rganish.
- Moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi omillar ta'risirini miqdoriy o'lchash.
- Moliyaviy natijalarni oshirish zaxiralarini aniqlash.
- Korxonani rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda moliyaviy natijalarni samaraliroq shakllantirish va undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

8.2. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisoblash

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" 2-shakl ma'lumotlari bo'yicha tahlil qilinadi.

Moliyaviy natijalar – bu foyda yoki zarar.

Foyda (zarar) – korxonaning jami xarajatlari va jami daromadlari o‘rtasidagi farqni anglatadi.

Foyda - tashkilot faoliyatining ijobiy moliyaviy natijasidir. Salbiy natija zarar deb nomlanadi.

Korxonada vujudga kelgan har bir foydani tahlil qilish, mavhum emas, balki qariyb aniq xarakterga ega bo‘ladi, chunki muassislar, aksiyadorlar va ma‘muriyat uchun korxonada faoliyatini jadallashtirishning eng muhim yo‘nalishlarini tanlashga imkon beradi.

Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, quyidagi foyda ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

• **Mahsulot sotishdan yalpi foyda** – mahsulot sotishdan sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - SMT.$$

• **Asosiy faoliyatdan foyda** – mahsulot sotishdan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi farq va boshqa daromadlar yoki asosiy faoliyatdan zararlar qo‘shilgan yoki ayirilgan holda aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ.$$

Korxonaning asosiy faoliyati deganda mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha korxonaning ixtiyoriy faoliyati tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, korxonaning asosiy faoliyatiga korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan moddalar va favqulodda moddalar kiritilmaydi, xolos.

Davr xarajatlari deganda, bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va daromadlar tushuniladi: sotish bo‘yicha xarajatlar, ma‘muriy xarajatlar, kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari.

Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (xarajatlar)

Mazkur modda bo‘yicha sotilgan mahsulotlardan daromadlar (xarajatlar) bilan birga korxonaning asosiy faoliyatidan daromadlar (xarajatlar)ning boshqa turlari aks ettiriladi.

Ularga quyidagilar kiritiladi:

1. Qarzdor tomonidan tan olingan yoki undirilgan xo'jalik shartnomalari shartlari buzilganligi uchun jarimalar, penyalar, neustoykalar va boshqa sanksiya turlari, shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha daromadlar.

2. Hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillar foydasi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan boshqa daromadlar, masalan, korxonalar qoshidagi oshxonalaridan tushumlar, qo'shimcha xizmatlardan daromadlar.

4. Korxonaning asosiy vositasi va boshqa mulkini sotishdan daromadlar.

5. Da'vo muddati tugagan kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.

6. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (xarajatlar).

Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar), asosiy faoliyatdan foyda miqdoriga moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlarni qo'shish, xarajatlarni ayirish yo'li bilan hisoblanadi.

$$UF = AFF + MD - MX.$$

moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlarga quyidagilar kiritiladi:

- Olingan royalti va kapital transfertidan daromadlar
- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalarining faoliyatida ulushli ishtirokdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda va obligatsiyalar va korxonaga tegishli boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar.

- Mulknii uzoq muddatli ijaraga berishdan daromadlar.

- Valyuta hisoblashishlari, shuningdek, chet el valyutasida operatsiyalar bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

- Qimmatli qog'ozlar, sho'ba korxonalar va boshqalarga joylashtirilgan mablag'larni qayta baholashdan foydalar.

- Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

1. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan hisob stavkasi doirasidagi yoki undan yuqori bank kreditlari bo'yicha to'lovlar; yetkazib beruvchilarning kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari uchun xarajatlar.

2. Mulkni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha foiz to'lovlari uchun xarajatlar.

3. Manfiy kurs farqlari va chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha zararlar.

4. Joylashtirilgan mablag'lar (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va boshqalarga) ni qayta baholashdan zararlar.

5. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar.

6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan foyda va favqulodda (ko'zda tutilmagan) foyda va zararlar saldosinga algebraik miqdori sifatida ta'riflanadi.

$$STF = UF + FP - FZ.$$

Favqulodda zararlar – bu korxonaning xo'jalik faoliyatida o'ta kamdan-kam hollarda yuzaga keluvchi zarar bo'lib, ular uchun odatiy hisoblanmaydi va korxonadan tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlari oqibati sifatida qaralmaydi.

Favqulodda foydalar – taxmin qilinmagan, ekstraordinar xarakterga ega, korxonaning odatiy faoliyati doirasidan chiquvchi voqea yoki operatsiya natijasida vujudga keluvchi va olinishi umuman ko'zda tutilmagan foydalar.

Hisobot davrining **Sof foydasi** soliqlar to'langandan so'ng korxonadan tasarrufida qoladi, daromad yoki foyda solig'i hisobdan chiqarilgandan so'ng va yana boshqa qaerda hisobga olinmaydigan boshqa soliq va to'lovlar ayirib tashlangandan so'ng qoladigan soliqlar to'langunga qadar foydani o'zida aks ettiradi:

$$SF = STF - DS - BS.$$

Sof foyda miqdori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan foyda solig'i stavkalari va imtiyozlariga bog'liq bo'ladi. Byudjetga foyda solig'i to'langandan so'ng korxonadan foydalanish yo'nalishlarini o'zi mustaqil belgilaydi, uning asosiy qismi esa ta'sis hujjatlariga muvofiq va mulkdorlar istagiga ko'ra taqsimlanadi.

Iste'mol fondiga ancha salmoqli ajratmalarni korxonadan tomonidan o'z moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda tanlangan strategiyalarning xarakterli jihatlaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin. Korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan sharoitlarda foydadan foydalanishning

ushbu qismiga o‘z mablag‘larining potensial zaxirasi sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘lib, iste‘mol fondi va jamg‘arma fondi o‘rtasida foyda taqsimlanishida nisbat o‘zgarganda aylanma mablag‘larini to‘ldirishga yo‘naltirish mumkin.

8.3. Umumiy moliyaviy natijalar darajasi va dinamikasi tahlili

Ixtiyoriy mulkchilik shaklidagi korxonada faoliyatini baholash va rag‘batlantirishda foyda ahamiyatining ortishi reja bajarilishi (dinamika) ni obyektiv baholash maqsadida uni batafsil tahlil qilish zaruratini taqozo qiladi. Umumiy moliyaviy natija (balans foydasi – soliqlar to‘langunga qadar foyda) qator qo‘shiluvchilarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun umumiy moliyaviy natijaning tarkibiy qismini ko‘rib chiqish va uning alohida emitentlari ahamiyatini aniqlash yo‘li bilan korxonada faoliyat natijalari haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Foydaning mutlaq miqdori nafaqat ishlab chiqarilgan har bir mahsulot birligi uchun xarajatlarni kamaytirishdan tejamkorlikni, balki ishlab chiqarilgan mahsulotning ulkan miqdori hisobiga sotish hajmini oshirish, iste‘molchilar talablariga muvofiq rentabelligi yuqori mahsulot assortimentini ishlab chiqarish va sifatini oshirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa foyda korxonada faoliyatining turli jihatlarini tavsiflovchi boshqa ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanishi lozimligini anglatadi, shuning uchun to‘g‘ri asoslangan foyda miqdorini belgilash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Mazkur vazifaning bajarilishiga korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatini chuqur va tizimli tahlili ko‘maklashadi. Foydani oshirish zaxiralarini aniqlash maqsadida umumiy moliyaviy natija tarkibi va tarkibini o‘rganish zarur. Bunday tahlil uchun ma‘lumotlar sifatida “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot” 2-hisobot shakli xizmat qiladi.

Ushbu hisobot shaklida sotishdan yalpi moliyaviy natija ajratib ko‘rsatilib (030 modda), boshqaruv hisobi va moliyaviy menejmentning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri sanaladi .

Sotish xarajatlari (050 modda), ma‘muriy xarajatlar (060 modda), boshqa operatsion xarajatlar (070 modda) va kelgusida soliq bazasidan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlarning algebraik

summasini o'zida aks ettiruvchi davr xarajatlari belgilanadi. Davr xarajatlarini belgilash moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini to'g'ri baholash, boshqaruv bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun favqulodda muhim sanaladi. Korxonaning asosiy faoliyatidan moliyaviy natija (100 modda) algebraik summa sifatida hisoblanadi (030 – 040 + 090 moddalar). Korxonaning asosiy faoliyatidan foyda boshqacharoq nomlanadi – **operatsion foyda**. Bunda asosiy faoliyat deganda mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha korxonaning qonun bilan ruxsat etilgan ixtiyoriy faoliyati tushuniladi. Shunday qilib, operatsion foyda yoki korxonaning asosiy faoliyatidan foyda – Korxonaning asosiy faoliyati natijalarining muhim tavsifidir.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha alohida daromadlar (110 modda) va xarajatlar (170 modda) moddalari ajratiladi. Bu korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatini korxonaning qarzlari xizmat ko'rsatish, korxonaning tomonidan foiz va dividendlar olish, chet el valyutasida operatsiyalar natijalari kabi moliyaviy operatsiyalardan farqlash uchun zarur hisoblanadi. Bu nafaqat korxonaning asosiy faoliyati natijalarini moliyaviy faoliyatdan farqlash uchun muhim, balki korxonaning qarzlari xizmat ko'rsatishga to'g'ri keladigan xarajatlar ulushini ko'rsatish uchun ham muhimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkich korxonaning yashovchanlik qobiliyatini baholashda o'ta muhim sanaladi: bunday xarajatlarning yuqori ulushi korxonani bankrotlikka olib kelishi mumkin. Boshqa holatlardagi kabi soliqqa tortish bazasiga kiritilishi yoki kiritilmasligidan qat'iy nazar mazkur modda bo'yicha korxonaning tomonidan qilingan barcha xarajatlar moliyaviy xarajatlarga kiritiladi.

Korxonada tasodifan sodir bo'lgan va yaqin kelajakda qaytarilmaydigan daromad va xarajatlarni ajratib olish uchun favqulodda foyda va zararlar ajratiladi (230 modda). Bu ham o'tgan davr uchun natijalarni baholash, ham korxonaning faoliyatining istiqbollari baholash uchun muhim sanaladi.

Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija ajratiladi (240 modda). Mazkur ko'rsatkich buxgalteriya foydasidan soliqqa tortiladigan foydaga o'tish nuqtasi hisoblanadi. **Buxgalteriya foydasi** – bu buxgalteriya hisobi talablariga muvofiq hisoblangan foydadir. Buxgalteriya hisobi korxonaning daromadlari va xarajatlari, shuningdek, faoliyatining sof natijalari haqida ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Ushbu maqsadga erishilgandan so'ng olingan

natija (soliq to'langunga qadar foyda) mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq tuzatilishi lozim.

Shunday qilib, **soliqqa tortiladigan foyda** – soliq talablariga muvofiq qayta hisoblangan buxgalteriya foydasi. Qayd qilish lozimki, bunday yondashuvning joriy qilinishi O'zbekistonda buxgalteriya hisobi neytralligi tamoyili samarali amalga oshirilayotganligini namoyon etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sof foyda ko'rsatkichi ko'rsatkich – korxonaning faoliyatining eng muhim ko'rsatkichidir. Aynan u korxonada boshqaruvchilari va moliya bozorlarining diqqat markazida bo'ladi. Sof foyda ko'rsatkichi dinamikasiga korxonada mavjudligi va uning xodimlari uchun ish o'rinlari bog'liq bo'ladi.

2-shakl ma'lumotlari bo'yicha umumiy moliyaviy natija tarkibi va dinamikasi tahlili gorizontaal va vertikal tahlil usullaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Gorizontaal tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatadi (8.1-jadvalga qarang): o'tgan davrga nisbatan soliq to'langunga qadar foyda 551,46 % (5,5 barobar)ga oshgan; moliyaviy natijalar dinamikasida quyidagi ijobiy o'zgarishlarni qayd qilish mumkin:

- Balans ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan aktivlar o'zgarish sur'ati (2988728: 2573828=1,16) tushum o'sish sur'atidan kam, demak, aktivlar mahsuldorligi o'sgan;

- Sof foyda sotishdan foydaga nisbatan tez o'smoqda, bu tashkilotning oqilona soliq siyosatidan darak beradi.

- Sotishdan foyda sotishdan tushumga nisbatan tezroq o'smoqda, bu esa ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan kamayganligidan darak beradi.

Bizning misolimizda tushum 134,4 % ga o'sgan, bu davr xarajatlari sur'atidan salmoqli darajada yuqori bo'lib, ushbu xarajatlardan nisbiy tejamkorlikka olib kelgan.

Foyda tarkibidagi o'zgarishlar vertikal tahlil usulidan foydalanilgan holda tahlil qilinadi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlili foyda tarkibidagi o'zgarishlar ijobiy ekanligidan darak beradi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "Karvon" MChJda joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 775,48 foizga sof foydasi ko'paygan. Sof foydaning ko'payishiga asosan, mahsulot sotishdan yalpi foydaning o'tgan yilga nisbatan 999036 ming so'mga ortishi hamda umumxo'jalik foydasining 751503 so'mga ko'payishi ta'sir etgan. Bu korxonada moliyaviy daromadlarning ham o'sganligidan

dalolat beradi. Sof foydani kelgusida yanada ko‘payishi uchun korxonada ma‘muriyati birinchi navbatda davr xarajatlarini qisqartirish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi.

8.1-jadval

“Karvon” MChJda umumiy moliyaviy natijalar darajasi va dinamikasi tahlili (gorizontali tahlil)

Ko‘rsatkich	Satr	O‘tgan yildagi o‘xshash davr, ming so‘m	Hisobot davri, ming so‘m	O‘tgan yil ma‘lumotlariga nisbatan hisobot davrida % da
A	1	2	3	4
Sotishdan tushum	010	7478805	10051984	134,41
Sotilgan mahsulot tannarxi	020	6446321	8020464	124,42
Yalpi foyda	030	1032484	2031520	196,76
Davr xarajatlari	040	883701	1144712	129,54
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (xarajatlar)	070 090	1391	11072	795,97
Asosiy faoliyatdan foyda	100	150174	897880	597,89
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlar saldosini	110 - 170	-13900	-10103	72,68
Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda	220	136274	887777	651,46
Favqulodda daromadlar va xarajatlar saldosini	230	0	0	-
Soliqlar to‘langunga qadar foyda	240	136274	887777	651,46
Daromad (foyda) solig‘i	250+260	45547	184204	404,43
Sof foyda	270	90727	703573	775,48

8.4. Yalpi foyda tahlili

Ixtiyoriy korxonada mahsulot sotishdan yalpi foyda alohida e‘tibor obyektini hisoblanadi.

Sotishdan daromadlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar;
- tovarlarni sotishdan daromadlar;
- bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan daromadlar;
- sotilgan tovarlarni qaytarib olish va chegirmalar.

“Sotilgan tovarlarni qaytarib olish va chegirmalar” sotilgan tovarlarni qaytarib olish va shartnoma shartlariga muvofiq taqdim etilgan savdo chegirmalarini, shuningdek, sotilgan mahsulotlarda yaroqsizlik aniqlanganligi bilan bog'liq ravishda taqdim etilgan narxdagi chegirmalar va boshqalarni hisobga olish uchun mo'ljallangan. Foyda tarkibi tahlili ko'rsatganidek, yalpi foyda ko'p jihatdan sotishdan tushgan foydaga bog'liq, shuning uchun sotishdan foyda ustida omilli tahlil o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini baholash;
- ishlab chiqarish omillaridan foydalanish bo'yicha boshqaruv qarorlarini shakllantirish.

Yalpi foyda tahlili umumiy miqdor bo'yicha bo'lgani kabi uning tarkibiy elementlari kesimida tadqiq etishdan boshlanib, bu gorizontal tahlil deb nomlanadi. Keyin yalpi foyda tarkibida tuzilmaviy o'zgarishlarni aniqlovchi vertikal tahlil amalga oshiriladi.

Yalpi foyda ko'rsatkichlari darajasi va dinamikasini baholash uchun 8.2-jadvalga o'xshash shaklda jadval tuziladi.

8.2-jadval

Yalpi foyda tarkibi va dinamikasi tahlili

Ko'rsatkich	O'tgan davr		Hisobot davri		Hisobot davrida o'tgan davrga nisbatan og'ish	
	summa	%	summa	%	summa	%
A	1	2	3	4	5	6
1. Mahsulot sotish hajmi (V)	4547,8	100	6548,9	100	+2001,1	-
2. Sotilgan mahsulot tannarxi (S)	2865,5	63	4449	67,94	1583,5	+4,94
3. Mahsulot sotishdan yalpi foyda (P)	1682,3	37	2099,9	32,06	+417,6	-4,94

Korxonada hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan xo'jalik faoliyatida yaxshi natijalarga erishgan, yalpi foydaning 417,6 mln so'm yoki 24,8% ($417,6 \times 100 : 1682,3$) ga oshganligi ham buni tasdiqlaydi. Foyda o'sishi savdo hajmi (sotish hajmi, tovarlar narxining oshishi, sotilgan mahsulotlar tarkibi) natijasi bo'lgan. Biroq sotilgan mahsulotlarning tannarx darajasi sezilarli oshgan, buning natijasida foyda 322,8 mln so'mga kamaygan.

Demak, oldingi yalpi foydadan og'ishga quyidagilar ta'sir qilgan:

1. Sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishi (ΔR).
2. Sotilgan mahsulotlar tannarxi o'zgarishi (ΔS).

Hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan sotilgan mahsulotlar hajmining 2001,1 mln so'mga o'sishi foydaning 740,4 mln so'mga oshishiga olib kelgan.

$$\Delta P_V = (V^1 - V^0) * D_P^0 = \frac{+2001,1 * 37}{100} = +740,4 \text{ mln so'm.}$$

Bu yerda, V^1 , V^0 – hisobot va bazis davrlar mahsulot sotish hajmi;
 D_P^0 – bazis davrida foydaning sotish hajmidagi ulushi.

Sotilgan mahsulotlarning tannarx darajasining ortishi foydaning 322,8 mln so'mga kamayishiga olib kelgan.

$$\Delta P_S = (D_S^1 - D_S^0) \times V^1 = \frac{+4,94 * 6548,9}{100} = +322,8 \text{ mln so'm (foyda -).}$$

Hisoblashni tekshirish : $2099,9 - 1682,3 = 740,4 - 322,8 = +417,6$.

Yalpi foydaning har bir elementi tarkibi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish yanada chuqurroq tahlilni taqozo etadi. Jami omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: **tashqi va ichki**.

Tashqi omillar (korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan):

- bozor holati;
- yoqilg'i va energiya narxi va tariflari;
- amortizatsiya me'yorlari;
- soliqqa tortish tizimi (soliq stavkalari);
- qarz mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari darajasi;
- hamkorlar tomonidan intizom buzilishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar;
- tabiiy shart-sharoit.

Ichki omillar (korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lgan):

- sotilgan mahsulotlar, tovarlar hajmi va sifati;
- korxonadagi narxni shakllantirish siyosati;
- tannarx darajasi va boshqa xarajatlar;
- turli darajadagi menejment sifati;
- mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi;
- ta'lim va kadrlar malakasi darajasi;
- ishlab chiqarish fondlarining texnik darajasi;
- ilmiy-texnik ijodkorlik, xodimlarning ijodiy tashabbuskorligi;
- xodimlarning moddiy sharoiti va iqtisodiy manfaatdorligi.

8.5. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foydaning omilli tahlili

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda (AFF) sotishdan yalpi foydadan (YaF) davr xarajatlarning (Dx) ayirmasi hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (Bd) va zararlar (Bz) mos ravishda qo'shilgani yoki ayirib tashlangani sifatida aniqlanadi.

$$AFF = YaF - Dx + Bd - Bz.$$

Asosiy faoliyat foydasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Savdo hajmining o'zgarishi.
- Sotilgan mahsulotlar uchun narx o'zgarishi.
- Sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlar tannarxi o'zgarishi.
- Sotish xarajatlari o'zgarishi.
- Ma'muriy xarajatlar o'zgarishi.
- Boshqa operatsion daromadlar va xarajatlar o'zgarishi.

Korxonaning har bir qo'shiladigan foydasini tahlil qilish mavhum emas, balki qariyb konkret tusga ega bo'ladi, chunki muassislar, aksiyadorlar va ma'muriyatga korxonada faoliyatini jadallashtirishning yanada muhim yo'nalishlarini tanlashga imkon beradi.

Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- joriy tahlil davri uchun har bir ko'rsatkich o'zgarishini tadqiq qilish (gorizontal tahlil, 8.3-jadvalning 4-ustunidagi hisoblash);
- mutanosib ko'rsatkichlar va ularning tarkibini tadqiq qilish (vertikal tahlil, 8.3-jadvalning 5, 6 va 7-ustunidagi hisoblash);

Asosiy faoliyatdan foyda tahlili

Ko'rsatkich nomi	Satr raqami	Haqiqatda		Og'ish, (+,-)	O'tgan yilgi tushumga nisbatan darajasi, % da	Hisobot yilidagi tushumga nisbatan darajasi, % da	Daraja og'ishi, %
		o'tgan yil uchun	hisobot yili uchun				
A	1	2	3	4	5	6	7
Mahsulot sotishdan sof tushum	010	4547,8	6548,9	+2001,1	100	100	-
Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	020	2865,5	4449	+1583,5	63,0	67,94	+4,94
Sotishdan yalpi foyda (satr 010-020)	030	1682,3	2099,9	+417,6	x	x	x
Sotish xarajatlari	050	54,2	66,3	+12,1	1,19	1,01	-0,18
Ma'muriy xarajatlar	060	381,7	506,2	+124,5	8,4	7,73	-0,67
Boshqa operatsion xarajatlar va asosiy faoliyatdan daromadlar	070-090	-255,9	-219,7	-36,2	5,63	3,35	-2,28
Asosiy faoliyatdan foyda (satr 030-050-060-070+090)	100	990,5	1307,7	+317,2	21,78	19,97	-1,81

- qator hisobot davrlari uchun ko‘rsatkichlar o‘zgarishi izuchenie dinamikasini o‘rganish (trend tahlili);

- foydaga omillar ta’sirini tadqiq qilish (omilli tahlil).

Bunday tahlil uchun boshlang‘ich ma’lumotlar “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot” 2-hisobot shaklida aks ettiriladi.

Tahlil jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi:

1. Mutlaq og‘ish

$$\Delta AFF = AFF_1 - AFF_0.$$

Bu yerda,

AFF_0 – bazis davr foydasi;

AFF_1 – hisobot davr foydasi;

ΔAFF – foyda o‘zgarishi.

2. O‘shish sur’ati

$$\text{O‘shish sur’ati} = \frac{AFF_1}{AFF_0} \times 100 \%$$

3. Sotishdan tushumga har bir ko‘rsatkich darajasi (% da)

$$B \text{ mahsulotni sotishdan } F_1 \text{ tushumga har bir ko‘rsatkich darajasi} = \frac{F_1}{B} * 100\%.$$

Ko‘rsatkichlar hisobot va bazis davrlarda hisoblanadi.

4. Tuzilma o‘zgarishi:

$$\Delta D = DF_1 - DF_0.$$

Bu yerda, DF_1 , DF – hisobot va bazis davrlar darajasi.

5. Omilli tahlil

Korxonada foydasi miqdoriga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Mohiyatan, ushbu omillar korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga ta’sir qiladi. Ularning ayrimlari to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatib, ularning ta’sirini omilli tahlil usuli yordamida ancha aniq belgilash mumkin. Boshqalari esa qandaydir ko‘rsatkichlar orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur holatda ta’sir miqdorini muayyan ehtimollik bilan aniqlash mumkin yoki buning umuman iloji yo‘q.

Endi asosiy faoliyatdan foydaning o‘tgan yildan og‘ishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblaymiz. Asosiy faoliyatdan foyda o‘tgan davrga nisbatan quyidagi omillar ta’sirida 317,2 mln so‘mga oshgan:

Mahsulot sotish hajmi.

Mazkur omil ta'sirini hisoblash ikki qismga ajratilishi lozim. Chunki tashkilot tushumi – sotilgan mahsulotlar miqdori va narxnining ko'paytmasidir, shuning uchun dastlab sotishdan foydaga mahsulot yoki tovarlar sotilgan narx ta'sirini hisoblaymiz. Keyin esa sotilgan mahsulotlarning jismoniy og'irligi o'zgarishining foydaga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Omili tahlil o'tkazishda inflyatsiya ta'sirini ham hisobga olish zarur. Aytaylik, hisobot davrida mahsulot narxi bazis davrga nisbatan o'rtacha 13% ga oshgan. U holda narx indeksi

$$I_p = \frac{100+13}{100} = 1,13.$$

O'z navbatida, hisobot davrida sotishdan tushum taqqoslanayotgan narxlarda quyidagiga teng bo'ladi :

$$T_{sh} = T_1 : I_p.$$

Bu yerda, T_{sh} – taqqoslanayotgan narxlarda sotishdan tushum;

T_1 – hisobot davrida mahsulot sotishdan tushum;

I_p – narx indeksi.

Tahlil qilinayotgan tashkilot uchun taqqoslanayotgan narxlarda sotishdan tushum quyidagini tashkil qiladi:

$$T_{sh} = \frac{6548,9}{1,13} = 5795,4 \text{ mln so'm.}$$

O'z navbatida, mahsulot sotishdan tushum hisobot davrida o'tgan davrga nisbatan narx hisobiga quyidagicha ortgan:

$$\Delta T_p = T_1 - T_{sh} = 6548,9 - 5795,4 = +753,5 \text{ mln so'm,}$$

$$\Delta T_q = T_{sh} - T_0 = 5795,4 - 4547,8 = +1247,6 \text{ mln so'm.}$$

Sotilgan mahsulotlar miqdori ortishi hisobot davrida tushumning 1247,6 mln so'mga (2001,1 – 753,5) ko'payishiga olib kelgan

1. Asosiy faoliyatdan foyda miqdoriga mahsulot sotish hajmi o'zgarishi ta'sirini (narx o'zgarishi ta'sirini istisno qilgan holda) quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\Delta AFF_q = \frac{(T_{sh} - T_0) * R_0}{100}.$$

Bu yerda,

ΔAFF_q – sotish hajmi omili ta'sirida foydaning o'zgarishi;

T_0 – bazis (0) davrida sotishdan tushum;

ΔT_p – narx ta'sirida sotishdan tushum o'zgarishi ko'rsatkichi;

R_0 – bazis davrida sotish rentabelligi.

Tahlil qilinayotgan tashkilot uchun:

$$DAFF_q = \frac{(5795,4 - 4547,8) * 21,78}{100} + 271,7 \text{ mln so'm.}$$

Shunday qilib, hisobot davrida sotilgan mahsulot hajmining 1247,6 mln so'mga ortishi asosiy faoliyatdan foydaning 271,7 mln so'mga ortishiga olib kelgan.

1. "NARX" omili.

Asosiy faoliyatdan foyda miqdori o'zgarishiga narx o'zgarishi ta'sir darajasini aniqlash uchun quyidagi hisoblashni amalga oshirish talab qilinadi:

$$\Delta AFF_p = \frac{(T_1 - T_{sh}) * R_0}{100}.$$

$$\Delta AFF_q = \frac{(6548,9 - 5795,4) * 21,78}{100} + 164,1 \text{ mln so'm.}$$

2. Sotilgan mahsulotlar tannarxi.

Ushbu omilning foydaga ta'sirini hisoblash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

$$\Delta AFF_s = \frac{(Sc_1 - Sc_0) * T_1}{100}.$$

Bu yerda, Sc_1 va Sc_0 – mos ravishda hisobot va bazis davrdagi tannarx darajasi.

$$\Delta AFF_s = \frac{(67,94 - 63) * 6548,9}{100} = 323,5 \text{ mln so'm.}$$

Tannarx darajasi oshganligi hisobiga foyda 323,5 mln so'mga kamaygan.

3. Sotish xarajatlari.

Hisoblash uchun avvalgiga o'xshash formuladan foydalaniladi:

$$DAFF_{Cx} = \frac{(Cx_1 - Cx_0) * T_1}{100}.$$

Bu yerda, Cx_1 va Cx_0 – mos ravishda hisobot va bazis davrdagi sotish xarajatlari darajasi.

$$DAFF_{Cx} = \frac{(1,01 - 1,19) * 6548,9}{100} = 11,7 \text{ mln so'm.}$$

Mahsulot sotish xarajatlari darajasining pasayishi foydaning 11,7 mln so'mga ortishini ta'minlagan.

4. Ma'muriy xarajatlar.

$$DAFF_{Mx} = \frac{(Mx_1 - Mx_0) * T_1}{100}.$$

Bu yerda Mx_1 i Mx_0 - mos ravishda hisobot va bazis davrdagi boshqaruv xarajatlari darajasi.

$$DAFF_{Mx} = \frac{(7,73 - 8,40) * 6548,9}{100} = 43,8 \text{ mln so'm.}$$

Bu hisobot davrida boshqaruv xarajatlari darajasining o'tgan davrga nisbatan 0,67 punktga kamayishi foydani 43,8 mln so'mga oshirganligini anglatadi.

5. Boshqa operatsion xarajatlar va daromadlar.

$$DAFF_{Bdx} = \frac{(Bdx_1 - Bdx_0) * T_1}{100}.$$

Bu erda Bdx_1 i Bdx_0 – mos ravishda hisobot va bazis davrdagi operatsion xarajatlar va daromadlar darajasi.

$$DAFF_{Bdx} = \frac{(3,35 - 5,63) * 6548,9}{100} = 149,4 \text{ mln so'm.}$$

Bu hisobot davrida boshqa operatsion xarajatlardan o'tgan davrga nisbatan iqtisod qilish va uning darajasi 2,28% ga kamayganligi foydani 149,4 mln so'mga oshirishga imkon berganligini anglatadi.

8.4-jadval

Korxonaning asosiy faoliyatidan foydaga omillar ta'sirining qo'shma jadvali

№	Ko'rsatkichlar - omillar	Summa (mlnso'm)
	O'tgan yilgi asosiy faoliyatdan foyda og'ishi jumladan	+317,2
1	Sotilgan mahsulot hajmi	+271,7
2	Sotilgan mahsulot bahosi o'zgarishi	+164,1
3	Sotilgan mahsulot, tovar, xizmatlar tannarxi	-323,5


4	Sotish xarajatlari	+11,7
5	Ma'muriy (boshqaruv) xarajatlari	+43,8
6	Boshqa operatsion xarajatlar va daromadlar	+149,4

Hisoblashni tekshirish:

Hisobot davri uchun korxonaning asosiy faoliyatidan foyda – 1307,7 mln so‘m ; o‘tgan yil uchun – 990,5 mln so‘m ; o‘tgan yildan og‘ish – 317,2 mln so‘m.

8.6. Davr xarajatlari tahlili

Davr xarajatlari – korxonada xarajatlari hisobi tizimida yangi ko‘rsatkich. Unga boshqaruv xarajatlari, sotish xarajatlari, umumxo‘jalik yo‘nalishidagi boshqa xarajatlar, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajribasinov ishlanmalari uchun xarajatlar kabi ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha korxonada faoliyatiga bog‘lanmagan, lekin mahsulot (ish, xizmat) sotish bo‘yicha asosiy faoliyat bilan bog‘liq. Ular boshqacha tarzda operatsion xarajatlar deb yuritiladi. Ular mahsulot sotish hajmiga bog‘liq bo‘lmaydi, aksincha, vaqt bilan, xo‘jalik faoliyatining davomiyligi bilan ko‘proq darajada bog‘langan. Ushbu xarajatlar o‘zlari yuzaga kelgan hisobot davrida jamlanadi va hisobdan chiqariladi.



8.1-chizma. Davr xarajatlari tasnifi

Shunday qilib, davr xarajatlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- Boshqacha tarzda operatsion xarajatlar deb yuritiladi.
- Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq emas.
- Korxonaning asosiy faoliyati bilan bog‘liq.
- Joriy hisobot davrida moliyaviy natijalar kamayishi hisobiga qo‘shib yoziladi.
- Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarida kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi.

Mahsulot sotish xarajatlari:

- o‘rash, saqlash, jo‘natish punktigacha tashish xarajatlari, reklama xarajatlari;
- sotish bozorlarini o‘rganish bo‘yicha xarajatlar;
- yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari sotish bo‘yicha boshqa xarajatlar.

Boshqaruv xarajatlari:

- boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari;
- haqiqatda ishlay boshlagunga qadar mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo‘qotgan holatda qonunchilikda o‘rnatilgan qo‘shimcha to‘lovlar;
- belgilangan xizmat muddatini ado etganligi uchun bir martalik mukofotlar;
- korxonada boshqaruv apparati xodimlari va uning tuzilmaviy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari;
- boshqarmaning texnik vositalari, aloqa vositalari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlari va boshqarmaning ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lmagan boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;
- ma‘muriy yo‘nalishdagi asosiy vositalar (bino, inshootlar va boshqalar) ni saqlash va ta‘mirlash uchun xarajatlar, shuningdek, ular bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari;
- belgilangan me‘yorlar doirasida va ulardan tashqari boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari uchun xarajatlar.

Boshqa operatsion xarajatlar:

- tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishidagi fondlarni ta‘minlash va ishlatish bilan bog‘liq joriy xarajatlar;
- kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;

- konsultatsion, informatsion va auditorlik xizmatlari to‘lovi;
- boshqaruv xodimlariga mukofotlar;
- pensiyalarga ustama haqlar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir martalik nafaqalar;
- Xodimlarning jamoat transportida ish joyiga qatnovi uchun, idora transporti uchun to‘lovlar;
- to‘xtatib qo‘yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarni saqlash xarajatlari;
- me‘yorlar doirasida va ulardan tashqari tayyor mahsulot va ishlab chiqarish zaxiralarini qayta baholash natijasida yo‘qotishlar;
- sud xarajatlari;
- boshqa korxonalar, shuningdek, ayrim shaxslar bilan hisoblashlar bo‘yicha shubhali qarzlardan zararlar. Shubhali qarzlarning miqdori qonunchilikka muvofiq zaxiralanadi;
- da‘vo muddati tugagan debitorlik qarzlari va undirilishi deyarli imkonsiz boshqa qarzlarni hisobdan chiqarishdan zararlar;
- hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar bo‘yicha operatsiyalardan zararlar;
- tabiiy ofatlardan kafolatlanmagan sezilarsiz yo‘qotishlar;
- aybdorlar aniqlanmagan o‘g‘irlashdan zararlar yoki aybdor tomon hisobiga zaruriy miqdorni undirish imkonsiz bo‘lgan zararlar;
- korxonaning asosiy vositalari va boshqa mulklarini sotishdan moddiy zararlar.

Baholashda davr xarajatlarining vertikal (tuzilmaviy) tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Vertikal tahlil maqsadi davr xarajatlarining umumiy miqdorida alohida xarajatlarning ulushini hisoblashdan iborat. Nisbiy ko‘rsatkichlarga o‘tish bir sohadagi turli tashkilotlarning, shuningdek, turli soha tashkilotlarining ko‘rsatkichlarini taqqoslashga imkon beradi. Nisbiy ko‘rsatkichlar inflyatsion jarayonlarning salbiy ta‘sirini ham bartaraf qiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan davr uchun davr xarajatlari umuman 42,1 mln so‘mga yoki 4,3% ga oshgan. Davr xarajatlari tarkibida strukturaviy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Ma‘muriy xarajatlarning ulushi keskin oshgan bo‘lsa, sotish xarajatlari sezilarsiz oshgan. Boshqa operatsion xarajatlarning ulushida pasayish kuzatilgan.

Davr xarajatlari tarkibi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr uchun		Hisobot davri uchun		Mutlaq o'zgarish	O'sish sur'ati, %
	summa, mln so'm	salmog'i, %	summa, mln so'm	salmog'i, %		
Davr xarajatlari – jami, Jumladan	971,3	100	1013,4	100	+42,1	104,3
Sotish xarajatlari	54,2	5,6	66,3	6,5	+12,1	122,3
Ma'muriy xarajatlar	381,7	39,3	506,2	50	+124,5	132,6
Boshqa operatsion xarajatlar	535,4	55,1	440,9	43,5	-94,5	82,3

8.7. Moliyaviy xarajatlar va daromadlar tahlili

Foyda miqdori mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatning moliyaviy natijalariga ham sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Bu, avvalo, investitsion va moliyaviy faoliyatdan daromadlardir.

Investitsion faoliyat deganda, investitsiyalash va investitsiyalarni amalga oshirish tushuniladi. Bunda investitsiyalar sifatida pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yilmalari, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, jumladan tovar belgilari, kreditlar, ixtiyoriy boshqa mulk yoki mulkiy huquq, foyda olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari obyektlariga jalb qilingan intellektual qimmatliklar namoyon bo'ladi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

- investorning o'z moliyaviy va ichki xo'jalik zaxiralari (foйда, amortizatsiya ajratmalari va boshqalar);
- byudjetdan tashqari fondlardan beg'araz asosda ajratmalar;
- qo'shma tashkilotlarning ustav kapitalida moliyaviy yoki o'zgacha ishtirok shaklida, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri qo'yilmalar shaklida taqdim etiladigan chet el investitsiyalari;
- turli shakldagi qarz mablag'lari, chet el investorlari kreditlari, obligatsion zayomlar, banklar va boshqa institutsional investorlarning kreditlari;

- investitsion fondlar va kompaniyalar, sug'urta jamiyatlari mablag'lari, shuningdek, veksellar va boshqa mablag'lar.

Manbalarning dastlabki uch guruhi loyiha tashabbuskorining xususiy kapitalni vujudga keltirsa, to'rtinchi guruh qarz kapital hisoblanadi.

Qo'yilmalar obyektlari bo'yicha quidagilar farqlanadi:

- mulkiy investitsiyalar (moddiy investitsiyalar), ular tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi, ya'ni uskuna va jihozlar, bino, inshootlar, moddiy zaxiralarga investitsiyalar;

- moliyaviy investitsiyalar, masalan, aksiyalar, qimmatli qog'ozlar xarid qilish;

- nomoddiy investitsiyalar – kadrlar tayyorlash, tadqiqotlar, reklama va boshqalarga investitsiyalar.

Moliyaviy xarajatlar obligatsiyalar, aksiyalar, tashkilotlarga foydalanish uchun berilgan pul mablag'lari (kreditlar, qarzar) va boshqalar bo'yicha foiz to'lovlarini o'zida aks ettiradi.

Aksiyalar ushlovchisi daromadi dividend miqdori va aksiyalarga joylashtirilgan kapital narxi o'sishi tufayli yuzaga keladi. Dividend miqdori aksiyalar miqdori va bir aksiya uchun dividend darajasiga bog'liq bo'lib, uning miqdori aksiyadorlik korxonasi rentabellik darajasi, davlatning soliq amortizatsion siyosati, kredit uchun foiz stavkasi darajasi va boshqalar bilan belgilanadi.

Tahlil jarayonida dividendlar dinamikasi, aksiyalar kursi, bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda o'rganiladi, ularning o'sish yoki pasayish sur'atlari o'rnatiladi.

Boshqa qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit sertifikatlar, veksellar) dan **daromadlar** sotib olingan obligatsiyalar, sertifikatlar, veksellar, ularning qiymati va foiz stavkalari darajasiga bog'liq bo'ladi.

8.8. Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Korxonalarining natijaviyligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi nafaqat mutlaq, balki nisbiy ko'rsatkichlar bilan ham baholanadi. Xususan, rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keyingisiga oid sanaladi.

Keng ma'noda rentabellik tushunchasi foydalilik, daromadlilikni anglatadi. Agar mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan daromadlar

ishlab chiqarish xarajatlarini qoplasa, bundan tashqari korxonaning normal faoliyat yuritishi uchun yetarli miqdorda foyda shakllansa, korxonalar rentabelli hisoblanadi.

Rentabellikning iqtisodiy mohiyatini faqatgina ko'rsatkichlar tizimini tavsiflash orqali yoritish mumkin. Ularning umumiy ma'nosi – joylashtirilgan kapitalning bir so'mi uchun foyda miqdorini aniqlashdan iborat. Rentabellik darajasi turli-tuman funksiyalarni bajaradi, aynan esa:

- korxonaga joylashtirilgan mablag'larning o'zini qoplashini aks ettiradi;
- ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilishni ta'minlaydi;
- korxonaning kredit va qarzlari qaytarilishini ta'minlaydi, ya'ni uning to'lov qobiyatiga imkon yaratadi;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy tarmog'ini rivojlantirishga imkon beradi, ya'ni korxonalar va tashkilotlarning xodimlarini bozor munosabatlari taraqqiyotining salbiq oqibatlaridan himoyalashni ta'minlaydi;

Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi, O'zbekiston Respublikasi tegishli organlarining rasmiy hujjatlari asosida ularni aniqlash metodikasini ko'rib chiqamiz.

Masalan, korxonalar bankrotligi va sanatsiya masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining 1997 yil 17 aprelda tasdiqlangan "Moliyaviy tahlil bo'yicha uslubiy tavsiyalar"ida korxonalar rentabelligining quyidagi ko'rsatkichlari tavsiya qilinadi: mahsulot sotish rentabelligi koeffitsiyenti, asosiy vositalar rentabelligi koeffitsiyenti, xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti, permanent kapital rentabelligi koeffitsiyenti, aylanma kapital rentabelligi koeffitsiyenti.

1997 yil 10 dekabrda korxonalarining iqtisodiy nochorligi ishlari bo'yicha Qo'mita tomonidan tasdiqlangan "Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar" va "Qishloq xo'jalik korxonalarini iqtisodiy nochor deb topishning vaqtinchalik tartibi"da rentabellik darajasini baholash uchun mahsulotlar rentabelligi koeffitsiyenti va aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti taklif etiladi.

Korxonalar rentabelligi bo'yicha tavsiya qilingan ko'rsatkichlarni o'rganish quyidagi xulosalarga olib keladi:

- rentabellik ko‘rsatkichlari tizimini shakllantirishga yondashuvlar turlicha, tavsiya qilingan ko‘rsatkichlarning miqdori 2 tadan 7 tagacha;
- korxonalar rentabellik darajasini baholash bazasi yetarlicha asoslanmagan ravishda tanlangan. Tavsiya qilingan rentabellik ko‘rsatkichlarining aksariyati sof foyda miqdori bazasida aniqlanadi, bu esa umuman noto‘g‘ri;
- ko‘pincha rentabellik ko‘rsatkichlari tizimiga uning darajasini baholashga hech qanday aloqasi bo‘lmagan ko‘rsatkichlar kiritilgan;
- rentabellikning ayni bir ko‘rsatkichi turlicha talqin qilinadi va ta’riflanadi, masalan, sotish rentabelligi, mahsulot sotish rentabelligi, savdo rentabelligi.

Korxonalar hisobotida bir nechta foyda ko‘rsatkichlari aks ettirilganligi uchun, undan foydalanuvchilar olib borilayotgan tahlil maqsadlariga bog‘liq ravigda rentabellik ko‘rsatkichlarining butun boshli qatorini hisoblashlari ham mumkin. Rentabellikni hisoblashning umumiy formulasi:

$$R = \frac{F \cdot 100\%}{V}$$

Bu yerda, F – korxonalar foydasi;

V – rentabellik hisoblanadigan ko‘rsatkich.

Suratda quyidagilar keltirilishi mumkin:

- yalpi foyda;
- soliqlar to‘langunga qadar foyda;
- sof foyda.

Maxrajda:

- korxonalar aktivlari;
- o‘z kapital;
- o‘zgaruvchan kapital (o‘z kapital va uzoq muddatli qarz mablag‘lari miqdori);
- joriy aktivlar;
- asosiy ishlab chiqarish fondlari;
- ishlab chiqarish fondlari (asosiy ishlab chiqarish va aylanma ishlab chiqarish fondlari miqdori);
- sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi;
- sotishdan tushumlar.

Ko'rsatkichlar tarkibining katta miqdori va ularning birikmasidan amaliy hamda analitik faoliyatda rentabellikni hisoblash uchun foydalanish, bir tomondan, moliviy-xo'jalik faoliyat murakkabligi oqibati hisoblansa, boshqa tomondan – olingan natijalarning muvofiq talqin qilinishini murakkablashtiradi. Amaliyotda korxonalarining faoliyat samaradorligini to'liq tavsiflovchi quyidagi rentabellik ko'rsatkichlari ajratib ko'rsatiladi (8.6-jadval).

8.6-jadvalda sanab o'tilgan rentabellik ko'rsatkichlaridan tashqari o'z mablag'lari, moliyaviy qo'yilmalar, alohida mahsulotlar rentabelligi farqlanadi. Qayd qilish joizki, bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda odatda har yili savdo palatasi, sanoat assotsiatsiyalari yoki hukumat tomonidan rentabellik ko'rsatkichlarining "normal" qiymatlari haqida axborot chop etiladi. O'z ko'rsatkichlarini yo'l qo'yish mumkin bo'lgan kattaliklar bilan taqqoslash korxonaning moliyaviy holati haqida xulosa qilishga imkon beradi. Korxonaning faoliyatining natijaviyligini tashqi baholashda xarajatlarning 1 so'miga qancha sotishdan foyda to'g'ri kelishini ko'rsatuvchi xarajatlar unumi (R6) kabi foydalilikning an'anaviy ko'rsatkichlari tahlili alohida qiziqish uyg'otmaydi. Aktivlar rentabelligi (R1) va xususiy kapital rentabelligi (R2) tahlili yanada informativroq sanaladi.

Korxonalar umumiy iqtisodiy faoliyatining sintetik ko'rsatkichlaridan biri iqtisodiy rentabellik (R1) hisoblanib, uni aktivlar rentabelligi deb atash ham qabul qilingan. U korxonaning 1 so'mlik mulk hisobida qancha foyda olishiga oid savolga javob beruvchi eng umumiy ko'rsatkichdir. Xususan, uning darajasiga aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalar uchun dividendlar miqdori bog'liq bo'ladi.

Kapitalning (moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar korxonaning barcha moliyaviy resurslari) qiymat birligiga foyda miqdorini aks ettiruvchi rentabellik tavsiflari tizimida jami kapital rentabelligi anchayin umumiy ko'rsatkich sanaladi. Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichida tahlil davridagi joriy faoliyat natijasi (foyda) korxonada mavjud asosiy va aylanma mablag'lar (aktivlar) bilan taqqoslanadi. Xuddi shu aktivlar yordamida korxonaning faoliyatining kelgusi davrlarida ham foyda oladi. Foyda, asosan, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish natijasi hisoblanadi. Mahsulot sotishdan tushum – aktivlar qiymati bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan ko'rsatkich bo'lib, tabiiy hajm va sotish narxidan vujudga keladi, ishlab chiqarish va sotishning tabiiy hajmi esa mulk qiymati bilan belgilanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

T/r	Ko'rsatkich nomi	Hisoblash usuli	Izoh
1	Korxonaning jami aktivlari rentabelligi	$R1 = \text{Sof foyda} / \text{korxonaning aktivlarining o'rtacha qiymati} \times 100\%$	Korxonaning aktivlari (mulki) dan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi
2	Joriy aktivlar rentabelligi	$R2 = \text{Soliqlar to'langunga qadar foyda} / \text{joriy aktivlarning o'rtacha miqdori} \times 100$	Joriy aktivga joylashtirilgan bir so'ndan korxonaga qancha foyda olayotganligini ko'rsatadi
3	Investitsiyalar rentabelligi	$R3 = \text{Soliqlar to'langunga qadar foyda} / \text{xususiy kapitalning o'rtacha miqdori} + \text{uzoq muddatli majburiyatlarining o'rtacha qiymati} \times 100$	Uzoq muddatga korxonaga faoliyatiga kiritilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi
4	Xususiy kapital rentabelligi	$R4 = \text{Soliqlar to'langunga qadar foyda} / \text{xususiy kapitalning o'rtacha miqdori} \times 100\%$	Foydaning o'z kapitalga nisbatini aks ettiradi. R4 dinamikasi aksiyalarning kotirovka darajasiga ta'sir ko'rsatadi
5	Savdo rentabelligi	$R5 = \text{Yalpi foyda} / \text{mahsulot sotishdan sof tushum} \times 100\%$	Sotilgan mahsulot birligiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi

6	Xarajatlar qaytimi	$R6 = \text{Sof foyda} / \text{sotilgan mahsulot tannarxi} \times 100\%$	$R6 = s030(2\text{-shakl}) / s020(2\text{-shakl}) \times 100$	Bir soʻmlik xarajatga qancha foyda toʻgʻri kelishini koʻrsatadi
7	Oddiy faoliyatdan buxgalteriya rentabelligi	$R7 = \text{Soliqlar toʻlangunga qadar foyda} / \text{mahsulot sotishdan sof tushum} \times 100\%$	$R7 = s240(2\text{-shakl}) / s010(2\text{-shakl}) \times 100$	Soliqlar toʻlangunga qadar foyda darajasini koʻrsatadi
8	Ishlab chiqarish rentabelligi	$R8 = \text{Sof foyda} / \text{ishlab chiqarish fondlarining oʻrtacha qiymati}$	$R8 = s270(2\text{-shakl}) / s171(3\text{-shakl}) + s140(2\text{-shakl}) \times 100\%$	Ishlab chiqarish fondlarining qanchalik samaradorligini koʻrsatadi
9	Asosiy kapital rentabelligi	$R9 = \text{Soliqlar toʻlangunga qadar foyda} / \text{asosiy kapitalning oʻrtacha qiymati} \times 100\%$	$R9 = s240(2\text{-shakl}) / s130(2\text{-shakl}) \times 100$	Asosiy kapital samaradorligini koʻrsatadi
10	Iqtisodiy oʻsish barqarorligi koeffitsiyenti	$R10 = [\text{Sof foyda}] - [\text{aksiyadorlarga toʻlangan dividendlar}] / \text{asosiy kapitalning oʻrtacha qiymati} \times 100\%$	$R10 = s240(2\text{-shakl}) - \text{dividendlar} / s480(2\text{-shakl}) \times 100$	Moliyaviy-xoʻjalik faoliyati hisobiga xususiy kapital qanday surʼat bilan ortayotganligini koʻrsatadi

Korxonalar rentabelligining umumiy formulasi:

$$Ra = \frac{SF \times 100}{A}$$

Bu yerda,

SF – korxonaning sof foydasi;

A – balans aktivlarining o‘rtacha qiymati.

Agar ko‘paytiruvchi kiritgan holda aktivlar rentabelligi formulasini o‘zgartirsak:

$$\frac{MST}{MST} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan tushum}}{\text{Mahsulot sotishdan tushum}}$$

u holda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Ra = \left[\frac{C\Phi}{MCT} \times \frac{MCT}{A} \right] \times 100\% = R_s \times K_{ay}$$

Formula sotish rentabelligi (R_s) va aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyenti (K_{ay}) dan aktivlar rentabelligini aks ettiradi.

Shunday qilib, “Dyupon de Nemur” firmasida ishlab chiqilgan mashhur formulaga kelamiz. Dyuponning ushbu formulasi aktivlar rentabelligiga qanday omillar eng ko‘p darajada ta’sir qilayotganligini aniqlashga imkon beradi. Formula mablag‘lar rentabelligini oshirish yo‘llariga ishora qiladi:

- mahsulotlarning kam foydaliligida aktivlar va ularning elementlari aylanuvchanligini tezlashtirishga intilish zarur;
- korxonaning sust ishbilarmon faolligi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yoki mahsulot narxini oshirish yo‘li bilan, ya’ni mahsulot rentabelligini oshirish bilan kompensatsiyalanishi mumkin.

8.7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, korxonaning aktivlar rentabelligi darajasi o‘tgan davrga nisbatan 0,653 punktga oshgan.

1. Aktivlar aylanuvchanligini tezlashtirish hisobiga aktivlar rentabelligi o‘zgarishini aniqlaymiz: $+0,034 \times 0,705 = +0,024\%$.

2. Sotish hajmi rentabelligi oshishi hisobiga aktivlar rentabelligi o‘zgarishini hisoblaymiz: $+1,014 \times 0,621 = +0,629\%$.

Aktivlar rentabelligi umumiy o‘zgarishining omillar ta’siri miqdoriga mutanosibligini tekshiramiz: $+0,653 = +0,024 + 0,629$
 $+0,653 = +0,653$.

Korxonalar rentabelligi tahlili

№	Ko'rsatkich	Shartli belgi	Haqiqatda		O'zgarishi
			o'tgan yil	hisobot yili	
1	Sof foyda	mln so'm	32,1	112,6	+80,5
2	Mahsulot sotishdan sof tushum	-	4547,8	6548,9	+2001,1
3	Balans aktivlarining o'rtacha qiymati	-	7744,5	10543,7	+2799,2
4	Balans aktivlarining aylanuvchanlik koeffitsiyenti	koeffitsiyent	0,587	0,621	+0,034
5	Sotish hajmi rentabelligi (1 so'mlik sotilgan mahsulotdan foyda)	tiyin	0,705	1,719	+1,014
6	Korxonalar rentabelligi (satr 4 x satr 5)	%	0,414	1,067	+0,653

Ishlab chiqarish rentabelligi tahlili

Ishlab chiqarish rentabelligi sof foydaning ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanib, uning tarkibiga asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy aylanma mablag'lar kiritiladi.

Ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichi olingan sof foydani ishlab chiqarish fondlari miqdori bilan bog'lagan holda joylashtirilgan mablag'larning iqtisodiy unumini tavsiflaydi.

Sof foyda 2-shakl moliyaviy hisobot ma'lumotlari bo'yicha olinadi, ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati esa 3-shakl buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish fondlari) rentabelligining umumiy darajasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R_i = \frac{SF}{Af + Mo} \times 100.$$

Bu yerda,

SF – korxonaning sof foydasi;

Af – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati;

Mo – moddiy aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i.

Omili tahlil metodologiyasi ko'rsatkichning boshlang'ich formulasi ishlab chiqarish intensivligi va rentabellik darajasini ifodalovchi xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning barcha sifat tavsiflari bo'yicha ajratishni nazarda tutadi (qarang. Selezneva N.N., Ionova A.F., Finansoviy analiz – Yuniti, M. 2003).

Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish fondlari) rentabelligining omili modelini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

$$R_i = \frac{\frac{SF}{MST}}{\frac{Af}{MST} + \frac{Mo}{MST}} \times 100.$$

Bu yerda,

$\frac{SF}{MST}$ – tilgan mahsulotning bir so'mi uchun foyda (mahsulot rentabelligi);

$\frac{Af}{MST}$ – mahsulot fond sig'imi;

$\frac{Mo}{MST}$ – aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsiyenti.

Shunday qilib, analitik hisoblar amaliyotida rentabellik darajasi omillari sifatida sotilgan mahsulotlarning bir so'miga mahsulot (foйда) rentabelligi, mahsulot fond sig'imi va moddiy aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsiyenti namoyon bo'ladi.

$$\frac{\text{Sotishning 1 so'midan foyda}}{\text{Fond sig'imi koeffitsiyenti + Milliy aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsiyenti}}.$$

Shunday ko'rinishda keltirilgan ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichi iqtisodiy omillar bo'yicha rentabellikni yanada chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. Xususan, o'zgartirilgan formuladan ishlab chiqarish rentabelligi sotilgan mahsulotlar rentabelligiga to'g'ri proporsional ekanligi, mahsulotlar fond sig'imi va moddiy aylanma mablag'larni mustahkamlash darajasiga teskari proporsional ekanligi kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish rentabelligi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	O'tgan yil uchun	Hisobot yili uchun	Og'ish (+,-)
1	Sof foyda	mln so'm	32,1	112,6	+80,5
2	mahsulot sotishdan sof tushum	mln so'm	4547,8	6548,9	+2001,1
3	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati	mln so'm	4200	4700	+500
4	Material aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i	mln so'm	3150	4100,6	+950,6
5	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (satr 3 +satr4)	mln so'm	7350	8800,6	+1450,6
6	Mahsulot fond sig'imi koeffitsiyenti (satr3:satr2)	tiyin.	92,35	71,76	-20,59
7	Material aylanma mablag'larni mustahkamlash koeffitsiyenti (str 4:str2)	tiyin.	69,26	62,61	-6,65
8	Sotilgan mahsulotning bir so'midan olingan foyda (satr1:satr2)	tiyin.	0,7	1,72	+1,02
9	Ishlab chiqarish rentabelligi darajasi (satr1:satr5 x 100)	%	0,43	1,28	+0,85

Hisobot davri uchun ishlab chiqarish rentabellik darajasi 1,28 % ni tashkil qildi, o'tgan yil uchun esa – 0,43% , ya'ni rentabellik 0,85 punktga oshgan. Rentabellik darajasi o'zgarishiga ta'sir qilgan omillar quyidagi hisoblashlar orqali aniqlanadi (zanjirli o'rin almashtirish usulida):

1. Sotilgan mahsulotlarning bir so'mida foyda ulushining ortishi ishlab chiqarish rentabellik darajasining 0,63 punktga o'sishiga olib keldi.

$$1,72 : (92,35 + 69,26) \times 100 = 1,06;$$

$$1,06 - 0,43 = +0,63.$$

2. Fond sig'iminin pasayishi, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond sig'imi ortishi rentabellikning 0,16 punktga ko'payishiga olib keldi.

$$1,72 : (71,76 + 69,26) \times 100 = 1,22;$$

$$1,22 - 1,06 = +0,16.$$

3. Moddiy aylanma mablag'larini mustahkamlash koeffitsiyenti ko'payishi, ya'ni ularning aylanuvchanligi tezlashishi rentabellikning 0,016 punktga ko'payishiga olib keldi.

$$1,28 - 1,22 = +0,06.$$

Shunday qilib, uchta omil ta'siri natijasida og'ish: $+0,63 + 0,16 + 0,06 = +0,85$ ni tashkil qiladi, bu o'tgan yildagi ishlab chiqarish rentabelligining umumiy og'ishiga mos keladi.

Tahlilning keyingi bosqichi sotilgan mahsulotlarning (sotish rentabelligi) umumiy rentabelligiga alohida mahsulotlar rentabelligi ta'sirini baholash hisoblanadi. Bunday tahlil alohida mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishning sotilgan mahsulotlarning vujudga kelgan tarkibi sharoitida umumiy rentabellikka ta'sirini baholash, shuningdek, sotish tarkibi oqilonaligini baholashga imkon beradi.

Tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Sotishning umumiy hajmida mahsulotlarning har bir turi ulushi aniqlanadi.

2. Mahsulotlarning alohida turlari rentabelligining individual ko'rsatkichlari hisoblanadi.

3. Individual rentabellikni sotishning umumiy hajmida mahsulotlar ulushiga ko'paytirish yo'li bilan barcha sotilgan mahsulotlar uchun o'rtacha darajaga alohida mahsulotlar rentabelligining ta'siri aniqlanadi.

4. Hisobot davri va bazis davr rentabelligi o‘rtasidagi farqni hisobot davridagi mahsulotlar ulushiga ko‘paytirish yo‘li bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning individual rentabelligi o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’sir aniqlanadi.

5. Bazis davr rentabelligini hisobot davri va bazis davrdagi mahsulotlarning ulushi farqiga ko‘paytirish yo‘li bilan tuzilmaviy omil ta’siri aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bunday tahlil uchun axborot bazasi hisoblanadi, lekin uni mahsulotlar turlari bo‘yicha xarajatlarning analitik hisobi sharoitidagina qo‘llash mumkin. Sotish rentabelligi tahlil 8.9-jadval asosida shartli misolda amalga oshirilgan.

8.9-jadval

Alohida buyumlar rentabelligining sotish rentabelligiga ta’sirini hisoblash

Mahsulot turi	Rentabellik			Umumiy sotish hajmidagi ulushi			Sotish rentabelligiga ta’siri		
	o‘tgan yil	hisobot yili	og‘ish	o‘tgan yil	hisobot yili	og‘ish	sotish tarkibi (gr1xgr6)	mahsulot rentabelligi (gr3xgr5)	omillarning umumiy ta’siri (gr7+gr8)
x	1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	10,5	13	+2,5	0,36	0,30	-0,06	-0,63	+0,75	+0,12
B	8,3	7,1	-1,2	0,28	0,28	-	-	-0,336	-0,336
C	7,8	3,4	-4,4	0,27	0,22	-0,05	-0,39	-0,968	-1,358
D	31,1	21,5	-9,6	0,09	0,20	+0,11	+3,421	-1,92	+1,501
Jami	11.009	10.936	-0,073	1,00	1,00	-	+2,401	-2,474	-0,073

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, D mahsulotning ulushi o‘shishi sotish rentabelligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, uni 3.421 punktga oshirgan. Ushbu omil va A mahsulot rentabelligining 0,75% ga oshishi sotish rentabelligi o‘shishiga zamin yaratgan. Biroq boshqa barcha omillarning salbiy ta’siri (boshqa turdagi mahsulotlar bo‘yicha ulush va rentabellik pasayishi) umumiy rentabellikni 0,073 punktga kamaytirgan.

Keltirilgan tahlil ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, korxonada sotish tarkibida A va D mahsulot ulushini oshirishdan, mos ravishda talab pasayishi kuzatilayotgan kamroq rentabelli B va C mahsulotlar ulushini kamaytirishdan manfaatdor.

Mahsulotlar rentabelligini oshirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- mahsulot birligiga yoki bir so'miga xarajatlarni pasaytirish;
- tannarxni shakllantiruvchi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni yaxshilash (mahsulotlarning fond sig'imi, material sig'imi, amortizatsiya sig'imini pasaytirish yoki ularga teskari ko'rsatkichlar, ya'ni fond qaytimi, material unumi va boshqalarni oshirish);
- sotish hajmining o'sishi;
- sifati yaxshilanishi bilan birga kuzatiladigan mahsulot narxi o'sishi.


8.9. Sof foyda taqsimlanishi va undan foydalanish tahlili

Korxonaning faoliyat samaradorligi nafaqat olinayotgan foyda miqdoriga, balki uni taqsimlash xarakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Sof foydani taqsimlash va undan foydalanish tahlilining asosiy vazifasi rejaga nisbatan va dinamikada hisobot davri uchun foydani taqsimlashda yuzaga kelgan tendensiyalar va proporsiyalarni aniqlashdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra foydani taqsimlash va undan yanada oqilona foydalanish proporsiyalari o'zgarishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Har bir korxonada byudjetga soliq to'lovlari to'langandan so'ng qolgan foydani taqsimlash tartibi va hosil qilinadigan fondlar ro'yxati ta'sis hujjatlari asosida belgilanadi. Sof foydadan zaxira, jamg'arma, iste'mol, ijtimoiy soha fondlari shakllantiriladi.

Foydani taqsimlash va undan foydalanish tahlili quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Reja va bazis davrga nisbatan foydadan foydalanishning har bir yo'nalishi bo'yicha mablag'lar miqdori va ulushi o'zgarishlariga baho beriladi;
- Fondlarni shakllantirishning omilli tahlili amalga oshiriladi;



8.3-chizma. Sof foydani taqsimlash

- Maxsus fondlar harakati tahlili amalga oshiriladi;
- Iqtisodiy potensial samaradorligiga muvofiq jamg'arma va iste'mol fondlaridan foydalanish samaradorligi baholanadi.

Foyda taqsimoti tahlilida **korxonaning dividend siyosatiga** alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lib, u nafaqat kapital tarkibiga, balki xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiyaviy jozibadorligiga ham

ulkan ta'sir ko'rsatadi. Yetarlicha yuqori bo'lgan dividend to'lovlari – korxonada muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganligi va unga kapital joylashtirish foydali ekanligining alomatlaridan biridir. Lekin agar bunda foydaning kichik ulushi ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishga yo'naltirilayotgan bo'lsa, vaziyat o'zgarishi mumkin.

Tahlil jarayonida dividend to'lovlari, aksiyalar kursi, bir necha yillar uchun bir aksiyaga sof foyda dinamikasi o'rganiladi, ularning o'sish yoki kamayish sur'atlari aniqlanadi va korxonaning dividend siyosatiga tuzatishlar kiritiladi. Tahlil korxonaning bozor barqarorligini mustahkamlash va korxonada mulkdorlari daromadlarini oshirish maqsadida foydani taqsimlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari

1. Foyda tahlili qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
2. Foydaning asosiy ko'rsatkichlari va ularning o'sish tartibini tavsiflang.
3. Foyda tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Mahsulotlarni sotishdan yalpi foydaga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash metodikasini bayon qiling.
6. Davr xarajatlari tahlili qanday amalga oshiriladi?
7. Moliyaviy daromadlar va xarajatlar tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash metodikasini tavsiflang.
9. Omilli model va korxonada aktivlari rentabelligi darajasi, ishlab chiqarish va xususiy kapital o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash metodikasini ta'riflang.
10. Foydani taqsimlash va undan foydalanish tahlili qanday amalga oshiriladi?
11. Foydani oshirish zaxiralarining asosiy manbalarini ayting.
12. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida mahsulot sotishdan foyda tahlilini bajaring. Quyidagilarga sotishdan foyda ta'sir

miqdorini hisoblang: sotish hajmi, sotish tarkibi, tannarx va chiqish narxlari.

Ko'rsatkichlar	Reja	Haq.	Og'ish	Bajarilishi, %
Mahsulot sotishdan tushum	45120	46300		
2. Sotilgan mahsulot tannarxi	35350	34320		
3. Mahsulot sotishdan yalpi foyda	9770	11980		

13. Foyda ta'simlanishi tahlilini bajaring hamda xulosa yozing.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Bajarilishi, %	Og'ish	
	summa, ming so'm	salmog'i, %	summa, ming so'm	salmog'i, %		summa, ming so'm	salmog'i, %
Sof foyda	16220		16590				
Jamg'arma fondi	6450		6500				
Ijtimoiy soha fondi	7600		7700				
Iste'mol fondi	1600		1700				
Iqtisodiy sanksiyalar	12		10				
Boshqalar	558		680				

14. Mahsulotlarning alohida turlari rentabelligining omilli tahlilini bajaring hamda xulosa yozing.

Mahsulot turi	Narxi, so'm		Tannarx, so'm		Rentabellik, %			Rentabellik o'zgarishi		
	o'tgan yili	hisobot yili	o'tgan yili	hisobot yili	o'tgan yili	shartli daraja	hisobot yili	umumiy	jumladan hisobiga	
									narx	tannarx
A	3900	4200	20000	22000						
B	3000	3500	2500	2750						
V	4500	5000	3750	4000						
G	17500	20000	15200	19000						

15. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarni (sotilgan mahsulotning 1

soʻmidan foyda, mahsulotlar fond sigʻimi va aylanma mablagʻlarni mustahkamlash koeffitsiyenti) hisoblang.

Koʻrsatkichlar	Oʻtgan yil uchun	Hisobot yili uchun	Ogʻish
Sof foyda, ming soʻm	820	1635	
Mahsulot sotishdan sof tushum, ming soʻm	12596	27138	
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining oʻrtacha qiymati, ming soʻm	403615	437141	
Material aylanma mablagʻlarning oʻrtacha yillik qiymati, ming soʻm	30560	40193	
Ishlab chiqarish fondlarining oʻrtacha yillik qiymati, ming soʻm			
Fond sigʻimi koeffitsiyenti			
Aylanma mablagʻlarni mustahkamlash koeffitsiyenti			
Sotilgan mahsulotning bir soʻmidan foyda			
Ishlab chiqarish rentabelligi, %			

IX bob. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZI TAHLILI

9.1. Debitorlik va kreditorlik qarzi tahlili mazmuni va vazifalari

Debitorlik va kreditorlik qarzi sotib olingan tovar-moddiy qimmatliklar, xizmatlar va boshqa xo‘jalik operatsiyalari uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida korxonalar o‘rtasida vujudga keladi. Korxonaning yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o‘z vaqtida hisoblashishi uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Debitorlik qarzi korxonada aylanmasidan mablag‘larni chiqarish va ulardan boshqa korxonalar foydalanishini anglatadi. **Kreditorlik qarzi** korxonada tomonidan o‘z xo‘jalik aylanmasiga boshqa korxonada va tashkilotlarning mablag‘lari jalb qilinishini anglatadi. Debitorlik qarzini boshqarish san’ati uning umumiy miqdorini optimallashtirish va o‘z vaqtida inkassatsiyasini ta’minlashdan iborat.

Debitorlik qarzi va uning joriy aktivlarda ulushi keskin ortishi korxonaning xaridorlarga nisbatan oqibati o‘ylanmagan kredit siyosatidan, sotish hajmi ortganligidan yoki xaridorlarning bir qismi to‘lovga qobil emasligi va bankrotligidan guvohlik beradi. Debitorlik qarzi, bir tomondan, hisoblashishlarni tezlashtirish evaziga, boshqa tomondan – xaridorlarga jo‘natishni qisqartirish evaziga kamayishi mumkin. O‘z navbatida, debitorlik qarzining o‘sishi har doim ham salbiy, kamayishi esa ijobiy baholanavermaydi.

Tahlilda muddati o‘tgan qarzdorlik vujudga kelish sabablarini batafsil o‘rganish zarur. Muddati o‘tgan debitorlik qarzi mavjudligi moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki korxonada ishlab chiqarish zaxiralarini xarid qilish, mehnat haqi to‘lash va boshqalar uchun moliyaviy resurslar yetishmasligi yuzaga keladi. Bundan tashqari, mablag‘larning debitorlik qarzida “o‘lik pullarga aylanishi” kapital aylanuvchanligi sekinlashishiga olib keladi. Muddati o‘tgan debitorlik qarzi qarzlarni qaytarilmasligi va foyda kamayishi riski o‘sganligini ham anglatadi.

Tahlil vazifalari quyidagilardan iborat:

– moliyaviy-hisob-kitob intizomi natijasida yuzaga kelgan qarzdorlikni aniqlash. Ushbu qarzdorlik miqdori, yuzaga kelish sabablarini aniqlash hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida bunday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur;

– Amaldagi hisob-kitoblarning ayrim shakllariga xos xususiyatlar tufayli yuzaga keluvchi debitorlik-kreditorlik qarzlari miqdori va dinamikasini aniqlash;

– to‘lov intizomini mustahkamlash, yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o‘z vaqtida hisoblashishlarni amalga oshirish bo‘yicha korxonada tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni oydinlashtirish.

Debitorlik va kreditorlik qarzi tahlili buxgalteriya balans va ichki hisob ma‘lumotlari asosida amalga oshiriladi.

9.2. Debitorlik va kreditorlik qarzi tarkibi va dinamikasi tahlili

O‘z aylanma mablag‘lar immobilizatsiya ayniqsa foydasiz bo‘lib qolgan inflyatsiya davrida debitorlik qarzi tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil debitorlik qarzining mutlaq va nisbiy miqdorlarini ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Yil uchun debitorlik va kreditorlik qarzi hajmidagi o‘zgarishlar umumiy ko‘rinishda balans aktivlari va passivlarining gorizontaal va vertikal tahlili ma‘lumotlari bilan tavsiflanishi mumkin (9.1-jadval).

Tahlil qilinayotgan korxonaning debitorlik qarzi bir yilda 261,6% ga o‘tdi va yil oxirida 1844,7 mln so‘mni tashkil qildi. Korxonada mulki tarkibida debitorlik qarzi ulushi bir yilda 9,1% dan 17,5% gacha o‘tdi. Ko‘rib chiqilayotgan davr uchun kreditorlik qarzining ulushi 28,4% dan 32,7% gacha ortdi.

Tahlil qilinayotgan korxonada debitorlik qarzi o‘sishi iste‘molchilarning to‘lovga noqobilligi bilan shartlangan. Debitorlik va kreditorlik qarzi taqqoslanuvchanligiga oid masala ham ancha dolzarb sanaladi. Aksariyat analitiklar fikricha, agar kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan yuqori bo‘lsa, u holda korxonada mablag‘lardan oqilona foydalanmoqda, ya‘ni vaqtincha aylanmaga jalb qilayotgan mablag‘lari miqdori aylanmadan chiqarayotgan mablag‘laridan ko‘p.

Debitorlik-kreditorlik qarzi tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tablili

Debitorlar	Kreditorlar	Summa, mlnso'm		Salmog'i, %		O'zgarish	
		yil boshi uchun	yil oxiri uchun	yil boshi uchun	yil oxiri uchun	summa, mln so'm	salmog'i, %
1	2	3	4	5	6	7	8
Xaridorlar va buyurtmachilar qarzdorligi	Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzdorlik	1802,8	2876,2	81,9	83,3	+1073,4	+1,4
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlar qarzdorligi	Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlardan qarzdorlik	23,2	6,6	1,0	0,2	-16,6	-0,8
Xodimlarga berilgan badallar	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechikkan majburiyatlar						
Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar	Olingan bo'naklar	17,5	44,6	0,8	1,3	+27,1	+0,5

Byudjetga soliq va yig'img'lar bo'yicha bo'nak to'lovlari	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	89,4	163,2	4,2	4,7	+73,8	+0,5
Davlat maqsadli fondlari va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari	Sug'urta bo'yicha qarzdorlik	28,2	43,3	1,3	1,3	+15,1	-
Ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha muassislar qarzdorligi	Davlat maqsadli fondlariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	11,4	65,8	0,5	1,9	+54,4	+1,4
Boshqa operatsiyalar bo'yicha xodimlar qarzdorligi	Muassislardan qarzdorlik						
Boshqa debitorlik qarzlari	Mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik	49,8	21,1	2,2	0,6	-28,7	-1,6
Jami debitorlar	Boshqa kreditorlik qarzlari	177,3	231,9	8,1	6,7	+54,6	-1,4
Passiv saldosi	Jami joriy kreditorlik qarzlari	2199,6	3452,7	100	100	+1253,1	-
	Aktiv saldosi	-	-	-	-	-	-
<i>Balans</i>	<i>Balans</i>	2199,6	3452,7	-	-	+1253,1	-

Buxgalterlar bunga salbiy munosabat bildiradilar, chunki korxonaning kreditorlik qarzi debitorlik qarzi holatidan qat'iy nazar qaytarilishi majburiydir. Xalqaro hisob-analitik amaliyotda debitorlik va kreditorlik qarzini taqqoslashga doimo e'tibor qaratiladi.

Bizning misolimizda kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan tahlil davri boshi uchun 1494,5 mln so'mga, oxiri uchun 1608,0 mln so'mga oshib ketgan, ya'ni korxonaga qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilgan. Debitorlik qarzining asosiy ulushi 45,5% xaridorlar va buyurtmachilarga to'g'ri keladi. Yil boshida bu 320,7 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxirida 27,2 mln so'mga kamaygan va umumiy debitorlik qarzida 15,9% ni tashkil qilgan.

Hisobot davrida mutlaq miqdorda ham, nisbiy miqdorda ham avans to'lovlari keskin o'sgan. Shu bilan birga, boshqa debitorlar bo'yicha qarzdorlik ulushi ham o'sgan – 5,3% dan 18,1% gacha (mos ravishda 37 dan 333,8 mln so'mgacha).

Kreditorlik qarzi tarkibida yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlikning ulushi 81,9% dan 83,3% gacha oshgan. Ixtiyoriy tashkilotning majburiyatlari tarkibida “muddatli” (tashkilot xodimlari oldida qarzdorlik, soliq va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik) va “oddiy” (davlat byudjetdan tashqari fondlar oldida qarzdorlik, boshqa kreditorlardan olingan avanslar, yetkazib beruvchilardan qarzdorlik) qarzdorlikni shartli ravishda ajratish mumkin.

Bundan kelib chiqqan holda qayd qilish mumkinki, yil boshida tashkilotning majburiyatlari tarkibida muddatli qarzdorlik ulushi 6,3% ni tashkil qilgan $[(89,4+49,8):2199,6]$, yil oxirida esa ushbu miqdor biroz pasayib, 5,3% ga teng bo'lgan $[(163,2+21,1):3452,7]$.

9.3. Debitorlik qarzi holatining tahlili

Tahlil vazifasi muddati o'tgan debitorlik qarzi miqdorini aniqlash, dinamikasini baholash va uning paydo bo'lishi yoki o'sishi sabablarini aniqlashdan iborat. Debitorlar bilan hisoblashlar holatining tashqi tahlili 1-shakl-“Buxgalteriya balansi” ma'lumotlariga asoslanadi. Ichki tahlil uchun debitorlar bilan hisoblashlar haqida axborotlarni umumlashtirishga mo'ljallangan analitik hisob yuritish ma'lumotlari jalb qilinadi.

Debitorlik qarzi holati tahlili uning umumiy hajmi dinamikasini baholashdan boshlanadi va alohida moddalar kesimida davom ettiriladi: joriy aktivlarda debitorlik qarzi ulushi aniqlanadi, uning tarkibi tahlil qilinadi; to'lovi yil davomida amalga oshirilishi kutilayotgan debitorlik qarzlarning ulushi aniqlanadi; ushbu ko'rsatkichning dinamikasi baholanadi va shubhali qarzdorlik dinamikasini baholash maqsadida debitorlik qarzining sifat holati tahlili amalga oshiriladi.

Shubhali debitorlik qarzi mavjudligi xaridorlar bilan hisob-kitoblarda muddatni uzaytirish bo'yicha tashkilotning nomaqbul siyosatidan darak beradi, kreditor korxonaning o'zida to'lov qobiliyatsizligi vujudga kelishiga real tahdid hosil qiladi va uning balansi likvidligini kuchsizlantiradi. Shubhali debitorlik qarzi balans aktivining boshqa moddalari: «Xaridorlar va buyurtmachilar qarzdorligi» va «Boshqa debitorlik qarzlari» bo'yicha ham o'ziga xos ahamiyat kasb etishi mumkin.

«Boshqa joriy aktivlar» moddasi balansdan o'rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilmagan tovar-moddiy qimmatliklar buzilishidan yo'qotishlar va etishmovchilikni o'z ichiga olishi mumkin. Shubhali debitorlik qarzi yuzaga kelishining aniq sabablarini topish uchun buxgalteriya hisobining operativ ma'lumotlari asosida debitorlar va paydo bo'lish muddatlari bo'yicha uning miqdorini ichki tahlildan o'tkazish talab qilinadi.

Debitorlik qarzi tahlili jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1. Debitorlik qarzi aylanuvchanligi koeffitsiyenti K_{dq} (aylanmalar):

$$K_{dq} = \frac{MST}{\overline{Dq}}$$

Bu yerda, MST – mahsulot sotishdan tushumlar;

\overline{Dq} – o'rtacha debitorlik qarzi.

Debitorlik qarzi aylanuvchanligi koeffitsiyenti korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan tijorat krediti kengayishi yoki qisqarishini ko'rsatadi. Agar hisoblashda sotishdan tushumlar koeffitsiyentlari mulk huquqi o'tishi bo'yicha hisoblansa, u holda koeffitsiyent ortishi kreditga sotish qisqarishini anglatadi, uning kamayishi esa taqdim etilayotgan kredit hajmi ortishidan darak beradi.

2. Debitorlik qarzini qaytarish muddati (kunlar):

$$D_{dq} = \frac{T}{Kdq}$$

Bu yerda, T – davr uzunligi, kunlar.

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi usulda hisoblanishi mumkin:

$$\text{Debitorlik qarzi} = \frac{Ds}{MST} \cdot 360 \text{ (kunlarda)}$$

Bunda qaytarish davri qancha uzun bo‘lsa, uning qaytarilmaslik riski shuncha yuqori bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichni yuridik va jismoniy shaxslar, mahsulotlarning turlari, hisob-kitob shartlari, ya’ni bitim tuzish shartlari bo‘yicha ko‘rib chiqish talab qilinadi.

Tashkilotlarga jo‘natilmasdan yetkazib beruvchilarga materiallar uchun oldindan to‘lash oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yashirin debitorlik qarzi analitik hisob ma’lumotlari bo‘yicha hisoblashlar holatini tahlil qilish va baholash asosida aniqlanadi.

Tahlil o‘tkazish jarayonida joriy aktivlarning umumiy hajmida debitorlik qarzi ulushi (3) va debitorlik qarzi tarkibida shubhali debitorlik qarzi ulushini (4) hisoblash maqsadga muvofiq bo‘ladi. (4) ko‘rsatkich debitorlik qarzi “sifati”ni tavsiflaydi. Uning o‘shishga moyillik tendensiyasi likvidlik pasayganligidan darak beradi.

3. Joriy aktivlarning umumiy hajmida debitorlik qarzi ulushi:

$$Udq = \frac{Dq}{JA} * 100\%$$

Bu yerda, JA – joriy aktivlar.

Ushbu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, tashkilot mulkiy tarkibi shunchalik kam darajada mobillashgan bo‘ladi.

4. Debitorlik qarzi tarkibida shubhali debitorlik qarzi ulushi:

$$Ushdq = \frac{ShQ}{Dq} * 100 \%$$

ShQ – shubhali qarzdorlik.

Ushbu ko‘rsatkich debitorlik qarzi sifatini tavsiflaydi. Uning o‘shishga moyillik tendensiyasi likvidlik pasayganligidan darak beradi.

Debitorlik qarzi aylanuvchanligi tahlilini oldingi hisobot davrlariga taqqoslagan holda olib borish talab qilinadi (9.2-jadval).

Debitorlik qarzi aylanuvchanligi tahlili

Ko'rsatkich nomi	Shartli belgi	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi, +,-
1. Debitorlik qarzi aylanuvchanligi koeffitsiyenti	Kdq	6,4	3,5	-2,9
1.1. jumladan qisqa muddatli		6,2	3,7	-2,5
2. Debitorlik qarzini qaytarish muddati	Dpdq	56,2	102,8	+46,6
2.1. Jumladan qisqa muddatli		58,0	97,2	+39,2
3. Joriy aktivlarning umumiy hajmida debitorlik qarzi ulushi, %	Udq	16,0	27,7	+11,7
4. Joriy aktivlarning umumiy hajmida xaridor va buyurtmachilarning debitorlik qarzi ulushi, %		7,2	4,4	-2,8
5. Debitorlik qarzi tarkibida shubhali qarzdorlik ulushi, %	Ushdq	5,2	7,0	+1,8

9.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, debitorlar bilan hisoblashishlar holati tashkilotda o'tgan yilga nisbatan biroz yomonlashgan. Bu qisman uzoq muddatli debitorlik qarzi o'sishi tufayli ham sodir bo'lgan. Debitorlik qarzini qaytarishning o'rtacha muddati 46,6 kunga cho'zilib, 102,8 kunga teng bo'lgan. Hisobot yilida qisqa muddatli debitorlik qarzi holati o'tgan yilga nisbatan 39,2 kunga sekinlashgan. Qarzdorlik sifati pasayganligiga ham alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Shubhali debitorlik qarzi ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,8 punktga o'sib, debitorlik qarzlarning umumiy hajmida 7,0% ni tashkil qilgan. Agar debitorlik qarzi ulushi 27,7% ni, xaridorlar va buyurtmachilar qarzdorligi ulushi tashkilotning joriy aktivlari umumiy hajmining 4,4% ini tashkil qilganligi e'tiborga olinsa, debitorlik qarzi holati tufayli umumiy joriy aktivlar likvidligi pasayganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirish uchun ichki hisob ma'lumotlari bo'yicha yig'ma jadval tuzish mumkin bo'lib, unda debitorlik qarzi paydo bo'lish muddatlari bo'yicha tasniflanadi.

9.3-jadval

Debitorlik qarzi holati tahlili

mln so'm

Debitorlik qarzi turi	Yil boshi uchun	Yil oxiri uchun	Jumladan muddatlari bo'yicha				
			1 oygacha	1 - 3 oygacha	3 - 6 oygacha	6 - 12 oygacha	12 oydan ziyod
A	1	2	3	4	5	6	7
Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	320,7	293,5	73	126	59	29	6,5
Berilgan bo'naklar	103	552,9	510	0	0	42,9	0
Boshqa debitorlar	281,4	998,3	340	10	648,3	0	0
Jami debitorlik qarzi	705,1	1844,7	923	136	707,3	71,9	6,5
Debitorlik qarzining umumiy miqdoriga % da	-	100	50,0	7,4	38,3	3,9	0,4

Bunday jadvalning har oyda tuzilishi buxgalterga turli debitorlar bilan hisoblashishlarning aniq manzarasini tasavvur qilish, muddati o'tgan qarzdorlikni aniqlashga imkon beradi. 9.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, debitorlik qarzining asosiy qismini 1 oygacha muddatli qarzlarni tashkil qiladi. qarzlarning umumiy miqdorida uning ulushi 50,0% ga to'g'ri keladi. Ayni vaqtda tashkilotdan 779,2 mln so'm (707,3+71,9) miqdorda yetarlicha katta muddatli qarzdorlik mavjud. Yaqin vaqtlarda ushbu qarzlarni undirib olish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarni qo'llash lozim, chunki buni kechiktirish tashkilotning moliyaviy natijalari pasayishiga olib kelishi mumkin.

Debitorlik qarzining keltirilgan tahliliga asosan xulosa qilish mumkinki, tashkilot debitorlar bilan muayyan muammolarga ega va bu muammolar hisobot yilida ham o'tgan yilga nisbatan kamaymagan.

9.4. Kreditorlik qarzi holati tahlili

Kreditorlik qarzi korxonalar o'rtasida hisoblashishlarning mavjud tizimi oqibatida yuzaga kelib, bunda bir korxonaning boshqasiga qarzi muayyan davr tugashi bo'yicha qaytariladi. Masalan, xaridorga jo'natilgan tovar-moddiy qimmatliklar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob hujjatlari qimmatliklar olingandan so'ng yoki xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng to'lanadi. Kreditorlik qarzi shunday holatlarda ham yuzaga keladiki, bunda korxonada dastlab o'zining hisobida qarzdorlik (mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar oldida, byudjet oldida va boshqalar) yuzaga kelganligini aks ettiradi, muayyan vaqt tugashi bilan ushbu qarzdorlikni qaytaradi (mehnat haqi to'laydi, hisob raqamidan byudjetga pul o'tkazadi va boshqalar).

Bundan tashqari, kreditorlik qarzi korxonada tomonidan o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida to'lamasligi oqibati hisoblanadi.

Kreditorlik qarzining tahlil metodikasi ham debitorlik qarzi tahliliga o'xshash bo'ladi.

Tahlil jarayonida tahlil davrida qarzdorlikning aylanmalari sonini tavsiflovchi kreditorlik qarzi aylanuvchanligi ko'rsatkichlari hisoblanadi va dinamikada baholanadi.

$$Kkq = \frac{MST}{Kq}$$

Bu yerda,

Kkq – kreditorlik qarzi aylanuvchanligi koeffitsiyenti;

MST – mahsulot sotishdan tushumlar;

\overline{Kz} – o'rtacha kreditorlik qarzi.

Tahlil xulosasida quyidagilar kabi ko'rsatkichlar bo'yicha kreditorlik qarzi taqqoslanadi:

– o'sish sur'ati, %;

– aylanuvchanlik, aylanmalarda;

– aylanuvchanlik, kunlarda.

Debitorlik va kreditorlik qarzi holatini taqqoslash quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi: tashkilotda kreditorlik qarzi miqdori ustunlik qiladi, lekin uning o'sish sur'ati debitorlik qarzi o'sish sur'atiga nisbatan kamroq. Buning sababi – kreditorlik qarzi aylanmasi debitorlik qarzigacha nisbatan pastroq tezlikka egaligidir.

Debitorlik va kreditorlik qarzining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich nomi	Kreditorlik qarzi	Debitorlik qarzi
O'sish sur'ati, %	157	261
Aylanuvchanlik, aylanmalarda	1,9	3,5
Aylanuvchanlik, kunlarda	189,4	102,8

Tahlil natijalari bo'yicha an'anaviy ravishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- kreditorlik qarzi va debitorlik qarzi nisbati ustidan kuzatib borish. Debitorlik qarzining sezilarli darajada ortishi tashkilotning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi, yuzaga kelayotgan kreditorlik qarzlarini qaytarish uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilishni zarur qilib qo'yadi;

- muddati o'tgan qarzdorliklar bo'yicha hisoblashishlar holatini nazorat qilish;

- inflyatsiya sharoitida ixtiyoriy muddatni uzaytirish korxonada aslida bajarilgan ishlar qiymatini bir qisminigina olishiga olib kelganligi uchun avans to'lovlari tizimini kengaytirish zarur. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning yo'l qo'yib bo'lmaydigan turlarini o'z vaqtida aniqlash ularga quyidagilarni kiritish mumkin: yetkazib beruvchilar, byudjet va boshqalar oldida muddati o'tgan qarzdorlik; e'tirozlar bo'yicha kreditorlik qarzi; e'tirozlarga ega yetkazib beruvchilar va xaridorlar; moddiy zararni qoplash hisob-kitoblari bo'yicha qarzdorlik; «Boshqa debitorlar» moddasi bo'yicha qarzdorlik.

Nazorat savollari

1. Debitorlik va kreditorlik qarzi axborot manbalarini sanab bering.
2. Debitorlik va kreditorlik qarzi tahlilining ahamiyati qanday?
3. Debitorlik va kreditorlik qarzi tarkibi, tuzilishi, dinamikasi bo'yicha tahlil qay tarzda amalga oshiriladi?
4. Debitorlik qarzi holati tahlili qanday o'tkaziladi?
5. Kreditorlik qarzi aylanuvchanligi tahlil metodikasini tavsiflang.

6. Debitorlik qarzi ortishi sabablarini ayting.

7. Quyidagi ma'lumotlar asosida debitorlik qarzi tarkibi va harakatlanishini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar nomi	Yil boshi uchun qoldiq		Yil oxiri uchun qoldiq		O'zgarishi, ming so'm	O'sish sur'ati, %
	summa, ming so'm	salmog'i, %	summa, ming so'm	salmog'i, %		
A	1	2	3	4	5	6
1. Debitorlik qarzi - jami	61352	100	63174	100		
1.1. Qisqa muddatli	61151		62731			
1.1.1 jumladan muddati o'tgan	18602		20405			
1.1.1.1. ulardan muddati 3 oydan ortiq	15775		19110			
1.2. Uzoq muddatli	201		443			
1.2.1. jumladan muddati o'tgan	-	-	-	-	-	-
1.2.1.1. ulardan muddati 3 oydan ortiq	-	-	-	-	-	-

8. Oldingi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda debitorlik qarzi aylanuvchanligi ko'rsatkichini aniqlang. Sof tushum, ming so'm:

O'tgan yil uchun – 99017, hisobot yilida – 106969;

Joriy aktivlar: o'tgan yil uchun – 193539, hisobot yilida – 194381.

Ko'rsatkich nomi	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi, +/-
A	1	2	3
1. Debitorlik qarzi aylanuvchanligi, aylanmalarda			
1.1. jumladan qisqa muddatli			
2. Debitorlik qarzini qaytarish davri, kunlar			
2.1. jumladan qisqa muddatli			
3. Joriy aktivlarning umumiy hajmida debitorlik qarzi ulushi, %			

9. Kreditorlik qarzi tarkibi va harakatlanishini tahlil qiling.

Ko'rsatkichning nomi	Yil boshi uchun qoldiq		Yil oxiri uchun qoldiq		Qoldiq og'ishi, ming so'm	O'sish sur'ati, %
	summa, ming so'm	salmog' i, %	summa, ming so'm	salmog' i, %		
A	1	2	3	4	5	6
1. Kreditorlik qarzi-jami	112948	100	113562	100		
1.1. Qisqa muddatli	105126		106487			
1.1.1. jumladan muddati o'tgan	18573		31615			
1.1.1.1. ulardan muddati 3 oydan ortiq	12303		18312			
1.2. Uzoq muddatli	7822		7075			
1.2.1. jumladan muddati o'tgan	-	-	-	-	-	-
1.2.1.1. ulardan muddati 3 oydan ortiq	-	-	-	-	-	-

10. Oldingi jadval ma'lumotlari bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzining qiyosiy tahlilini amalga oshiring.

Ko'rsatkichlar nomi	Kreditorlik qarzi	Debitorlik qarzi
O'sish sur'ati, %		
Aylanuvchanlik, aylanmalarda		
Aylanuvchanlik, kunlarda		

X bob. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH TAHLILI

10.1. Asosiy vositalar tahlilining vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va axborot ta‘minoti

Asosiy vositalar – ixtiyoriy ishlab chiqarishning eng muhim omillaridan biridir. Ularning holati va samarali foydalanish bevosita korxonalar xo‘jalik faoliyatining yakuniy natijalariga ta‘sir qiladi. Korxonaning asosiy vositalari va ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, jumladan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, uning tannarxi va tayyorlashda sarflanadigan mehnat sig‘imini pasaytirishga imkon beradi.

Asosiy vositalar – moddiy ishlab chiqarish sohasi kabi ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt davomida (bir yildan ortiq) harakatlanuvchi moddiy aktivlardir.

Investitsion va tuzilmaviy siyosatning amalga oshirilishi sharofati bilan bizning respublikamizda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlovchi elektr energetikasi, yoqilg‘i sanoati, qora va rangli metallurgiya, kimyoviy va neftkimyo sanoati kabi sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda.

Iqtisodiyotni tizimli va bosqichli ravishda tuzilmaviy yangilash bo‘yicha olib borilgan qat‘iy chora-tadbirlar mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha ishlar hali hamon davom etmoqda. Asosiy vositalar tahlili bir necha yo‘nalishda olib borilishi mumkin, ularni majmuaviy ishlab chiqish esa asosiy vositalar va uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibi, dinamikasi va foydalanish samaradorligini baholashga imkon beradi.

Tahlil va hal qilinadigan analitik vazifalar yo‘nalishini tanlash boshqaruv ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Asosiy vositalarning tuzilmaviy dinamikasi tahlili va investitsiya-viy tahlil moliyaviy tahlil mazmunini tashkil qiladi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlatish bo'yicha xarajatlarni baholash boshqaruv tahliliga taalluqli sanaladi, biroq tahlilning bu ikki turi o'rtasida aniq chegara mavjud emas. Uskunalarni saqlash va ishlatish bo'yicha xarajatlar tahlili mahsulot tannarxi tahlilining tarkibiy qismi hisoblanadi.

10.1-jadval

Asosiy vositalar tahlilining asosiy yo'nalishlari va vazifalari

Tahlilning asosiy yo'nalishlari (tematikasi)	Tahlil vazifalari
Asosiy vositalarning tuzilmaviy dinamikasi	Asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar hajmi va tarkibini baholash. Asosiy vositalar qiymati o'zgarishining korxonada moliyaviy ahvoli va balans tarkibiga ta'siri miqdori va xarakterini aniqlash
Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlili	Asosiy vositalar harakati tahlili Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili Uskunalar ish vaqtidan foydalanish tahlili Uskunalardan foydalanishni integral baholash
Uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha xarajatlar samaradorligi tahlili	Kapital ta'mir xarajatlari tahlili Joriy ta'mir xarajatlari tahlili. Uskunalarni ishlatish bo'yicha xarajatlar, foyda va ishlab chiqarish hajmining o'zaro aloqasi tahlili
Asosiy vositalarga investitsiyalar samaradorligi tahlili	Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash. Investitsiyalash uchun qarzlarni jalb qilish samaradorligini baholash

Asosiy vositalar tahlili metodikasi ulardan foydalanishning eng yaxshi variantini tanlashga yo'naltirilgan. Shuning uchun tahlilning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar tilga olinadi:

- asosiy vositalardan foydalanish bo'yicha qarorlar variantlilikligi;

- istiqbolga yoʻnaltirilganligi.

Tahlil sifati axborotlar ishonchliligi, yaʼni buxgalteriya hisobini yoʻlga qoʻyish sifati, asosiy vositalar obyektlari bilan operatsiyalar tizimi va roʻyxatga olish nuqsonsizligi, obyektlarni hisob-malaka guruhlariga kiritish aniqligi, inventarizatsion roʻyxatga olishlar ishonchliligi analitik hisob registrlarini ishlab chiqish va yuritish mukammalligiga bogʻliq boʻladi.

Tahlilning axborot manbalari:

- 1-shakl – “Buxgalteriya balansi”;
- 2-moliya shakli-“Asosiy vositalarning mavjudligi va harakati hamda boshqa nomoliyaviy aktivlar toʻgʻrisida” statistik hisobot shakli;
- “Ishlab chiqarish quvvatlari balansi”, asosiy vositalar hisobining inventar kartochkalari.

10.2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Asosiy vositalar korxonalar ishlab chiqarish jarayonida ulkan ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamuljamlikda korxonalar tayanuvchi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini baholash mezonini sanaluvchi ishlab chiqarish-texnik bazani hosil qiladi.

Asosiy vositalarning toʻgʻri buxgalteriya hisobining zaruriy sharti – bu ularni baholashning yagona tamoyilidir. Asosiy vositalarni baholashning quyidagi bosqichlari ajratib koʻrsatiladi:

- boshlangʻich;
- tiklanish;
- joriy;
- qoldiq;
- tugatish.

Boshlangʻich qiymat (5-sonli BXMS 3-bandi, d-abzats) – toʻlangan va qoplanmaydigan soliqlarni (yigʻimlarni), shuningdek aktivni undan moʻljal boʻyicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan yetkazib berish va montaj qilish, oʻrnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish boʻyicha qilingan xarajatlar qiymati.

Tiklanish qiymati belgilangan narx indeksi, tiklanish qiymati aniqlab bo‘lingan o‘xshash turdagi mahsulotlar narxi, narx o‘zgarishlarining yiriklashtirilgan koeffitsiyentlari yordamida aniqlanadi. Asosiy vositalar qiymatini ishlab chiqarishning o‘zgargan iqtisodiy va texnik shart-sharoitlariga mutanosiblikka keltirish uchun davriy ravishda asosiy vositalarni qayta baholash amalga oshiriladi. Tiklanish qiymati asosiy vositalarning real miqdorini qoplash uchun zarur asosiy vositalar miqdorini aniqlashga imkon beradi.

Joriy qiymat (5-sonli BXMS 3-bandi, e-abzats) – ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summa.

Qoldiq qiymat (5-sonli BXMS 3-bandi, j-abzats) – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymati.

Tugatish qiymati (5-sonli BXMS 3-bandi, z-abzats) – asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha korxonalar uchun asosiy vositalarni baholash tamoyillari deyarli bir xil, biroq mulkni qayta baholash, rekonstruksiya, mavjud bino yoki inshootlarni qayta jihozlash yoki qurib bitkazish jarayonida boshlang‘ich qiymat o‘zgarishi mumkin.

O‘z mo‘ljallanganligiga ko‘ra asosiy vositalar ikki guruhga ajratiladi:

- ishlab chiqarish;
- noishlab chiqarish.

Asosiy vositalar tarkibi va harakati tahlilida hisobot ma’lumotlari dinamikada ko‘rib chiqiladi. Bunda shuni ham nazarda tutish lozimki, asosiy vositalarning ishora qilingan ishlab chiqarish xarakteridagi ikkala guruhi bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘langan, shuning uchun ular eng katta solishtirma og‘irlikka ega bo‘ladi.

10.2-jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiy vositalarning ulushi yil boshidagi 75% dan yil

oxirigacha 78% gacha o‘sib, noishlab chiqarishdagi asosiy vositalar ulushi mos ravishda pasaygan.

Asosiy vositalar tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash uchun ularning tarkibini tahlil qilish zarur.

10.2-jadval

Asosiy vositalar tarkibi va dinamikasi tahlili

Asosiy vositalar guruhlar	Yil boshi uchun		Yil oxiri uchun		O‘zgarishi (+;-)	
	summa, mln so‘m	salmog‘i, %	summa, mln so‘m	salmog‘i, %	summa, mln so‘m	salmog‘i, %
Asosiy vositalar - jami	4594,7	100	5759,9	100	+1165,2	+25,3
jumladan, ishlab chiqarish	3446	75	4493	78	+1047	+30,3
Noishlab chiqarish	1148,7	25	1266,9	22	+118,2	+10,3

Asosiy vositalar tarkibi tarmoqning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi va korxonalarining ishlab chiqarish-texnik xususiyatlarini aks ettiradi. Fondlar tarkibini tahlil qilishda aktiv va passiv qismlar nisbatini aniqlash zarur. Fondlarning aktiv qismi mehnat predmetiga bevosita ta’sir qiladi. Passiv qismni ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiruvchi fondlar tashkil qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda fondlarning aktiv qismi tarkibi bo‘yicha yagona qarash shakllanmagan. Ayrimlar bino va inshootlarni hisobdan chiqargan holda barcha fondlarni aktiv qism deb hisoblasa, boshqalar – faqatgina mashina va uskunalarni aktiv qism deya e’tirof etadilar.

Sanoatning aksariyat tarmoqlarida fondlarning aktiv qismiga mashina va uskunalarni (ishlab chiqarish quvvatlari, ishchi mashina va uskunalarni, o‘lchash va me’yorlash pribor hamda moslamalari, laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, boshqa mashina va uskunalarni), shuningdek, transport vositalari kiritiladi. Fondlarning passiv qismini bino va inshootlar tashkil qiladi. Biroq ayrim sanoat tarmoqlarida – elektr energetikasi, neft-kon sanoati, gaz va boshqalarda

inshootlar fondlarning aktiv qismi tarkibiga kiritiladi. Keyingi hisob-kitoblarda biz mashina va uskunalar qiymatidan kelib chiqamiz, chunki ular mahsulot ishlab chiqarish o‘shishiga, mehnat unumdorligi oshishiga bevosita ta’sir qiladi va fond qaytimi dinamikasini belgilab beradi.

10.3-jadval

Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Fond nomi	Yil boshi uchun		Yil oxiri uchun		Mutlaq o‘zgarish	O‘shish sur‘ati, %
	summa, mln so‘m	salmog‘i, %	summa, mln so‘m	salmog‘i, %		
A	1	2	3	4	5	6
Bino	491,6	10,7	604,7	10,5	113,1	123
Inshootlar	482,4	10,5	512,6	8,9	30,2	106,2
Uzatish qurilmalari	340	7,4	408,9	7,1	68,9	120,2
Mashina va uskunalar	2665	58	3456,1	60	791,1	129,6
Mebel va ofis jihozlari	92	2	115,2	2	23,2	125,2
Kompyuter va hisoblash texnikasi	147	3,2	161,3	2,8	14,3	109,7
Transport vositalari	248,1	5,4	334,1	5,8	86	134,6
Boshqa asosiy vositalar	128,6	2,8	167	2,9	38,4	129,8
Jami	4594,7	100	5759,9	100	1165,2	125,3

Ko‘rib chiqilayotgan davr uchun asosiy vositalarning umumiy qiymati 25,3% ga o‘sgan. Ularning tarkibida o‘zgarish sodir bo‘lgan: mashina va uskunalar ulushi yil boshidagi 58% dan yil oxirida 60% gacha o‘sib, passiv qism ulushi qisqargan. Bunda mashina va uskunalar o‘shishi boshqa asosiy vositalarning o‘shish sur‘atini ortda qoldirgan.

10.3. Asosiy vositalar harakati tahlili

Asosiy vositalar harakati tahlili quyidagi ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi – asosiy vositalar kirimi (joriy qilinishi), yangilash, hisobdan chiqarish, tugatish, kengaytirish koeffitsiyentlari. Asosiy

vositalarning texnik holatini tavsiflash uchun yaroqlilik, eskirish va almashtirish koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarni hisoblash uchun boshlang'ich axborot manbai moliyaviy hisobot (2-moliya shakli - "Asosiy vositalarning mavjudligi va harakati hamda boshqa nomoliyaviy aktivlar to'g'risida" statistik hisobot shakli) hisoblanadi. Yangilash va tugatish koeffitsiyentlarini hisoblash uchun yangi uskuna keltirilishi va eskirgan uskunalar tugatilishi haqida birlamchi analitik hisob ma'lumotlari talab qilinadi.

Ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasini quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari misolida ko'rib chiqamiz.

10.4-jadval

Asosiy vositalar mavjudligi va harakati balansi

mln so'mda

Ko'rsatkich	Yil boshida mavjud	Kirim qilindi	Chiqarib tashlandi	Yil oxirida mavjud
Boshlang'ich baholashda asosiy vositalar qiymati	4594,7	1608,1	442,9	5759,9
jumladan yangilari		590		
Asosiy vositalar eskirishi	1581			2496,5
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	3013,7			3263,4

Asosiy vositalar harakati tahlili uchun quyidagi formulalar bo'yicha yuqorida tilga olingan ko'rsatkichlarni hisoblaymiz:

- Tushum (joriy qilish) koeffitsiyenti **Kj**:

$$K_j = \frac{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar}}{\text{Davr oxirida asosiy vositalar qiymati}};$$

$$K_j = \frac{1608,1}{5759,9} \times 100 = 27,9\%.$$

- Yangilash koeffitsiyenti **Kya**:

$$K_{ya} = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxirida asosiy vositalar qiymati}};$$

$$K_{ya} = \frac{590}{5759,9} \times 100 = 10,2\%.$$

Yangilash koeffitsiyenti fondlarning barcha qiymati kabi ularning aktiv qismi bo'yicha ham, shuningdek, uskunalar guruhlarini bo'yicha hisoblanadi va odatda qator yillar uchun dinamikada ko'rib chiqiladi. Bizning misolimizda yillik yangilanish koeffitsiyenti 10,2% ga teng. Uskunalarining yosh tarkibi asosiy vositalarning texnik darajasini ham tavsiflaydi. Bu uning ishga yaroqliligi va almashtirish zarurati haqida mulohaza qilishga, shuningdek, fond qaytimini oshirishning potensial imkoniyatlarini bilishga imkon beradi. Tahlil uchun amaldagi uskunalar turlari bo'yicha, ularning ichida esa foydalanish davomiyligi bo'yicha guruhlanadi va amaldagi muddatlar normativ, mazkur sanoat uchun umumiy o'rnatilgan xizmat muddatlari bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, foydalanilishi fond qaytimining yetarli darajasini ta'minlay olmaydigan eskirgan uskunalarning ulushi aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari kirimi asosan ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- yangi qurilish va texnik qayta qurollantirish;
- amaldagi korxonalar rekonstruksiyasi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu birinchi navbatda mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini, umuman iqtisodiy o'sishning lokomotivlariga aylanishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish, tarmoq va sohalarni jadal rivojlantirishga, demografik xususiyatlar, ish bilan bandlik, aholi daromadlarini oshirish va boshqalar bilan bog'liq O'zbekiston uchun o'ziga xos bo'lgan o'ta muhim muammolarni hal qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni tizimli va bosqichli ravishda tuzilmaviy yangilash hisoblanadi.

Bundan tashqari, investitsiya mablag'larining aksariyat qismi korxonalar uskunalari modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilayotganligi kam xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga zamin yaratadi.

- Asosiy vositalarni muomaladan chiqarish koeffitsiyenti K_{ch} :

$$K_{ch} = \frac{\text{Muomaladan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshida asosiy vositalar qiymati}};$$

$$K_{ch} = \frac{442,9}{4594,7} \times 100 = 9,6\%.$$

- Tugatish koeffitsiyenti K_t :

$$K_t = \frac{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshida asosiy vositalar qiymati}}.$$

Hisobot yilida kirim qilingan asosiy vositalar ulushi 27,9% ni tashkil qildi, ulardan yangilari 10,2% . Asosiy vositalarni yangilash maqsadi – uskunalarini saqlash va ishlatish bo‘yicha xarajatlarni kamaytirish, uskunalar turib qolishlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish.

- Almashtirish koeffitsiyenti K_a :

$$K_a = \frac{\text{Eskirishi natijasida chiqarib tashlangan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}};$$

$$K_a = \frac{442,9}{1608,1} \times 100 = 27,5\%.$$

- Mashina va uskunalar parkini kengaytirish koeffitsiyenti K_{keng} :

$$K_{keng} = 1 - K_a.$$

Ishlab chiqarish jarayonida ishlatilayotgan asosiy vositalar jismoniy va ma'naviy eskiradi. Jismoniy eskirish darajasi amortizatsiya hisoblash jarayonida aniqlanadi. Bu jarayon quyidagilar uchun usul sifatida bir necha jihatdan ko‘rib chiqilishi mumkin:

- asosiy vositalar eskirmagan qismining joriy bahosini aniqlash;
- asosiy vositalarga bir martalik xarajatlarni tayyor mahsulotga kiritish;
- ishlab chiqarish jarayonidan chiqarilayotgan asosiy vositalarni o‘rin almashtirish uchun yoki yangi ishlab chiqarishga qo‘yilmalar uchun moliyaviy resurslar jamg‘arish.

Asosiy vositalar holatini aniqlash uchun mos ravishda asosiy vositalarning eskirgan ulushi yoki ishlatish uchun yaroqli qismi ulushini tavsiflovchi eskirish va yaroqlilik koeffitsiyentlari hisoblanadi:

- Asosiy vositalar eskirish koeffitsiyenti K_e :

$$K_e = \frac{\text{Asosiy vositalar eskirish qiymati}}{\text{Asosiy vositalar boshlang'ich qiymati}}$$

- Asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsiyenti K_{ya} :

$$K_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalar qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}}$$

Ushbu ko'rsatkichlar foizlarda yoki ulush birliklarida o'lchanadi va hisobot davrining boshi uchun ham, oxiri uchun ham hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, eskirish koeffitsiyentining ortishi korxonalar asosiy vositalari holati yomonlashganligini bildiradi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, eskirish koeffitsiyenti asosiy vositalarning haqiqatda eskirishini aks ettirmaydi, yaroqlilik koeffitsiyenti esa ularning joriy qiymati, masalan, uskunalar vaqtincha ishlatilmayotganda aniq bahosini bera olmaydi.

Bu holatda asosiy vositalar jismoniy eskirmaydi, lekin ularning eskirishining umumiy miqdori ortadi. Asosiy vositalarning joriy qiymat bahosi qator omillar, xususan, konyuktura va talab holatiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun yaroqlilik koeffitsiyenti yordamida olingan bahodan farqlanishi mumkin. Asosiy vositalarning eskirish miqdoriga tashkilotda qabul qilingan amortizatsiya hisoblash tizimi eng katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda mavjud hisob va hisobot tizimida eskirish va yaroqlilik koeffitsiyentlari asosiy vositalar holatining faqatgina shartli bahosini beradi, bu esa ushbu ko'rsatkichlardan tahlil jarayonida qo'llash imkoniyatini jiddiy ravishda cheklab qo'yadi. Endi esa asosiy vositalarning eskirish va yaroqlilik koeffitsiyentlarini aniqlaymiz:

$$K_e = 1581 / 4594,7 \times 100\% = 34,5\% - \text{yil boshi uchun};$$

$$K_e = 2496,5 / 5759,9 \times 100\% = 43,4\% - \text{yil oxiri uchun};$$

$$K_{ya} = 3013,7 / 4594,7 \times 100\% = 65,5\% - \text{yil boshi uchun};$$

$$K_{ya} = 3263,4 / 5759,9 \times 100\% = 56,6\% - \text{yil oxiri uchun}.$$

Yaroqlilik koeffitsiyenti bir (yoki 100%) va eskirish koeffitsiyenti o'rtasidagi farq sifatida hisoblab topilishi mumkin $K_{ya} = 1 - K_e$.

10.4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Asosiy vositalarni yangilash tezligi korxonalarining ishlab chiqarish, investitsion va innovatsion faolligiga bog'liq bo'ladi. Asosiy vositalarni muomaladan chiqarishning optimal muddatlari ilg'or texnikalardan foydalanish asosida kengaytirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirishga imkon beradi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini umumiy tavsiflashda **fond qaytimi, fond sig'imi, fondlar rentabelligi, mahsulotlar o'sishining bir so'miga to'g'ri keladigan solishtirma kapital qo'yilmalar** kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi **nisbiy iqtisod (qo'shimcha ehtiyoj)** ham hisoblanadi.

Tahlil jarayonida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar dinamikasi, ularning darajasi bo'yicha reja bajarilishi o'rganiladi, korxonalarining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida fond qaytimi ko'rsatkichi barcha asosiy vositalar, ishlab chiqarish yo'nalishidagi fondlar, ularning aktiv qismi (mashina va uskunalari) bo'yicha aniqlanadi.

Fond qaytimi – asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1 so'm (1000 so'm)iga to'g'ri keladigan bir yilda (yoki boshqa davr) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. Uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$F_q = \frac{Q}{A_f}.$$

Bu yerda, F_q – fond qaytimi;

Q – ulgurji narxlardagi mahsulotlar (ish, xizmat) hajmi;

A_f – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati.

Fond qaytimini hisoblashda shuni nazarda tutish talab qilinadiki, asosiy vositalar qiymatida xususiy va ijaraga olingan mablag'lar hisobga olinadi, konservatsiyadagi, shuningdek, boshqa korxonalarga ijaraga berilgan asosiy vositalar hisobga olinmaydi.

Fond qaytimi dinamikasini baholashda boshlang'ich ma'lumotlar taqqoslama ko'rinishga keltiriladi. Mahsulot hajmini ulgurji narxlar va

strukturaviy o'zgarishlar o'zgarishiga, asosiy mablag'lar qiymatini esa qayta baholash koeffitsiyentiga tuzatish talab qilinadi.

Ayrim iqtisodchilar fond qaytimini sotilgan mahsulotlar, foyda, shuningdek, natural ifodada mahsulot ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda aniqlashni taklif qiladilar.

Natural ifodada mahsulot ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda aniqlangan fond qaytimi ko'rsatkichi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini to'g'riroq aks ettiradi. Biroq bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan ushbu ko'rsatkichning qo'llanilish doirasi chegaralangan. Sanoatning aksariyat tarmoqlarida fond qaytimi qiymat ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Fond qaytimini hisoblash uchun sotilgan mahsulotlar ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki qator yillar uchun dinamikada bu ko'rsatkich hajmni turlicha bahoda aks ettiradi. Fond qaytimini korxonada foydasi bo'yicha ham hisoblash mumkin.

$$F_r = \frac{\text{Asosiy faoliyat bo'yicha foyda}}{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}$$

Mablag'lardan samarali foydalanishning boshqa ko'rsatkichi **fond sig'imi** hisoblanib, u asosiy vositalar o'rtacha qiymatini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati bilan aniqlanadi (fond qaytimiga teskari ko'rsatkich) :

$$F_s = \frac{A_f}{Q}$$

Fond sig'imini dinamikada hisoblash va baholash o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Fond sig'imining o'zgarishi mahsulot hajmining bir so'miga asosiy vositalar qiymati o'sishi yoki kamayishini ko'rsatadi va asosiy vositalarda mablag'larni nisbatan tejab qolish yoki ortiqcha sarflash miqdorini aniqlashda qo'llaniladi.

Asosiy vositalarni nisbatan tejab qolish (ortiqcha sarflash) miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_n (A_f) = (F_s^1 - F_s^0) \times Q^1$$

Bu yerda,

F_s^1, F_s^0 – haqiqatdagi va bazis davrdagi fond sig'imi;

Q – haqiqatdagi mahsulot hajmi.

Asosiy vositalar qiymatining o‘shish sur‘ati bilan mahsulot ishlab chiqarish o‘shish sur‘atining nisbati fond sig‘imining chegaraviy ko‘rsatkichini, ya‘ni mahsuotlarning 1% o‘shishiga asosiy vositalar o‘shishini aniqlashga imkon beradi. Agar fond sig‘imining chegaraviy ko‘rsatkichi birdan kam bo‘lsa, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ortadi va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti o‘sgan hisoblanadi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi keyingi ko‘rsatkich fond bilan qurollanganlik ko‘rsatkichi hisoblanib, fond qiymatining xodimlar soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

Fond bilan qurollanganlik ko‘rsatkichi xodimlarning umumiy soni bo‘yicha ham, asosiy ishlab chiqarish xodimlarining soni hisobida ham aniqlanishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlarini taqqoslash xodimlar soni tarkibidagi o‘zgarishlarni ularning o‘zgarmas miqdorida asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligiga ta‘siri haqida mulohaza qilishga imkon beradi.

Fond qaytimi, fond bilan qurollanganlik va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani kuzatish uchun fond qaytimi formulasini hosil qilish lozim (surat va maxraj xodimlar soniga bo‘linadi):

$$F_q = \frac{M_u}{F_{qur}} = \frac{\frac{Q}{X_s}}{\frac{A_v}{X_s}}$$

Bu yerda,

Q – mahsulot (ish, xizmat) hajmi;

A_v – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha qiymati;

X_s – xodimlar soni;

M_u – mehnat unumdorligi;

F_{qur} – fond bilan qurollanganlik.

Shunday qilib, fond qaytimini mehnat unumdorligining fond bilan qurollanganlikka bo‘linmasi sifatida tasavvur qilish mumkin. O‘z navbatida, fond qaytimi mehnat unumdorligiga to‘g‘ri proporsional, fond bilan qurollanganlikka esa teskari proporsional bo‘ladi. Fond qaytimini oshirish uchun mehnat unumdorligining o‘shish sur‘ati uning

fond bilan qurollanganlik bo'yicha o'sish sur'atini ortda qoldirishi zarur.

10.5. Fond qaytimining omilli tahlili


Tahlilda fond qaytimining haqiqatdagi ko'rsatkichi oldingi davrlar ma'lumotlari, loyihaviy ko'rsatkichlar, boshqa korxonalarining fond qaytimi bilan taqqoslanadi. Fond qaytimi darajasini taqqoslash tahlilining boshlanishi, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va o'lchash uchun boshlang'ich baza hisoblanadi. Quyidagilar fond qaytimi ortishiga xizmat qiladi:

- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, joriy uskunalarni modernizatsiyalash;
- uskunalarni ishlatish vaqtini ko'paytirish;
- uskunalarning ishlash intensivligini oshirish, jumladan xomashyo va materiallar sifatining texnologik jarayon talablariga muvofiqqligini ta'minlash va ishlab chiqarish xodimlari malakasini oshirish yo'li bilan;
- asosiy vositalarning faol qismi ulushini oshirish.

10.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi ko'p jihatdan uskunalarning ishlash tarkibi va vaqtidagi o'zgarishlarga bog'liq.

Tuzilmaning fond qaytimiga ta'siri shu bilan bog'liqki, asosiy ishlab chiqarish fondlarining turli toifalari ishlab chiqarish jarayonida birdek faol ishtirok etmaydi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimini hisoblashda ishchi mashinalar va uskunalarning ajratib ko'rsatiladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari, jumladan mashina va uskunalarning qiymatining bir so'miga fond unumi o'sish sur'atlarini taqqoslash asosiy vositalar tarkibi o'zgarishining ulardan foydalanish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi.

10.5-jadvalda ko'rib chiqilayotgan davr uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari, jumladan mashina va uskunalardan oldingi davrga nisbatan yomon foydalanilgan. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi o'tgan yilgi 1594,8 so'mdan hisobot yilida 1457,6 so'mgacha, mos ravishda mashina va uskunalarning 2062,1 so'mdan 1894,8 so'mgacha kamaygan.



10.1-chizma. **Fond qaytimi darajasini belgilab beruvchi omillar**

Fond qaytimi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan	Hisobot	Og'ish	Hisobot yilida o'tgan
		yil	yili	(+;-)	yilga nisbatan % da
	A	1	2	3	4
1	Taqqoslama ulgurji narxlarda mahsulot (ish, xizmat) hajmi	5495,7	6548,9	+1053,2	119,1
2	Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati	3446	4493	+1047	130,4
3	Jumladan, mashina va uskunalalar	2665	3456,1	+791,1	129,7
4	Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatida mashina va uskunalalar ulushi, % (satr3:satr2x100)	77,33	76,92	-0,41	99,5
5	Ishlab chiqarish fondlari qiymatining ming so'miga mahsulot hajmi (str1:str2)x100 so'm	1594,8	1457,6	-137,2	91,4
6	Mashina va uskunalalar qiymatining ming so'miga mahsulot hajmi (satr1:satr3)x100 so'm	2062,1	1894,8	-167,3	91,9

Tahlilda asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblab chiqiladi.

Bunda fond qaytimi ko'rsatkichini ikki ko'paytuvchining ko'paytmasi ko'rinishida ifodalash talab qilinadi:

$$\begin{aligned} & \text{Asosiy ishlab chiqarish fondlari fond qaytimi} = \\ & = \text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining umumiy qiymatida} \\ & \quad \text{mashina va uskunalarning ulushi*} \end{aligned}$$

*Mashina va uskunalarning fond qaytimi.

Asosiy vositalar tarkibida mashina va uskunalarning ulushini miqdoriy ko'rsatkich sifatida qabul qilgan holda zanjirli o'rin almashtirish usuli bilan har bir omilning ta'siri hisoblanadi (10.6-jadval).

Fond qaytimining 137,2 so'mga (1457,6 – 1594,8) pasayishi ikki omil, uskunalarning ulushi hamda mashina va uskunalarning fond qaytimi kamayishi ta'sirida sodir bo'lgan.

$$\begin{aligned} & \text{Hisoblashni tekshirish: } 1457,6 - 1594,8 = - 8,6 - 128,6 \\ & - 137,2 = - 137,2. \end{aligned}$$

10.6-jadval

Ketma-ket hisoblar	O'zaro ta'sirlashuvchi xususiy ko'rsatkichlar		Asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi	Oldingi hisoblashlardan og'ish	Og'ish sabablari
	fondlar tarkibida mashina va uskunalarning ulushi, %	mashina va uskunalarning fond qaytimi			
1- hisob o'tgan yili	O'tgan 77,33	O'tgan 2062,1	O'tgan 1594,8		
Birinchi ko'rsatkichni o'rin almashtirish	Hisobot 76,92	O'tgan 2062,1	Shartli 1586,2	-8,6	Mashina va uskunalarning ulushi pasayishi
Ikkinchi ko'rsatkichni o'rin almashtirish	Hisobot 76,92	Hisobot 1894,8	Hisobot 1457,6	-128,6	Mashina va uskunalarning fond qaytimi pasayishi

10.6. Uskunalardan foydalanish tahlili

Uskunalardan foydalanishni yaxshilash fond qaytimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uskunalardan foydalanish tahlilida, avvalo, korxonaning uskunalari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish to'liqligini tekshirish zarur.

Jami uskunalari **mavjud, o'rnatilgan** va **ishlatilayotgan** kabi turlarga ajratiladi.

Mavjud uskunalarga qayerda bo'lishi (sexlarda, omborda) va qanday ahvolda bo'lishidan qat'iy nazar korxonada mavjud barcha uskunalari kiritiladi.

O'rnatilgan uskunalari – bu sexlardagi yig'ilgan va ishlatishga tayyorlangan uskunalardir. Shuni ham nazarda tutish lozimki, o'rnatilgan uskunalarning bir qismi zaxirada, konservatsiyada, rejadagi ta'mirda va modernizatsiyada bo'lishi mumkin.

Ishlatilayotgan uskunalari – bu ishlatish vaqtidan qat'iy nazar hisobot davrida haqiqatda ishlatilayotgan barcha uskunalardir. Uskunalardan foydalanish samaradorligini oshirish ikki yo'l bilan ta'minlanadi:

- ekstensiv (vaqt bo'yicha);
- intensiv (quvvati bo'yicha).

Uskunalarning ekstensiv yuklama darajasini tavsiflash uchun uni ishlatish vaqtining balansi o'rganiladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kalendar vaqt fondi – uskunalarni ishlatishning maksimal mumkin bo'lgan vaqti (hisobot davridagi kalendar kunlar soni 24 soatga va o'rnatilgan uskunalari birligi miqdoriga ko'paytiriladi);

- rejim vaqt fondi – (o'rnatilgan uskunalari birligi miqdori hisobot davridagi kalendar kunlar soniga va smenalilik koeffitsiyenti hisobga olingan holda kunlik ish soati miqdoriga ko'paytiriladi);

- rejaviy fond – reja bo'yicha uskunani ishlatish uskunaning rejaviy ta'mirda va modernizatsiyada bo'lishga oid rejimli vaqtidan farq qiladi;

- ishlangan vaqtning haqiqatdagi fondi.

Haqiqatdagi va rejadagi kalendar vaqt fondini taqqoslash uskunani ishga tushirish bo'yicha rejaning muddat va miqdor bo'yicha bajarilish darajasini; kalendar va rejim vaqt fondini taqqoslash – smenalilik koeffitsiyentini oshirish hisobiga uskunalardan yaxshiroq foydalanish

imkoniyatini, rejim va rejaviy vaqt fondini taqqoslash – ta’mirlashga vaqt sarfini qisqartirish hisobiga yuzaga keladigan vaqt zaxiralarini aniqlashga imkon beradi.

Uskunalarni ishlatish vaqtidan foydalanishni tavsiflash uchun quyidagi koeffitsiyentlar qo‘llaniladi:

- kalendar vaqt fondi – $K_{k.f.} = T_f : T_k$;
- rejim vaqt fondi – $K_{r.f.} = T_f : T_r$;
- rejaviy vaqt fondi – $K_{p.f.} = T_f : T_p$;
- kalendar fondga turib qolishlarning ulushi : $U_{d.pr} = PR : T_k$.

Bu yerda,

T_f, T_p, T_r, T_k – mos ravishda uskunalar ish vaqtining haqiqatdagi va rejaviy, rejim va kalendar fondlari;

PR – uskunalarining turib qolishlari.

Bir martalik tekshiruv ko‘rsatadiki, tahlil qilinayotgan korxonaning birinchi sexida vaqt bo‘yicha uskunalardan foydalanish quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi:

10.6-jadval

Vaqt bo‘yicha uskunalardan foydalanishni tahlili

Ko‘rsatkichlar	Reja	Hisobot	Rejadan og‘ish (+,-)
Mahsulot hajmi, ming so‘m	10823	10853	+30
Uskunalarni ish vaqti fondi, dastgoh-soatlar	421321	419699	-1622
1 dastgoh-soat uchun mahsulot ishlab chiqarish, so‘m	25,69	25,86	+0,17

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida quyidagilarni aniqlaymiz:

- uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti
 $419699 : 421321 = 0,9962$
- uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsiyenti
 $25,86 : 25,69 = 1,007$
- uskunalardan integral foydalanish koeffitsiyenti
 $0,9962 \times 1,007 = 1,003$.

Hisoblashlar ko‘rsatadiki, sexda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishning sezilarli zaxiralari mavjud – rejaviy vaqt fondi 99,62 % ga foydalanilgan. To‘g‘ri, ish vaqtidan yo‘qotishlar 1 dastgoh-soatga mahsulot ishlab chiqarish ortishi bilan qisman qoplangan va bu ko‘rsatkich rejadan 0,66% yuqori bo‘lgan. Buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish rejasi 100,27% ga bajarilgan.

Nazorat savollari

1. Asosiy vositalar tahlili qanday yo‘nalishlarda amalga oshiriladi?
2. Asosiy vositalar harakatini tavsiflovchi koeffitsiyentlarni sanab bering.
3. Asosiy vositalarning texnik holatini qanday ko‘rsatkichlar tavsiflaydi?
4. Asosiy vositalar dinamikasini baholashda qanday ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi?
5. Asosiy vositalar foydalanish samaradorligi tahlili metodikasini bayon qiling?
6. Asosiy vositalar fond qaytimi ko‘rsatkichini hisoblash va tahlil qilishning iqtisodiy ma‘nosi nimadan iborat?
7. Asosiy vositalar fond sig‘imi ko‘rsatkichini tahlil qilish qanday iqtisodiy ma‘noga ega?
8. Asosiy vositalar fond qaytimi o‘shining asosiy omillarini tavsiflang. Ularning qaysilari ustuvor ahamiyat kasb etadi?
9. Ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish tahlili metodikasini tushuntirib bering.
10. Asosiy vositalarni ishga tushirish koeffitsiyentini (K_i) hisoblashda qanday formula qo‘llanilishini aniqlang:

$$A) K_i = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$B) K_i = \frac{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$V) K_i = \frac{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$G) K_i = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

11. Yangilash koeffitsiyentini (K_{ya}) hisoblash uchun qanday formuladan foydalaniladi?

$$A) K_{ya} = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$B) K_{ya} = \frac{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$V) K_{ya} = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$G) K_{ya} = \frac{\text{Qayta kirim qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

12. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish koeffitsiyentini (K_h) hisoblash uchun qanday formuladan foydalaniladi?

$$A) K_h = \frac{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$B) K_h = \frac{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$V) K_h = \frac{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}};$$

$$G) K_h = \frac{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}.$$

13. Tugatish (K_t) koeffitsiyentini hisoblash uchun qanday formuladan foydalaniladi?

$$A) K_t = \frac{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$B) K_t = \frac{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}};$$

$$V) K_t = \frac{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}};$$

$$G) K_t = \frac{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}.$$

14. Asosiy vositalar yaroqliligi (K_{ya}) koeffitsiyentini hisoblash uchun qanday formuladan foydalaniladi?

A) $K_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalar qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}};$

B) $K_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish miqdori}}{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}};$

V) $K_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}}{\text{Asosiy vositalar qoldiq qiymati}};$

G) $K_{ya} = \frac{\text{Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati}}{\text{Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish miqdori}}.$

15. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblang, tahlil qiling hamda xulosalarni shakllantiring.

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yili	Og'ish, (+ -)	O'zgarish sur'ati
Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, mln so'm	2300	2470,6		
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, mln so'm	1821,2	1867,6		
Fond qaytimi				
Fond sig'imi				

16. Quyidagilarni hisoblagan holda asosiy vositalar tahlilini amalga oshiring:

- Kirim koeffitsiyenti (K_k);
- Yangilash koeffitsiyenti (K_{ya});
- Hisobdan chiqarish koeffitsiyenti (K_h);
- Tugatish koeffitsiyenti (K_{lik});
- Almashtirish koeffitsiyenti (K_a);
- Mashina va uskunalar parkini kengaytirish koeffitsiyenti (K_k);
- Eskirish koeffitsiyenti (K_e). Xulosa yozing.

Ko'rsatkichlar	Yil boshida mavjud	Kirim qilindi	Chiqarib tashlandi	Yil oxirida mavjud
Boshlang'ich baholashda asosiy vositalar qiymati	2966	1670,2	9.2	4627
jumladan yangilari		1231,6		
Asosiy vositalar eskirishi	889,8			956,8
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	2076,2			3670,2

XI bob. PUL MABLAG‘LARI HARAKATI TAHLILI

11.1. Pul mablag‘lari harakati tahlilining mazmuni va vazifalari

Ixtiyoriy biznes ishlab chiqarish uchun resurslar (yoki qayta sotish uchun tovarlar)ga aylantiriladigan muayyan miqdordagi pul mablag‘i-dan boshlanadi. Keyin aylanma kapital ishlab chiqarish shaklidan tovar shaklga, sotish bosqichida esa pul shakliga o‘tadi. Aylanma kapital doiraviy aylanmasi asosiy xo‘jalik operatsiyalari bilan bevosita bog‘liq:

- xaridlar xomashyo, materiallar, tovarlar va kreditorlik qarzi ortishiga olib keladi;
- ishlab chiqarish debitorlik qarzi o‘sishi, kassa hamda hisob raqamidagi pul mablag‘lari ortishiga olib keladi.

Ushbu operatsiyalar ko‘p marta takrorlanadi, pul tushumlari va pul to‘lovlari bilan birga kuzatiladi. Shunday qilib, pul mablag‘lari harakati xomashyo, materiallar uchun pul to‘lash va tayyor mahsulotni sotishdan pul tushumi o‘rtasidagi davrni o‘zida qamrab oladi. Quyidagilar uning davomiyligiga ta‘sir qiladi: korxonaning yetkazib beruvchilar tomonidan kreditlanish davri, korxonaning xaridorlar tomonidan kreditlanish davri, zaxira uchun xomashyo va materiallar topish davri, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni omborlarda saqlash davri.

Korxonalar faoliyat natijalarini baholash uchun quyidagi uch ko‘rsatkich muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Mahsulotlar sotishdan tushum.
2. Foyda.
3. Pul mablag‘lari oqimi.


Ushbu ko‘rsatkichlarning mutlaq miqdori va ularning yil davomida o‘zgarish dinamikasi korxonada faoliyatining samaradorligini tavsiflaydi. Biroq bozor sharoitida korxonada uchun faoliyatning boshqa turlaridan topilayotgan pul mablag‘lari oqimi ham muhim o‘rin tutadi. Pul mablag‘lari tushumi to‘lovlardan ortib ketgan holatda korxonada joriy va istiqbolda rivojlanishi uchun zaruriy raqobat ustunligiga ega bo‘ladi.

Korxonada ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ikki holatni majburiy ravishda e'tiborga olishi lozim:

1. Bir tomondan, joriy to'lov qobiliyatini saqlab turish uchun yetarlicha hajmda pul mablag'lari mavjud bo'lishi zarur.

2. Boshqa tomondan, ushbu mablag'larni joylashtirishdan qo'shimcha foyda olish imkoniyati doimo mavjud.

Iqtisodiyotda pul mablag'lari ancha cheklangan resurs hisoblanadi, shuning uchun korxonai muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning pul mablag'larini samarali boshqarish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.



11.1-chizma. Korxonada naqd pul harakati

Pul oqimlarini boshqarish quyidagi zaruratlar nuqtayi nazaridan korxonada uchun ayniqsa muhim sanaladi:

- balans likvidligini tartibga solish;
- aylanma aktivlarni optimallashtirish (pul mablag'lariga qisqa muddatli ehtiyojlarni baholash, material-ishlab chiqarish zaxiralari va debitorlik qarzini boshqarish);
- kapital sarf-xarajatlar va ularni moliyalashtirish manbalarini vaqt bo'yicha parametrlarini rejalashtirish;
- joriy xarajatlarni boshqarish, ishlab chiqarish va tayyor mahsulot (ish, xizmat) larni sotish jarayonida ularni optimallashtirish;
- iqtisodiy o'sish prognozi.

11.2. Pul oqimlari tasnifi

Pul mablag‘lari harakati tahlili bevosita va bilvosita usullar asosida amalga oshiriladi. Ularning o‘rtasidagi farq shundan iboratki, joriy faoliyat natijasida olingan pul mablag‘lari oqimi miqdorini aniqlash ketma-ketligi turlicha bo‘ladi:

- **bevosita usul** pul mablag‘lari kelib tushishi (mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tushum, olingan avanslar va boshqalar) va chiqib ketishini (yetkazib beruvchilar bilan hisoblashish, olingan qisqa muddatli ssuda va qarzlarni qaytarish va boshqalar) hisoblashga asoslanadi, ya’ni boshlang‘ich element **tushum** hisoblanadi;

- **bilvosita usul** pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq operatsiyalar identifikatsiyasi va hisobiga, kelgusida sof foydaga tuzatish kiritishga asoslanadi, ya’ni hisoblashning boshlang‘ich elementi **foyda** hisoblanadi.

Pul mablag‘lari harakatini bevosita usulda tahlil qilish buxgalteriya hisobi schyotlaridagi pul mablag‘lari harakatini batafsil yoritadi, joriy majburiyatlar bilan hisoblashishlar bo‘yicha to‘lovlar, shuningdek, investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun mablag‘lar yetarililigiga nisbatan tegishli xulosalar qilishga imkon beradi. Biroq tashkilotlar hisobidagi pul miqdori o‘zgarishlari va moliyaviy natijaning o‘zaro aloqasini bevosita usul yoritolmaydi. Shu maqsadda pul mablag‘lari harakatini tahlil qilish bilvosita usulda ham amalga oshiriladi. Uning mohiyati sof foyda miqdorini pul mablag‘lari miqdoriga o‘zgartirishdan iborat. Bunda har bir tashkilot faoliyatida xarajat va daromadlarning alohida, miqdoriga ko‘ra ko‘pincha salmoqli turlari mavjudligidan kelib chiqiladi. Ular pul mablag‘lari miqdoriga ta’sir qilmagan holda tashkilot foydasini ko‘paytiradi yoki kamaytiradi. Shuning uchun tahlil jarayonida sof foyda miqdoriga shunday tuzatish kiritiladiki, bunda pul mablag‘lari chiqib ketishi bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarni moddalari hamda pul mablag‘lari tushumi bilan birga kuzatilmaydigan daromad moddalari sof foyda miqdoriga ta’sir qilmasligi lozim.


Faoliyat turlari bo‘yicha pul mablag‘lari harakati tahlili 4-shakl “Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot” ma’lumotlari bo‘yicha olib boriladi.

Ushbu hisobot shakli uch bo‘limdan iborat:

1. Operatsion faoliyat.
2. Investitsion faoliyat.


3. Moliyaviy faoliyat.

Joriy (operatsion) faoliyat doirasida pul mablag‘lari tushumi mahsulot sotishdan tushumlar olish, ishlar bajarish va xizmat ko‘rsatish, shuningdek, xaridorlar va buyurtmachilardan avanslar bilan, sarflanishi – yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlar bilan hisoblashishlar bo‘yicha to‘lovlar, mehnat haqi berish, ijtimoiy sug‘urta va ta‘minot fondlariga ajratmalar, byudjet bilan o‘zaro hisoblashishlarga bog‘liq. Joriy faoliyat jarayonida tashkilotlar olingan kreditlar va qarzlarni bo‘yicha foizlar to‘lashi mumkin.



11.1-chizma. Joriy faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati


Investitsion faoliyat uzoq muddatli aktivlar tushumi va sotilishi, investitsiyalardan daromadlar va xarajatlar (kapital qo‘yilmalar) bilan bog‘liq pul mablag‘lari tushumi va ulardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Amortizatsiya ajratmalari va sof foyda shaklidagi joriy faoliyatdan tushumlar, investitsion faoliyatning o‘zidan olingan daromadlar, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari hisobiga tushumlar (aksiyalar va korporativ obligatsiyalar emissiyasi, uzoq muddatli kreditlar va qarzlari) kabilar korxonaning investitsion faoliyati uchun pul mablag‘lari manbalari bo‘lishi mumkin.



11.2-chizma. Investitsion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati

Korxonaga uchun qulay iqtisodiy vaziyatda u ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishga intiladi. Shuning uchun investitsion faoliyat umuman olganda pul mablagʻlarining vaqtincha chiqib ketishiga olib keladi.

- **Tashkilotlarning moliyaviy faoliyati** uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlarni, byudjetdan ajratmalar olish oqibatida mablagʻlar tushumi hamda oldinroq olingan kredit va qarzlarni boʻyicha qarzдорlikni tugatish, dividendlar, foizlar toʻlovi koʻrinishida mablagʻlar sarflanishi bilan bogʻliq. Barqaror ishlayotgan korxonalarda joriy faoliyatdan vujudga kelgan pul oqimlari investitsion va moliyaviy faoliyatga, masalan, kapital aktivlar sotib olish, qisqa muddatli va uzoq muddatli kredit va qarzlarni qaytarishga, dividendlar toʻlashga va boshqalarga yoʻnaltirilishi mumkin.



11.3-chizma. Moliyaviy faoliyat boʻyicha pul mablagʻlari harakati

Aksariyat korxonalarda joriy faoliyat ko‘pincha investitsion va moliyaviy faoliyat hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa ularning beqaror iqtisodiy muhitda ham yashab qolishini ta‘minlaydi. Pul oqimlarini samarali boshqarish uchun quyidagilarni bilish zarur:

- muayyan vaqt (oy, chorak) uchun ularning miqdori qanday;
- ularning asosiy elementlari qanaqa;

qanday faoliyat turlari pul mablag‘lari oqimining asosiy qismini vujudga keltirmoqda.

11.3. Pul mablag‘lari kirimi tahlili

Majburiyatlar qaytarilishini ta‘minlovchi pul mablag‘lari kirimi korxonada moliyaviy farovonligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Pul mablag‘larining bunday minimal zaruriy zaxirasi mavjud emasligi korxonada jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar borligidan darak beradi. Pul mablag‘larining haddan ziyod miqdori esa, birinchidan, inflyatsiya va pulning qadrsizlanishi bilan, ikkinchidan, ularni foydali joylashtirish va qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini boy berish bilan bog‘liq ravishda korxonada zarar ko‘rayotganligini anglatadi. Shunga monand tarzda korxonalarda pul mablag‘larini boshqarish oqilonaligini baholash zarurati yuzaga keladi.

Bunday tahlilning turli usullari mavjud. Xususan, joriy majburiyatlar hajmi o‘sgan holda korxonaning joriy aktivlari tarkibida pul mablag‘lari ulushining qisqarish tendensiyasi moliyaviy qiyinchiliklar paydo bo‘lishining o‘ziga xos barometri hisoblanadi. Shuning uchun pul mablag‘lari va shoshilinch muddatli majburiyatlar (muddati joriy oyda tugaydigan) nisbatini har oyda tahlil qilish korxonalarda pul mablag‘lari ortiqchaligi (etishmasligi) haqida yetarlicha to‘liq tasavvur berishi mumkin. Pul mablag‘lari yetarliligini baholashdagi boshqa usul **aylanma davri davomiyligini** aniqlashdan iborat. Buning uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$\text{Aylanma davri} = \frac{\text{Pul mablag‘larining o‘rtacha qoldig‘i} \times \text{Davri davomiyligi}}{\text{Davri uchun aylanma}}.$$

Davr davomiyligi quyidagilarni tashkil qiladi: 360 kun – ko‘rsatkich qiymatini bir yil uchun hisoblaganda;

90 kun – chorak uchun hisoblaganda; 30 kun – oy uchun. Hisoblash uchun pul mablag‘lari schyotlari (5000 «Kassa», 5100 «Hisob schyoti», 5200 «Valyuta schyoti», 5500 «Banklardagi maxsus schyotlar» va b.) bo‘yicha davr (ko‘pincha oy) boshi hamda oxiri uchun qoldiqlar miqdori haqida ichki hisob ma‘lumotlari jalb qilinadi. Buning uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$\text{Pul mablag‘larining o‘rtacha qoldig‘i} = \frac{Qd_{1/2} + Qd_2 + Qd_3 + \dots + Qd_{n/2}}{n-1}.$$

Bu yerda, Qd_n – n oy boshi uchun qoldiq;
 n – davrdagi oylar miqdori.

Tahlil jarayonida butun davr uchun to‘liq hajmda pul mablag‘lari kirimini baholash zarur. Shuning uchun korxonada tushumi pul mablag‘lari schyotlarining debet aylanmasi bo‘yicha manbalaridan qat’iy nazar ko‘rib chiqiladi. Pul mablag‘lari schyotlarining debet bo‘yicha aylanmalari jami miqdori pul mablag‘lari kirimining umumiy miqdori hisoblanadi. Ushbu jami miqdordan ichki aylanma miqdorini, ya’ni xuddi shu schyotlarning kreditidan debetiga kirim qilingan mablag‘lar miqdorini (masalan, limitdan ortiqcha pul mablag‘lari qoldig‘ini kassadan hisob raqamga o‘tkazish yoki hisob raqamdan kassaga naqd pul olish) chiqarib tashlash zarur. Agar debet aylanmalarga ichki aylanmalar miqdori bo‘yicha tuzatish kiritilmasa, bu ikki marta hisoblashga va yakuniy ko‘rsatkich buzib ko‘rsatilishiga olib keladi. Hisobot davri mobaynida pul mablag‘lari aylanmasi tebranishini, hisob raqamiga pul tushgan vaqtdan to ularning chiqib ketish vaqtigacha muddatni ko‘rsatuvchi quyidagi jadval tuziladi.

11.1-jadval

Korxonada pul mablag‘lari aylanmasi davomiyligining oylar bo‘yicha o‘zgarishi

Oy	Pul mablag‘lari qoldig‘i, ming so‘m	Oylik aylanma, ming so‘m	Aylanma davri, kunlar
Yanvar	12734	140448	2,72
Fevral	13102	180302	2,18
Mart	8689	148100	1,76
va hokazo			

11.1-jadvaldan ko‘rinadiki, yil davomida pul mablag‘larining aylanma davri 1,76 dan 2,72 kungacha chegarada tebranadi. Boshqacha aytganda, hisob raqamiga pul tushgan vaqtdan to ularning chiqib ketish vaqtigacha o‘rtacha ko‘pi bilan ikki kun o‘tgan. Bu korxonada mablag‘lar yetishmasligi yaqqol namoyon bo‘layotganligidan darak beradi. Bu esa kreditorlik qarzi salmoqli bo‘lgan holatda ancha xatarli vaziyat sanaladi. To‘lovlar bo‘yicha ixtiyoriy jiddiy kechikish korxonani moliyaviy barqaror holatdan chiqarib tashlashi mumkin. Endi esa pul mablag‘lari kirimini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun «Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot» nomli 4-hisobot shaklini faoliyat turlari bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi tarkibining nisbiy ko‘rsatkichlarini hisoblash bilan to‘ldirish talab qilinadi.

11.2-jadval

Pul mablag‘lari kirimi tahlili

Ko‘rsatkich nomi	Satr raqami	Summa, ming so‘m	Jumladan			Nisbiy miqdorlar			
			op. faol.	inv. faol.	mol. faol.	jami	op. faol.	inv. faol.	mol. faol.
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Yil boshi uchun pul mablag‘lari qoldig‘i	230	125610							
Kirim qilingan pul mablag‘lari jami	220	7337875	7329909	4150	3816	100	100	100	100
Jumladan, Mahsulot sotishdan tushum	010	3206056	3206056			43,69	43,74		
Xodimlardan tushumlar	030	208	208			0,01	0,01		
Boshqa pul tushumlari	040	4123645	4123645			56,19	56,25		
Nomoddiy aktivlarni sotishdan tushumlar	070	4150		4150		0,06		100	
Olingan foizlar	110	941			941	0,01			24,66
Olingan dividendlar	120	2875			2875	0,04			75,34

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, pul kirimlarining umumiy miqdori 7337875 ming so'mni tashkil qilgan. Ularning 99,89 foizi (43,69+0,01+56,19) operatsion faoliyatga, atigi 0,11 foizi investitsion va moliyaviy faoliyatga to'g'ri keladi. Hisobot davri uchun kirim qilingan barcha pul mablag'lari miqdorida eng katta solishtirma og'irlikka boshqa pul tushumlari – 56,19% va ish, tovar va xizmatlarni sotishdan tushumlar – 43,69% ega bo'ldi.

11.4. Pul mablag'lari chiqimi tahlili

Pul mablag'lari chiqimi tahlilida quyidagi savollarga javob topish zarur:

- aktivlar aylanuvchanligi ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilmaydimi;
- joriy aktivlar aylanuvchanligi sekinlashmaganmi;
- zaxiralar va debitorlik qarzlarning mutlaq qiymati o'smayaptimi;
- qo'shimcha pul oqimlarini talab qiluvchi tovarlar sotish hajmida keskin ortish kuzatilmaganmi;
- sof foydani taqsimlash bo'yicha tavsiya qilingan me'yordan ko'p darajada aksiyadorlarga ortiqcha to'lovlar amalga oshirilmaganmi;
- davlatning byudjet tizimiga soliqlar va byudjetdan tashqari fondlarga badallar o'z vaqtida to'langanmi;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar oldida davomiy qarzdorlik yuzaga kelmaganmi.

Pul mablag'larini sarflash yo'nalishlari orasida quyidagilar asosiy ulushga ega bo'ladi: boshqa pul to'lovlari (85,41%); tovar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar (5,73%); xodimlar mehnatiga haq to'lash (4,8%); boshqa soliqlar (3,53%); qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar va foizlar to'lovi (0,53%). «Xodimlarga va ular nomidan pul to'lovlari» 020-modda bo'yicha ishchi-xodimlarga to'langan miqdor (mehnat haqi, mukofotlar shaklida), shuningdek, pensiya fondi, bandlik fondi, shaxsiy sug'urta fondlariga to'langan mablag'lar miqdori, byudjetga daromad solig'i bo'yicha to'lovlar, kasaba uyushmasiga ajratmalar, uy-joy fondiga alimentlar to'lovi, xodimlarga berilgan bank kreditlari uchun to'lovlar, xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalariga to'lovlar, xodimlar bilan va ularning

Pul mablag'lari chiqimi tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Summa, ming so'm	Jumladan				Nisbiy miqdorlar			
			oper. faol.	inv. faol.	mol. faol.	solliqqa tortish	jami	oper. faol.	inv. faol.	mol. faol.
Pul mablag'lari yo'naltirildi – jami	220	7448845	7146138		39899	262808	100	100	100	100
Jumladan, Ish va xizmatlar to'loviga	010	1184	1184				0,02	0,02		
Sotib olingan tovarlar to'loviga	020	425355	425355				5,71	5,95		
Xodimlarga pul to'lovlari	030	357058	357058				4,8	5,00		
Boshqa pul to'lovlari	040	6362541	6362541				85,41	89,03		
Asosiy vositalar xaridi	060									
Nomoddiy aktivlar xaridi	070									
qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar xaridi	080									
To'langan foizlar	110	37438		37438			0,50		93,83	
To'langan dividendlar	120	2461		2461			0,03		6,17	
xususiy aksiyalarni qayta sotib olish	140									
Kreditlar bo'yicha to'lovlar	150									
Daromad solig'i	190									
Boshqa soliqlar	200	262808				262808	3,53			100
Yil oxirida qolgan pul mablag'lari	240	14640								

nomidan operatsiyalarga to'g'ri keluvchi hamda pul mablag'larini sarflash bilan bog'liq kassa va bankdagi hisobdan amalga oshirilgan pul mablag'larining boshqa sarflari aks ettiriladi.

Korxonona «Operatsion faoliyat bo'yicha boshqa pul tushumlari va to'lovlar» moddasi bo'yicha (040-modda) «Xarajatlar» grafasida to'langan miqdorni, «Kirimlar» grafasida esa – olingan pul mablag'lari va royaltidan ularning muqobillari, turli xarakterdagi mukofotlar, komissiya yig'implari va boshqa daromadlar, savdo va dilerlik maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo'yicha komissiyalar, konvertatsiya o'tkazish uchun bankka komissiyalar va boshqalarni ko'rsatadi.

Korxonaning faoliyat turlari bo'yicha sarf-xarajatlarni pul tushumlari bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega.

11.4-jadvalga ko'ra, hisobot davri uchun pul mablag'lari qoldig'i 14640 ming so'mni tashkil qilgan va davr boshi uchun holat – 110970 ming so'mga nisbatan kamaygan. Ushbu o'zgarishga operatsion faoliyatdan pul mablag'lari oqimi (183771 ming so'm) va investitsion faoliyat (4150 ming so'm) ta'sir qilgan. Biroq moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish bo'yicha 36083 ming va 262808 ming so'm miqdorda pul mablag'lari chiqimi sodir bo'lgan.

11.4-jadval

Faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari Harakati

Ko'rsatkichlar	Hisobot davrida tushum qilindi	Hisobot davrida foydalanildi	Davr uchun o'zgarishi
Davr boshi uchun pul mablag'lari qoldig'i	-	-	+125610
Operatsion faoliyat bo'yicha mablag'lar harakati	7329909	7146138	+183771
Investitsion faoliyat bo'yicha mablag'lar harakati	4150	-	+4150
Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari harakati	3816	39899	-36083
Soliqqa tortish	-	262808	-262808
Pul mablag'larining jami sof o'zgarishi	-	-	-110970
Hisobot davri oxiri uchun pul mablag'lari qoldig'i	-	-	+14640

Tashkilotning pul mablag‘lari harakatidagi salbiy holat mablag‘lar chiqimining kirimdan 10970 ming so‘mga ortib ketishi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik uchun aksincha bo‘lishi lozim. Moliyaviy barqarorlikning zaruriy sharti sifatida operatsion faoliyat doirasida mablag‘lar kirimi va chiqimidagi shunday nisbat gavdalanadiki, bunda investitsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada moliyaviy resurslar ko‘payishi ta‘minlanishi lozim.

Analitik tadqiqotlar natijasida **pul mablag‘lari defitsiti** sabablari borasida oldindan xulosalar chiqarish mumkin. Quyidagilar bunday sabablar sirasiga kiritilishi mumkin:

- sotish, aktivlar va o‘z kapitalning past rentabelligi;
- pul mablag‘larini ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarishga keragidan ortiqcha jalb qilish; zaxiralarga inflyatsiya ta‘siri;
- mutanosib moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanmagan ulkan kapital sarf-xarajatlar; inflyatsiyaning kapital qo‘yilmalarga ta‘siri;
- soliq va yig‘imlar uchun katta to‘lovlar, aksiyadorlarga yuqori dividend miqdori;
- balans passivida qarz kapital ulushining yuqoriligi, shunga bog‘liq ravishda kredit va qarzlardan foydalanish uchun foizlar bo‘yicha katta to‘lovlar;
- joriy aktivlar aylanuvchanligi koeffitsiyentining pasayishi, ya‘ni korxonaga aylanmasiga qo‘shimcha pul mablag‘lari jalb qilinishi.

Umumiy pul oqimi nolga intilishi lozim, chunki faoliyatning bir turi bo‘yicha manfiy saldo boshqa turi bo‘yicha musbat saldo hisobiga kompensatsiyalanadi.

11.5. Pul mablag‘lari harakati tahlili (bilvosita usul)

Pul mablag‘lari oqimini bilvosita usul bilan o‘rganish uchun alohida analitik hisobot tayyorlash zarur. Uni ishlab chiqishda quyidagilar boshlang‘ich ma‘lumotlar hisoblanadi: Buxgalteriya balansi (1-shakl); Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (2-shakl); balansga ilovalar; Bosh daftar; jurnal-orderlar va boshqalar. Pul mablag‘lari harakatini bevosita usulda tahlil qilishning asosiy kamchiligi (ikkinchi savolni ko‘rib chiqishda qayd qilingani kabi)

shundaki, u olingan moliyaviy natijalar va tashkilot hisobidagi pul mablagʻlari oʻzgarishining oʻzaro aloqasini oydinlashtirmaydi. Pul mablagʻlari kirimi miqdori olingan foyda miqdoridan jiddiy suratda farqlanadi. «Moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobot» nomli 2-shaklga koʻra, tahlil qilinayotgan korxonada 112,6 mln soʻmlik sof foyda olgan. Ayni vaqtda pul mablagʻlari tahlil qilinayotgan davrda 110970 ming soʻm qisqargan (11.4-jadvalga qarang) va buning bir nechta sababi bor:

1. 2-shaklda aks ettiriladigan foyda (zarar) buxgalteriya hisobi tamoyillariga mutanosiblikda shakllanadi, unga muvofiq xarajat va daromadlar ular hisoblangan hisobot davrida qayd qilinadi (pul mablagʻlarining real harakatidan qatʻiy nazar:

- kelgusi davr xarajatlari mavjudligi;
- kechiktirilgan, yaʼni hisoblangan toʻlovlar mavjudligi, ular mahsulot tannarxini oshiradi, pul mablagʻlari real chiqimi esa kuzatilmaydi;
- joriy va kapital xarajatlar.

Joriy xarajatlar bevosita tannarxga aloqador, kapital xarajatlar esa uzoq vaqt davomida qaytariladi, lekin pul mablagʻlarining sezilarli chiqimi aynan ular bilan birgalikda sodir boʻladi.

2. Nafaqat foyda, balki qarz mablagʻlar ham pul mablagʻlarini oshirish manbai boʻlishi mumkin.

3. Uzoq muddatli xarakterdagi aktivlarni sotib olish foydada aks ettirilmaydi, ularni sotish esa moliyaviy natijani oʻzgartiradi.

4. Moliyaviy natija miqdoriga pul mablagʻlari harakati bilan bogʻliq xarajatlar (amortizatsiya) ham taʼsir koʻrsatadi.

5. Oʻz aylanma kapital tarkibidagi oʻzgarishlar. Joriy aktivlar qoldiqlarining ortishi pul mablagʻlarining qoʻshimcha chiqimiga, qisqarishi esa kiringa olib keladi. TMQ zaxiralarini toʻplovchi tashkilotlar faoliyatida pul mablagʻlari chiqib ketishi muqarrar ravishda kuzatiladi. Bu zaxiralar ishlab chiqarishga qoʻyilmagunga qadar (sotilmaguncha) davom etadi, bunda moliyaviy natija miqdori oʻzgarmaydi.

6. Kreditorlik qarzi mavjudligi tashkilotga hali puli toʻlanmagan zaxiralardan foydalanishga imkon beradi.

Tashkilot rahbariyatini pul mablagʻlari mavjudligi va harakati haqida axborotlar bilan taʼminlash buxgalterning vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, undan foyda miqdori hamda pul mablagʻlari oʻzgarishlaridagi tafovut sabablarini izohlash ham talab qilinadi. Pul

mablagʻlari harakatini bilvosita usulda tahlil qilish shu maqsadda olib boriladi.

Bilvosita usulda moliyaviy natija davr uchun pul mablagʻlari oʻzgarishlari miqdorida qator tuzatishlar kiritish yordamida hosil qilinadi. Birinchi bosqichda moliyaviy natija va oʻz aylanma kapital oʻrtasidagi mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun eskirishni hisoblash operatsiyalari va uzoq muddatli aktivlar obyektlarini hisobdan chiqarish bilan bogʻliq operatsiyalarning moliyaviy natijaga taʼsiri bartaraf etiladi.

Amortizatsiya ajratmalari uchun eskirishni hisoblash mahsulot tannarxiga kiritiladi. Buning natijasida foyda kamayishi pul mablagʻlari qisqarishiga olib kelmaganligi uchun pul mablagʻlari real miqdorini aniqlash uchun hisoblangan eskirish miqdori taqsimlanmagan foydaga qoʻshilishi lozim.

Asosiy vositalar va boshqa aylanmadan tashqari aktivlarni hisobdan chiqarish ularning qoldiq qiymati miqdorida zararni yuzaga keltiradi. Bu hisobda qayd qilinadi, keyin esa moliyaviy natija kamayishi evaziga hisobdan chiqariladi. Ushbu operatsiya pul mablagʻlari miqdoriga taʼsir koʻrsatmaydi, chunki mablagʻlar chiqimi sezilarli darajada avval – mazkur aktivlarni xarid qilish vaqtida sodir boʻlgan. Oʻz navbatida, amortizatsiya qilinmagan qiymat hajmidagi zarar miqdori foyda miqdoriga qoʻshilishi lozim.

Tuzatishning ikkinchi bosqichida oʻz aylanma kapitali va pul mablagʻlari oʻzgarishlaridagi mutanosiblik aniqlanadi.

Bunday tuzatish operatsiyalari jami joriy, investitsion va moliyaviy faoliyat boʻyicha olib boriladi. Ushbu jarayon ancha mehnat talab qiladi, lekin tuzatish jadvallari maʼlumotlarida tashkilot rahbarlari va investorlar uchun qimmatli boshqaruv axborotlari mavjud boʻladi. Uning yordamida tashkilot rahbariyati joriy toʻlov qobiliyatini nazorat qilishi, qoʻshimcha investitsiyalar imkoniyatini baholashi mumkin.

Bilvosita usulda pul mablagʻlari oqimini hisoblash tartibi 11.5-jadvalda keltirilgan.

. Bilvosita usulda pul mablagʻlari oqimini tahlil qilish natijalariga koʻra quyidagi savollarga javob olish mumkin:

1. Pul mablagʻlari qanday hajmda va qaysi manbalardan olingan hamda ularni sarflashning asosiy yoʻnalishlari qanday.

2. Joriy faoliyat natijasida korxonada tushumlarning toʻlovlardan ortishini taʼminlashga qobilmi (naqd pul zaxirasi).

3. Debitorlardan tushumlar hisobiga korxonaga qisqa muddatli majburiyatlarini qaytara oladimi.

4. Korxonaga tomonidan olingan sof foyda uning pul mablag'lariga joriy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlimi.

5. Investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun o'z mablag'lari (sof foyda va amortizatsion ajratmalar) yetarlimi.

6. Olingan sof foyda va pul mablag'lari hajmi miqdorlari o'rtasi-dagi farq nima bilan izohlanadi.

11.5-jadval

**Bilvosita usulda pul mablag'lari oqimini
hisoblash tartibi**

Ko'rsatkichlar	(+) belgisi pul mablag'lari ortishi; (-) belgisi ularning kamayishi	Axborot manbalari
1	2	3
1. Operatsion faoliyatdan pul mablag'lari		
Sof foyda	+	2-shakl
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan eskirish	+	1-shakl, Bosh daftar
Zaxiralar qoldig'i ortishi	-	1-shakl,
Xarid qilingan qimmatliklar bo'yicha QQS ortishi	-	--/--/--/--/--
Debitorlardan tushumlar kamayishi	-	--/--/--/--/--
«Boshqa joriy aktivlar» moddasi bo'yicha qoldiqlar o'sishi	-	--/--/--/--/--
Kreditorlik qarzi ortishi	+	1 -shakl
Daromadlarni to'lash bo'yicha ishtirokchilarga qarzdorlik ortishi	+	--/--/--/--/--
Kelgusi davr daromadlari ortishi	+	--/--/--/--/--
Pirovard xarajatlar zaxirasi o'sishi	+	--/--/--/--/--
Boshqa qisqa muddatli majburiyatlar o'sishi	+	--/--/--/--/--
Operatsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimlari		Hisob-kitob
2. Investitsion faoliyat		
Nomoddiy aktivlar o'sishi	-	1 -shakl
Asosiy vositalar xarid qilish	-	3 -shakl
Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi o'sishi	-	--/--/--/--/--
Moddiy qimmatliklarga daromadli qo'yilmalar o'sishi	-	--/--/--/--/--

Boshqa aylanmadan tashqari aktivlar o'sishi	-	--/--/--/--/--
Investitsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimlari		Hisob-kitob
3. Moliyaviy faoliyat		
Moliyaviy qo'yilmalar o'sishi	-	1 -shakl
Uzoq muddatli majburiyatlar (kreditlar va qarzlar) o'sishi	+	1 -shakl
Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar ortishi	+	--/--/--/--/--
Banklarga qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzdorlik ortishi	+	--/--/--/--/--
Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami pul oqimlari		Hisob-kitob
4. Faoliyatning barcha turlaridan pul mablag'laridagi jami o'zgarishlar (p 1.12+p 2.6+p 3.5)		--/--/--/--/--
5. Hisobot davri boshi uchun pul mablag'lari qoldig'i		1 -shakl
6. Hisobot davri oxiri uchun pul mablag'lari qoldig'i (p 4 +p 5)		Hisob-kitob

11.6. Valyuta mablag'laridan foydalanish tahlili

Mamlakat hududidagi va chet eldagi banklarning chet el valyuta hisoblarida pul mablag'lari mavjudligi va harakati haqida axborotlarni umumlashtirish quyidagi hisoblarda amalga oshiriladi:

5210 «Mamlakat ichidagi valyuta hisoblari»;

5220 «Chet eldagi valyuta hisoblari».

Valyuta hisoblari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi. Valyuta hisoblari bo'yicha operatsiyalar bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan pul-hisob-kitob hujjatlari asosida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Valyuta mablag'larini tahli qilishda manba sifatida "Chet el valyutasidagi pul mablag'lari harakati haqida ma'lumotnoma" xizmat qilib, unda quyidagi ko'rsatkichlar mavjud bo'ladi:

- | | |
|---|-----------|
| 1. Yil boshi uchun qoldiq | - 52700 |
| 2. Valyuta mablag'lari tushumi – jami jumladan: | - 2041500 |
| 2.1. Sotishdan tushumlar | - 500800 |

2.2. Konvertatsiyalangan	- 1200450
2.3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha	-
2.4. Boshqa manbalari	- 340250
3. Sarflandi -jami	- 1974710
3.1. Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar	- 975300
3.2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar	- 354260
3.3 Boshqa maqsadlarga	- 645150
4. Yil oxiri uchun qoldiq	- 119490.

Pul mablag'lari manbalari tarkibida konvertatsiya eng katta solishtirma og'irlikka ega – 58%, xarajatlar qismida esa yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar – 49%. Pul mablag'larining sof kirimi – 66790 AQSh dollari (2041500 – 1974710). Valyuta operatsiyalari samaradorligi tahlili “valyutaviy o'zini moliyalashtirish” va “valyutaviy o'zini qoplash” tushunchalari bilan bog'langan. Valyutaviy o'zini moliyalashtirish mohiyati shunda ifodalanadiki, korxonada valyutaga tovar (ish, xizmat) larni sotishdan valyutadagi foyda va boshqa operatsiyalardan valyuta daromadlari hisobiga, shuningdek, valyutaga sotib olingan asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalari hisobiga joriy va investitsion sarf-xarajatlarini qoplaydi. Valyutaviy o'zini moliyalashtirish valyuta mablag'larining o'z manbalari miqdorining ularni sarflashdan yuqori bo'lishi tamoyilidan kelib chiqadi. Shuning uchun valyutaviy o'zini moliyalashtirish tamoyili valyutaviy o'zini qoplash tushunchasi bilan to'ldiriladi. Valyutaviy o'zini qoplash shuni anglatadiki, korxonada valyuta mablag'lari hisobiga valyutada ifodalanuvchi barcha ishlab chiqarish xarajatlarini qoplaydi. Amaliyotda ushbu tamoyilga rioya qilish korxonada bir vaqtning o'zida barcha valyuta mablag'larini sarflamay, balki ularni pirovard to'lovlar uchun to'plashini anglatadi.

Valyuta mablag'lari harakati balansi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Q_{db} + VT - VS - Q_{do}.$$

Bu yerda,

Q_{db} – davr boshi uchun valyuta mablag'lari qoldig'i;

VT – hisob-kitob davrida valyuta mablag'lari tushumi;

VS – hisob-kitob davrida valyuta mablag'lari sarfi;

Q_{do} – hisob-kitob davri oxirida valyuta mablag'lari qoldig'i.

Valyutaviy o'zini moliyalashtirishni baholash quyidagi formula bo'yicha aniqlanuvchi maxsus moliyaviy koeffitsiyent yordamida amalga oshiriladi:

$$K_{vo'm} = \frac{F + A}{K + V}.$$

Bu yerda,

$K_{vo'm}$ - valyutaviy o'zini moliyalashtirish koeffitsiyenti;

F – valyutadagi ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo'naltirilgan foyda;

A – valyutaga xarid qilingan asosiy vositalar qiymatiga amortizatsiya ajratmalari;

K – valyuta krediti;

V – banklardan yoki valyuta birjasidan sotib olingan valyuta.

Ushbu koeffitsiyentning miqdori qancha yuqori bo'lsa, valyutaviy o'zini moliyalashtirish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Valyutaviy o'zini qoplash koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{vo'q} = Q_{db} + \frac{T}{VS}.$$

Bu yerda,

$K_{vo'q}$ – valyutaviy o'zini qoplash koeffitsiyenti;

Q_{db} – hisob-kitob davrining boshi uchun valyuta mablag'lari qoldig'i;

T - hisob-kitob davrida valyuta mablag'lari tushumi;

VS – hisob-kitob davrida valyuta mablag'lari sarfi (kvartal, yil).

Valyutaviy o'zini qoplash koeffitsiyenti korxonada mavjud valyuta miqdori valyutani sarflash hajmidan necha marta ziyodligini ko'rsatadi. $K_{vo'q} > 1$ valyutaviy o'zini qoplash shartiga rioya qilinayotganidan darak beradi. $K_{vo'q} < 1$ korxonadan tomonidan ushbu shartga amal qilinmayotganligini aks ettiradi.

11.7. Pul mablag'lari taqchilligi (ortiqchaligi)ni tartibga solish

Pul mablag'lari taqchilligi ko'plab korxonalarining to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, to'lovsizlik inqirozini vujudga keltiradi. Pul mablag'lari taqchilligining asosiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

- xodimlar mehnatiga haq to'lashda kechikishlar;

- yetkazib beruvchilar va davlat byudjet tizimi oldida kreditorlik qarzi o‘sishi;
- ssuda qarzdorligining umumiy hajmida bank kreditlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik ulushining ortishi;
- aktivlar likvidligi pasayishi;
- material va energetik resurslar bilan ta‘minlashdagi uzilishlar tufayli ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi ortishi.

Ixtiyoriy korxonaning byudjet taqchilligini tugatish haqidagi masalani hal qilishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan birinchi jihat – bu debitorlik va kreditorlik qarzini boshqarishni yaxshilashdir. Naqd pul inkassatsiyasi – sotilgan mahsulotlar uchun pul mablag‘lari olish jarayoni hisoblanadi.

Inkassatsiya koeffitsiyenti (K_{ink}) muayyan davr uchun sotishdan qachon va qancha miqdorda pul mablag‘lari tushumi kutilayotganligini aniqlashga imkon beradi.


$$K_{ink} = \frac{n \text{ oraliqda } Dq \text{ o‘zgarishi}}{t \text{ oydagi sotishlar}}$$

Bu yerda, Dq – debitorlik qarzi;
 n – mahsulot jo‘natishning birinchi oyi;
 t – 1, 2, 3 va keyingi oylar.


Kreditorlik qarzini boshqarish uning aylanuvchanligini oshirishga yo‘naltirilgan (qaytarish muddatini qisqartirish). Aksariyat korxonalar hozirda kuchli naqd pul (likvid mablag‘lar) etishmovchiligini boshidan kechirmoqda. Ushbu etishmovchilikning ilk alomatlarini quyidagilar hisoblanadi:

1. Sof aylanma kapitalning manfiy qiymati (joriy aktivlar < qisqa muddatli majburiyatlar).
2. Manfiy pul oqimi (davr uchun pul mablag‘lari kirimi chiqimiga nisbatan kam).

Korxonaning pul oqimlari (pul mablag‘lari kirimi yoki chiqimi) ga bevosita ta‘sir qiluvchi mulkni sotish yoki uni ijaraga berishdan iborat boshqaruv qarorlari variantlarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu qarorlar mazmuni 11.5-chizmada keltirilgan.



11.4-chizma. Pul mablagʻlari yetishmovchiligining eng muhim sabablari



11.5-chizma. Mulkni sotish yoki uni ijaraga berish holatida boshqaruv qarorlari mazmuni

Shuni ham nazarda tutish kerakki, mulkni sotish pul mablagʻlari-ning bir martalik oqimini, ijara esa muayyan muddat davomida muntazam oqimini taʼminlaydi.

Avvalo, naqd pulning potensial oqimini qanday aktivlar keltirishga qodir ekanligini aniqlash zarur. Buning uchun korxonada tasarrufidagi mulkni inventarizatsiyadan oʻtkazish maqsadga muvofiq. Bu mulkning real bozor qiymatini aniqlash uchun, vaqtinchalik yoki butunlay uzoqlashtirish haqida toʻgʻri qaror qabul qilish uchun zarur sanaladi. Mulkni baholash daromad, xarajat yoki bozor (qiyosiy) yondashuvi asosida amalga oshiriladi. Inventarizatsiya natijalari ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini aniqlashga imkon bergani holda foydalanilmayotgan asosiy vositalar (jumladan ortiqcha uskunalar zaxirasi) ni sotish imkoniyatini ham belgilab beradi. Aktivlarni uzoqlashtirish usuli haqida qaror qabul qilishda xarajatlarning quyidagi turlarini va ularga bogʻliq pul oqimlarini eʼtiborga olish maqsadga muvofiq:

1) ixtiyoriy holatda ham bartaraf etiladigan xarajatlar (masalan, mashinalar, uskunalar va transport vositalarining xizmat koʻrsatish qiymati);

2) ixtiyoriy holatda ham qoladigan xarajatlar (xodimlar mehnatiga haq toʻlash);

3) mulkni tasarruf etish boʻyicha aniq harakatlar bilan bogʻliq xarajatlar (masalan, ijaraga berilayotgan aktivlar sugʻurtasi boʻyicha).

Nazorat savollari


1. Korxonada naqd pul harakatini tavsiflang.
2. Asosiy belgilari boʻyicha tashkilotlarning pul oqimlarini tasniflang.
3. Pul mablagʻlari kiritimini ayting.
4. Pul mablagʻlari chiqimini ayting.
5. Pul mablagʻlari kiritimi tahlili qanday amalga oshiriladi?
6. Pul mablagʻlari chiqimini tahlil qilish metodikasini aytib bering.
7. Bilvosita usulda pul mablagʻlari harakati tahlili qanday olib boriladi?
8. Pul mablagʻlari taqchilligining asosiy oqibatlari nimalarda namoyon boʻladi?

XII bob. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI

12.1. Xususiy kapital tahlilining mazmuni va vazifalari


Jami boʻnaklangan (kiritilgan) kapital shakllanish manbalariga bogʻliq ravishda ikki tarkibiy qism bilan ifodalanishi mumkin: oʻz va qarz mablagʻlari.

Xususiy kapital (mablagʻlar) xoʻjalik subyekting aktivlari va majburiyatlari oʻrtasidagi farqni oʻzida aks ettiradi. Balans passivi tarkibini tahlil qilish ushbu manbalarning turlari, tarkibi va oʻziga xosliklarini belgilashga imkon beradi.



12.1-chizma. Balans passivi tarkibi

Mulkdorlarning yoki ustav kapitali koʻrinishidagi ishtirokchilarning mablagʻlari, taqsimlanmagan foyda va oʻz mablagʻlari fondlari; qarz mablagʻlar, bank va boshqa investorlardan olingan ssuda va qarzlari; vaqtinchalik jalb qilingan mablagʻlar – kreditorlar resurslari oʻz mablagʻlarini shakllantirish manbalari hisoblanadi.



12.2-chizma. Tashkilotning xususiy kapitali tarkibi

Foydalanish muddatiga ko'ra kapital *uzoq muddatli (permanent)* va *qisqa muddatli* bo'ladi.

Mablag'larning manbalari tarkibi, uning ijobiy yoki salbiy dinamikasi sabablari har bir tashkilotda turlicha bo'lishi mumkin. Ularni tahlil qilish tashkilotning moliyaviy holatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususiy kapital tahlilini o'tkazishda hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

- o'z mablag'larini shakllantirish manbalarini aniqlash va tashkilotning moliyaviy holatiga dinamikasi ta'sirini baholash;
- xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligiga baho berish;
- xususiy kapital tarkibi va tarkibini o'rganish;
- xususiy kapitalning o'zgarishi sabablarini o'rganish;

- xususiy kapitalni to'ldirish zaxiralarini belgilash.

O'z mablag'larining shakllanish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- ustav kapitali – ishtirokchilarning aksiyalari va ulushli badallarini sotishdan olingan mablag'lar;
- korxonadan to'plangan zaxiralar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning boshqa badallari (maqsadli moliyalashtirish xayriya, xayriya badallari va boshqalar).

12.2. Xususiy kapitalning o'zgarish sabablari tahlili

Ustav kapitali tashkilotning ustav faoliyatini ta'minlash uchun mulkdorlar tomonidan taqdim etilgan mablag'lar miqdorini o'zida aks ettiradi:

- davlat tashkiloti uchun – to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan tashkilotga davlat tomonidan biriktirilgan mulkning qiymat bahosi;
- mas'uliyati cheklangan jamiyat uchun – mulkdorlarning ulushlari miqdori;
- aksiyadorlik jamiyati uchun – barcha turdagi aksiyalarning umumiy nominal qiymati;
- ishlab chiqarish kooperativi uchun – faoliyat yuritish uchun ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan mulkning qiymat bahosi;
- ijara tashkilot uchun – uning mulkdorlari ulushlari miqdori;
- mustaqil balans ajratilgan boshqa shakldagi tashkilotlar uchun – to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan tashkilotga uning mulkdorlari tomonidan biriktirilgan mulkning qiymat bahosi.

Tashkilotni tashkil qilishda uning ustav kapitaliga ulushlar sifatida pul mablag'lari, moddiy aktivlar namoyon bo'ladi. Ustav kapitali mablag'larni birlamchi investitsiyalashda shakllanadi. Uning miqdori tashkilotni ro'yxatga olishda e'lon qilinadi, ustav kapitali miqdoriga ixtiyoriy tuzatish kiritishga (qo'shimcha aksiyalar emissiyasi, aksiyalarning nominal qiymatini pasaytirish, qo'shimcha ulush kiritish, yangi ishtirokchini qabul qilish, foydaning bir qismini qo'shib olish va boshqalar) esa amaldagi qonunchilik va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, moliya organlaridan majburiy ro'yxatga o'tgan holda yo'l qo'yiladi.

Ustav kapitalini shakllantirish mablagʻlarning qoʻshimcha manbasi –emissiya daromadi yuzaga kelishi bilan birga kuzatilishi mumkin. Aksiyalarni birlamchi emissiya qilish jarayonida ular nominaldan yuqori narxda sotilgan holatda ushbu manba vujudga keladi. Ushbu summa olinganda ular qoʻshimcha kapital hisobiga yoziladi.

Jamiyat faoliyat yuritishi jarayonida ustav kapitali oʻzgarishi mumkin. Foydaning oʻsishi yoki taʼsischilarning qoʻshimcha ulushlari hisobida u ortishi, foyda kamayganda esa – qisqarishi mumkin. Ustav kapitalini oʻzgaritirish faqatgina koʻpchilikning oddiy ovozi bilan umumiy yigʻin qarori asosida amalga oshiriladi va qayta roʻyxatdan oʻtkazishni talab qiladi. Ustav kapitalining ortishi boshlangʻich eʼlon qilingan miqdori toʻliq toʻlangandan soʻnggina amalga oshirilishi mumkin. Bunda agar aksiyadorlik jamiyati moliya yili yakuni boʻyicha zararga ega boʻlsa, u holda navbatdagi emissiya hisobiga mablagʻlarni jalb qila olmaydi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini yangi aksiyalar chiqarish yoʻli bilan oshirishi mumkin. Umumiy yigʻin tomonidan oldingi emissiya natijalari, oldinroq chiqarilgan aksiyalarning haqiqatda sotilishi va sotilmaganlari qaytarilishini taqozo etuvchi ustav kapitaliga oʻzgartirishlar kiritilishi tasdiqlangandan keyingina qoʻshimcha aksiyalar chiqarish mumkin.

Qoʻshimcha aksiyalar chiqarilganda aksiyadorlar ularni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega boʻladi.

Ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini oʻzgartirish (denominatsiya) yoʻli bilan ham oshirilishi mumkin. Bu holatda aksiyadorlik jamiyati tomonidan chiqarilgan aksiyalar seriyalari va barcha toifalari, shuningdek, ustav kapitalini oshirish haqida qaror qabul qilingunga qadar chiqarilgan optsionlar va konvertirlanadigan obligatsiyalar boʻyicha majburiyatlar ham teng nisbatda oʻzgartiriladi.

Bundan tashqari, ustav kapitalini oshirish quyidagi hollarda sodir boʻlishi mumkin: konvertirlanadigan obligatsiyalarni aksiyalarga ayirboshlash natijasida; shoʻba jamiyatlarda boʻlgan, shuningdek, zaxira fondagi aksiyalarni qaytarish natijasida; qoʻshimcha aksiyalar chiqarish yoʻli bilan yoki chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yordamida asosiy vositalarni qayta baholash oqibatida.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining kamayishi aksiyalarning nominal qiymati pasayishi yoki ularning bir qismini qaytarish natijasida sodir boʻladi. Bunda faqatgina aksiyadorlik jamiyati

balansida bo‘lgan, jumladan shu maqsadda aksiyadorlardan sotib olingan aksiyalar qaytarilishi mumkin.

Ustav kapitali xususiy aksiyalarni pul to‘lab qaytarib olish, shuningdek, aksiyadorlarni chetlatish va ularga badallarni qaytarish yordamida, obuna miqdorini aksiyalarning haqiqatda to‘langan qiymatigacha qisqartirish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin. Aksiyalar sho‘ba jamiyatlarga o‘tkazilganda, shuningdek, aksiyalarning bir qismi zaxira fondga yo‘naltirilganda ham ustav kapitali kamayadi.

Foyda – **zaxira kapitali** (fondi) ni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib, ko‘zda tutilmagan yo‘qotish va ehtimoliy zararlarni qoplash uchun mo‘ljallangan, ya’ni bu fond o‘z tabiatiga ko‘ra sug‘urta hisoblanadi.

Zaxira fondini shakllantirish tartibi shu turdagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar, shuningdek, uning ta’sis hujjatlari asosida belgilanadi.

Tashkilotning mablag‘lar manbai sifatida **qo‘shimcha kapital**, odatda, asosiy vositalar va boshqa moddiy qimmatliklarni qayta baholash natijasida hosil bo‘ladi. Undan iste‘mol maqsadlarida foydalanish me‘yoriy hujjatlarga ko‘ra taqiqlanadi.

Investitsiyalangan kapital oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati, shuningdek, qo‘shimcha to‘langan kapital (aksiyalarning nominaldan yuqori qiymati) ni o‘z ichiga oladi. Bunga odatda beg‘araz olingan qimmatliklar ham kiritiladi.

To‘plangan kapital sof foyda taqsimlanishi natijasida yuzaga keluvchilar sifatida namoyon bo‘ladi (zaxira kapital, jamg‘arma fondi, taqsimlanmagan foyda, boshqa o‘xshash moddalar).

Moliyaviy tahlil uchun xususiy kapital miqdorini asoslash jiddiy masala hisoblanadi, chunki uni aniqlash borasida turli yondashuvlar kapital rentabelligi va tarkibini turlicha baholashga, o‘z navbatida, korxonaning moliyaviy holati turlicha talqin qilinishiga olib keladi.

Bo‘naklangan kapitalning ikkinchi qismi – qarz mablag‘larining farqli xususiyati shundaki, korxonalar ularni pul mablag‘larini kelgusida qaytarish yoki berilgan mulk qiymatini to‘lash va odatda, berilgan mulkdan vaqtincha foydalanganlik uchun foizlar to‘lash sharti bilan boshqa tashkilotlardan yoki tashqi jismoniy shaxslardan oladi.

12.3. Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Xususiy kapital jalb qilishning soddaligi, yanada barqaror moliyaviy holatni va bankrotlik riski pasayishini ta'minlashi bilan tavsiflanadi. Unga zarurat korxonaning o'zini-o'zi moliyalashtirish talablari bilan shartlangan. U mustaqillik va qaram bo'lmaslik asosi sanaladi. Xususiy kapitalga xos xususiyat shundan iboratki, u uzoq muddatga investitsiya qilinadi va eng katta riskka ega bo'ladi. Kapitalning umumiy miqdorida uning ulushi qancha ko'p bo'lsa va qarz mablag'lari ulushi qancha kam bo'lsa, kreditorlarni zararlardan himoyalash ham shuncha mustahkam yo'lga qo'yilgan, o'z navbatida, yo'qotish riski juda kam bo'ladi.

Biroq xususiy kapital miqdoran chegaralangan. Bundan tashqari, korxonada faoliyatini mablag'larning faqatgina o'z manbalari hisobiga moliyalashtirish uning uchun har doim ham foydali bo'lmaydi. Buni ishlab chiqarish mavsumiy tusga ega bo'lgan hollarda ayniqsa yaqqol kuzatish mumkin. Bunda ayrim davrlarda bankdagi hisobda ulkan mablag'lar to'planib qoladi, boshqa davrlarda esa ular yetishmaydi. Shuni ham nazarda tutish joizki, agar moliyaviy resurslar narxi yuqori bo'lmasa, korxonada esa kiritilgan kapitaldan kredit resurslar uchun to'lanadiganga nisbatan yuqoriroq darajada qaytimni ta'minlay olsa, u holda qarz mablag' jalb qilarkan, o'z bozor pozitsiyasini kuchaytirishi va o'z (aksiyadorlik) kapitali rentabelligini oshirishi mumkin.

Moliyaviy manbalar tarkibi va tarkibi tahlili ularning dinamikasi va ichki tarkibini baholashdan boshlanadi. Bunda uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar hamda qarzlari, kreditorlik qarzi, jumladan buyurtmachi va xaridorlardan olingan bo'naklar, dividendlar bo'yicha to'lovlar, boshqa qisqa muddatli passivlar kabi passivlar ko'rib chiqilgan holda qarz mablag'lar manbalari harakatini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Muddatida qaytarilmagan bank kreditlari va qarzlari ulushi va hajmining o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi. Ularning mutlaq miqdori va ulushi ortishi tashkilotda jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar mavjudligidan darak beradi. Keyin esa balans aktivi va passivining tuzilmaviy dinamikasi vektorlarini taqqoslash, o'z va qarz manbalar nisbatiga, o'z navbatida, tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash amalga oshiriladi.

Korxonada faoliyatining tashqi va ichki shart-sharoitlari bilan shartlangan eng muhim omillar qatoriga, odatda, quyidagilar kiritiladi:

- kredit uchun foiz stavkalari va dividendlar stavkalari miqdorlari farqi. Agar kredit uchun foiz stavkalari dividend stavkalaridan kam bo'lsa, u holda qarz mablag'lar ulushini oshirish talab qilinadi. O'z mablag'lari ulushini dividend stavkasi kredit uchun foiz stavkasidan ortiq bo'lganda oshirish maqsadga muvofiq;

- Korxonada faoliyati torayishi yoki kengayishi, shunga bog'liq ravishda zaruriy tovar-moddiy zaxiralarni hosil qilish uchun qarz mablag'lar jalb qilishga ehtiyoj ortadi yoki kamayadi;

- Ortiqcha yoki kam foydalaniladigan eski uskunalar, materiallar, tayyor mahsulot, sotish uchun tovarlar to'planishi, mablag'larni shubhali debitorlik qarzlari vujudga kelishiga jalb qilish, bular ham qo'shimcha qarz mablag'lari jalb qilinishiga olib keladi;

- faktoring operatsiyalardan foydalanish (debitorlarning qarzlarni bankka sotish).

12.1-jadval

Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Mablag'lar mavjudligi, ming so'm			Mablag'lar tarkibi, %		
	boshi uchun	oxiri uchun	o'zgarish	boshi uchun	oxiri uchun	o'zgarish
Ustav kapitali	1935,1	2218,5	+283,4	52,2	47,1	-5,1
Qo'shimcha kapital	79,9	63,5	-16,4	2,2	1,3	-0,9
Zaxira kapital	1018,4	1336,8	+318,4	27,5	28,5	+1,0
Taqsimlanmagan foyda	219,6	145,4	-74,2	6,0	3,0	-3,0
Maqsadli tushumlar	309,9	907,4	+597,5	8,3	19,3	+11,0
Pirovard xarajatlar va to'lovlar zaxiralari	137,6	33,7	-103,9	3,8	0,8	-3,0
Jami	3700,5	4705,3	+1004,8	100	100	-

Tahlil qilinayotgan korxonaning ma'lumotlari o'z kapitali miqdori va tarkibidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi: kapitalning boshqa manbalari kamaygan holda zaxira kapitali va maqsadli tushumlar ulushi hamda miqdori sezilarli darajada ortgan. Hisobot yili uchun xususiy kapitalning umumiy miqdori 1004,8 ming so'mga yoki 27,1% ga oshgan.

Xususiy kapitalning o'zgarish omillarini «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» nomli 5-hisobot shakli ma'lumotlari, shuningdek, ustav, qo'shilgan va zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar fondi va pirovard xarajat hamda to'lovlar uchun zaxiralar harakatini aks ettiruvchi analitik buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha aniqlash qiyin emas.

12.2-jadval

Fondlar va boshqa mablag'lar harakati tahlili

ming so'm

Ko'rsatkichlar	Yil boshi uchun	Yil davomida kelib tushdi	Hisobot yilida sarflandi	Yil oxiridagi qoldiq
Ustav kapitali	1935,1	283,4	-	2218,5
Qo'shimcha kapital	79,9	-	16,4	63,5
Zaxira kapital	1018,4	318,4	-	1336,8
Taqsimlanmagan foyda: O'tgan yil uchun	219,6	-	219,6	
Hisobot yili uchun	-	145,4	-	145,4
Maqsadli tushumlar	309,9	597,5	-	907,4
Pirovard xarajatlar va to'lovlar zaxiralari	137,6	0,1	104	33,7
Jami	3700,5	1344,8	340	4705,3

Korxonaning xususiy kapitali yil boshidagi 3700,5 ming so'mdan yil oxirida 4705,3 ming so'mgacha oshdi, ya'ni 1004,8 ming so'mga yoki 27,1% o'sish kuzatildi. Jami tushum qilingan mablag'lar 1344,8 ming so'mni, sarf 340 ming so'mni tashkil qildi.

12.4. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi tahlili

Faoliyatning ixtiyoriy sohasidagi biznes pul mablagʻlarining muayyan miqdori mavjud boʻlishini taqozo etib, ularning hisobiga resurslarning zaruriy miqdori xarid qilinadi, ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish tashkil qilinadi. Bunda kapital aylanuvchanligini tezlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital aylanuvchanligini tezlashtirish hisobiga foyda miqdori oshiriladi. Agar ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish zarar keltirsa, u holda mablagʻlar aylanuvchanligining tezlashishi moliyaviy natijalar yomonlashishi va kapitalni “eb qoʻyish”ga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, doiraviy aylanmaning barcha bosqichlarida nafaqat kapital harakatini tezlashtirishga, balki undan maksimal qaytinga ham intilish lozim. Bu 1 soʻm kapitalga foyda miqdori ortishi bilan ifodalanadi. Kapital daromadlilikini oshirishga barcha resurslardan oqilona va tejamli foydalanish, ularni ortiqcha sarflashga, doiraviy aylanmaning barcha bosqichlarida yoʻqotishlarga yoʻl qoʻymaslik orqali erishiladi. Natijada kapital umumiy summada, yaʼni foyda bilan oʻzining boshlangʻich holatiga qaytadi.

Shunday qilib, kapitaldan foydalanish samaradorligi uning **daromadlilikini (rentabelligi)** – foyda miqdorining tadqiq etilayotgan davr uchun kapitalning oʻrtacha miqdoriga nisbati bilan tavsiflanadi. Tadqiq etilayotgan koʻrsatkichni hisoblash modelini keltiramiz

$$R_{xk} = \frac{F}{KM} * 100.$$

Bu yerda,

R_{xk} – xususiy kapital rentabelligi; F – davr uchun foyda miqdori; KM – davr uchun oʻz kapitalning oʻrtacha miqdori.

Omili tahlil uchun formulaga sotishdan tushum koʻrsatkichini kiritamiz (T):

$$R_{xk} = \frac{F}{KM} * 100 = \frac{\frac{F}{T} * 100}{\frac{KM}{T}} = \left[\frac{T}{KM} * \frac{F}{T} \right] * 100.$$

Bu yerda,

$\frac{T}{KM}$ – xususiy kapital qaytimi koeffitsiyenti; $\frac{F}{T}$ – sotish rentabelligi koeffitsiyenti.

O‘zgartirishlar natijasida ikki omilli multiplikativ model hosil bo‘ldi. O‘z navbatida, tahlil uchun zanjirli o‘rin almashtirish usulini qo‘llash mumkin.

Xususiy kapital rentabelligini hisoblash algoritmi

$$\text{Bazaviy variant: } R_{xk0} = \left(\frac{T_o}{KM_o} * \frac{F_o}{T_o} \right) * 100.$$

$$\text{Hisobot varianti: } R_{xk1} = \left(\frac{T_1}{KM_1} * \frac{F_1}{T_1} \right) * 100.$$

$$\Delta R_{xk} = R_{ck1} - R_{ck0}.$$

Qilingan o‘zgarishga ikkala asosiy omil ta’sirini hisoblaymiz:

1) xususiy kapital qaytimi koeffitsiyentining o‘zgarishi:

$$\Delta R_{xk\left(\frac{B}{XK}\right)} = \left[\left(\frac{B_1}{XK_1} - \frac{B_0}{XK_0} \right) * \frac{F_0}{B_0} \right] * 100.$$

2) sotish rentabelligi koeffitsiyentining o‘zgarishi:

$$\Delta R_{xk\left(\frac{F}{B}\right)} = \left[\left(\frac{F_1}{B_1} - \frac{F_0}{B_0} \right) * \frac{B_1}{XK_1} \right] * 100.$$

Metodika tahlilni chuqurlashtirish imkoniyatini taqozo etadi. Birinchi omil ta’sirini xususiy kapital tarkibiy qismlari bo‘yicha (ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar), ikkinchisini esa buxgalteriya foydasining tarkibi bo‘yicha detallashtirish mumkin.

Nazorat savollari

1. Xususiy kapital nimalardan iborat?
2. Xususiy kapital tahlilining asosiy vazifalari va uning axborot ta’minotining asosiy manbalarini sanab bering.

3. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini baholashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi? Ularni hisoblash va tahlil qilish metodikasi qanday?

4. Xususiy kapital rentabelligi qanday hisoblanadi va qanday omillarga bog'liq bo'ladi?

5. Quyidagi ma'lumotlar asosida xususiy kapital harakatini o'rganing.

«Xususiy kapital to'g'risida hisobot» 5-shakl

Ko'rsatkich nomi	Satr raqami	Ustav kapitali	Qo'shimcha kapital	Zaxira kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zararlar)	Qayta xarid qilingan o'z. aksiyalari	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
	2	3	4	5	6	7	8	9
Yil boshi uchun qoldiq	010	246450	148948	10164541	941808	-	69558	11571305
Qimmatli qog'ozlar emissiyasi	020			x	x	x	x	x
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	030	x	x	919346	x	x	x	919346
Ustav kapitalini shakllantirishda valyuta kursidagi farq	040	x	-	x	x	x	x	
Zaxira kapitalga ajratmalar	050	x	x	x		x	x	
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x	2948835			2948835
Tekin olingan mulk	070	x	x		x	x	x	
Maqsadli foydalanish bo'yicha olingan mablag'lar	080	x	x	x	x	x		

To'langan dividendlar	090	x	x	x	x	305189	-	-	-	305189
Xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari	100									
Yil oxiri uchun qoldiq	110	246450	148948	11050479	3673814	69558	15189249			
Xususiy kapital ortishi (+) yoki kamayishi (-)	120			-33408	+88360		+54952			
Chiqarilgan aksiyalar miqdori, dona	130	x	x	x	x	x	246449			
Jumladan: imtiyozli oddiy	131	x	x	x	x	x	3865			
Aksiyalarning nominal qiymati	132	x	x	x	x	x	242584			
Muomaladagi aksiyalar miqdori, dona	140	-	-	-	-	-	246450			
Jumladan: imtiyozli oddiy	150	x	x	x	x	x	246499			
Jumladan: imtiyozli oddiy	151	x	x	x	x	x	3865			
Jumladan: imtiyozli oddiy	152	x	x	x	x	x	242584			

XIII bob. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA MAHSULOT YETISHTIRISH VA ISHLAB CHIQARISH RESURSLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI

13.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning xususiyatlari va tahlilning vazifalari

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarib borayotganiga qaramasdan, u iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘laridan biri hisoblanadi.

“Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o‘tgan yili mo‘l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi...

...Mamlakatimizda bug‘doydan gektaridan o‘rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug‘idir.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur‘atlarda rivojlandi. O‘tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.”⁷

Shuning uchun ham bu sohani o‘rganish, iqtisodiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida fermer xo‘jaliklari o‘zining tabiiy iqlim sharoiti, yer fondi zaxirasi va uning tarkibiga qarab bozordagi talab va taklifni e‘tiborga olgan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil etadilar. Bozor

⁷ O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. www.press-service.uz.

iqtisodiyotining muhim xususiyatlaridan bo'lib qanday mahsulotlar ishlab chiqarish, qancha mahsulotlar ishlab chiqarish va kimga sotish masalalarini xo'jaliklar o'zlarini tanlashlari lozim.

Fermer xo'jaliklari o'zlarining mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish faoliyatlarini bozor munosabatlarini chuqur o'rgangan holda tashkil etishlari talab etiladi. Ayniqsa, qanday mahsulotlar yetishtirishga xo'jalikdagi bor shart-sharoitlar imkoniyat beradi va bu mahsulotlarni sotishdan foyda ko'riladi. Foyda ko'rishiga ishonch yetarli bo'lgandagina bu ishlarga qo'l urishi lozim.

Shuningdek xo'jalik ishlab chiqarish tanlagan mahsulotlarga bo'lgan bozordagi xaridorlar, ularning qobiliyati, raqobatchilar, kuch-qudrati ham e'tiborga olinadi. Dastlabki tanlangan yo'l va strategiya natijani foyda bilan yakunlanishiga katta ta'sir qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni sotish ko'rsatkichlarini tahlil etishning mazmunini umumiy yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi, ularning tarkibidagi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining tutgan salmog'i, erishilayotgan daraja, mahsulot hajmini ko'paytirish omillari, mahsulotlarni sotish yo'nalishlari va shu kabi mavzularni o'rganish tashkil etadi.

Tahlilning asosiy vazifalari bo'lib:

1. Tahlil qilinayotgan xo'jalikni mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatini atroflicha chuqur o'rganib erishilgan ko'rsatkichga baho berish.

2. Mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish bo'yicha biznes rejada mo'ljallangan natijalarning to'g'rililigi va asoslanganligini tekshirish.

3. Asosiy faoliyatga ta'sir etuvchi barcha omillarni aniqlash va salbiy omillarni tugatish yo'llarini ko'rish.

4. Eng ilg'or tajriba va yutuqlarni xo'jalik amaliy faoliyatiga tatbiq etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar belgilashdan iborat.

Fermer xo'jaliklarining ishlab chiqargan mahsuloti yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti degan ko'rsatkichda umumlashadi. Bu ko'rsatkich qiymat o'lchamida quyidagi baholarda hisoblanadi:

- solishtirma bahodagi yalpi mahsulot;
- tannarx bahodagi yalpi mahsulot;
- sotish bahodagi yalpi mahsulot.

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tahlil etishda quyidagilar o'rganiladi:

1. Solishtirma bahodagi jami mahsulot hajmining o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi.
2. O'simlik tarmog'idagi yetishtirilgan mahsulot hajmi.
3. Chorvachilik tarmog'ida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi.
5. Ijara va oilaviy pudrat bo'yicha yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi.

13.1-jadval

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili				Bajarilishi	
		ming so'm	%	Reja		Haqiqatda		o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan
				ming so'm	%	ming so'm	%		
1	O'simlikchilik mahsulotlari	121000	52,38	126000	51,22	125950	50,55	104,09	99,96
2	Chorvachilik mahsulotlari	110000	47,62	120000	48,78	123186	49,45	111,99	102,66
	Jami	231000	100	246000	100	249136	100	107,85	101,27

13.1-jadval tahlili natijalaridan ko'rinadiki, xo'jalikda barcha solishtirma bahodagi yalpi ishlab chiqarish rejaga nisbatan 1,27 % ga ortig'i bilan bajarilgan. O'tgan yilga nisbatan yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 7,85 foizga ortgan.

Yalpi mahsulot hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi ortib, aksincha o'simlikchilik mahsulotlari ulushi pasayishi kuzatilgan. O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish rejasi 0,04 % ga bajarilmagan. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda asosan, hosildorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlarning o'sishi hisobiga iqtisodiy o'sishni ta'minlash samaradorlikning o'sishiga xizmat qiladi. Ekin maydoni, chorva bosh soni, shuningdek, ortiqcha xarajatlarning ko'payishi hisobiga erishilgan

iqtisodiy o‘shish ekstensiv o‘shish hisoblanadi hamda samaradorlikning o‘sganligini ko‘rsatmaydi.

13.2. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish va uning hajmiga ta‘sir etuvchi omillar tahlili

Fermer xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish faoliyatiga baho berishda natura o‘lchamidagi hisoblangan mahsulotlar hajmini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fermer xo‘jaliklarining yillik moliyaviy hisobotga ilova qilib to‘ldiriladigan o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va tannarxi, hisobot shakllari ma‘lumotlaridan foydalaniladi. Bu shakl ma‘lumotlarida jami olingan hosil yoki mahsulot hamda bir gektar va bir boshga to‘g‘ri kelgan mahsulotlar miqdori ko‘rsatilgan bo‘ladi. Mahsulotlar turi bo‘yicha ishlab chiqarish hajmiga baho berishda masalan: o‘simlikchilik sohasida ko‘rsatkichlar quyidagi tartibda ekin turlari bo‘yicha tahlil etiladi:

- don va dukkakli ekinlarning jami;
- shu jumladan kuzgi va bahorgi donlar;
- sholi;
- makkajo‘xori don uchun;
- paxta shu jumladan : ingichka tolali paxta;
- lavlagi (sanoat uchun);
- kanop;
- kunjut;
- tamaki;
- kartoshka;
- ochiq daladagi sabzavot;
- yopiq daladagi sabzavot;
- poliz;
- mevazorlar;
- uzumzorlar;
- ildiz mevali va xashaki ekinlar;
- ko‘p yillik o‘tlar;
- bir yillik o‘tlar;
- makkajo‘xori silos uchun;
- tabiiy pichanzorlar va yaylovlar;

- boshqa ekinlar.

Chorvachilik tarmog'ida ham olingan mahsulotlar hajmi mollar turlari bo'yicha jumladan:

1. Qora mollar shuningdek, sutchilik, boquvdagi va o'stirishdagi.
2. Cho'chqachilik, shundan asosiy poda va boquvdagi.
3. Qo'ychilik, undan asosiy poda, boquvdagisi va qorako'l terichiligidagi.
4. Parrandachilik shundan tuxum, go'sht va inkubatsiya uchun.
5. Yilqichilik shundan asosiy poda, o'stirishdagi, ishchi otlar.
6. Asalarichilik.
7. Yovvoyi hayvonchilik.
8. Baliqchilik.
9. Quyunchilik.
10. Ipakchilik va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil etishda natura o'lchamida mahsulot hajmini bir necha yillar ma'lumotlariga asoslanib tahlil etiladi.

13.2-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari bo'yicha ishlab chiqarish darajasi tahlili (sentner hisobida)

№	Mahsulot turlari	O'tgan yil	Hisobot yili		O'zgarishi	
			reja	haqiqatda	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan
1	2	3	4	5	6	7
1	Don	1280	1310	1325	45	15
2	Paxta	1540	1560	1578	38	18
3	Kartoshka	1236	1240	1210	-26	-30
4	Sabzavot	1417	1400	1395	-22	-5
5	Sut	130	140	132	2	-8
6	Mol go'shti	250	235	240	-10	5
7	Pilla	14	13,5	12	-2	-1,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida o'tgan yilga nisbatan kartoshka, sabzavot, mol go'shti va pilla mahsulotlari yetishtirish kamaygan. Ayrim mahsulot turlari bo'yicha biznes rejada mo'ljallangan ko'rsatkichlarga nisbatan ham bajarilmaslik holati

kuzatilgan. Jumladan, kartoshka yetishtirish 30 s., sabzavot 5 s., sut 8 s., pilla 1,5 s.ga kamaygan. Bunday holat xo‘jalikni yalpi mahsulot hajmini bajarilmay qolishiga ta’sir ko‘rsatgan. Tahlilchining asosiy vazifasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmining pasayishi sabablarini aniqlashdan iborat.

Qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i o‘simlikchilik hisoblanib, bu tarmoqning erishgan natijasi xo‘jalikning moliyaviy ahvoriga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘simlikchilik tarmog‘idagi mahsulotlar yetishtirish ko‘rsatkichining tahlili quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- jami o‘simlikchilik ekinlaridan yetishtirilgan yalpi hosilni qator yillar ma’lumotlari bo‘yicha o‘rganish;

- ekin ekish tarkibining tahlili;

- hosildorlik darajasi tahlili;

- o‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishga ta’sir etish sabablarini o‘rganish;

- mahsulot sotish hajmini ko‘paytirish imkoniyatlarini aniqlash.

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishga ta’sir etuvchi ekstensiv omil- bu ekin maydonining o‘zgarishi va uning ta’sirida yalpi hosilning ko‘payishi yoki kamayishi sanaladi. Xo‘jalikning ekin ekish holatini tahlil etishda o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim ko‘rsatkichlar bo‘lib:

1. Ekin ekish rejasining bajarilishi foizi.

2. Jami ekin ekilgan maydondan hosil yig‘ib olingan qismi.

3. Ekin maydoni tarkibi va uning ilmiy asoslanganligi.

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishga ta’sir etuvchi muhim intesiv omillardan biri bu har gekardan olingan hosil, ya’ni hosildorlik hisoblanadi. Uning yuqori yoki past bo‘lishi ko‘pgina sabablar ta’siriga bog‘liq. Jumladan:

- agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida o‘tkazganligiga;

- tabiiy omillarning qulay kelishiga;

- ekin ekish uchun urug‘larning navi va sifatiga;

- moddiy va ma’naviy manfaatdorlikning tashkil etilishiga;

- qishloq xo‘jaligi menejmentiga;

- boshqa omillarga.

Hosildorlik ko‘rsatkichlarini tahlil etishda ekin turlari bo‘yicha har gekardan olingan hosil ma’lumotlarini bir necha yillar misolida taqqoslanib o‘rganiladi.

O‘simlikchilik ekinlarning hosildorlik tahlili

(sentner)

№	Ekin turlari	O‘tgan 3 yillik o‘rtacha hosildorlik	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
			reja	haqiqatda	reja-dan	o‘tgan 3 yilning o‘rtachasidan
1	Don	31,4	32	35	3	3,6
2	Paxta	28,7	29	30	1	1,3
3	Kartoshka	120	125	118	-7	-2
4	Sabzavot	210	220	202	-18	-8

O‘simlikchilik ekinlari hosildorligini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kartoshka va sabzavot ekinlarining hisobot yiliga haqiqatdagi hosildorligi o‘tgan o‘rtacha 3 yildagi hosildorlikdan pasaygan. Ayniqsa, sabzavot ekinlari hosildorligi 8 s/ga ga, kartoshka bo‘yicha 2 s/ga ga, rejaga nisbatan esa kartoshka 7 s/ga ga, sabzavot ekinlari 18 s/ga ga hosildorlik past bo‘lgan. Iqtisodiy tahlil vazifasi hosildorlikni pasayib ketishi sabablarini chuqurroq o‘rganib, uni yaxshilash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Hosildorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishning muhim qismi uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash sanaladi. Buning uchun o‘rganilayotgan har bir ekin turlarining hosildorlik ma‘lumotlari tahlil etiladi.

O‘simlikchilik mahsulot yetishtirishning o‘zgarishiga ta’sir etayotgan jami omillarni ekstensiv va intensivga ajratsak, ularning ta’sir darajasi ekin maydonining va hosildorlikning o‘zgarishida mujasamlashgan. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilda bu omillarning ta’sirini o‘rganish uchun mutloq farqlarni ko‘paytirish yoki zanjirli bog‘lanish usullarini qo‘llab o‘rganiladi.

13.4-jadvalda biz tahlil qilayotgan xo‘jalikda o‘tgan yilga nisbatan don hosili jami 45 s ga ko‘paygan. Bunga asosiy sabab don ekilgan maydonning 3,4 gektarga kamayganiga qaramasdan hosildorlikning 4 s/ga ga ortishi, ya’ni intensiv o‘sish hisoblanadi. Paxta bo‘yicha ham yalpi hosilga hosildorlik ijobiy, ekin maydoni salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Kartoshka va sabzavot bo‘yicha ekin maydoni ijobiy, hosildorlik salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

**O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishga ta‘sir
etuvchi sabablar tahlili**

№	Ekin turlari	O‘tgan yil			Hisobot yili			O‘zgarishi		
		ekin maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	yalpi hosil, s	ekin maydoni, ga	hosildorlik, s/ga	yalpi hosil, s	jami	shu jumladan	
									ekin maydoni o‘zgarishi hisobiga	hosildorlik o‘zgarishi hisobiga
1	Don	41,3	31	1280	37,9	35	1325	45	-106,4	151,4
2	Paxta	55,0	28	1540	52,6	30	1578	38	-67,2	105,2
3	Kar-toshka	10,1	122	1236	10,3	118	1210	-26	15,0	-41,0
4	Sabza vot	6,6	216	1417	6,9	202	1395	-22	74,7	-96,7

O‘simlikchilik mahsuloti yetishtirishni tahlil qilishning so‘ngida mahsulot hajmini ko‘paytirish bo‘yicha xo‘jalikdagi bor imkoniyatlar va rezervlarni aniqlash talab etiladi. Bunday imkoniyatlar:

- ekin ekish tarkibini oqilona tashkil etish evaziga tabiiy hosildorlikni oshirish va pirovard mahsulot hajmini ko‘paytirish;
- agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida o‘tkazib, mo‘ljallangan hosilga erishish natijasida mahsulot hajmini ko‘paytirish hisoblanadi.

**13.3. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish va uning
o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar tahlili**

Chorvachilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, u qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘y va echkichilik, yilqichilik kabi tarmoqlardan tashkil topadi. Chorvachilik mahsulotlari aholini

kalloriyali oziq-ovqat bilan ta'minlaydi hamda sanoatning ayrim tarmoqlari uchun xomashyo manbasi hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tahlil etishda quyidagi mavzular o'rganiladi:

- chorva mollarining bosh soni va uning harakati tahlili;
- mahsuldorlik ko'rsatkichlari tahlili;
- chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlili;
- chorvachilik mahsulotlari hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini hisoblash.

Chorvachilikda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o'zgarishiga mollarning soni katta ta'sir etadi. Shuning uchun ham chorva mollarining har bir turi yo'nalishi bo'yicha sonining o'zgarishi chuqur tahlil etilishi talab etiladi.

13.5-jadval

Qoramollar bosh soni harakati tahlili

№	Qoramollar guruhi	Yil boshidagi soni	Yil davomidagi harakati		Yil oxiridagi soni	O'zgarishi (+;-)
			kirim	chiqim		
1	Sog'in sigirlar	214	10	8	216	2
2	Buqalar	7	2	3	6	-1
3	2 yoshdan yuqori buzoq va takalar	83	6	4	85	2
4	Boquvdagi mollar	156	80	50	186	30
5	Hisobot yili tug'ilgan buzoqlar	0	180	0	180	180
6	Jami	460	278	65	673	213

Biz tahlil qilayotgan xo'jalikda qoramollar soni 213 boshga ko'paygan. Bunga asosiy sabab hisobot yili tug'ilgan 180 ta buzoqlar hamda semirtirishdagi mollarning soni 30 taga ko'payganligi ta'sir etgan. Mahsuldor buqalar sonining bittaga kamayishi xo'jalik xodimlarining e'tiborida bo'lishi lozim. Chunki kelgusida zotli buqalarning ko'payishiga bu kamayganlik (-1) salbiy ta'sir etadi. Umuman olganda, qoramollar bosh sonining harakatini ijobiy deb qarash kerak.

Chorva bosh sonini ko‘paytirish va tarkibini yaxshilashda bola olish ko‘rsatkichlarini ijobiy hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har 100 bosh sog‘in sigir yoki ona qo‘ylardan o‘rtacha olingan buzoqlar va qo‘ylar ma‘lumotlari qator yillar ko‘rsatkichlariga asoslanib tahlil etiladi. Bunday tahlil chorva mollarining kamayishini oldini olish, poda oborotini ijobiy bo‘lishini ta‘minlash hamda zotdor mollarni ko‘paytirish masalalari qanday hal etilayotganligiga baho berish maqsadida o‘tkaziladi.

13.6-jadval

Chorvachilikda bola olish ko‘rsatkichlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha o‘tgan 3 yilda	Hisobot yili		O‘zgarishi (+;-)	
			reja	haqiqatda	o‘tgan 3 yildan	rejadan
1	Har 100 bosh sog‘in sigirlardan olingan buzoqlar	87	86	83	-4	-3
2	Har 100 bosh ona qo‘ydan olingan qo‘zilar	109	110	92	-17	-18
3	Har bir bosh ona cho‘chqadan o‘rtacha olingan bolasi	12	12	10	-2	-2

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, chorva mollarining o‘rtacha bola olish ko‘rsatkichlari o‘tgan yillarga nisbatan va rejaga nisbatan pasaygan. Jumladan, buzoq olish - 4 va - 3 , qo‘zi olish -17 va -18 va cho‘chqa bola olish - 2 va - 2 ga. Demak, xo‘jalikda zooveterinariya tadbirlarini kuchaytirish talab etiladi.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda chorva mollarining mahsuldorligi muhim ta‘sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga bir bosh sigirdan o‘rtacha bir yilda yoki bir oyda sog‘ib olingan sut, mollarning sutkalik ortgan vazni, qo‘ylardan olingan jun va tovuqlardan olingan tuxum va hokazolar hisoblanadi.

Chorva mollarining mahsuldorligi quyidagi ko'rsatkichlarga bog'liq:

- mollarning zoti;
- ratsion asosda boqish;
- zooveterinariya tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish;
- yem-xashak bazasi bilan ta'minlanganlik;
- moddiy manfaatdorlik va moddiy qiziqtirishlik;
- chorva fermasida yaratilgan shart-sharoit va boshqa omillar.

13.7-jadval

Chorva mollarining mahsuldorligini o'rganish

№	Mahsuldorlik ko'rsatkichlari	O'tgan 3 yilning o'rtachasi	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)	
			reja	haqiqatda	o'tgan 3 yilning o'rtachasiga nisbatan	rejaga nisbatan
1	Bir bosh sigirdan o'rtacha 1 yilda sog'ib olingan sut, kg	1420	1430	1320	-100	-110
2	1 bosh ona qo'ydan qirqib olingan jun, kg	2,4	2,4	2,2	-0,2	-0,2
3	Qoramollarning sutkalik ortgan vazni, gramm	350	370	330	-20	-40

Biz tahlil qilayotgan xo'jalikda chorva mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'tgan yillarga nisbatan va rejada mo'ljallangan ma'lumotlarga nisbatan hisobot yili haqiqatda pasaygan. Masalan, bir bosh sog'in sigirdan o'rtacha bir yilda sog'ib olingan sut o'tgan yillarga nisbatan 100 kg.ga, biznes rejaga nisbatan 110 kg.ga kamaygan. Qoramollarning ortgan vazni ham o'tgan yillarga nisbatan 20 grammga, rejaga nisbatan 40 grammga kamaygan. Har bir bosh ona qo'ydan jun qirqib olish 0,2 kg.ga kamaygan. Bu ma'lumotlar xo'jalikda chorva mollari mahsuldorligining pasayganligidan dalolat bermoqda. Tahlilchining vazifasi chorva mollari mahsuldorligining pasayish sabablarini o'rganishdan iborat.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirishni xuddi o‘simlikchilik kabi intensiv va ekstensiv omillarga ajratish mumkin.

Ekstensiv omillarga chorva mollarining bosh sonini ko‘paytirish, chorva fermalarini kengaytirish, ko‘proq ozuqa tayyorlash kabi yo‘llar bilan chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishni ko‘paytirish mumkin yoki ortiqcha mablag‘ va boyliklarni sarflab, ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi.

Intensiv omil deyilganda, bor mablag‘lar va boyliklardan to‘g‘ri va samarali foydalanish evaziga chorva mollarining mahsuldorligini oshirish, zotini yaxshilash mahsulotlarning buzilishi, tabiiy kamayish normalarini qisqartirish va sifatni yaxshilash hisobiga mahsulotlar hajmini ko‘paytirish tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi barcha sabablarni

1. Chorva bosh sonining.
2. Mahsuldorligining o‘zgarishi umumlashtirilib o‘rganiladi.

Bunday tahlilni bajarishda farqlarni ko‘paytirish yoki zanjirli bog‘lanish usullarini qo‘llash orqali omillar ta’siri aniqlanadi.

Fermer xo‘jaligida jami sut ishlab chiqarish 187,6 sentnerga kamaygan. Bunga asosan mahsuldorlikning pasayganligi ta’sir etgan, ya’ni har bir bosh sog‘in sigirdan o‘rtacha o‘tgan yilga nisbatan 100 kg.ga pasayganligi jami sut hajmini 216 s.ga kamayishiga sabab bo‘lgan. Sog‘in sigirlar sonining 2 boshga ko‘payganligi jami sut hajmini 28,4 s.ga ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Ekstensiv va intensiv omillar ta’siri 187,6 s.ga teng.

Qo‘ylardan qirqib olingan jun ham 1,78 s.ga kamaygan. Bunda qo‘ylarning bosh sonining kamayishi ham, bir bosh qo‘ydan qirqib olingan junning kamayishi ham yalpi mahsulotning kamayishiga olib kelgan. Boquvdagi mollarning ortgan vazni 0,0678 s.ga ortgan bo‘lishiga qaramasdan mahsuldorlikning kamayishi hisobiga yalpi mahsulot 0,0372 s.ga kamaygan. Xo‘jalikda mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish choralari ko‘rilmasa, kelgusida mahsulot yetishtirish hajmi pasayib ketishi mumkin.

**Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishga
ta'sir etuvchi omillarni aniqlash**

Mahsulot turlari	Bosh soni		Mahsuldorlik, kg		Yalpi mahsulot, s			O'zgarishi			
	o'tgan yil	hisobot yili	o'tgan yil	hisobot yili	o'tgan yil	hisobot yili	shartli	jami	o'zgarishga ta'siri sababi	bosh soni	mahsuldorlik
1.Sut	214	216	1420	1320	3038,8	2851,2	3067,2	-187,6		28,4	-216
2.Jun	560	530	2,4	2,2	13,44	11,66	12,72	-1,78		-0,72	-1,06
3.Ortgan vazn	156	186	0,35	0,33	0,546	0,6138	0,651	0,0678		0,105	-0,0372

13.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sotilishi mumkin :

- Davlat buyurtmasining bajarilishi hisobiga sotish;
- Shartnoma asosida turli tashkilotlarga sotish;
- Erkin bozorlarda sotish;
- Xorijga eksport qilish uchun sotish;
- O'z ishchi va xizmatchilariga sotish;
- Boshqa yo'nalishlarga sotish.

Mahsulotlarni sotish ko'rsatkichlarini tahlil etishda xo'jalik uchun eng qulay va yuqori manfaat keltiruvchi sotish kanallari aniqlanadi. Bunday tahlilni o'tkazish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarni sotish shakli ma'lumotlaridan, shuningdek, moliyaviy hisobotning 2-shakli – Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Mahsulot sotish ko'rsatkichlari tahlilini bajarishda ham qiymat, ham natura o'lchamida ma'lumotlar o'rganiladi.

13.9-jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish hajmining tahlili

№	Mahsulot turi	2016 yil		O'zgarishi (+;-)	Bajarilish foizi
		reja	haqiqatda		
A	1	2	3	4	5
1	Mahsulot sotishning tushumi (2015 yilgi haqiqiy bahoda ming so'm)	148145	111510	-36635	75,3
2	Natura o'lchamida mahsulot sotilishi				
3	Bug'doy	23418	23077	-341	98,5
4	Katoshka	2900	2885	-15	99,5
5	Ochiq turdagi sabzavot	12000	10629	-1371	88,6
6	Paxta	36500	34695	-1805	95,1
7	Sut	2014	2129	115	105,7
8	Yirik shoxli qora mol	110	104	-6	94,5
9	Pilla	128	126	-2	98,4

13.9-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, biz o‘rganayotgan xo‘jalikda mahsulotlar sotish bo‘yicha tushum rejaga nisbatan 36635 ming so‘mga kamaygan. Bunday holat xo‘jalikning yakuniy moliyaviy ahvoriga salbiy ta‘sir etadi. Natura o‘lchamida mahsulot sotish hajmi faqat sutdan tashqari aksariyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha rejaning bajarilmaslik foizi -11,4 dan -0,5 gachani tashkil etadi. Javaldagi raqamlardan yana shu narsani ko‘rish mumkinki, umumiy tushum va natura hisobida mahsulotlar sotish rejasining bajarilmaslik foizlari o‘rtasidagi -24,7 (75,3-100) va 11,5 tafovutlar rejaga nisbatan sotilayotgan mahsulotlar bahosining pasayib ketganligi sababli bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida muhim o‘rinni paxta, don, pilla, jun va qorako‘l teri kabi mahsulotlar e‘tiborli sanalgani uchun hamda valyuta zaxiralarini to‘ldirishda paxta tolasini sotish zarurligi bu mahsulotlar uchun davlat buyurtmasini xo‘jaliklar bo‘yicha tahlil etishni taqozo etadi. Bu xususiyatni e‘tiborga olib, fermer xo‘jaliklariga rejada mo‘ljallangan yalpi paxta yetishtirishning 60% miqdorida (donning esa 40 % hajmida) buyurtma joriy etilgan edi.

Davlat buyurtma foizlari iqtisodiy sharoitning o‘zgarishi bilan turlicha bo‘lishi mumkin.

Davlat buyurtmalarini bajarilish holatini tahlil qilish uchun mahsulotlar sotish hisobot shaklidan foydalanib, jami sotilgan mahsulot tarkibida davlat buyurtmasini bajarganlik holati tahlili o‘tkaziladi.

13.10-jadvaldan ko‘rinib turganidek, xo‘jalikda asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha, jumladan, paxta va pillaning barchasi davlat buyurtmasi hisobiga sotilgan. Jami sotilgan donning 96 % davlat buyurtmasiga, sutning esa 92,67 % davlatga sotilgan. Davlat buyurtmasining mahsulot turlari bo‘yicha bajarilish rejasi birorta mahsulot turlari bo‘yicha ham bajarilmagan. Bundan ko‘rinadiki, biz o‘rganayotgan xo‘jalikda davlat buyurtmasi umumiy sotish takibida muhim o‘rinni egallar ekan.

**Mahsulotlar sotish bo'yicha davlat buyurtmasining
bajarilishi tahlili**

№	Mahsulot turi	Jami sotilgan, ts		Shu jumladan, davlat buyurtmasi bo'yicha, ts		Davlat buyurtmasining salmog'i		Bajarilish foizi
		reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	
1	Don	23418	23077	22400	22160	95,65	96,03	98,93
2	Paxta	36500	34695	36500	34695	100	100	95,05
3	Sut	2014	2129	2000	1973	99,30	92,67	98,65
4	Pilla	128	126	128	126	100	100	98,44

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini tahlil etish ham muhim o'rin egallaydi, chunki mahsulotlar sifati tushumga ta'sir etadi.

Sifatning yaxshilanishi foydani o'stirishning muhim omillaridan sanaladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini aniqlashda quyidagi shartlar bajarilishi e'tiborga olinadi:

- Davlat standart talablariga mos kelishi;
- Tajribadagi foydali elementlarning ulushi;
- Ko'rinishi va estetik zavq berishi;
- Ta'mi, hidi va boshqalar.

Mahsulotlarning turlariga qarab sifatni aniqlash mezonlari qo'llaniladi. Masalan, paxta tolasining mustahkamligi, uzun yoki qisqaligiga qarab navlar (1-5 nav).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini tahlil qilishda mahsulotlar sotish hisobot forma ma'lumotlaridan foydalanib, sifat o'zgarishi natijasida sof vazn va qabul qilingan vaznlar o'rtasidagi tafovutlarni olgan holda tushum o'zgarishlari tahlil etiladi.

Bunday tahlil natijasi mahsulotlar sotishdan olingan tushumga sifat qanday ta'sir qilinganligini aniqlashga imkon beradi.

13.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, davlatga sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatining pasayishi natijasida xo'jalik jami 2537,2 ming so'mlik pul tushumini yo'qotgan, ayniqsa, paxtaning sifati pasayganligi xo'jalikning taxminan 150,6 mln so'mlik daromadining pasayishiga olib kelgan.

Faqat sutning yogʻlilik darajasi normadan oshiqcha boʻlganligi daromadning 4104 ming soʻmga oʻsishiga taʼsir etgan. Demak, xoʻjalik boʻyicha mahsulotlar sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilishi taqozo etilmoqda.

13.11-jadval

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari sifati tahlili

№	Mahsulot turi	Mahsulot sotishdan tushum	Sotilgan mahsulot miqdori, s		1 s. mahsulotning oʻrtacha sotish bahosi	Sifat oʻzgarishi natijasida	
			jismoniy vazn	sof haqiqiy vazn		sentner	ming soʻm
1	Don	1444832	22360	22160	65200	-200	-13040
2	Paxta	4336875	35900	34695	125000	-1205	-150625
3	Sut	146160	1973	2030	72000	57	4104
4	Pilla	33390	126	126	265000	0	0
	Jami	5961257	x	x	x	x	-159561

13.5. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish tahlili

Qishloq xoʻjaligi korxonalarida ishlab chiqarish resurslari deyilganda, mahsulot yetishtirish jarayonida qatnashadigan hamda foydalaniladigan jonli va jonsiz mehnat omillari tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Yer.
2. Qishloq xoʻjaligi texnikalari.
3. Binolar va inshootlar.
4. Ishchi va mahsuldor hayvonlar.
5. Koʻp yillik ekinlar.
6. Mehnat resurslari (mavsumiy va doimiy ishlaydigan xodimlar).
7. Mehnat predmetlari (urugʻ, mineral oʻgʻitlar, biologik va kimyoviy himoya vositalari, ehtiyot qismlar va hokazo).

Qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish moliyaviy holatni mustahkamlash hamda iqtisodiy oʻsishni taʼminlashning zarur sharti hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida yer asosiy vosita hisobida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va undan oqilona foydalanish unumdorlikni yanada oshiradi. Boshqa boyliklardan farqli ravishda, yer maydoni chegaralangan va uni muntazam oshirib borish imkoniyati yo‘q. Shuning uchun ham yerdan to‘g‘ri va oqilona foydalanish talab etiladi.

Mamlakatimizning yer boyligi quyidagi tarkibdan iborat:

1. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yerlar.
2. Aholi yashab turgan yerlar.
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar.
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va madaniy dam olish maskanlariga mo‘ljallangan yerlar.
5. O‘rmon yerlari.
6. Suv havzalariga mo‘ljallangan yerlar.
7. Zaxira yerlar.

Tahlilning vazifasi yer fondlaridan foydalanganlik holatini o‘rganib, uni yaxshilash bo‘yicha imkoniyatlarni aniqlashdir.

Jami xo‘jalik yer maydonining unumdor, mahsulot yetishtirish mumkin bo‘lgan qismi qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlar hisoblanadi.

Bu yerlar tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Ekinzorlar.
2. Yaylovlar.
3. Pichanzorlar.
4. Ko‘p yillik daraxtzorlar va o‘rmonlar.
5. Suv havzalari va shaxsiy tomorqa yerlari.

Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarni tahlil qilishda har bir turdagi tarkibning umumiy yerdagi ulushi ko‘rsatkichlari tahlil etiladi. Bunday tahlil etishni o‘rganishda quyidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash maqsadga muvofiqdir.

1. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar maydoni koeffitsiyenti -
Jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar / Umumiy yer fondi.
2. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar tarkibidagi haydaladigan ekinzorlar ulushi koeffitsiyenti -
Jami haydalgan yerlar / Jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar.
3. Hosil yig‘ib-terib olinadigan maydon koeffitsiyenti –
Hosil yig‘ilgan maydon / Jami haydalgan yerlar.

4. Sugʻoriladigan yerlar ulushi koeffitsiyenti –

Sugʻoriladigan yerlar / qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar.

Qishloq xoʻjaligida yaroqli yerlar tarkibida muhim va asosiy oʻrinni ekinzorlar tashkil etadi. Chunki ekinzorlar mahsuldor yer boʻlib, yetishtirilayotgan qishloq xoʻjalik mahsulotlarining aksariyatini ekinzor maydonlaridan olinadi.

Ekinzorlar hajmi qishloq xoʻjalik korxonasi umumiy yer fondining qishloq xoʻjaligi oborotiga jalb qilinganlik darajasini ham ifodalaydi. Eng koʻp manfaat keltiradigan yer boʻlganligi uchun uning tarkibini alohida tahlil etish talab etiladi. Ekinzorlar tarkibi deyilganda, har bir ekilgan ekin turining umumiy ekinzorlardagi tutgan salmogʻi tushuniladi.

Fermer xoʻjaliklarida ekinzorlar tarkibi xoʻjalikning ixtisoslashuviga, tabiiy sharoitiga, tuproq unumiga va hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarga boʻlgan talab va taklifning oʻzgarishiga hamda koʻp foyda keltirish holatiga bogʻliq.

Qishloq xoʻjaligi yerlaridan foydalanganligini tahlil etishda natura va qiymat oʻlchamida hisoblaniladigan maʼlumotlar oʻrganiladi.

Naturada oʻrganiladigan koʻrsatkichlarga:

- ekinlarning hosildorligi;
- har bir gektar haydaladigan yerlarga toʻgʻri keladigan chorvachilik mahsulotlari;
- har bir gektar ekinzorga sarflangan kishi kuni yoki kishi soatlari tushuniladi.

Qiymat oʻlchamida yerdan samarali foydalanish tahlilida oʻrganiladigan koʻrsatkichlarga :

- har 1 yoki 100 gektar qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot = yalpi mahsulot (solishtirma bahoda) / qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar;

- har 1 yoki 100 gektar qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarga toʻgʻri keladigan mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan sof tushum = mahsulot (ish, xizmat) sotishdan sof tushum (2 - shakl) / qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar;

- har 1 yoki 100 gektar qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarga toʻgʻri keladigan yilning sof foydasi = yilning sof foydasi / qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlar.

Yerdan samarali foydalanganlik tahlili

Mahsulot turi	O'lchov birligi	O'tgan yil	Hisobot yili		O'zgarishi	
			biznes rejada	haqiqatda	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan
1	2	3	4	5	6	7
Don	s/ga	23.4	22,1	21,22	-2,18	-0,88
Paxta	s/ga	17.7	17,5	16,66	-1,1	0,9
Sabzavot	s/ga	24,2	21	22,7	-1,5	1,17
Poliz	s/ga	87	86,3	74,7	-12,3	-11,6
Pilla	s/ga	0,02	0,03	0,02	0	-0,01
Sut	s/ga	0,47	0,48	0,46	-0,01	-0,02

13.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, doning samaradorligi, ya'ni hosildorligi o'tgan yilga nisbatan - 2,18 s./ga ga kamaygan. Paxta, sabzavot, poliz, sut ham o'tgan yilga nisbatan kamaygan. Yerdan foydalanish samaradorligi o'tgan yil va reja ko'rsatkichlariga nisbatan kamayishi kuzatilgan. Faqat paxta va sabzavot yetishtirishda rejaga nisbatan biroz o'sish kuzatilgan.

13.13-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yerdan samarali foydalanganlik qiymat ko'rsatkichlari hamma ko'rsatkichlar bo'yicha o'tgan yilga hamda rejaga nisbatan o'sgan. Faqatgina hisbot davrida olingan foydaning 4753 ming so'mga kamayganligi hisobiga har gektar yerga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichi 6,2 ming so'mga kamaygan. Shuni hisobgan olish kerakki, yerdan samarali foydalanishning eng muhim ko'rsatkichi - bu har gektar yerga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yaratishda mehnat resurslarining o'rnini alohida. Chunki moddiy, moliyaviy boyliklarni harakatga keltiradigan mahsulot yaratishda bevosita qatnashadigan mehnat resurslarining yetarli yoki yetishmasligi xo'jalik faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

**Yerdan samarali foydalanganlik qiymat
ko'rsatkichlari tahlili**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		O'zgarishi	
		reja bo'yicha	haqiqat da	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan
1	2	3	4	5	6
Qishloq xo'jaligiga	320	320	315	-5	-5
Yalpi mahsulot (solishtima bahoda ming so'm)	1564800	1632000	1652175	87375	20175
Hisobot davridagi sof foyda (ming so'm)	166528	179200	174447	7919	-4753
Mahsulot (ish xizmat) sotishdan sof tushum (ming so'm)	1592000	1615360	1631070	39070	15710
Xar 100 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarga to'g'ri keladigan:					
a) yalpi mahsulot (ming so'm)	4890	5100	5245	355	145
b) sof tushum (ming so'm)	4975	5048	5178	203	130
s) sof foyda (ming so'm)	520,4	560	553,8	33,4	-6,2

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat resurslari tarkibi quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning jami.

Shundan:

a) Doimiy ishlovchilar.

b) Mavsumiy va vaqtincha ishlovchilar.

c) Xizmatchilar.

Shu jumladan:

-rahbarlar;

-mutaxassislar.

2. Yordamchi va sanoat ishlab chiqarishda qatnashuvchi xodimlar.

3. Kommunal xo‘jaligi xodimlari.
4. Kapital qurilishda qatnashuvchi xodimlar.
5. O‘rmon xo‘jaligi xodimlari.

Mehnat resurslari tarkibida muhim va asosiy o‘rinni qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida band bo‘lgan xodimlar tashkil etadi. Shuning uchun ham iqtisodiy tahlilda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bevosita qatnashuvchi xodimlar tarkibini o‘rganishga muhim e‘tibor qaratiladi.

Mehnat resurslari tahlilini bajarishda ularning tarkibi biznes reja bo‘yicha talab qilingan yoki kerak bo‘lgan mehnat kuchlari soni bilan haqiqatda bor ma‘lumotlar taqqoslanadi.

13.14-jadval

Mehnat resurslarining tarkibi tahlili

Mehnat resurslari tarkibi	Reja bo‘yicha talab		Haqiqatda ishlaganlar		O‘zgarishi	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
1	2	3	4	5	6	7
Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslari:	1994	94,5	1998	94,2	+4	-0,3
a) doimiy ishlovchilar	1219	57,8	1221	57,6	+2	-0,2
b) mavsumiy va vaqtincha ishlovchilar	753	35,7	756	35,6	+3	-0,1
s) xizmatchilar	22	1,04	21	1,0	-1	-0,04
Boshqa tarmoq xodimlari	116	5,5	123	5,8	+7	+0,3
Jami xodimlar	2110	100	2121	100	+11	+0,52

Mehnat resurslari tarkibida muhim asosiy o‘rinni doimiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qatnashuvchi xodimlar tashkil etadi. Bunday mehnat resurslarining yetarliligi qishloq xo‘jalik ishlarini o‘z vaqtida bajarishga, agrotexnik tadbirlarga rioya qilinishiga va yuqori hosil olishga zamin yaratadi.

Qishloq xo‘jaligining mavsumiyliigi va ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatga egaligi ish vaqtdan foydalanganlikni tahlil etishni ma‘lum darajada chegaralaydi. Lekin shunday bo‘lsada, iqtisodiy tahlilda ish vaqtdan foydalanishning o‘zgarishiga ta‘sir etadigan sabablarni quyidagi omillarga ajratib tahlil qilinadi:

- Ish vaqtining o‘zgarishiga ishchilar sonining ta‘siri.
- Bajargan kishi kunlari soni o‘zgarishining ish vaqtiga ta‘siri.

– Ish vaqtining yoki 1 kishi/kuni o‘zgarishining jami ish vaqtiga ta’siri o‘rganiladi.

13.15-jadval

Ish vaqtdan foydalanganlik tahlili

Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	Bajarilishi, %
1	2	3	4	5
Doimiy ishlovchilar	1219	1221	+2	100,2
Jami ishlangan kishi kunlari (ming)	304,75	293,04	-11,7	96,2
Jami bajargan kishi soati (ming)	2438	2285,7	-152,3	93,8
1 ishchining o‘rtacha ishlagan kishi/kuni (2/1)	250	240	-10	96,0
1 ish kunining uzunligi (3/2), soat	8	7,8	-0,2	97,5

Fermer xo‘jaligida jami bajarishi lozim bo‘lgan kishi soatlari 152,3 ming kishi soatiga kam bajarildi. Bunga quyidagilar ta’sir etgan:

a) Ishchilar sonining o‘zgarishi hisobiga: $+2 \cdot 250 \cdot 8 = +4$ ming k/s;

b) o‘rtacha kishi kunlarining o‘zgarishi hisobiga $-10 \cdot 1221 \cdot 8 = -97,68$ ming k/s;

c) ish kuni uzunligining o‘zgarishi hisobiga: $-0,2 \cdot 293,04 = -58,6$ ming k/s.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga mehnat unumdorligini aniqlash orqali baho beriladi. Mehnat unumini tahlil etishda qiymatda (so‘mda) va natura o‘lchamda aniqlanadigan ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlar ichida eng muhimlari bo‘lib, qishloq xo‘jalik xodimlarining:

a) Bir kunlik unumi.

b) Bir soatlik unumi.

c) Bir yillik unumi ma’lumotlari tahlil etiladi.

13.16-jadvaldan ko‘rinadiki, xo‘jalikda mehnat unumdorligi rejaga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Jumladan, bir ishchining bir soatlik mehnat unumi rejaga nisbatan +53,43 so‘mga ortgan. Shuningdek, bir

kunlik mehnat unumi ham rejaga nisbatan 282,84 soʻmga ortishi kuzatilgan. Bir yillik mehnat unumining rejaga nisbatan oʻzgarishi +14330,38 ming soʻmni tashkil etgan. Bu xoʻjalikda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining oʻsganligidan dalolat beradi.

13.16-jadval

Mehnat unumdorligi tahlili

	Koʻrsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Oʻzgarishi
1	2	3	4	5
1	Yalpi mahsulot(ming soʻmda)	1632000	1652175	20175
2	Jami ishlangan kishi/kunlari	304,75	293,04	-11,71
3	Ishchilar soni	1219	1221	2
4	Jami ishlangan kishi/soatlari (ming)	2438	2285,7	-152,3
5	Bir kishining oʻrtacha	250	240	-10
6	Ish kuni davomiyligi (soat)	8	7,8	-0,2
7	Bir ishchining bir soatlik unumi (1/4)	669,40	722,83	53,43
8	Bir kunlik unum (1/2)	5355,21	5638,05	282,84
9	Bir yillik unum (1/3)	1338802,30	1353132,68	14330,38

Nazorat savollari

1. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishning xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Qishloq xoʻjaligida iqtisodiy tahlilning xususiyatlarini sanab bering.

3. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish tahlilining vazifalari nimalardan iborat?

4. Oʻsimlikchilik mahsulotlari yetishtirish hajmiga taʼsir etuvchi omillarni va ularni hisoblash tartibini tushuntiring.

5. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmiga taʼsir etuvchi omillarni va ularni hisoblash tartibini tushuntiring.

6. Ekstensiv va intensiv omillarning farqini tushuntiring.

7. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish va unga ta’sir etuvchi omillar haqida fikringizni bayon qiling.

8. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish resurslari tarkibini aytib bering.

9. Yerdan samarali foydalanish tahlilida o‘rganiladigan ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?

10. Qishloq xo‘jalik korxonalarida mehnat resurslari tarkibini tushuntirib bering.

11. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga qaysi ko‘rsatkichlar orqali baho beriladi va ularni aniqlash tartibi qanday?

XIV bob. QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISH TANNARXI TAHLILI

14.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tannarxi tahlilining mazmuni va vazifalari

Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlar xo‘jalikning moliyaviy faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy jarayon bo‘lganligi uchun uni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi

Chunki mahsulotlar yetishtirish bilan bog‘liq sarflar hajmi yildan yilga ortib bormoqda.

Ularning oqilona sarflanishi, iqtisod va tejamkorlikning amalga oshirilishi fermer xo‘jaliklarining foydasi ko‘payishiga, moliyaviy holatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir etadi.

Demak, xarajatlarning sodir bo‘lishi mahsulotlar turi va xarajat obyektlari bo‘yicha umumlashtirilgan holda hisob-kitobini yuritishni tahlil etish hozirgi raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xo‘jaliklarda jami sarflar hajmining o‘zgarishi, biznes reja va normativlarni xarajat turlari bo‘yicha farqlarini o‘rganish va ularni tejash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni ko‘rsatish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlari tahlilining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xarajatlar tahlilining vazifalari:

1. Jami sarflarni dinamikada o‘zgarish holatlarini aniqlash;
2. Xarajatlarni norma va normativlarga mos kelishini tekshirish;
3. Xarajatlarni o‘zgarishiga ta’sir etgan barcha sabab va omillarni aniqlash;
4. Har bir turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini o‘rganib va ularni moliyaviy natijaga ta’siriga baho berish;
5. Ortiqcha sarflarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ko‘rsatishdan iborat.

14.2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlari tahlili

Hozirgi amaldagi “Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, fermer xo‘jaliklarining jami xarajatlari quyidagi turlarga bo‘linib hisobga olib boriladi :

1. Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlari.

2. Davr xarajatlari.

3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar.

4. Favquloddagi zararlar yoki chiqimlar

Yuqoridagi xarajatlarning har biri xo‘jalik moliyaviy natijasiga to‘g‘ri va egri yo‘llar bilan ta’sir etadi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar fermer xo‘jaliklarida quyidagi turlardan iborat:

1. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

4. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

5. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Bu xarajatlar mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladi va ularning jamisi xo‘jalikning asosiy ko‘p mablag‘ talab etiladigan sarfidir. Fermer xo‘jaliklarida mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni tahlil etishda quyidagilar o‘rganiladi:

1. Jami qishloq xo‘jaligi xarajatlari.

2. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari.

3. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari.

Bu xarajatlarni tahlil etishda joriy yildagi xarajatlar joriy yil haqiqiy tannarx bahosida, biznes rejada mo‘ljallangan reja tannarx bahosida, o‘tgan yilgi haqiqiy tannarx bahosidagi ma’lumotlarni solishtirishga to‘g‘ri keladi.

Baho o‘zgarishini etiborga olgan holda jami xarajatlarni tahlil etishda ko‘rsatkichlarni bir xil bahoga, ya’ni joriy yilni reja yoki

amaldagi bahosiga aylantirib, soʻngra koʻrsatkichlar tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir.

14.1-jadval

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi tahlili

Xarajat turlari	Asosiy ishlab chiqarishga hammasi		Oʻsimlikchilik		Chorvachilik	
	ming soʻm	salmoq %	ming soʻm	salmoq %	ming soʻm	salmoq %
Mehnat haqi va ijtimoiy sugʻurta ajratmalari	19187	41,6	17897	42,2	1295	35,57
Mahsulot tannarxiga kirgan material xarajat	22912	49,7	20811	49	2101	57,7
Asosiy vositalarning amortizatsiyasi	1100	2,4	978	2,3	122	3,35
Sugʻurta toʻlovlari	179	0,4	179	0,4	-	-
Bank qarzi foizlari	232	0,5	232	0,5	-	-
Boshqa xarajatlar	2471	5,4	2048	5,5	123	3,38
Hamma xarajatlar	46081	100		100	3641	100

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki asosiy ishlab chiqarish uchun sarflangan jami xarajatlar 46081 ming soʻmni tashkil etgan. Bu xarajatlarning 49,7 foizi material xarajatlariga va 41,6 foizi mehnat haqi sarfiga toʻgʻri keladi

Material sarflarining ulushi chorvachilik tarmogʻida yuqori, yaʼni 57,7 foizni tashkil etgan. Qolgan xarajatlar, yaʼni asosiy vositalar amortizatsiyasi va boshqa sarflar ulushi esa 7,8 foizni tashkil etgan.

Jami sarflangan xarajatlarni oʻrganishda biznes rejada moʻljallangan sarflanishi lozim boʻlgan xarajatlar taqqoslanib oʻrganilishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlarning samarasini bilish uchun bir soʻmlik

mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum tarkibidagi asosiy ishlab chiqarish xarajatlar ma'lumotini o'rganish ham muhim hisoblanadi.

Buning uchun Moliyaviy natijalar to'g'risidagi (2-shakl) hisobotlaridan ham o'rganish mumkin.

14.2-jadval

Sotilgan mahsulotlar tarkibidagi ishlab chiqarish xarajatlari salmogi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+, -)
Sotishdan olingan sof tushum	49721	50097	376
Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	50600	40809	-9791
1 so'mlik sof tushum tarkibidagi ishlab chiqarish tannarxi 2:1 * 100 (tiyin)	101,7	81,46	-20,24

Biz tahlil qilayotgan xo'jaliklarda hisobot yil sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi jami sof tushumning 81,46 tiyini tashkil etgan.

Yalpi moliyaviy natijasi +18,54 (100-81,46) tiyinni tashkil etgan. O'tgan yilgi holati esa birmuncha achinarli, ya'ni tushum asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini ham qoplamagan, zarar ko'rilgan. Demak, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun sarflangan asosiy xarajatlar tushumga nisbatan yuqoriroq suratda o'zgarayotganligini etiborga olmoq kerak.

14.3. Mahsulotning alohida turlari tannarxi tahlili

Xo'jalikda tannarx darajasining umumiy rejasini baholashni amalga oshirilganligidan keyin, o'simlikchilik, chorvachilik va yordamchi ishlab chiqarish bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishning alohida turlari tannarxini tahlil qilinishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda avvalo tahlilni o'simlikchilikdan boshlash kerak, deb hisoblaymiz. Sababi qishloq xo'jaligida o'simlikchilikdagi tannarxga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxi darajasi ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi.

Mahsulotning ko'pgina turlari tanarxining tahlili, odatda, uning darajasi va dinamikasini o'rganishdan, o'sish darajasini bazis va zanjirli usulda hisoblashdan hamda grafiklar tuzishdan boshlanadi. Mahsulotning turlari bo'yicha tannarx o'zgarishini turdosh xo'jalik va hududdagi o'rtacha ko'rsatkich ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari tanarxining o'zgarish jihatlarini aniqlash va xo'jalik faoliyatiga baho berish imkoniyatlarini yaratadi. Agarda, masalan, tahlil qilinayotgan xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarish darajasi va sur'atlari raqobatchi xo'jalikdan hamda hududdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lsa uning faoliyatini qoniqarli, deb baholash mumkin yoki aksincha. Shuningdek, har bir mahsulot turi bo'yicha rejadan chetlashishlar sabablarini aniqlash zarur.

So'ngra esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining ortishi sabablarini o'rganish tavsiya etiladi. Ulardan biri obyektiv hisoblanib, korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmasa, boshqasi subyektiv xarakterga ega bo'lib xo'jalik yuritish faoliyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini oshirishning obyektiv sabablaridan biri bo'lib inflyatsiya natijasida sanoat mahsulotlarining (texnika, zaxira qismlar, elektroenergiya, o'g'it, neft mahsulotlari, chorva ozuqasi va h.k.) baholari ortishi bo'lsa, boshqasi ishlab chiqarish unumdorligiga nisbatan ish haqining yuqori darajada o'sishi hisoblanadi. Bu ham o'z navbatida inflyatsiya natijasidir.

Shunga qaramasdan mahsulot tannarxining oshishida obyektiv sabablar bilan bir qatorda subyektiv sabablar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Sanoat mahsulotlariga baholarning o'sish darajasi va sur'ati bir xil bo'lgan taqdirda ham turli xo'jaliklarda mahsulot tannarxi har xil bo'ladi. Bu o'simlikchilikda hosildorlikning, chorvachilikda mahsuldorlikning turlicha bo'lishi bilan izohlanadi. Hozirgi texnika tarqqiyoti, 1 ga yerni ishlash, birbosh chorva hayvonini parvarishlash texnologiyasi turli xo'jaliklarda bir xil bo'lishiga sharoit yaratmoqda, shunga qaramasdan chorva hayvonlari mahsuldorligi va yerning unumdorligi bir-biridan tubdan farq qilmoqda. O'simlikchilikda hosildorlik va chorvachilikda mahsuldorlik past darajada bo'lsa ham ko'p hollarda mahsulot birligiga doimiy xarajatlar ko'p sarflanishi kuzatilmoqda. O'z navbatida, bunday holatlarda yer va chorva hayvonlari mahsuldorligini oshirishga yo'naltiriladigan tadbirlar mahsulot tannarxini pasaytirishning manbasi hisoblanadi.

Ba'zi xo'jaliklarda mahsulot tannarxining yuqori darajada bo'lishi sabablari ishlab chiqarish jarayonining haddan tashqari past mexanizatsiyalashtirilganligi bilan izohlanmoqda. Qisman mexanizatsiyalashtirish ishchi kuchi mehnatini yengilashtiradi, lekin mehnat unumdorligi darajasini mohiyatli o'sishini ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, mashina, mexanizm va jihozlardan samarali foydalanish – mahsulot tannarxini pasaytirishning yo'llari ekanligidan dalolat beradi.

Mahsulot tannarxining turli darajalari o'zgarishida mehnatni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Past darajada mehnatni tashkil etish mehnat resurslaridan, texnikadan, ozuqadan, o'g'itlardan va boshqalardan foydalanishni yomon ahvolga olib keladi, natijada mahsulot birligiga qo'shimcha xarajat vujudga keladi. Mehnatni tashkil qilishning zamonaviy progressiv usullaridan foydalanish resurs potensialdan to'la va samarali foydalanishni ta'minlab, mahsulot tannarxini ahamiyatli pasayishiga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishning yiriklashuvi va ixtisoslashuvi mahsulot tannarxiga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadi. Konsentratsiya va ixtisoslashuv darajasini samarali tashkil qilish yer, mehnat va moddiy resurslardan yanada to'laroq foydalanishni ta'minlab, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Shuningdek, mahsulot tannarxi darajasi ishlab chiqarish texnologiyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. O'simlikchilikda va chorvachilikda intensiv texnologiyalarni qo'llash mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan bir qatorda mahsulot birligiga sarflanadigan mehnat va moddiy resurslarni kamaytiradi.

Ushbu omillarning mahsulot tannarxi darajasiga ta'sirini o'rganish uchun korrelyatsion tahlil usuli, parallel va dinamik qatorlar, funksional bog'liqlikda esa – omilli tahlilning determinallashgan usullaridan foydalanish mumkin. Birinchi tartibdagi omillarni mahsulot birligi tannarxi darajasi o'zgarishiga ta'siri omilli model yordamida o'rganiladi. Shunga qaramasdan doimiy xarajatlar summasi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'simlikchilikda ekin maydoni miqdoriga, chorvachilikda esa chorva hayvonlari bosh soniga bog'liq, bu ko'rsatkichlarni 1 ga ekin maydoniga olsak, (bir bosh chorva hayvoni) u holda mahsulot tannarxining omilli modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$T = \frac{A(ga)}{X(ga)} + b, \text{ yoki } T = \frac{A(bosh)}{X(bosh)} + b.$$

14.3-jadval

**Sut ishlab chiqarish tannarxining omilli
tahlili uchun ma'lumotlar**

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi, +,-
Sut ishlab chiqarish hajmi, t	560	600	+40
Doimiy xarajatlar summasi, ming so'm	90000	93000	+3000
Chorva hayvonlarining o'rtacha yillik bosh soni	200	200	0
Bir bosh sigirdan o'rtacha yillik sut sog'ib olish, kg	2800	3000	+200
Bir boshga doimiy xarajatlar summasi, so'm	450000	465000	+15000
1 tonna sut uchun o'zgaruvchan xarajatlar summasi, so'm	150000	155000	+5000
1 tonna sutni tannarxi, so'm	310714,3	310000	-714,3

Ushbu model va 14.3 jadval ma'lumotlari asosida 1 tonna sut tannarxining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli bog'lanish usulida hisoblaymiz:

$$T_r = \frac{A(bosh)r}{X(bosh)r} + b_r = \frac{450000}{2,8} + 150000 = 310714,3 \text{ so'm};$$

$$T_{shartli1} = \frac{A(bosh)r}{X(bosh)x} + b_r = \frac{450000}{3} + 150000 = 300000 \text{ so'm};$$

$$T_{shartli2} = \frac{A(bosh)x}{X(bosh)x} + b_r = \frac{465000}{3} + 150000 = 305000 \text{ so'm}$$

$$T_x = \frac{A(bosh)x}{X(bosh)x} + b_x = \frac{465000}{3} + 155000 = 310000 \text{ so'm}.$$

1 tonna sutni tannarxini umumiy o'zgarishi:

$$\Delta T_{um} = T_x - T_r = 310000 - 310714,3 = -714,3 \text{ so'm};$$

Shu jumladan o'zgarish hisobiga:

A) sigirlar mahsuldorligi hisobiga:

$$\Delta T_x = T_{\text{shartli1}} - T_r = 300000 - 310714.3 = -10714,3 \text{ so'm};$$

B) bir bosh sigirga doimiy xarajatlarning summasi:

$$\Delta T_a = T_{\text{shartli2}} - T_{\text{shartli1}} = 305000 - 300000 = +5000 \text{ so'm};$$

V) 1 tonna sut uchun o'zgaruvchan xarajatlarning summasi:

$$\Delta T_b = T_x - T_{\text{shartli2}} = 310000 - 305000 = +5000 \text{ so'm}.$$

Ushbu tahlilni har bir mahsulot turi bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

14.4. O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari tahlilida har bir sentner mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishi sabablari to'liq tahlil etiladi.

Bunday tahlilda jami ta'sir etuvchi omillar, jumladan har bir gektar ekin maydoniga sarflangan xarajatlarning hamda hosildorlikning o'zgarishi natijasida tannarxning farqlari aniqlanadi.

Bu o'simlikchilik mahsulotlari tannarxining yuqori yoki past bo'lishi ko'p sabablarga bog'liq.

Bu sabablarni quyidagi ikkita ko'rsatkichga umumlashtiriladi:

1. Bir gektar ekin maydoniga sarflangan xarajatlarning o'zgarishi:

- Sarflanayotgan xarajatlarni sotib olish bahosining o'zgarishi.
- Sarf normasining miqdori.
- Xarajatlarni tejash bo'yicha iqtisodiy manfaatdorlikning tashkil etilganligi.

- Hisob intizomining puxtaligi.

2. Har gektardan olinadigan hosildorlikning o'zgarishi.

- Agrotexnika qoidalariga amal qilinganlik.
- Tabiiy sharoitning qulay yoki noqulay kelganligi.
- Ekilgan urug'ning sifati.
- Ishlab chiqarishning to'g'ri tashkil etilishi va boshqarilishi.

Har birta omilning ta'sirini o'rganish uchun iqtisodiy tahlilning zanjirli usuli qo'llaniladi va tannarxning o'zgarishi sabablari o'rganiladi.

14.4-jadval

**O‘simlikchilik mahsulotlari tannarxini
o‘zgarish sabablari tahlili**

Ekin turlari	Hosildorlik s/ga		1 ga yerga xarajat, so‘m		1s mahsulot tannarxi, so‘mda			Tannarxning o‘zgarishi		
	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	shartli	jami	hosildorlik hisobiga	shu jumladan xarajat hisobiga
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.Don	22,2	21,2	1183593	1283173	53315	60527	57800,56	7212	2726,4	4485,6
2.Paxta	17,15	16,6	2346120	1716971	136800	103432	100114,9	-33368	3317,1	-36685,1

14.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik korxonasida 1 sentner don rejada ko'zda tutilganidan 7212 so'mga qimmatlashgan. Bunga asosiy sabab har gektarga sarflanayotgan xarajatlarning normadan oshib ketishi tannarxning 4485,6 so'mga ortib ketishiga, hosildorlikning pasayishi esa 2726,4 so'mga qimmatlashishiga olib kelgan. Bir sentner paxta tannarxi esa rejadagidan 33368 so'mga arzonlashgan. Har gektarga sarf-xarajatlarning tejalishi - 36685,1 so'mga tannarxning pasayishiga olib kelgan bo'lsa, hosildorlik pasayishidan esa xarajatlar +3317,1 so'mga ortgan.

O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish xo'jaliklari xarajatlarini tahlil qilishda xarajat turlari bo'yicha mahsulotlar tannarxini o'rganish muhim hisoblanadi. Shuningdek, har bir gektar ekin maydoniga sarflangan xarajatlar tarkibini o'rganish ham tannarxning o'zgarish sababalarini chuqurroq bilishga imkon yaratadi.

14.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1s. paxta tannarxi 103432 so'm bo'lib, rejaga nisbatan 33118 so'm kam xarajat qilingan. Bir gektar paxta maydoniga 1717275 so'm xarajat qilinib, rejaga nisbatan -672350 so'm kam xarajat qilingan. Bir sentner paxta tannarxining bunday kamayishi quyidagi xarajatlarning kamayishi hisobiga sodir bo'lgan:

Mehnat haqi uchun haqiqatda rejaga nisbatan 6000 so'mga kam xarajat qilingan.

O'g'itlarga ham -140 so'mga, urug'likka -835 so'mga, amortizatsiya ajratmalariga -1045 so'mga, ish va xizmatlarga -10955 so'mga, yoqilg'i va moylash materiallari -10640 so'mga, boshqa xarajatlarga -3503 so'mga kam xarajat qilingan.

Bir gektar paxta maydoniga qilingan kam xarajatlar ham quyidagilar hisoblanadi:

Mehnat haqiga -166300 so'mga, o'g'itlarga 8790,5 so'mga, urug'lik -17164 so'mga, amortizatsiyaga -19861 so'mga, ish va xizmatlarga -195491 so'mga, yoqilg'i va moylash materiallariga -190880 so'mga boshqa xarajatlarga esa -73864 so'mga kam xarajat qilingan. Bu esa xo'jalikdagi ijobiy holatni ko'rsatadi.

O‘simlikchilik mahsulotlari tannarxining xarajat turlari bo‘yicha tahlili

(paxta misolida)

Xarajat turlari	1s. paxta tannarxi			1ga paxta maydoniga xarajat.so‘m					
	reja	haqiqatda	farqi	reja		haqiqatda		farqi	
				so‘mda	foizda	so‘mda	foizda	so‘mda	foizda
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Mehnat haqi va ijtimoiy sug‘urta xarajatlari	74110	68110	-6000	1296925	54,3	1130625	65,8	-166300	11,6
O‘g‘it	7185	7045	-140	125737,5	5,3	116947	6,8	-8790,5	1,5
Urug‘	3670	2835	-835	64225	2,7	47061	2,7	-17164	0,1
Amortizatsiya	3130	2085	-1045	54775	2,3	34914	2,0	-19861	-0,3
Ish va xizmatlar	15155	4200	-10955	265212,5	11,1	69722	4,1	-195491	-7,0
Yoqilg‘i	15840	5200	-10640	277200	11,6	86320	5,0	-190880	-6,6
Boshqa xarajatlar	17460	13957	-3503	305550	12,8	231686	13,5	-73864	0,7
JAMI	136550	103432	-33118	2389625	100,0	1717275	100,0	-672350	0,0

14.5. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Chorvachilik mahsulotlarini tannarxini ham iqtisodiy tahlilda chuqurroq o'rganiladi. Chunki chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun ko'plab yem-xashak, mehnat haqi va shu kabi boshqa xarajatlar qilinadi. Chorvachilik mahsulotlari tannarxining tahlilida 1 sentner mahsulot birligi tannarxining o'zgarish sabablari aniqlanadi. Xuddi o'simlikchilik kabi chorvachilikda ham 2 ta natijaviy ko'rsatkich tannarxining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

1. Chorva mollari mahsuldorligining o'zgarishi.
2. Bir bosh chorva mollari uchun sarf-xarajatlarning o'zgarishi.

Chorva mollarining mahsuldorligi o'z navbatida quyidagi omillarga bog'liq:

- ratsion asosida boqilishiga;
- mollarning zotiga;
- zooveterenariya tadbirlarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga;
- chorva fermalaridagi shart-sharoitlarga;
- ishlab chiqarishning tashkil etilishi va moddiy manfaatdorlik va hokazolarga.

Chorva bosh soniga sarf-xarajatlarning o'zgarishi esa :

- xarajat turlari normasining o'zgarishi;
- baho o'zgarishi;
- iqtisod va tejamkorlikning yo'lga qo'yilganligi;
- moddiy javobgarlikning kuchaytirilganligi va hokazo.

Mahsuldorlik va chorva bosh soniga qilingan xarajatlarning alohida ta'sirini aniqlash uchun shartli mahsulot tannarxini qo'shimcha ravishda aniqlab ma'lumotlar o'rganiladi.

Tahlil qilinayotgan xo'jalikda 1 sentner sut tannarxi 4000 so'mga qimmatlashgan. Bunga asosiy sabab mahsuldorlikning pasayishi va 1 bosh chorva moliga sarfning ortishidir. Mahsuldorlikning pasayishi hisobiga bir sentner sutning tannarxi 1463 so'mga ortgan bo'lsa, 1 bosh chorva moliga sarfning ortishi sut tannarxini 2537 so'mga qimmatlashishiga sabab bo'lgan. Bir sentner go'sht tannarxining rejaga nisbatan 13000 so'mga qimmatlashishining asosiy sababi 1 bosh chorva moliga sarfning ortishidir. Mahsuldorlikning ortishi bir sentner go'sht tannarxining rejaga nisbatan 88409,3 so'mga arzonlashishiga olib kelgan. Bu go'sht yetishtirishda intensiv o'sishning ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxining o'zgarishi tahlili

Mahsulot turlari	Mahsuldorlik, s.		1 bosh chorva moliga sarf, ming so'm		1 s. mahsulotning tannarxi, so'm			O'zgarishi, (+;-)		
	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	sharti	jami	shu jumladan	
									1 bosh chorva moliga sarf o'zgarishi hisobiga	mahsuldorlik o'zgarishi hisobiga
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Sut	27	26,5	2025	2093,5	75000	79000	77537,04	4000	2537	1463
Go'sht	4,3	4,52	7374,5	7810,56	1715000	1728000	1816409	13000	101409,3	-88409,3

Tahlilning muhim vazifalaridan biri xarajatlarni tejash bo'yicha xo'jalikda mavjud imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.

Chorvachilikda mahsulot tannarxini xarajat turlari bo'yicha o'rganish ham muhim hisoblanadi. Chunki yem-xashak, mehnat haqi, asosiy vositalarning amortizatsiyasi va shu kabi asosiy ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxi tarkibida salmoqli o'rin egallaydi.

14.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bir sentner sut olish uchun haqiqatda rejadan 4000 so'm ortiqcha sarf qilingan. Bunga asosiy sabab yem-xashakning haqiqatda rejadan 2830 so'mga, ya'ni 1 foizga, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlarning haqiqatda rejadan 884 so'mga, ya'ni 0,8 foizga ortiqcha sarf qilinganligidir. Boshqa xarajatlar ham xarajatlarning oshib ketishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Boshqa xarajatlarning haqiqatda rejadan 1102,7 so'mga ortishi ham sut tannarxining qimmatlashishiga sabab bo'lgan.

Nazorat savollari

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tannarxi deganda nimani tushunasiz?

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tannarxi tahlilining vazifalari nimalardan iborat?

3. Fermer xo'jaliklarining jami xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?

4. Fermer xo'jaliklarining o'simlikchilik mahsulotlari tannarxiga qanday xarajatlar kiritiladi?

5. O'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish tannarxi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash tartibini tushuntirib bering.

6. Fermer xo'jaliklarining chorvachilik mahsulotlari tannarxiga qanday xarajatlar kiritiladi?

7. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish tannarxi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash tartibini tushuntirib bering

8. Hosildorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?

1 sentner sut tannarxining xarajat turlari bo'yicha tahlili

Xarajat turlari	Reja		Haqiqatda		Farqi	
	so'mda	foizda	so'mda	foizda	so'mda	foizda
1	2	3	4	5	6	7
Yem-xashak	38250	51,0	41080,1	52,0	2830,1	1,0
Mehnat haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari	18750	25,0	18169,9	23,0	-580,1	-2,0
Asosiy vositalarning amortizatsiyasi	10500	14,0	10269,9	13,0	-230,1	-1,0
Ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlar	4725	6,3	5609,0	7,1	884,0	0,8
Mollarni himoyalash xarajatlari	1050	1,4	1026,7	1,3	-23,3	-0,1
Boshqa xarajatlar	1725	2,3	2827,7	3,6	1102,7	1,3
JAMI	75000	100	79000	100	4000	0,0

XV bob. SAVDO TASHKILOTLARIDA TOVAR AYLANMASI TAHLILI

15.1. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida savdo tashkilotlarining tutgan o‘rni, ahamiyati va tahlilning vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hozirgi davrning asosiy vazifasidir. O‘ta dolzarb deb hisoblangan mazkur vazifa aholining moddiy va madaniy turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishni, uning samaradorligini hamda mehnat unumdorligini oshirishni, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ish sifatini tubdan yaxshilashni taqozo etadi.

Unutmaslik kerakki, barcha korxonalarining iqtisodiyotini yuksaltirish uchun bunday korxonalar va ularning bo‘linmalaridagi moddiy-texnika vositalari va mehnat resurslaridan unumli foydalanish choralarini ko‘rish, mablag‘larni ehtiyot qilish, tejab-tergab sarflash va foydalanilmayotgan imkoniyatlarni topish, ishga solish lozim. Bu borada iqtisodiy tahlil o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Tahlil samaradorligi savdo tashkiloti faoliyati ustidan rejali rahbarlikni amalga oshirish va uni nazorat qilishda g‘oyat katta ahamiyatga ega. Bu bo‘limda savdo tashkilotlarida iqtisodiy tahlilni yo‘lga qo‘yish va yuritish usullari, shuningdek, savdo tashkilotlarida tovar aylanishi tahlili va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Albatta ishlab chiqarish va boshqa sohalar o‘z mahsulotlarini xaridorlariga ya’ni savdo tashkilotlariga sotadilar. Bozor qonuniyatlari, talab va taklif, erkin narxlar, raqobat, tijorat va boshqalar savdo sohasi orqali yuzaga keladi. Savdo tashkilotlari bozorni tashkil qilish, talabni o‘rganish va tashkil etishni, korxonalar o‘rtasida raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni belgilab beradilar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bir ibora mavjud - ishlab chiqarish oson, hamma narsani o‘ylab chiqarsa bo‘ladi, ammo sotish

qiyindir. Bunda bozor sharoitida savdo tashkilotlarining zarurligi va ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Savdo tashkilotlari ham yuridik shaxs jihatidan iqtisodiyotning ajralmas sohasi bo'lganligi, o'ziga xos murakkab faoliyatni amalga oshirayotganligi va aholi iste'molini, talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababi uning faoliyatini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovarlarni sotishdan (xizmatlar ko'rsatishdan) tushgan tushum, savdo tushumi - tovar aylanmasi deyilib, u savdo tashkiloti faoliyatining asosiy ko'rsatkichidir. U bo'yicha rejalarning bajarilishi boshqa natijaviy ko'rsatkichlarni - daromad, foyda, samaradolik, aholi talabini qondirish va boshqalarni belgilab beradi. Shuning uchun savdo tashkilotlari faoliyatining tahlili tovar aylanmasi rejalarning bajarilishini o'rganishdan boshlanadi.

Savdo tashkilotlarida iqtisodiy tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Belgilangan rejani davr oraliqlari va dinamikasi bo'yicha o'rganish.

2. Tovarlarning aylanish dinamikasini o'rganish.

3. Tovar aylanmasining tarkibi bo'yicha: sotish usullari va turlari, savdoni tashkil qilish yo'llari, umumiy hajm va assortimenti bo'yicha o'rganish.

4. Tovarlar aylanishi rejasining bajarilishini va xaridorlarning tovarlar bilan ta'minlanish darajasini o'rganish.

5. Tovarlarning aylanish hajmi o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash.

6. Tovarlarning aylanish hajmini ko'paytirish uchun mavjud imkoniyatlardan to'laroq foydalanish, aylanishini tezlashtirish, zaxiralarni rejali saqlash va xaridorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash.

7. Aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida tugatish va ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish.

Iqtisodiy tahlil natijasining sifatli bo'lishi ko'p jihatdan uning manbalariga ham bog'liqdir. Tovarlarning aylanish hajmini tahlil qilish jarayonida quyidagi manbalardan foydalaniladi: savdo-moliya rejasi, buxgalteriya va statistik ma'lumotlar, joriy, tezkor olinadigan hisob ma'lumotlari va hisobotga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar.

15.2. Chakana tovar aylanmasining umumiy hajmda va tovar guruhlari bo'yicha bajarilishi tahlili.

Chakana usulda sotishning ko'pgina usullari va shakllari bo'lib, ularni o'rganishdan avval tovar aylanmasi rejasi bajarilishining umumiy hajm va dinamikasi bo'yicha, avval davrlar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda faqatgina korxonada oldiga belgilangan rejalarni qanday uddalay olganligi emas, yillarga nisbatan o'zgarishi qanday rejalashtirilganligi va qanday bajarilganligi solishtiriladi. O'rganish faqat absolyut ko'rsatkichlarda emas, balki nisbiy darajalarda qanday bo'lganligi katta ahamiyatga ega.

Ulgurji savdo tashkilotlarida reja bajarilishi tahlili o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu asosan tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berishda shartnomalarni belgilangan darajada va har bir nomenklatura, assortimentda bajarilishini hisoblashdir. Ya'ni reja bajarilishi hisobiga qabul qilinadigan miqdor shartnoma bo'yicha belgilangan hajmda qabul qilinadi, ortig'i hisobga olinmaydi, kami boricha hisobga olinadi. Bu usulni belgilangan assortiment «hajmda qabul qilish» uslubi, deyiladi.

Tovarlarning aylanish rejasi savdo korxonalarida va tashkilotlari moliyaviy - savdo rejasidagi yetakchi bo'limdir. Ular faoliyatining samaradorligi ham ko'p jihatdan reja intizomiga qay darajada rioya qilinishiga, tovarlarni sotish rejasining bajarilishi, shuningdek, tovarlar turlari, jamg'armalari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi va vaqtida sotilishi darajasiga bog'liq.

Shu sababli ham tovarlarni sotish va tovar zaxiralari rejasining bajarilish hajmi va tarkibi moliyaviy-savdo rejasining barcha bo'linmalariga – tovar zaxiralari, mehnat, muomala xarajatlari, daromad, moliya va boshqa bo'linmalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan moliyaviy-savdo rejasi tahlili uning asosiy qismi – tovarlar aylanishi rejasi bajarilishini tahlil qilishdan boshlanadi.

Tovarlarning aylanishi rejasi ijrosi faoliyatda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki savdo korxonalarida, birinchidan, tovarlar aylanishi rejasini bajarish orqali aholining xilma-xil tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, shuningdek, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib, ishlab chiqarish bo'g'inlarining ham, aholining ham mushkulini oson qiladi; ikkinchidan, tovarlarning aylanish rejasini bajarish barobarida boshqa bir qancha muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar rejasini bajarilishini ham ta'minlaydi. Masalan, korxonada muomala xarajatlari

kamaytiradi, yalpi daromadni ko'paytiradi va rentabellik darajasini oshiradi.

Chakana savdoda tovarlar aylanishi tahlili bu jarayonni rejalashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Rejali hisob-kitobning aniqligi va iqtisodiy asoslanganligi to'liq, chuqur tahlil o'tkazishni, tahlil asosida chiqarilgan xulosalar to'g'riligini ta'minlaydi.

Tahlil jarayonida tovarlar aylanishining oldingi yillarga nisbatan o'sish sur'atlarini aniqlash zarur. Bu tovarlar aylanishining avvalgiga nisbatan rivojlanishga moyilligini (qonuniyatini) aniqlash imkoniyatini beradi. Ammo unutmaslik kerakki, tovarlar aylanishining bir yillik o'sish ko'rsatkichi har doim ham bu jarayon rivojlanishga moyilligini aks ettiravermaydi, chunki tovarlar aylanishi rivojlanishiga faqat tahlil etiladigan davrga xos bo'lgan, vaqtincha amal qiladigan omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun tovarlar aylanishining hisobot yilidagi umumiy hajmi rejadagi hamda o'tgan yilgi hajmi bilan taqqoslanadi. Agar tahlil qilinadigan davrda narxlar o'zgargan bo'lsa, unda bu o'zgarish tovar aylanishi jarayonini tahlil qilishda sotish bo'yicha kutiladigan oborotni narxlar indeksiga taqsimlab, taqqoslab bo'ladigan holatga keltiriladi.

Biz tahlil qilayotgan savdo tashkilotida tovarlar aylanishi rejasining bajarilishi 15.1 - jadvalda aks ettirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, Savdo tashkiloti hisobot davridagi chakana savdo tovarlari aylanishi rejasini 92%ga bajargan, rejadagi 132400 ming so'mlik o'rniga hisobot davrida 121824 ming so'mlik yoki rejadagidan 10576 so'mlik, ya'ni 8% kam tovar sotgan. Oqibatda aholiga tovarlarni naqd pulga sotish, kreditga sotish va mayda, ulgurji jo'natilgan tovarlar bo'yicha ham rejalar bajarilmagan.

Eslatib o'tish kerakki, tovarlarning aylanish rejasi rejalashtirish yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli bajarilmagan. Bu reja o'tgan yilda ham bajarilmaganligiga qaramay korxonalar rahbarlari tomonidan tovarlarning aylanish summasi hisobot yilidagidan 5747 ming so'mga ko'p belgilangan.

15.1-jadval

Savdo tashkilotida tovarlar aylanishi rejasining bajarilishi

(ming so'm)

Chakana savdoda tovarlarning aylanishi	O'tgan yil hisoboti	Hisobot yili		O'tgan yildagiga nisbatan rejaning o'zgarishi		Haqiqatda o'tgan yildagiga nisbatan o'zgarishi		Haqiqatda rejaga nisbatan o'zgarishi	
		reja bo'yicha	haqiqatda	mutlaq summada	% hisobida	mutlaq summada	% hisobida	mutlaq summada	% hisobida
Jami	126653	132400	121824	5747	4.5	-4829	3.8	-10576	8.0
Shu jumladan, naqd pulga sotilgan tovarlar	124248	129112	119273	4864	3.9	-4975	4.0	-9839	7.6
Kreditga berilgan tovarlar	1205	2300	1771	1095	90.8	-566	46.9	-529	23.0
Mayda, ulgurji jo'natilgan tovarlar	1200	988	780	212	17.6	-420	35.0	-208	21.0

Tahlil asosida savdo tarmog‘i faoliyati salbiy baholandi, jamoaga tovarlarning aylanish rejasini bajarishi uchun savdo maydonlaridan yanada to‘laroq foydalanish chora-tadbirlarini o‘rganish, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning ilg‘or shakllarini qo‘llash, savdo shoxobchalarini ko‘paytirish va mehnat unumdorligini oshirishi zarurligi yuzasidan tavsiyalar berish mumkin.

Tovarlar aylanishi umumiy hajmining keyingi tahlillari choraklar, oylar va o‘n kunliklar bo‘yicha o‘tkaziladi. Bu tovarlar aylanishi rejasining yil bo‘yi bir maromda bajarilishini o‘rganish va aholi talabining qondirilish darajasini yil mavsumlari bo‘yicha kuzatib borish imkonini beradi. Tovarlar aylanishi rejasining choraklar, oylar va o‘n kunliklar bo‘yicha bajarilishi 15.2, 15.3-jadvallarda aks ettirilgan.

15.2-jadval

Chakana savdoda tovarlar aylanishi rejasining choraklar bo‘yicha bajarilishini tahlil qilish

ming so‘m

Choraklar	Reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farqi	Rejaning bajarilishi, %
I chorak	32500	30500	- 2000	93,8
II chorak	28500	24223	- 4277	84,9
III chorak	35100	33848	- 1252	96,4
IV chorak	36300	33253	- 3047	91,6
Jami	132400	121824	- 10576	92,0

15.3-jadval

Chakana savdoda choraklar bo‘yicha bir me‘yorda ishlashning tahlili

Choraklar	Reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farqi, +, -	Bir me‘yorda ishlash koeffitsiyenti
I chorak	24,5	25,0	0,5	2,65
II chorak	21,5	19,9	- 1,6	19,9
III chorak	26,5	27,8	1,3	26,5
IV chorak	27,5	27,3	- 0,2	27,3
Jami	100	100	-	-

Tovarlar aylanishi rejasining choraklar bo'yicha bajarilishi tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, yil davomida birorta chorakda ham reja bajarilmagan, lekin bir me'yorda ishlash koeffitsiyenti bo'yicha I–III choraklarda ish koeffitsiyenti rejasini bajarilgan, ammo reja bo'yicha tovarlar aylanishi summasining yuqori bo'lishi natijasida bir me'yorda ishlash koeffitsiyenti 98,2%ni tashkil etdi (24,5+19,9+26,5+27,3 + 98,2).

Choraklar bo'yicha tovarlar aylanishi rejasining bajarilishi tahlili sotish rejasining oylik va o'n kunliklar bo'yicha bajarilishi tahlili bilan to'ldirilishi lozim. Bunday tahlil tovarlarning aylanish rejasini yil davomida bir maromda bajarib borilishini ta'minlash va ishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko'rish imkonini beradi.

Tovarlar turlari va tuzilishlari bo'yicha aylanishini tahlil qilish analitik ishning muhim bosqichlaridir. Bunday tahlil ayrim tovarlar guruhlari va tuzilishi bo'yicha reja qanday bajarilganligini, aholi ehtiyojlarini qondirish va ayrim tovarlarning sotish moyilligi darajasini, tovarning haqiqiy tuzilishi rejadagidan farq qilishini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil jarayonida tovar aylanishi rejasining tovarlar guruhi bo'yicha va assortimenti bo'yicha bajarilishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Savdo tashkiloti tovarlarning aylanish hajmini ortig'i bilan bajarishi, lekin guruhlari va assortimenti bo'yicha aylanishi hajmini bajarmasligi mumkin. Savdo korxonalarida xodimlari tovarlarning aylanish hajmini ko'paytirish uchun savdo peshtaxtalari va omborlarini qimmatbaho va tez sotiladigan tovarlar bilan to'ldirishlari ham mumkin. Lekin bunda aholining ehtiyoji hisobga olinmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi.

15.3. Tovar balansi. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Tovar aylanmasi rejasining bajarilishi tahlilida asosiy vazifalardan biri uning bajarilishi asoslarini o'rganish hisoblanadi. Bu avvalambor tovar zaxiralari va tovarlarning kelib tushishidir. Chunki sotish ma'lum tovarning mavjudligi va ularning uzuluksiz kelib tushishiga bog'liq. Ya'ni bu tovar aylanmasi rejasining bajarilishiga tovar resurslarini o'zgarishini ta'sirini o'rganishdir.

Tovar resurslari bilan bog‘liq omillarni o‘rganish tovar balansini o‘rganish bilan boshlanadi.

Tovar balansi deganda, tovar aylanmasi sotish hajmi nimaga teng bo‘lishini ifoda etish tushuniladi. Sotish hajmi mavjud bo‘lgan tovar zaxiralari (Zb), kelib tushgan tovarlar (K), davr ichida tovarlarning boshqa chiqib ketishlari (Ch) va sotishdan keyin qolgan tovar zaxiralaridan (Zq) iboratdir. Buni quyidagicha ifodalasa bo‘ladi.

$$Zb+K=S+Ch+Zq.$$

Bu tenglikdan sotish hajmi $S=Zb+K-Ch-Zq$ kelib chiqadi.

Keltirilgan tenglik balans deb atalib, undagi boshlang‘ich tovar qoldiqlariga davr davomida kelib tushgan tovarlar qo‘shilib chiqib ketgan va davr oxiriga qolgan tovar qoldiqlari ayriladi. Tovar balansi ko‘rinishidan tovar aylanmasi (sotish)ni ko‘payishi boshlang‘ich qoldiqlarni va kelib tushgan tovarlarning ko‘p bo‘lishi hamda chiqib ketgan tovarlar va oxirgi qoldiqlarining kamligiga bog‘liqligi ko‘rinib turibdi.

Bizning misolimizda tovar balansi va uning elementlarni tovar aylanmasiga ta‘siri quyidagicha bo‘lgan:

15.4-jadval

Tovar balansi elementlari tahlili

ming so‘m

Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O‘zgarishi	Ta‘siri
Tovar aylanmasi	490050	480225	-9825	
Boshlang‘ich qoldiq	81900	84663	2763	+2763
Tovarlarining kirimi	465525	412775	-52750	-52750
Boshqa chiqib ketishi	75	123	48	-48
Oxirgi qoldiq	57300	17090	-40210	+40210

15.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tovar aylanmasi rejasining 9825 ming so‘mga kam bajarilishi tovarlarning kelib tushishini 52750 ming so‘mga kam bo‘lishi hamda chiqib ketishlar 48 ming so‘mga ko‘payishi sabab bo‘ldi. Davr oxiridagi qoldiqning 40210 ming so‘mga kamayganligi tovar aylanmasining shunchaga o‘sganligidan dalolat beradi. Agarda boshlang‘ich tovar qoldiqlari 2763 ming so‘mga ko‘p bo‘lmaganda tovar aylanmasi 12588 ming so‘mga kam bajarilar edi.

Demak korxonada asosiy e'tiborni tovarlarni keltirishga qaratishi kerak. O'z navbatida, asosiy e'tibor boshqa chiqib ketishlar, o'g'riliklar, tabiiy yo'qotishlar, o'z iste'molida ishlatishlar va boshqalarni bartaraf qilishi hamda tovarlar sotishga qaratilishi kerak.

15.4. Muomala xarajatlari tahlili

Tovarlarni ishlab chiqarishdan to' iste'molchilarga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayon bilan bog'liq xarajatlar muomala xarajatlarini tashkil etadi. Ularga yuklarni tashish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta, majburiy mol-mulk sug'urtasi, asosiy fondlarning amortizatsiyasi, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanadigan gaz va elektr quvvati, tovarlarni saqlash, qayta ishlash, saralash va joylashtirish, reklama, imoratlarni saqlash, ta'mirlash va ijara xarajatlari, tovarlarni sotish jarayonida me'yor chegarasidagi nobudgarchiliklar, idish xarajatlari va boshqa xarajatlar, shuningdek, ma'muriy - boshqaruv xodimlariga to'lanadigan mehnat haqi xarajatlari.

Chakana savdoda muomala xarajatlari aholiga yuqori darajada madaniy xizmat ko'rsatib, ularning kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish uchun tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berishga oid ijtimoiy zarur xarajatlardan tashkil topadi. Xarajatlarning asosiy qismini mehnatga haq to'lash va mehnat muhofazasi, ijtimoiy sug'urta va savdo sohasi bo'yicha kadrlarni tayyorlash xarajatlari egallaydi. Muomala xarajatlarini kamaytirish maqsadida foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash va ishga solish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Savdo korxonalarida mehnatni mexanizatsiyalash, xususan, tovarlarni qadoqlash vositalari bilan jihozlanishi, shuningdek, muomala xarajatlari miqdorini xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish barobarida kamaytirish talab etiladi.

Muomala xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiyotdagi ahamiyati shundan iboratki, bunda xarajatlar darajasi pasayishi hisobiga savdo tashkilotining foyda miqdori, rentabellik darajasi hamda iqtisodiy rag'batlantirish fondlariga ajratmalar ko'payib boradi.

Muomala xarajatlari iqtisodiy tarkibi, mazmuni va xarajatlar yo'nalishiga ko'ra, bir qancha belgilari bo'yicha tasniflanadi.

Birinchi guruhga kiradigan xarajatlar tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir. Ular transport xarajatlari, ish haqi, amortizatsiya, sanitariya qismlarining eskirishi, elektr energiya va yoqilg'i xarajatlari, tovarlarni saqlash, reklama, me'yor chegarasidagi nobudgarchiliklar, idish xarajatlari, mulklarning majburiy sug'urtasi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, kassa xo'jaligini yuritish, bir marotaba ishlatiladigan buyumlar xarajati, bozorni o'rganish va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi guruhga ma'muriy va boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar—ma'muriy va boshqaruv xodimlarining mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta, transportlarni ijaraga olish, imoratlarni ijaraga olish, ma'muriy va boshqaruv binolarini asrash, ta'mirlash va amortizatsiya hisoblash, yuqori tashkilotlarga ajratma qilish, majburiy sug'urta qilish, ma'muriy va boshqaruv xodimlariga beriladigan xizmat safari xarajatlari kiradi.

Uchinchi guruh boshqa operatsion xarajatlardan—kadrlarni tayyorlash, maslahat xarajatlari, auditor ishlari uchun to'lov, ko'p bolali ayollarga qo'shimcha ta'til berish, xodimlarga bepul tovarlar berish, pensiyaga chiqadiganlarga qo'shimcha nafaqa berish, bank xizmatlari uchun sarflar, byudjetga majburiy to'lovlar, to'lanadigan jarimalar, sud xarajatlari, aybdor shaxslar aniqlanmagan vaqtdagi xarajatlarni qoplash va boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Muomala xarajatlarini kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanishda iqtisodiy tejamga rioya qilish hamda hisob va iqtisodiy tahlilning to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega.

Tahlilning vazifalari joriy davr rejalarini tekshirish, baholash va ortiqcha sarflangan mablag'lar summasini hisoblash, xarajatlarning bir necha yillar mobaynidagi o'zgarishi dinamikasini belgilash, rejadan farq qilish sabablarini o'rganish, muomala xarajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni aniqlash, muomala xarajatlarini kamaytirish uchun imkoniyatlarni topish, kelgusi yil rejasini ishlab chiqishda tahlil materiallaridan foydalanish kabilardan iborat.

Xarajatlar - bu tovarlarni yetkazib berish natijasida kelib chiqadigan aktivlarning kamayishi yoki boshqacha sarflanishi, yoxud majburiyatlar kelib chiqishi yoki uning ham buning ham chatishmasidir. Boshqacha aytganda, xarajatlar - bu daromadlar olish davomida tovarlar ichshlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga qilingan sarflardir, yoki iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Xarajatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Bevosita xarajatlar - daromadga mos keladigan sotilgan tovarlar tannarxi. Bunday xarajatlar shu kabi operatsiyalarni bevosita yoki birgalikda o'tkazish natijasida kelib chiqadigan daromadlar tan olinishi bo'yicha tan olinadi.

Davr xarajatlari - sotish bilan bog'liq va umumiy xarajatlardir. Bu xarajatlar ular paydo bo'lgan davr mobaynida tan olinadi.

Taqsimlanmagan xarajatlar - bu amortizatsiya yoki sug'urta kabi xarajatlar. Bu xarajatlar sistematik ravishda aktivlar foyda keltirishi kutilayotgan davrlarga taqsimlanadi.

Mahsulotni sotishga bevosita tegishli bo'lgan xarajatlar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarishga sarflangan materiallar va mehnat tannarxi yoki hisobot davri davomida realizatsiya qilinadigan tovarlar, xomashyo zaxiralarini sotib olish xarajatlari (sotilgan tovarlar tannarxi);

- sotish bo'yicha komission to'lovlar, ish haqi, ijara, yukni tashish xarajatlari kabi sotish bilan bog'liq xarajatlar;

- sotilgan mahsulotning kafolat majburiyatlari bo'yicha xarajatlar.

Mahsulot yoki xizmatlar sotilishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar o'z ichiga davr xarajatlari kabi taqsimlangan xarajatlarni ham oladi. Masalan, reklama bo'yicha ma'lum xarajatlar turlari, umumiy ma'muriy xarajatlar va amortizatsiya.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom bo'yicha korxonalar davr xarajatlari - ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni boshqaruv, sotish va umumxo'jalik boshqa xarajatlaridir. Sotish bilan bog'liq xarajatlar ichida savdo va umumovqatlanish korxonalari muomala xarajatlari asosiy o'rinni egallaydi. Ularga Nizom bo'yicha: mehnatga haq to'lash; ijtimoiy sug'urta; bino-inshootlarni ijara va ta'mirlash; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi; yoqilgi; saqlash, qayta ishlash va navlarga ajratish; savdo reklamasi; tovar yo'qolishlari; tara; sug'urta; kiyim-bosh va ularni saqlash; tibbiy xizmatlar; inkassatsiya va boshqalar kiradi.

Demak, asosiy mazmun muomala xarajatlari - bu tovarlarni sotish bilan bog'liq to'g'ridan to'g'ri bo'ladigan xarajatlardir.

Muomala xarajatlari asosan mutloq summada aks ettirilsa, tahlilda bundan tashqari nisbiy ko'rsatkichlar katta ahamiyatga ega. Bu xarajatlarni tovar aylanmasiga bo'lgan nisbiy darajasidir.

Muomala xarajatlari tahlili ularni umumiy hajmini o'rganishdan boshlab, bunda ularni hajmini rejadan va avvalgi davrlardan farqi aniqlanib, mutloq va nisbiy o'zgarishi, dinamikasi va rivojlanishi ko'riladi. Tahlilning bu o'rganishdagi asosiy vazifasi - muomala xarajatlarini faqat o'zgarishini emas, balki shu o'zgarishlarga nima sabab bo'lganligi, ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, ular aniqlanadi, hisoblanadi va ta'siri baholanadi.

Muomala xarajatlari haqiqiy hajmining rejadan farqlanishi avvalo tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi - u o'ssa ko'payadi, kamaysa - pasayadi. Ammo bu yerda tahlil qilishda xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiylarga ajratish bilan o'rganish juda qo'l keladi. O'zgaruvchan xarajatlarda deb, tovar aylanmasi o'zgarishi bilan o'zgaradigan xarajatlarga aytiladi. Doimiylarga esa - tovar aylanmasi hajmiga bog'liq bo'lmagan holda doimiy hajmda - reja darajasida qolaveradigan xarajatlarga aytiladi. Bunday o'rganish muomala xarajatlarining umumiy hajmi tahlilidan keyin amalga oshiriladi.

Muomala xarajatlariga tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi ta'sirini hisoblash uchun tovar aylanmasi o'zgarish hajmini muomala xarajatlarining rejadagi darajasiga ko'paytirib, 100 ga bo'linadi.

Muomala xarajatlarining umumiy hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil bo'lib ularning o'rtacha darajasi o'zgarishining ta'siridir. Bu ta'sirni hisoblash uchun muomala xarajatlari o'rtacha darajasi o'zgarishini tovar aylanmasining haqiqiy hajmiga ko'paytirib, yuzga bo'linadi.

15.5-jadval

Muomala xarajatlari rejasining bajarilishi tahlili

ming so'mda

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	Bajarilishi, %
Tovar aylanmasi	490050	480225	-9825	98,0
Muomala xarajatlari	125534,48	126267,2	732,68	100,6
Muomala xarajatlarining o'rtacha darajasi (%da)	25,6	26,3	0,7	102,6

Ta'sir etuvchi omillarning hisobi:

1. Tovar aylanmasi o'zgarishining ta'siri $= -9825 * 25,6 / 100 = -2516,84$ ming so'm.

2. Muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi o'zgarishining ta'siri $= 0,7 * 480225 / 100 = 3249,52$ ming so'm.

Ikkala omilning ta'siri yig'indisi $= (-2516,84) + 3249,52 = +732,68$ ming so'mga muomala xarajatlari o'sgan. Bu o'sish tovar aylanmasi rejasining atigi 98% bajarilishi, ya'ni 9825 ming so'mga bajarilmaganligi muomala xarajatlarini 2516,84 ming so'mga kamaytiradi. Ammo muomala xarajatlarning o'rtacha darajasining 0,7% ga o'sishi ularni 3249,52 ming so'mga ko'payishiga olib keldi.

Nazorat savollari

1. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida savdo tashkilotlarining tutgan o'rni qanday?

2. Savdo tashkilotlarida iqtisodiy tahlilning xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Savdo tashkilotlarida iqtisodiy tahlilning vazifalari nimalardan iborat?

4. Tovar aylanmasi deganda nimani tushunasiz?

5. Chakana tovar aylanmasining umumiy hajmda va tovar guruhlari bo'yicha bajarilishini tahlil qilish tartibini tushuntirib bering.

6. Tovar balansi nimani ifodalaydi?

7. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?

8. Savdo tashkilotlarining muomala xarajatlari tarkibiga nimalar kiradi?

9. Muomala xarajatlari rejasining bajarilishini tahlil qilish tartibini tushuntirib bering.

10. Muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi qanday aniqlanadi?

11. Muomala xarajatlarning o'zgarishiga omillar ta'siri qanday aniqlanadi?

XVI bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA MODDIY VA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI

16.1. Qurilish obyektlarini ishga tushirish rejasining bajarilishi tahlili

Respublikamiz mustaqillikka erishishining dastlabki kunlaridanoq qurilish ishlab chiqarishini yoʻlga qoʻyishga hamda uni taraqqiy ettirishga hukumatimiz tomonidan katta eʼtibor berib kelinmoqda.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida kapital qurilish dasturlari keng tarzda amalga oshirilmoqda. Kapital qoʻyilmalar oʻzida yangi Asosiy vositalarni barpo etish, faoliyat koʻrsatayotganlarni rekonstruksiya qilish hamda kengaytirish bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlarni mujassamlashtiradi.

Bugungi raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida qurilish tashkilotlarini samarali boshqarish maqsadida zarur boʻlgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda iqtisodiy tahlil ularning murakkab xoʻjalik faoliyatiga obyektiv baho berishga zamin yaratadi.

Iqtisodiy tahlilni oʻtkazish jarayonida buyurtmachi tashkilot asosiy fond va noishlab chiqarish xarakteriga ega boʻlgan obyektlarga kapital qoʻyilmalarni amalga oshirish borasidagi xususiyatlarini, shuningdek pudratchining qurilish va montaj ishlari borasidagi xoʻjalik faoliyati xususiyatlarini eʼtiborga olish zarur hisoblanadi. Buyurtmachi kapital qoʻyilmalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablagʻlarni taqsimlovchi boʻlib hisoblanadi. Uning oʻzi titul roʻyxatini shakllantiruvchi, yaʼni qurilishi lozim boʻlgan kapital qurilishlar smetalarini tuzuvchi boʻlib hisoblanadi.

Buyurtmachi qurilishni oʻz vaqtida loyiha-smeta hujjatlari, jihozlar, ayrim turdagi qurilish materiallari bilan taʼminlaydi hamda qurilish-montaj ishlarini tizimli nazorat va texnik tekshiruvlarni amalga oshiradi. Shuningdek, davlat komissiyalari tomonidan tasdiqlangan aktlarga muvofiq bajarilgan ishlarga haq toʻlash va tugallangan obyektlarni qabul qilish bilan shugʻullanadi.

Buyurtmachi, pudratchi va kapital qurilish faoliyati tahlilining umumiy masalalari kapital qo'yilmalarni hududiy joylashtirish, tarmoqdagi o'rni (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish), yo'nalishlari (yangi obyektlar va amaldagi obyektlarni rekonstruksiyalash), mulkchilik shakllari va moliyalashtirish manbalari bo'yicha turkumlashtirishdan iborat.

Yirik hududiy qurilish birlashmalarini tashkil etish barcha ish bajaruvchilarni boshqarishni, ratsional ixtisoslashuv va ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvini, mehnat va moddiy resurslarni boshqarish, topshirilgan dasturga to'g'ri keladigan quvvatlarni optimal ravishda shakllantirishni ta'minlash borasida progressiv shakli bo'lib hisoblanadi.

Qurilish tashkilotining barcha iqtisodiy ko'rsatkichlari – mahsulot tannarxi, foyda, rentabellik va moliyaviy holat ko'rsatkichlari bevosita qurilish-montaj ishlari hajmi va sifati bo'yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun qurilish tashkilotlari faoliyati tahlili, odatda, qurilish ishlari hajmi va obyektlarni foydalanishga topshirishni o'rganishdan boshlanadi.

Qurilish xo'jalik faoliyatini tahlil qilinganda ushbu ishlab chiqarish mahsulotlarining xususiyatlariga to'liqroq ahamiyat berish lozim. Ularga: qurilish-montaj ishlarining bajarilishi, obyektlar qurilishining bosqichlari yoki navbatlari hamda maqsadli foydalanish uchun bitkazilganlari kiritiladi. Qurilishning tugallangan obyekt bo'lib alohida loyiha va smeta tuzilgan hamda tasdiqlangan binolar, inshootlar yoki sanoat-xo'jalik kompleksi (zavod, fabrika) hisoblanadi.

Foydalanishga topshiriladigan obyektlarning natural o'lchov birliklari, ularning quvvati hamda qiymatdagi ifodasi ularning smetasida aks etadi. Ishlab chiqarish quvvatlarini va qurilish obyektlarini, kapital qo'yilma rejalari bajarilishini tahlil etishda analitik jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir buyurtmachi bo'yicha analitik jadvallar tuziladi, ularda natural va qiymat ko'rsatkichlarida reja bo'yicha hamda haqiqatdagi ma'lumotlarning rejaga nisbatan farqi va rejaning bajarilish ko'rsatkichlari aks ettiriladi.

Tahlil jarayonida biznes reja bo'yicha tasdiqlangan barcha obyektlar foydalanish uchun vaqtida topshirilganligi, qaysi obyektlar, ishlab chiqarish quvvatlari, majmualari, Asosiy vositalar nima uchun reja bo'yicha ishga tushirilmaganligi sabablari aniqlanib ular bo'yicha dalolatnomalar tuzilmaganligi aniqlanadi. Haqiqatda ishga tushirilgan

ishlab chiqarish quvvatlarining natura va qiymat ko'rsatkichlari loyiha va biznes reja ma'lumotlariga mos kelishi aniqlanadi. Tahlil jarayonida obyektlarning ishga tushirilishi natijasida loyihalashtirilgan unumdorlikka yoki darajaga erishilganligiga alohida e'tibor beriladi. Chunki loyiha quvvatiga qanchalik tez erishilsa, obyektning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.


Qurilish jarayonida tahlilni amalga oshirishda ishga tushirish grafiklari bo'yicha hamda dastlabki hisobot ma'lumolaridan ham to'liq foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Shu ma'lumotlar yordamida obyektlar qurilishining me'yoriy muddatlari bilan rejalashtirilgan muddatlari hamda ishga tushirish, ulardan foydalanish holatlari to'liq tahlil etiladi. Obyektning ishga tushirilishini rejalashtirilgan muddati biznes rejada, me'yoriy muddati esa obyektning loyihasida o'z aksini topadi. Obyektlarning haqiqatda ishga tushirilish muddati qurilayotgan obyekt bo'yicha xarajatlarini buxgalteriya hisobotida hisobga olingan davridan toki shu obyektни ishga topshirilishi bo'yicha dalolatnomalarni tuziladigan muddatdan iborat bo'ladi. Shu muddatlar qanchalik bir biriga mos kelsa, ularga sarflangan kapital qo'yilmalar shunchalik samarali hisoblanadi.

Qurilish va qurilish tashkilotlari xo'jalik faoliyatlarini kompleks tahlil etishning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Qurilish ishlab chiqarishining tashkiliy va ilmiy-texnikaviy darajasining o'zgarishini tadqiq etish.
- Qurilish ishlari hajmi va ularni buyurtmachilarga topshirish dinamikasi va reja bajarilishi darajasini baholash.
- Qurilish obyektlarining loyiha-smeta hujjatlari, texnologik jihozlar va buyurtmachining fondlari hamda ajratilgan limitlariga mos keluvchi moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tekshirish.
- Asosiy vositalarni va ishlab chiqarish quvvatlarini hajmi, qiymat va natural ko'rinishida, ishlar muddati va turlari bo'yicha foydalanishga topshirish rejasining bajarilishiga baho berish.
- Kapital qo'yilmalar hajmi, tarkibi va manbalari bo'yicha rejasining bajarilishini aniqlash.
- Qurilish-montaj ishlari hajmi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash.
- Qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish darajasini hamda qurilish ishlarining mexanizatsiyalashtirilganligiga baho berish.

- Qurilish tashkilotlarining foyda va rentabelligi rejalarining bajarilishiga baho berish.
- Tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi, tarkibi va kompleksligini baholash.
- Qurilish tashkilotlarining moliyaviy holatiga baho berish.
- Qurilish-montaj ishlari hajmini oshirish bo'yicha mavjud rezervlarni aniqlash va ularni o'zlashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlilning axborot manbalariga quyidagilar kiradi: qurilish tashkilotining biznes rejasi, pudrat va subpudrat shartnomalari, loyiha-smeta hujjatlari, alohida ishlarni bajarish reja-grafiklari, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va ma'lumotnomalar, bajarilgan ishlarni hisobga olish jurnali, qabul qilish komissiyalarining dalolatnomalari va hokazo.



16.1-chizma. Qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlil obyekti

Qurilish tashkilotlari mahsuloti hajmi natura, mehnat va qiymat o'lchovlarida aniqlanadi.

Natura o'lchovi bajarilgan ishning fizik hajmini ko'rsatadi, ish turiga ko'ra, turli o'lchov birliklarida aks ettiriladi (m^2 , m^3 va hokazo).

Mehnat o'lchovi qurilish-montaj ishi hajmini umumiy tavsiflashda qo'llaniladi. Ish hajmini to'liq qurilish tashkiloti yoki qurilish uchastkalari bo'yicha norma-soatlarda aks ettirish mumkin.

Qurilish-montaj ishlari hajmining asosiy o'lchov birligi-qiymat o'lchovi hisoblanadi. Qiymat o'lchovi turli ko'rinishdagi va turdagi bajarilgan qurilish-montaj ishlarini shartnomaviy yoki taqqoslama narxlarda qurilish obyektlari bo'yicha, komplekslari bo'yicha,

bosqichlari bo'yicha, buyurtmachilar bo'yicha umumlashgan o'lchovda baholash imkonini beradi.

Qurilish-montaj ishlari hajmining tahlili uning oxirgi bir necha yillik ko'rsatkichlari dinamikasini taqqoslama narxlarda o'rganishdan boshlanadi. Qurilish mahsulotining o'sish surati bazisli va zanjirli usullarda hisoblanadi. Qurilish tashkiloti faoliyatining barqarorligiga, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yuzasidan ish faolligiga, buyurtmalar portfelini shakllantirilishiga hamda qurilish ishlari bo'yicha shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishiga baho beriladi.

Qurilish tashkilotlarida hisobot davrida ishlab chiqarish dasturining bajarilishini baholash qurilish-montaj ishlarining haqiqiy hajmini qurilish tashkiloti, qurilish uchastkalari va qurilish obyektlari bo'yicha reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

16.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1-qurilish bo'limida ombor va maktab binosining qurilishidagi rejadan og'ishishlar bu bo'limda qurilish-montaj ishlarining 96,4 foizga bajarilishiga olib kelgan Qurilish obyektlari bo'yicha reja bajarilishining turli darajadaliigi tashkiliy ishlardagi mavjud kamchiliklardan dalolat beradi. Tahlil jarayonida reja bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayoni natijasiga subpudrat tashkilotlari bajaradigan ishlar ulushining ta'siri ham aniqlanishi kerak. Ko'p hollarda alohida qurilish obyektlari bo'yicha rejalarning o'z vaqtida bajarilmasligiga buyurtmachining aybi bilan moliyalashtirishdagi uzilishlar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Pudrat shartnomalarining bajarilishini nazorat qilish maqsadida alohida buyurtmachilar va yo'nalishlar bo'yicha rejalarning bajarilishi tahlil etiladi: sanoat binolari, madaniy-maishiy binolar, uy-joy binolari qurilishlari bo'yicha va hokazo.

Shuningdek, qurilish-montaj ishlarining tuzilmasi ham tahlil qilinadi. Binolar qurilishidagi material sig'imi, mehnat sig'imi va fond sig'imi bo'yicha farqlanishlar hamda bajariladigan ish turlari qurilish ishlari qiymatiga, tannarxiga, foydasiga va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Nisbatan qimmat turuvchi qurilish obyektlari va ish turlarining jami mahsulotdagi ulushining ortishi qiymat ifodasida qurilish mahsuloti hajmining ortishiga olib keladi va aksincha. Ushbu omilning qurilish ishlari hajmiga ta'sirini aniqlash uchun nisbiy farqlar usulidan foydalaniladi.

Qurilish-montaj ishlari rejasi bajarilishi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Bajarilgan ishlar hajmi, mlnso'm		Mutloq farq	Rejaning bajarilishi, %
		reja	haqiqatda		
1	Bosh pudrat shartnomasi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari qiymati	104000	109600	5600	105,4
2	Subpudrat shartnomasi bo'yicha bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi	27200	28960	1760	106,5
3	O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi, jumladan	76800	80640	3840	105,0
3.1	1-qurilish bo'limida	28640	27616	-1024	96,4
a	Bolalar bog'chasi	4000	4000	0	100,0
b	Turar-joy uyi	8960	9600	640	107,1
c	Ombor binosi	5760	4480	-1280	77,8
d	Maktab	9920	9536	-384	96,1
3.2	2-qurilish bo'limida	48160	53024	4864	110,1
a	Konserva zavodi	8000	8800	800	110,0
b	Mol fermasi	16000	17280	1280	108,0
c	Turar-joy kompleksi	24160	26944	2784	111,5

Buning uchun dastlab qurilish-montaj ishlari hajmi bo'yicha qiymat ifodasida reja bajarilishi koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$K_q = \frac{80640}{76800} = 1,05.$$

Endi qurilish-montaj ishlari bo'yicha sarflangan norma-soatlar bo'yicha reja bajarilishi koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K_t = \frac{242050}{235000} = 1,03.$$

Ushbu koeffitsiyentlar o'rtasidagi farqni qurilish-montaj ishlarining rejadagi qiymatiga ko'paytirish orqali tarkibiy o'zgarishlar hisobiga qurilish montaj-ishlari qiymati qanchaga o'zgarganligi aniqlanadi:

$$\Delta V_{tar.o'zg} = (1,05 - 1,03) * 76800 = 1536 \text{ mln. so'm.}$$

Qurilish me'yorlari va qoidalariga amal qilinishi qurilish-montaj ishlarining sifatini baholash mezonini bo'lib hisoblanadi.

Qurilish ishlari sifati quyidagi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

1. Loyiha-smeta hujjatlarining sifati.
2. Bajariladigan ishlarning sanoatlashganlik darajasi (foydalaniladigan konstruksiya, detal va qismlarning zavodlarda ishlab chiqarilganligi yaroqsiz mahsulotlarning kamayishiga imkon yaratadi).
3. Qurilish ishlarida texnik va texnologik shartlarga qat'iy amal qilinishi.
4. Foydalaniladigan materiallar sifati.
5. Ishchi va muhandis-texnik xodimlarning malakasi.
6. Mehnatni tashkil etish darajasi.
7. Ishlab chiqarish maromiyligi va hokazo.

16.2. Qurilishda mehnat resurslaridan, mashina, mexanizm va boshqa asosiy vositalardan foydalanish tahlili

Qurilish-montaj ishlari hajmiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Ish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Mehnat omillari (qurilish tashkilotlarining mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va mehnat unumdorligi).

2. Mehnat qurollari (qurilishni mashina, mexanizmlar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish).

3. Mehnat predmetlari (qurilishni qurilish materiallari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish).

Qurilish tashkilotlarida ham sanoat va boshqa tarmoqlardagi singari tahlilning dastlabki bosqichida qurilish tashkilotlarining mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ish vaqti fondidan foydalanish, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari tahlili amalga oshiriladi.

Qurilishda muhim mehnat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilar:

1. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha ish unumi.
2. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish unumi.
3. Bir kunda bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish unumi.

Ish unumi ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi jadval tuziladi:

16.2-jadval

Qurilish tashkilotida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi	
				Mutloq	%
Qurilish-montaj ishlari hajmi (Smeta qiymatida tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini hisobga olgan holda) (o'z kuchi bilan bajarilgan)	mln so'm	76800	80640	3840	5,00
Qurilish-montaj ishlaridagi xodimlarning o'rtacha soni	kishi	350	338	-12	-3,43
Shu jumladan, ishchilar	kishi	286	280	-6	-2,10
Ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlari	kishi kunlari	68640	66080	-2560	-3,73
Bitta ishchiga bir yilda to'g'ri keladigan o'rtacha ish kunlari (4:3)	kun	240	236	-4	-1,67
Bitta xodimga to'g'ri keladigan ish hajmi (1:2)	mln so'm	219,43	238,58	19,15	8,73
Bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish unumi (1:3)	mln so'm	268,53	288,00	19,47	7,25
Bir ishchini o'rtacha bir ish kuniga to'g'ri keladigan ish unumi (1:4)	mln so'm	1,12	1,22	0,10	9,07
Ishchilarning jami xodimlardagi ulushi (3x100:2)	%	81,71	82,84	1,13	1,38

16.2-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, hisobot davridagi bitta xodimga to'g'ri keladigan ish unumi rejaga nisbatan 19,15 mln so'mga yoki 8,73 % ga oshgan. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan ish unumi esa hisobot davrida rejaga nisbatan 19,47 mln so'mga yoki 7,25 % ga o'sgan. O'rtacha bitta xodimga to'g'ri keladigan ish unumi bilan, o'rtacha bitta ishchiga to'g'ri keladigan ish unumining o'sishi suratini bir biridan farq qilishi shundan dalolat beradiki, ishchilar sonining jami xodimlar tarkibidagi salmog'i o'zgargan. Bir ishchini o'rtacha bir ish kuniga to'g'ri keladigan ish unumi rejaga nisbatan 0,10 mln so'mga yoki 9,07 % ga oshgan. O'rtacha bitta ishchiga hamda bir ish kuniga to'g'ri keladigan ish unumlari o'sish suratlari farqi (107,25%;109,07%) bo'lishi shundan dalolat beradiki ish kunlari bo'yicha yo'qotishlar bo'lgan.

Ma'lumki, har bitta ishchi rejaga nisbatan o'rtacha 4 kun kam ishlagan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qurilish-montaj ishlari hisobot yilida rejaga nisbatan 3840 mln so'mga, ya'ni 5 % ga ortgan. Ish hajmini bajarilishiga 2 omil ta'sir ko'rsatgan. Ta'sir ko'rsatuvchi omillar farqini topish usulida quyidagicha aniqlanadi.

1. Qurilish-montaj ishlari bilan band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi.(Ekstensiv omil)- $12 \cdot 219,43 = - 2633,14$ mln so'm.

2. Bitta xodimga to'g'ri keladigan ish unumini o'zgarishi (intensiv omil) $19,15 \times 338 = + 6473,14$ mln so'm. Ikkita omilning yig'indisi $-2633,14 + 6473,14 = +3840$ mln so'm ish hajmi bo'yicha umumiy farqini beradi.

Endi yuqorida qayd qilingan omillarni zanjirli bog'lanish usulida aniqlaymiz, uning uchun quyidagi jadvalni tuzamiz.

16.3-jadval

Qurilish-montaj ishlari hajmiga mehnat omillari ta'siri tahlili

Ko'rsatkichlar Bog'lanishlar	Yakka tartibdagi omillar		Qurilish-montaj ishlari bo'yicha umumiy qo'rsatkich(ming so'm)	Oldingi hisobdan farqi	O'zgarish sabablari
	xodimlar soni	ish unumi			
1	350	219,43	76800		-
2	338	219,43	74166,86	-2633,14	Xodimlar sonining o'zgarishi (kamayishi)
3	338	238,58	80640	+ 6473,14	Ish unumini o'zgarishi (o'sishi)
			balans	+ 3840	

Oldingi jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, mehnat unumdorligi darajasi hisobot davrida rejaga nisbatan 19,15 mln so'mga oshgan. Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi asosan ikki omilga bog'liq bo'lgan.

1. Ishchilar sonini jami xodimlar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi:

$+1,13 \cdot 268,53 : 100 = +3,02$ mln so'mni tashkil etgan. Bu esa mehnat unumdorligi darajasining ekstensiv omil hisobiga o'sganligini bildiradi.

2. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligini o'zgarishi:

$19,47 \cdot 82,84 : 100 = +16,13$ mln so'm, yoki bu o'z navbatida mehnat unumdorligi darajasini intensiv omil oshishi hisobiga o'sganligini bildiradi.

Ikki omillarning yig'indisi mehnat unumdorligi bo'yicha umumiy farqini beradi: $+3,02 + 16,13 = +19,15$ mln so'mni tashkil etadi.

Qurilishda ham sanoat kabi asosiy fondlar ikki guruhga bo'linadi, ya'ni ishlab chiqarishga taalluqli asosiy fondlar ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan asosiy fondlar. O'z navbatida bu asosiy fondlar aktiv va passiv qismlarga ajratiladi.

Asosiy fondlarning aktiv qismiga mashina va asbob uskunalar, kuch beruvchi mashinalar va uskunalar, transport vositalari va boshqalar, asosiy vositalarning passiv qismiga imorat va inshootlar kiradi.

Asosiy fondlarni tahlil qilishda tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

- asosiy fondlarning texnik holatiga baho berish;
- qurilish tashkilotlarining mashina va mexanizmlar bilan ta'minlanish darajasini aniqlash;
- qurilish – montaj ishlarining mexanizatsiyalash darajasini aniqlash;
- quruvchi mashinalar parkining quvvati bo'yicha foydalanish darajasiga baho berish;
- asosiy fondlardan foydalanishning samaradorligi darajasini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblab chiqib, samaradorlikni oshirish bo'yicha imkoniyatlarni belgilab berishdan iborat.

Asosiy fondlardan foydalanish darajasi va ularning texnik holatini tahlili sanoat tarmog'ida qanday bo'lsa, qurilishda ham shu tartibda olib boriladi. Tahlil qilinayotgan qurilish tashkilotlarida asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

16.4-jadval

Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+/-)
Qurilish-montaj ishlari hajmi, mlnso'm	76800	80640	3840
Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, m.s.	1320	1430	110
Shu jumladan aktiv qismi m.s.	1174,8	1301,3	126,5
Har ming so'mlik asosiy fondlardan olingan fond samarasi, so'm (1:2)	58181,82	56391,61	-1790,21
Har ming so'mlik asosiy fondlarning aktiv qismidan olingan fondlarning samaradorlik darajasi (1:3) so'm.	65372,83	61968,80	-3404,03
Asosiy fondlarning aktiv qismini jami fondlar tarkibidagi salmog'i, (3:2) so'm	89	91	2

Jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qurilish tashkiloti o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish-montaj ishlari rejasi 3840 mln so'mga ortig'i bilan bajarilgan. Ish hajmining ortishiga ikkita omil ta'sir ko'rsatgan:

1. Asosiy fondlar qiymatining o'zgarishi ta'siri:

$$+110 * 58181,82 = +6400 \text{ mln so'm.}$$

2. Fond samarasi o'zgarishining ta'siri: $-1790,21 * 1430 = -2560$ mln so'm.

Ikkita omilning yig'indisi $+6400 - 2560 = +3840$ mln so'm. Tahlilning keyingi bosqichida har ming so'm asosiy fondan olingan fond samarasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanmog'i lozim. Bizning misolimizda rejaga nisbatan 1790,21 mln so'mga kamaygan. Buning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatagan:

1. Asosiy fondlarning aktiv qismining jami asosiy fondlar tarkibidagi salmog‘ini o‘zgarishining ta’siri: $+2 * 65372,83 : 100 = +1307,46$ mln so‘m.

2. Har ming so‘m asosiy fondlar aktiv qismiga to‘g‘ri keladigan fond samarasining o‘zgarishi: $-3404,03 * 91 : 100 = -3097,67$ mln so‘m.

Ikki omilning yig‘indisi fond samarasi bo‘yicha umumiy farqni beradi: $+1307,46 - 3097,67 = -1790,21$ mln so‘m.

Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasiga alohida e’tibor berilishi lozim. Keyingi vaqtlarda fondlardan foydalanish samaradorligi pasayib bormoqda. Bunga asosiy sabab qurilish ishlari muddatining cho‘zilishi, kapital qurilmalarning noqonuniy chetga jalb qilinishi, yetarli darajada mehnat resurslari bilan ta’minlanmasligi, materiallar bilan ta’minlanishi, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va mashina parkining eskirishi sabab bo‘lishi mumkin.

Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasi, birinchidan alohida olingan mashina va mexanizmlarning quvvatini oshirish hisobiga, ikkinchidan ishlarning intensiv usulda olib borilishi, yangi texnikani joriy etish, mehnatning ilg‘or usullarini tashkil etish va qurilish ishlarida mehanizatsiya darajasini oshirishdan iboratdir.

16.3 Qurilish ishlari tannarxi tahlili

Qurilish-montaj ishlari tannarxi qurilish tashkiloti faoliyati natijasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Qurilish tashkilotlarining moliyaviy natijalari, moliyaviy holati va qurilish mahsuloti va xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi qurilish mahsuloti tannarxi darajasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu sababli qurilish mahsuloti tannarxi shakllanishi ustidan doimiy nazorat olib borish va uni kamaytirish rezervlarini aniqlash talab etiladi.

Tahlil jarayonida quyidagilar o‘rganiladi:

- Qurilish mahsuloti tannarxining umumiy o‘zgarishi.
- Alohida qurilish obyektlari tannarxining o‘zgarishi.
- Mahsulot tannarxining xarajat moddalari bo‘yicha o‘zgarishi.
- Qurilish mahsuloti tannarxining umumiy va xarajat moddalari bo‘yicha o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar.
- Xarajat moddalari bo‘yicha tannarxni pasaytirish rezervlari.

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida har qanday qurilish tashkilotlari arzon moddiy texnika resurslaridan, yangi texnikalardan, ilg'or texnologiyalardan oqilona foydalanish natijasida ko'proq foyda olish va o'zining iqtisodiy holatini yaxshilashga intiladi. Qurilish loyiha tashkilotlari rejalashtirilgan mahsulotlar, ishlar tannarxini haqiqiy tannarx bilan taqqoslashga intiladi. Shuning natijasida xarajatlarni kamayishi yoki ortishi aniqlanadi. Qurilish ishlab chiqarishida qurilish-montaj ishlarining quyidagi tannarxlari aniqlanadi:

- rejalashtirilgan (me'yoriy ma'lumotlar asosida) aniqlanadigan tannarx;

- smeta bahosi (tannarxi);
- haqiqiy tannarx.

Shu tannarx ko'rsatkichlarining bir yillik yoki bir necha yillik darajasi aniqlanib, ular taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida haqiqiy tannarxning oshganligi yoki kamayganligi, unga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Bunda qurilish-montaj ishlarini bajarilishini tahlil etishda tannarxning xarajatlar moddalari bo'yicha amalga oshirish lozim.

Qurilish mahsuloti tannarxining tahlili umumiy xarajatlar summasini o'rganishdan boshlanadi. Umumiy xarajatlar summasi qurilish-montaj ishlarining hajmi va tarkibiy tuzilishi, mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar darajasi hamda umumiy doimiy xarajatlar summasining o'zgarishi hisobiga o'zgaradi.

16.5-jadval

Umumiy xarajatlar summasi tahlili uchun ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	Summa, mln sum
1	Qurilish mahsulotining reja tannarxi, jumladan	55600
	a) O'zgaruvchan xarajatlar	38880
	b) Doimiy xarajatlar	16720
2	Reja struktura bo'yicha haqiqiy hajmdagi mahsulot hajmiga qayta hisoblangan reja tannarxi $38880 \cdot 1,03 + 16720$	56766,4
3	Haqiqiy mahsulot hajmi va qurilish-montaj ishlarining haqiqiy tarkibiy tuzilishi bo'yicha qayta hisoblangan reja tannarxi $\sum(V_{QMih} \cdot b_{ir}) + a_r$	58880
4	Rejadagi doimiy xarajatlar bo'yicha hisoblangan haqiqiy tannarx $\sum(V_{QMih} \cdot b_{ih}) + a_r$	61600
5	Qurilish mahsulotining haqiqiy tannarxi $\sum(V_{QMih} \cdot b_{ih}) + a_h$	67200

$$\Delta S_{umum} = 67200 - 55600 = 11600 \text{ mln. so'm.}$$

Jumladan,

$$\Delta S_q = 56766,4 - 55600 = 1166,4 \text{ mln. so'm.}$$

$$\Delta S_{tar.o'zg} = 58880 - 56766,4 = 2113,6 \text{ mln. so'm.}$$

$$\Delta S_{o'zg.xar} = 61600 - 58880 = 2720 \text{ mln. so'm.}$$

$$\Delta S_{doim.xar} = 67200 - 61600 = 5600 \text{ mln. so'm.}$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qurilish-montaj ishlari hajmining rejaga nisbatan ortishi hisobiga umumiy xarajatlar summasi 1166,4 mln so'mga ortgan. Qurilish-montaj ishlari tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar, ya'ni qimmat obyektlar ulushining ortishi hisobiga mahsulot tannarxi 2113,6 mln so'mga ortgan. O'zgaruvchan xarajatlar darajasining ortishi umumiy xarajatlarni 2720 mlnso'mga o'sishiga olib kelgan. Doimiy xarajatlar summasining ortishi esa umumiy xarajatlarni 5600 mlnso'mga oshirgan. Barcha omillar ta'sirida umumiy xarajatlar summasi 11600 mln so'mga oshgan. Qurilish tashkiloti xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirishi, tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud rezervlarni aniqlab, ulardan foydalanish choralarini ko'rish lozim.

O'zgaruvchan va doimiy xarajatlarning sezilarli darajada o'sganligi qurilish mahsulotining resurs sig'iminin ortishi yoki resurslar narxining ortishi natijasi bo'lishi ham mumkin.

Tahlilning keyingi bosqichida qurilish mahsulotining bir so'miga to'g'ri keladigan xarajatlar dinamikasi, reja bajarilishi o'rganiladi va ularning o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

16.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib, turibdiki, qurilish-montaj ishlari bir so'miga to'g'ri keladigan xarajatlar 7,6 tiyinga oshgan. Bu qurilish tashkiloti ish samaradorligining pasayganligidan dalolat beradi. Qurilish-montaj ishlari hajmining o'zgarishi hisobiga bir so'm mahsulotgan to'g'ri keladigan xarajatlar 0,6 tiyinga pasaygan bo'lsa, qurilish-montaj ishlari narxining oshishi 3,3 tiyinga pasayishiga olib kelgan. Boshqa barcha omillar bir so'm mahsulotgan to'g'ri keladigan xarajatlarning ortishiga olib kelgan. Bu omillar bo'yicha tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash talab etiladi.

**Qurilish-montaj ishlarining bir so‘miga to‘g‘ri keladigan
xarajatlarning omilli tahlili**

№	Qurilish-montaj ishlarining bir so‘miga to‘g‘ri keladigan xarajatlar, tiyin	Omillar					
		qurilish-montaj ishlar hajmi	qurilish-montaj ishlari tarkibiy tuzilishi	o‘zgaruvchan xarajatlar darajasi	doimiy xarajatlar summasi	qurilish mahsuloti bahosi	
1	Reja = $55600/76800 = 72,4$	reja	reja	reja	reja	reja	
2	1-shartli = $56766,4/79104 = 71,8$	haqiqat	reja	reja	reja	reja	
3	2-shartli = $58880/80640 = 73,0$	haqiqat	haqiqat	reja	reja	reja	
4	3-shartli = $61600/80640 = 76,4$	haqiqat	haqiqat	haqiqat	reja	reja	
5	4-shartli = $67200/80640 = 83,3$	haqiqat	haqiqat	haqiqat	haqiqat	reja	
6	Haqiqat = $67200/84000 = 80,0$	haqiqat	haqiqat	haqiqat	haqiqat	haqiqat	
	$\Delta_{umum.} = 80,0 - 72,4 = 7,6$	$71,8 - 72,4 = -0,6$	$73,0 - 71,8 = +1,2$	$76,4 - 73,0 = +3,4$	$83,3 - 76,4 = +6,9$	$80,0 - 83,3 = -3,3$	

Qurilish mahsuloti tannarxida eng yuqori ulushning hajmi qurilish-montaj ishlari hajmi va tarkibiy tuzilishiga, moddiy resurslar narxiga hamda mahsulot birligiga material sarf me'yoriga bog'liq bo'lgan moddiy xarajatlar tashkil qiladi.

16.7-jadval

**Qurilish tashkilotida xarajatlar tarkibi
va tuzilishi tahlili**

№	Xarajat moddalari	Xarajatlar summasi, mln so'm			Xarajatlar tarkibiy tuzilishi, %		
		reja	haqiqatda	o'zgarishi	reja	haqiqatda	o'zgarishi
1	Moddiy xarajatlar	36800	43200	6400	66,2	64,3	-1,9
2	Mehnat haqi xarajatlari	7520	8480	960	13,5	12,6	-0,9
3	Mashina va mexa- nizmlarni ekspluatat- siya qilish xarajatlari	4800	5600	800	8,6	8,3	-0,3
4	Ustama xarajatlar	6480	9920	3440	11,7	14,8	3,1
	Jami xarajatlar	55600	67200	11600	100,0	100,0	0,0

16.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qurilish tashkiloti xarajatlarining 11600 mln so'mga oshishida inflyatsiya hisobiga qurilish materiallari narxining o'sishi katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, material xarajatlarning normasiga nisbatan ham sezilarli darajada ortganligi kuzatilgan. Buning natijasida qurilish mahsulotining material sig'imi ortgan va bu o'z navbatida tannarxning o'sishiga hamda foydaning kamayishiga olib keladi. Bu ortiqcha xarajatlarni qurilish mahsuloti tannarxini pasaytirishdagi foydalanilmagan rezerv sifatida qarash mumkin.

Material xarajatlar summasining me'yordan og'ishishi hisobot davrida materiallar sifatini qayta ko'rib chiqilib, o'zgartirilishi hisobiga ham bo'lishi mumkin, ya'ni sifatli qurilish materiallaridan foydalanish, o'z navbatida material xarajatlarning me'yordan ortishiga olib keladi. Shuningdek, material xarajatlarining ortishi xodimlar malakasiga, yaroqsiz mahsulot hajmiga, material resurslarning saqlanishi va

ulardan samarali foydalanish ustidan nazoratni tashkil etilganligiga va boshqa omillarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Qurilish materiallari narxining o‘zgarishi esa inflyatsiya darajasiga, materialar bozoridagi va ta‘minotdagi o‘zgarishlar, yetkazib berishning uzoqligi, transport tariflari darajasi bo‘xona yig‘imlari va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Mehnat haqi xarajatlari moddasi bo‘yicha xarajatlar summasining o‘zgarishi qurilish-montaj ishlarining hajmi va tarkibiy tuzilishining o‘zgarishi, qurilish mahsulotining mehnat sig‘imi hamda bir kishi-soat bajarilgan ish uchun mehnat haqi darajasining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.

Mashina va mexanizmlarni ekspluatatsiya qilish xarajatlari tarkibiga qurilish texnikasining amortizatsiyasi, ularni ta‘mirlash xarajatlari, ekspluatatsiya xarajatlari, qurilish obyektlari bo‘yicha texnikalarni ko‘chirish va o‘rnatish xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar tarkibida faqat amortizatsiya xarajatlari qurilish-montaj ishlari hajmiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ekspluatatsiya xarajatlari to‘liqligicha, ta‘mirlash xarajatlari esa qisman qurilish-montaj ishlari hajmiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Demak, bundan ko‘rinadiki, ushbu modda xarajatlarining o‘zgarish sababi qurilish-montaj ishlarining hajmi va xarajatlar darajasining o‘zgarishi bo‘lishi mumkin.

Qurilish mahsuloti tannarxida, shuningdek, eng katta ulushni ustama xarajatlar tashkil qiladi. Bu xarajatlar moddasi o‘z ichiga ma‘muriy-boshqaruv xarajatlarini, qurilish xodimlariga xizmat ko‘rsatish xarajatlari, qurilish maydonlaridagi tashkiliy xarajatlar, noishlab chiqarish xarajatlari, brakdan yo‘qotishlar va boshqa xarajatlarni oladi. Bu xarajatlarning bir qismi shartli-doimiy xarajatlar bo‘lsa, bir qismi shartli-o‘zgaruvchan xarajatlardir.

Ustama xarajatlarni moddalar bo‘yicha tahlil qilish ularning o‘zgarishiga ichki va tashqi omillarni hamda foydalanilmagan ichki rezervlarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, qurilish tashkilotlarining resurs salohiyatini, moliyaviy natijalari va moliyaviy holati ko‘rsatkichlari tahlili sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalaridagi shu turdagi ko‘rsatkichlar tahlilidan sezilarli darajada farq qiladi.

Nazorat savollari

1. Qurilish tashkilotlarining mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti-dagi ahamiyati va o‘rni nimalardan iborat?
2. Qurilish tashkilotlari faoliyati tahlilining xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Qurilish tashkilotlari faoliyati tahlilining vazifalarini sanab bering.
4. Qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlilning axborot manbalariga nimalar kiradi?
5. Qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlil obyektiga nimalar kiradi?
6. Qurilish-montaj ishlari bo‘yicha reja bajarilishini tahlil qilish tartibini tushuntirib bering.
7. Qurilish-montaj ishlari sifati qaysi omillarga bog‘liq?
8. Qurilishda mehnat resurslaridan foydalanish tahlilida qanday ko‘rsatkichlar o‘rganiladi, ularni aniqlash tartibi qanday?
9. Qurilishda mashina, mexanizm va boshqa asosiy vositalardan foydalanish tahlilida qanday ko‘rsatkichlar o‘rganiladi va ularni aniqlash tartibi qanday?
10. Qurilishda ishga tushirilgan obyektlar uchun sarflangan kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
11. Qurilish tashkiloti mahsuloti tannarxi nimani anglatadi va u qanday aniqlanadi?
12. Qurilish tashkiloti mahsuloti tannarxi tahlilining vazifalarini sanab bering.
13. Qurilish tashkilotlari mahsuloti tannarxi qanday xarajatlardan tashkil topadi?
14. Qurilish tashkiloti mahsuloti tannarxiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

IQTISODIY TAHLILDAN TESTLAR

1. Fan sifatida iqtisodiy tahlil o'zida nimalarni namoyon etadi?

- A. Tahlil fan sifatida xo'jalik jarayonlari va iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilish bilan bog'liq maxsus bilimlar tizimini o'zida aks ettiradi.
- B. Tahlil fan sifatida iqtisodiy qonuniyatlar va iqtisodiy qonunlar tizimini aks ettiradi.
- C. Tahlil fan sifatida jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotini o'zida aks ettiradi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

2. Boshqaruv funksiyalaridan kelib chiqqan holda tahlil quyidagilarga bo'linadi:

- A. To'liq, mahalliy, tematik.
- B. Operativ, joriy, istiqbolli.
- C. Majmuaviy, tizimli, tanlama.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Analitik ishlar rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- A. Obyekt, maqsad, axborot manbalari va muddatlar.
- B. Subyekt, yo'nalish, manbalar va vaqt.
- C. Dasturlar tuzish va tahlil natijalarini rasmiylashtirish.
- D. Dastur, tahlil natijalarini qayta ishlash va rasmiylashtirish.

4. Hisob manbalariga nimalar taalluqli hisoblanmaydi?

- A. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
- B. Taftish va audit materiallari.
- C. Statistik hisob va hisobot.
- D. Operativ hisob va hisobot.

5. Nisbiy miqdorlar quyidagilar bilan o'lchanadi:

- A. Kilogramm, tonna, metr.
- B. Foiz va koeffitsiyent.
- C. Metr, sentner va tonna.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

6. Istiqbolli (prognozli) tahlilning maqsadi nimalardan iborat?

- A. Faoliyat natijalarini baholash.
- B. Qonuniyatlar, tendensiyalar va uzoq muddatli omillarni aniqlash.

C. Topshiriqlar bajarilishi ustidan muntazam nazorat.

D. Barcha javoblar to'g'ri

7. Iqtisodiy axborotlar manbalariga nimalar taalluqli hisoblanadi?

A. Hisob va hisobdan tashqari.

B. Oddiy va murakkab.

C. Rejaviy va hisob-hisobot.

D. Hisob, hisobdan tashqari, yo'riqnomalar, limitlar, me'yoriy hujjatlar.

8. Quyidagilar iqtisodiy tahlil tamoyillari hisoblanadi:

A. Qarama-qarshi kuchlar birligi va kurashi.

B. Harakat va taraqqiyot.

C. Obyektivlik, majmuaviylik, tizimlilik, amaliylik.

D. O'zaro bog'lanish va sabab-oqibat aloqasi.

9. Iqtisodiy tahlil qanday belgilariga ko'ra tasniflanadi?

A. Hududiy va mahalliy.

B. tarmoq va boshqaruv obyektlari bo'yicha.

C. Ichki va tashqi.

D. To'g'ri javob yo'q.

10. Iqtisodiy tahlil usulini belgilang:

A. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini izlash.

B. Korxonalar faoliyati natijalarini baholash.

C. Tadqiq qilishning dialektik usuli.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

11. Joriy tahlil qanday muddat uchun amalga oshiriladi?

A. Xo'jalik yuritishning muhim hisobot sanalari bo'yicha.

B. Smena, sutka, beshkunlik, o'nkunlik bo'yicha.

C. Joriy hisobot yili uchun.

D. Joriy kvartal va dekadalar bo'yicha.

12. Ichki tahlil – bu:

A. Moliyaviy hisobning bir qismi.

B. Boshqaruv hisobining bir qismi.

C. Boshqaruv va ichki hisobning bir qismi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

13. Joriy tahlilning o'ziga xos xususiyatini qayd qiling.

A. ...aniqlangan zaxiralar umrbod yo'qotilgan o'sish imkoniyatlarini anglatadi.

B. ...yakunlarni muntazam baholash va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga imkon beradi.

C. ...kelajak nuqtayi nazaridan xo'jalik faoliyati jarayonlarini ko'rib chiqadi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

14. To'liqligi va mazmuniga ko'ra o'rganilayotgan masalalar quyidagilarga ajratiladi:

A. Yillik, kvartallik, oylik.

B. Qiyosiy, yalpi majmuaviy.

C. Tizimli, to'liq, mahalliy.

D. To'g'ri javob yo'q.

15. Iqtisodiy tahlil turlari tasnifi asosida nimalar yotadi?

A. Boshqaruv funksiyalari.

B. Tabiat va jamiyat qonunlari.

C. Bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlari.

D. Dialektika tamoyillari.

16. Iqtisodiy tahlilni boshqaruv va moliyaviy tahlilga ajratish nimaga asoslangan?

A. Mulkdorlarning yangi sinfi paydo bo'lishi bilan.

B. Korxonalar ko'lamida buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob va boshqaruv hisobiga ajratilishi bilan.

C. Menejment rivojlanishi bilan.

D. Audit rivojlanishi bilan.

17. Qaysi javobda iqtisodiy tahlil usulining o'ziga xos xususiyatlari sanab o'tilgan?

A. Xo'jalik jarayonlari mohiyatini yorituvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi.

B. Stoxastik hodisalarni o'rganishning dinamik uslubi.

C. Iqtisodiy tahlil usulining asosi sifatida materialistik dialektika.

D. Xo'jalik faoliyatini har tomonlama tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjudligi va ularning o'rtasida bog'lanishlarni o'rnatish.

18. O'rganish metodikasiga ko'ra obyektlar quyidagilarga ajratiladi:

A. Majmuaviy, yaxlit va tanlama.

B. Yillik, kvartallik, oylik.

C. Tizimli, to'liq, mahalliy.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

19. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari:

- A. Rejalashtirish, hisob, nazorat, tahlil.
- B. Dasturlar, axborotlar to‘plash va qayta ishlash.
- C. Analitik ishlarni rejalashtirish, nazorat, axborot to‘plash.
- D. Dasturlar tuzish, axborotlar to‘plash va qayta ishlash, tahlil natijalarini rasmiylashtirish va takliflarni joriy etish ustidan nazorat

20. Iqtisodiy tahlilning usullari:

- A. Guruhlash va taqqoslash.
- B. An’anaviy va iqtisodiy-matematik.
- C. Stoxastik va matematik.
- D. Grafik va jadvalli.

21. Tahlilda omillar ta’sirini o‘lchash usullari:

- A. Taqqoslash usuli.
- B. Grafik usuli.
- C. Qiyoslash usuli.
- D. Zanjirli o‘rin almashtirish usuli, indeks usuli.

22. Iqtisodiy axborotlardan foydalanuvchilar:

- A. Bevosita manfaatdorlar.
- B. Bilvosita manfaatdorlar.
- C. Ichki va tashqi foydalanuvchilar.
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

23. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan omilli modellar turlari:

- A. Determinatsiyalangan va stoxastik.
- B. Tuzilmaviy va pog‘onali.
- C. Yaxlit va tanlama.
- D. Oddiy va kombinatsiyali.

24. Funktsional-qiymat tahlilini o‘tkazish bosqichlari:

- A. Tayyorlov va axborot.
- B. Analitik va ijodiy.
- C. Tadqiqiy, tavsiyaviy va joriy etish bosqichlari.
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

25. Korrelyatsion tahlil metodikasi:

- A. Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi nisbatni o‘lchash.
- B. Omilli va natijaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqa mustahkamligini o‘lchash.
- C. Omillar ta’sirini o‘lchash.
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

26. Ko‘rsatkichlarni optimallashtirish usullari:

- A. Balans va grafik.
- B. Indeks va integral.
- C. Dasturlash va o‘yin nazariyasi.
- D. Korrelyatsion va omilli.

27. Stoxastik omilli tahlil usullari:

- A. Korrelyatsion tahlil.
- B. O‘yin nazariyasi.
- C. Guruhlash.
- D. Zanjirli o‘rin almashtirish.

28. Axborotlarni qayta ishlashning an‘anaviy usullari:

- A. Taqqoslash.
- B. Guruhlash.
- C. Grafik.
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

29. Iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash jarayoni quyidagilarni taqozo etadi:

- A. O‘rta miqdorlardan foydalanish.
- B. Nisbiy miqdorlardan foydalanish.
- C. Maxsus metodik usullardan foydalanish.
- D. Mutlaq miqdorlardan foydalanish.

30. O‘zbekiston Respublikasida qanday moliyaviy hisobot shakllari amal qilmoqda?

A. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzi to‘g‘risida ma’lumotnoma.

B. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzi to‘g‘risida ma’lumotnoma, xususiy kapital to‘g‘risida hisobot.

C. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot, xususiy kapital to‘g‘risida hisobot.

D. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzi to‘g‘risida ma’lumotnoma, asosiy vositalar harakati haqida hisobot, pul oqimlari to‘g‘risida hisobot, xususiy kapital to‘g‘risida hisobot.

31. Iqtisodiy tahlil metodlarini ta’riflang.

A. Iqtisodiy adabiyotlarda tahlil metodiga firma (kompaniyalar-ning xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga idealistik yondashuv sifatida tavsif beriladi.

B. Iqtisodiy tahlil metodlari tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishga demokratik yondashuv sanaladi.

C. Iqtisodiy tahlil metodlari xo'jalik jarayonlari va hodisalarni o'rganishga tizimli yondashuv hisoblanadi.

D. Iqtisodiy tahlil metodlari xo'jalik jarayonlari va iqtisodiy hodisalarni o'rganishga yondashuvning dialektik usuli hisoblanadi.

32. Kimlar tahlil natijalaridan bevosita manfaatdor foydalanuvchilar sanaladi?

A. Auditorlik firmalari va OAV.

B. Tashqi va ichki.

C. To'g'ri javob yo'q.

D. Bank va soliq.

33. Taqqoslash (qiyoslash) ning qanday shartlari mavjud?

A. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirish.

B. Qimmat omilini neytrallashtirish.

C. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xillik.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

34. Iqtisodiy tahlil turlarini tasnif qilish asosida nima yotadi?

A. Jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlari.

B. Bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlari.

C. Boshqaruv funksiyalari.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

35. Marketing tahlilining vazifalarini sanab bering.

A. Sotish bozorlarini o'rganish.

B. Talabni shakllantiruvchi omillarni o'rganish.

C. Mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

36. Tovar raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari?

A. Yagona.

B. Integral.

C. Guruhli.

D. To'g'ri javob yo'q.

37. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahliliga quyidagilarning qaysi biri aloqadorligini aniqlang.

A. Joriy ta'mir bo'yicha xarajatlar tahlili.

B. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili.

C. Investitsiyalash uchun qarzarlar jalb qilish samaradorligini baholash.

D. Uskunalar ish vaqtidan foydalanish tahlili.

38. Asosiy vositalarga qilingan investitsiyalar samaradorligi qanday tahlil qilinadi?

A. Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash.

B. Asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar hajmi va tarkibini baholash.

C. Uskunalardan foydalanishni integral baholash.

D. Qarzarlar jalb qilish samaradorligini baholash.

39. Asosiy vositalarni joriy qilish koeffitsiyentini (K_j) hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?

A.
$$K_j = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

B.
$$K_j = \frac{\text{Qayta tushum qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

C.
$$K_j = \frac{\text{Qayta tushum qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

D.
$$K_j = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

40. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish koeffitsiyentini (K_{ch}) hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?

A.
$$K_{ch} = \frac{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

B.
$$K_{ch} = \frac{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}.$$

C.
$$K_{ch} = \frac{\text{Davr boshi uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}.$$

$$D. K_{ch} = \frac{\text{Davr oxiri uchun asosiy vositalar qiymati}}{\text{Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati}}.$$

41. Yaroqlilik koeffitsiyentini (K_{ya}) hisoblashda qanday formuladan foydalaniladi?

$$A. K_{ya} = \frac{\text{Asosiy fondlarning qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati}}.$$

$$B. K_{ya} = \frac{\text{Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati}}{\text{Asosiy fondlarning qoldiq qiymati}}.$$

$$C. K_{ya} = \frac{\text{Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati}}{\text{Asosiy fondlarga hisoblangan eskirish miqdori}}.$$

$$D. K_{ya} = \frac{\text{Asosiy fondlarga hisoblangan eskirish miqdori}}{\text{Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati}}.$$

42. Quyida sanab o'tilgan aylanma mablag'lar turlarining qaysi biri likvidliroq aktivlar guruhiga kirishini aniqlang.

- A. Kassadagi pul mablag'lari.
- B. Tayyor mahsulot qoldig'i.
- C. Ishlab chiqarish zaxiralari.
- D. Qisqa muddatli debitorlik qarzi.

43. Quyida sanab o'tilgan aylanma mablag'lar turlarining qaysi biri "Tez sotiladigan" aktivlar guruhiga kirishini aniqlang.

- A. Kelgusi davr xarajatlari.
- B. Qisqa muddatli debitorlik qarzi.
- C. Tayyor mahsulot qoldig'i.
- D. Ishlab chiqarish zaxiralari.

44. Quyida sanab o'tilgan aylanma mablag'lar turlarining qaysi biri «qo'yimalarning kichik riskiga ega aylanma mablag'lar» guruhiga taalluqli?

- A. Debitorlik qarzi.
- B. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yimlar.
- C. Ishlab chiqarish zaxiralari.

D. Kelgusi davr xarajatlari.

45. Tovar mahsulot balansini tuzing.

Davr boshi uchun tovarlar qoldig'i – Qb

Tovar mahsulot ishlab chiqarish – T

Sotish – S

Davr oxiri uchun tovarlar qoldig'i - Qo

A. Qb+S=Qo-T.

B. Qb+T=S-Qo.

C. S-Qo=T-Qb.

D. Qb+T=S+Qo.

46. Quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulot narxining mahsulot sotishdan foydaga ta'sirini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Hisobot davri	Hisobot davrida bazis narxlarda va bazis tannarx asosida sotish
Mahsulot sotishdan tushum	$\sum q_0 p_0$	$\sum q_1 p_1$	$\sum q_1 p_0$
Sotilgan mahsulotlar tannarxi	$\sum q_0 S_0$	$\sum q_1 S_1$	$\sum q_1 S_0$
Sotishdan foyda	n_0	n_1	n_{10}

A. $\sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0;$

C. $\sum q_1 p_1 - \sum q_0 p_0;$

B. $\sum q_1 p_0 - \sum q_1 p_1;$

D. $\sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0.$

47. Tannarx o'zgarishining mahsulot sotishdan foydaga ta'sirini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Hisobot davri	Hisobot davrida bazis narxlarda va bazis tannarx asosida sotish
Mahsulot sotishdan tushum	$\sum q_0 p_0$	$\sum q_1 p_1$	$\sum q_1 p_0$
Sotilgan mahsulotlar tannarxi	$\sum q_0 S_0$	$\sum q_1 S_1$	$\sum q_1 S_0$
Sotishdan foyda	n_0	n_1	n_{10}

A. $\sum q_0 S_0 - \sum q_1 S_1;$

C. $\sum q_1 S_1 - \sum q_1 S_0;$

B. $\sum q_0 S_0 - \sum q_1 S_0;$

D. $\sum q_1 S_0 - \sum q_1 p_0.$

48. Mahsulot sotishdan foydaga qanday omillar ta'sir qiladi?

A. Mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmi, narxi, sotish hajmi.

B. Sotish hajmi, mahsulot tannarxi, sotilgan mahsulotlar hajmidagi strukturaviy o'zgarishlar.

C. Sotish hajmi, bozor talabi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot raqobatbardoshligi.

D. Ishlab chiqarish maromiyligi, mahsulot sifati, mahsulot rentabelligi, sotilmagan mahsulot hajmi.

49. Ishlab chiqarish maromiyligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni belgilang:

A. Maromiylilik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, oylik ishlab chiqarishda har bir o'n kunlikning ulushi.

B. Mahsulot yaroqsizligi, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot sotishning o'sish koeffitsiyenti.

C. Maromiylilik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot hajmining o'sish koeffitsiyenti.

D. Oylik ishlab chiqarishda har bir o'n kunlikning ulushi, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot hajmining o'sish koeffitsiyenti.

50. Ishlab chiqarish maromiyligi koeffitsiyentini aniqlang

Kvartal	mahsulot ishlab chiqarish hajmi		Salmog'i, %		Rejaning bajarilishi, %
	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	
I-kvartal	20 000	24244	25	29	121,2
II-kvartal	20 000	18392	25	22	92,0
III-kvartal	20 000	17556	25	21	87,8
IV-kvartal	20 000	23408	25	28	117,0
Jami	80 000	83600	100	100	104,5

A. $83600 : 80000 * 100 = 104,5 \%$;

B. $29+22+21+28 = 100 \%$;

C. $(121,2+92,0+87,8+117,0) : 4 = 104,5 \%$;

D. $25+22+21+25 = 93 \%$.

51. Korxonalarining nomaromiy ishlashi nimalarga olib keladi?

A. Sifat yomonlashadi, mahsulot tannarxi qimmatlashadi, shart-noma majburiyatlari buziladi.

B. Yaroqsiz mahsulot yuzaga keladi, mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmaydi, jarimalar to'lanadi.

C. Ishlab chiqarish pasayadi, ishlab chiqarish uskunalari ishdan chiqadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamayadi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

52. Quyidagilarning qaysi biri mehnat resurslariga kiritiladi?

A. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi tahlili.

B. Ish kuchi harakati tahlili.

C. Mehnat unumdorligi tahlili.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

53. Qaysi koeffitsiyent mulkdan foydalanish samaradorligini ko'rsatishi, aylanma tezligini (korxonada jami kapitalning davr uchun aylanmasi miqdorida) aks ettirishini aniqlang.

A. $K_{01} = \frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Balans valyutasi}}.$

B. $K_{02} = \frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Aylanma aktivlar}}.$

C. $K_{03} = \frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Asosiy vositalar}}.$

D. $K_{04} = \frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Zaxira va xarajatlar}}.$

54. Korxonaning ishbilarmon faolligini qanday ko'rsatkichlar tavsiflaydi?

A. Xususiy kapital, aylanma kapital aylanuvchanligi

B. Material zaxiralar, debitorlik qarzi aylanuvchanligi

C. Rentabellik ko'rsatkichlari, unumdorlik ko'rsatkichlari

D. Barcha ko'rsatkichlar to'g'ri.

55. Korxonada mulki rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. $R_{i1} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonada mulkining o'rtacha qiymati}}.$

B. $R_{i2} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Joriy aktivlar}}.$

$$C. R_{i3} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}.$$

$$D. R_{i4} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Material aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati}}.$$

56. Asosiy vositalarning fond qaytimi qanday aniqlanadi?

$$A. F_{q1} = \frac{\text{Foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}.$$

$$B. F_{q2} = \frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}.$$

$$C. F_{q3} = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Ishlab chiqarish uskunalari}}.$$

$$D. F_{q4} = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}}.$$

57. Korxonada aktivlari rentabelligi darajasiga qanday omillar ta'sir qiladi?

- A. Fond sig'imi koeffitsiyenti va sotish rentabelligi.
- B. Fond sig'imi koeffitsiyenti va ishlab chiqarish tannarxi.
- C. Mahsulot rentabelligi va ishlab chiqarish tannarxi darajasi.
- D. Fond sig'imi koeffitsiyenti va alohida buyumlar rentabellik darajasi.

58. Alohida buyumlar rentabelligi darajasiga qanday omillar ta'sir qiladi?

- A. Foyda va alohida buyumlar tannarxi.
- B. Mahsulot birligi tannarxi va narxi.
- C. Foyda va mahsulot narxi.
- D. Foyda, mahsulotlar tarkibi va assortimenti.

59. Material sarflar miqdoriga qanday omillar ta'sir qiladi?

- A. Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, foydalanilayotgan xomashyo sifati.

B. Foydalanilayotgan material narxi, tannarx, ishlab chiqarish hajmi.

C. Mahsulot birligi uchun sarf-xarajatlar, material narxi, bir materialni boshqasi bilan almashtirish.

D. Mahsulot birligi uchun sarf-xarajatlar, material narxi, foydalanilayotgan material tarkibida strukturaviy o'zgarishlar.

60. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha materiallarni sarflash me'yori va material narxining material sarflar miqdoriga ta'sirini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Og'ish (+-)
Mahsulotlar birligiga materiallar sarfi (me'yor omili), kg.	10	12	+2
Mahsulotlar birligi narxi, so'm.	500	490	-10
Materiallar sarfi, so'm.	5000	5880	+880

A. $+2 \times 490 = +980$

$-10 \times 12 = -120;$

B. $+2 \times 500 = +1000$

$-10 \times 12 = -120;$

C. $+2 \times 500 = +1000$

$-10 \times 10 = -100;$

D. $+2 \times 490 = +980$

$-10 \times (+2) = -20.$

61. Tovar mahsulotning 1 so'miga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?

A. Tovar mahsulot hajmi va tarkibi o'zgarishi, materiallar narxi o'zgarishi, transport-tayyorlov xarajatlari o'zgarishi.

B. Tovar mahsulot tarkibi o'zgarishi, mahsulot tannarxi o'zgarishi, xomashyo tayyorlash hududlari o'zgarishi.

C. Tovar mahsulot hajmi va tarkibi o'zgarishi, i materiallar narxi o'zgarishi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishi.

D. Ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi, materiallar narxi o'zgarishi, foydalanilayotgan xomashyo turi o'zgarishi.

62. Tovar mahsulotning 1 so'miga xarajatlar qanday hisoblanadi?

A.
$$\frac{\text{Ulgurji narxdagi tovar mahsulot}}{\text{Tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi}}$$

- B. $\frac{\text{Mahsulotning to'liq tannarxi}}{\text{Mahsulot hajmi}}$
- C. $\frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Mahsulotning to'liq tannarxi}}$
- D. $\frac{\text{Tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Korxonaning ulgurji narxdagi tovar mahsuloti}}$

63. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qanday mehnat omillari ta'sir qiladi?

- A. Xodimlar soni, ishlangan kishi-kunilarning umumiy soni, ishlangan kishi-soatlarning umumiy soni, mehnat unumdorligi.
- B. Xodimlar soni, bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari soni, ish vaqtining o'rtacha davomiyligi, o'rtacha soatlik ishlab chiqarish.
- C. Xodimlar soni, ishlangan kishi-kunilarning umumiy soni, ishlangan kishi-soatlarning umumiy soni, mehnat unumdorligi.
- D. Xodimlar soni, ish kuchi qo'nimsizligi, mehnat unumdorligi, bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari soni.

64. Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

- A. Yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldig'i, tovar mahsulot ishlab chiqarish, yil oxiri uchun tayyor mahsulot qoldig'i.
- B. Yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldig'i, tovar mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish tarkibi.
- C. Yil oxiri uchun tayyor mahsulot qoldig'i, tovar mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish tarkibi.
- D. Yil boshi uchun tayyor mahsulot qoldig'i, yil oxiri uchun tayyor mahsulot qoldig'i, mahsulot ishlab chiqarish tarkibi.

65. Assortiment bo'yicha reja bajarilishini aniqlang, ming so'm.

Mahsulot nomi	Hisobot yili uchun reja	Hisobot yili uchun haqiqatda	Salmog'i, %		Assortiment hisobida qabul qilingan	Rejaning bajarilishi, % da
			Reja	Haqiqatda		
A	300	300	30	29,4	300	100,0
B	200	220	20	21,6	200	110,0
C	400	390	40	38,2	390	97,5
D	100	110	10	10,8	100	110,0
Jami	1000	1020	100	100	990	102,0

- A. 100 %;
- B. 99,0 %;
- C. 102,0 %;
- D. 104,3 %

66. Asosiy vosita qiymati o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'sirini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	Reja davri	Hisobot davri	Og'ish (+-)
Mahsulot hajmi, ming so'm	10000	9000	-1000
Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati, ming so'm	4000	4500	+500
Fond qaytimi, so'm	2,5	2,0	-0,5

- A. +1000;
- B. +1250;
- C. -1000;
- D. -2000

67. Quyidagi ma'lumotlar asosida o'z aylanma mablag'larining naqd miqdorini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'm
Uzoq muddatli aktivlar	40 000
O'z mablag'lar manbalari	55 000
Uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar	15000

- A. $55000+15000-40000=30000$;
- B. $40000+15000-55000=0$;
- C. $55000+40000-15000=80000$;
- D. $55000-40000-15000=0$

68. Quyidagi ma'lumotlar asosida qo'nimsizlik koeffitsiyentini aniqlang.

Xodimlar soni – 168 kishi.

Ishga qabul qilingan – 50 kishi.

Ishdan bo'shatildi – 20 kishi.

Jumladan:

- o'z xohishiga ko'ra – 10 kishi.

- mehnat intizomini buzganligi uchun – 2 kishi.

- A. 0,09;
- B. 0,12;
- C. 0,07;
- D. 0,77

69. Korxonalar aktivlari rentabelligi darajasiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Omillar	Javoblar			
	A	B	C	D
Mulk qiymati.		+	+	
Sof foyda.	+	+		
Yalpi foyda.			+	
Ishlab chiqarish fondlari qiymati.	+	+	+	
Sotish rentabelligi	+		+	+
Balans aktivlari aylanuvchanligi koeffitsiyenti				+

70. Mahsulot yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar bajarilishini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Majburiyatlar	Haqiqatda
Sotish hajmi	260450	280380
Mahsulotlarni yetkazib berilmasligi	X	20950
Yetkazib berishlash bo'yicha majburiyatlarni hisobga olgan holda sotish hajmi.	X	239504
Majburiyatlarning bajarilishi, %	X	?

- A. 107,6 %;
- B. 91,9 %;
- C. 85,4 %;
- D. 8,0 %

71. Ishchilar mehnat haqi fondiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Omillar	Javoblar			
	A	B	C	D
Ishchilar sonining mutlaq og'ishi		+	+	
Ishchilar sonining nisbiy og'ishi	+	+		+
Mahsulot hajmi			+	+
Xodimlarning umumiy sonida ishchilarning ulushi	+	+	+	
Bir ishchining o'rtacha oylik mehnat haqi	+		+	+

72. Qanday korxonalar o'z aylanma mablag'lari bilan yetarlicha ta'minlangan?

Omillar	Korxonalar			
	A	B	C	D
O'z mablag'lari manbalari + Uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar.	26000	24000	20000	18000
Uzoq muddatli aktivlar.	22000	21000	15000	14000
O'z aylanma mablag'lari mavjudligi.	?	?	?	?

Zaxira va xarajatlar.	7000	6000	5000	3000
O‘z aylanma mablag‘larining ortiqchaligi (+) yoki etishmasligi (-).	?	?	?	?

73. Zanjirli o‘rin almashtirish usulidan foydalangan holda “me‘yor” omilining material sarflar o‘zgarishiga ta‘sirini aniqlang.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida
1	2	3
Materiallar, kg	850	860
1 kg narxi, so‘m	30	30
Jami xarajatlar, so‘m	25500	25800

- A. -300;
- B. -250;
- C. -200;
- D. +300.

74. Asosiy vositalar o‘zgarishining mahsulot hajmiga ta‘sirini aniqlang.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Og‘ish, +,-
1	2	3	4
Mahsulot hajmi, ming so‘m	10000	9000	-1000
Asosiy vositalar, ming so‘m	4000	4500	+500
Fond qaytimi, so‘m	2,5	2,0	-0,5

- A. 1250;
- B. -1250;
- C. +1000;
- D. -1000.

75. Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi....

A. korxonalarining moliyaviy holatini har tomonlama o‘rganish va baholash.

B. to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, mablag‘lar aylanuvchanligi, hisoblashlar holatini baholash.

C. o‘z va qarz mablag‘lari nisbatini baholash, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlikni tekshirish, moliyaviy holatni yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

76. Material sig'imini hisoblang va uning darajasini tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida
1	2	3
Mahsulot sotishdan tushum	9790	10670
Material sarf-xarajatlar	2140	2730
Material qaytimi	?	?

- A. 4,575; 3,908
- B. 4,574; 3,914
- C. 4,574; 3,911
- D. 4,576; 3,909

77. Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlang.

- A. Doimiy va o'zgaruvchan;
- B. Material sarflar, mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, amortizatsiya ajratmalari, ishlab siqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar;
- C. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish;
- D. Ma'muriy xarajatlar, sotish xarajatlari.

78. Korxonaning moliyaviy holati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- A. O'z mablag'larini joylashtirish va ularning shakllantirish manbalari;
- B. Kapital joylashtirish;
- C. Aylanma kapital harakati;
- D. Uzoq muddatli aktivlarni joylashtirish.

79. Quyidagi ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy holatini tavsiflaydi.

- A. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi, to'lov qobiliyati darajasi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, aylanma mablag'lar aylanuvchanligi;
- B. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti, joriy likvidlik koeffitsiyenti, qoplash koeffitsiyenti;
- C. Joriy va istiqboldagi to'lov qobiliyati;
- D. Ichki, tashqi, umumiy va moliyaviy barqarorlik.

80. Quyidagilardan korxonada mulki shakllanadi:

- A. Uzoq muddatli va joriy aktivlar;
- B. Qisqa muddatli majburiyatlar va doimiy passivlar;

C. Ustav kapitali va taqsimlanmagan foyda;

D. Doimiy passivlar.

81. Moliyaviy natijalar tahlilining asosiy axborot manbalari?

A. 1-shakl “Buxgalteriya balansi”, 2-shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”;

B. 2-moliya shakli-“Asosiy vositalarning mavjudligi va harakati hamda boshqa nomoliyaviy aktivlar to‘g‘risida” statistik hisobot shakli;

C. 5-shakl “Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot”;

D. Barcha moliyaviy hisobot shakllari.

82. Debitorlik qarzi aylanuvchanligi qanday nisbat sifatida namoyon bo‘ladigan tushuncha hisoblanadi?

A. Mahsulot sotishdan sof tushumning o‘rtacha debitorlik qarziga nisbati;

B. Debitorlik qarzining joriy aktivlarga nisbati;

C. Muddati o‘tgan qarzdorlik ulushining debitorlik qarziga nisbati;

D. Shubhali qarzdorlik ulushining joriy aktivlarga nisbati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2014.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, 2014 yil 6 may.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri) (2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son).

4. O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuni (1998 yil 28 avgust).

5. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 1998 yil 4 dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to‘g‘risida”gi qonuni (1998 yil 30 aprel).

8. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni (2012 yil 2 may, O‘R-328-son).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentabrdagi “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-475 sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni (2015 yil 24 aprel).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlashtirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-114 sonli farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda “Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to‘ldirilishi bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 140-sonli buyrug‘i.

14. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» 1998-2010 yillar.

15. O‘z R BHMS larga sharhlar to‘plami Toshkent 2010.

16. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: O‘zbekiston, 2005. 528 b.

17. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi (Xalq so‘zi. 2012 yil 20 yanvar).

18. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish (Xalq so‘zi. 2013 yil 19 yanvar).

19. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. T.: O‘zbekiston. 2015. 72 bet.

20. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.

21. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

22. Akromov E.A. Korxonaning moliyaviy holati tahlili. O‘quv qo‘llanma. T., 2003.

23. Axmadjonov X.I., Ishonqulov N.F., Nurmanov U.A. Pul mablag‘larining hisobi va tahlili. T.: Iqtisod-moliya, 2009. 251 b.

24. Басовский Л.Е., Басовская Е.Н. и др. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2009. 366 с.

25. Бариленко В.И., Плотникова Л.К., Кузнецов С.И., Скачкова Р.В., Плотникова В. Анализ хозяйственной деятельности. М.: Омега – Л. 2009. 414 с.

26. Бердникова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: Учеб. пособие. М.: ИНФРА –М. 2010. 215 с.
27. Бочаров В. В. Финансовый анализ. Краткий курс. 2-е изд. СПб.: Питер, 2009. 240 с.
28. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibroximov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 600 b.
29. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник. М.: Высшее образование, 2005.
30. Гальчина О.Н., Пожидаева Т.А. Теория экономического анализа. Учебное пособие. Воронеж.: Дашков и К. 2009, 236 с.
31. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности: Учебник. М.: Дело и Сервиз, 2005.
32. Жилкина А.Н. Управление финансами. Финансовый анализ предприятия: учебник. М.: ИНФРА-М, 2005.
33. Ibragimov G'.A., Yakubov U.K. Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili. O'quv-uslubiy qo'lanma. T. TMI, 2012. 140 b.
34. Калинина А.П. и др. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник – М.: Высшее образование, 2005. 382 с.
35. Ковалев В.В., Ковалев Вит. В. Анализ баланса или как понимать баланс. Учебно-практическое пособие. М.: Проспект, 2010. 560 с.
36. Ковалёв В.В., Ковалёв Вит. В. Анализ финансовой отчетности. М. Проспект. 2007.
37. Любушин Н.П. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М. 2005.
38. Макарьева В.М., Андреева Л.В. Анализ финансово-хозяйственной деятельности организации. М.: Финансы и статистика. 2005.
39. Pardayev M.Q., Shoalimov A.X. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'lanma. T.: Iqtisod va huquq dunyosi, 2005. 320 b.
40. Ронова Г.Н., Ронова Л.А. Анализ финансовой отчетности: Учебно-методический комплекс. М.: Изд. центр ЕАОИ. 2008. 240 с.

41. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. 5-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2009. 536 с.

42. Shog'iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: Fan va texnologiya. 2012. 278-b.

43. Соколова Н.А., Каверина О.Д. Управленческий анализ. Учебник. М.: Бухгалтерский учет, 2008. 345 с.

44. Титов В.И. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности. Учебник. М.: Дашков и К. 2005.

45. Фляйшер К. Стратегический и конкурентный анализ. Методы и средства конкурентного анализа в бизнесе. Учебное пособие. М.: БИНОМ, 2005.

46. Чечевицын Л.Н., Чуев И.И. Анализ финансово-хозяйственной деятельности. Учебник М.:2004.

47. Шагиясов Т. Теория экономического анализа. ТФИ. 2005.

48. Шагиясов Т., Сагдиллаева З., Файзиев Б. Финансовый и управленческий анализ. Учебник. Т.: Иқтисод-Молия, 2008. 352 с.

Internet saytlari

49. <http://www.gov.uz>. (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).

50. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

51. <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i).

52. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

53. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi).

54. <http://www.norma.uz> (Axborot – huquqiy portali).

55. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi).

56. <http://www.buhgalt.ru> (журнал “Бухгалтерский учет”).

57. <http://www.audit-it.ru> (Бухгалтерский учет, налогообложение, аудит в РФ).

58. <http://www.books/bankir.ru> (Информационное агентство).

59. <http://www.finanaliz.kiev.ua/>

MUNDARIJA

Kirish.....3

**I bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI,
PREDMETI VA VAZIFALARI4**

- 1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi4
- 1.2. Iqtisodiy fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o‘rni8
- 1.3. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari10
- 1.4. Iqtisodiy tahlilning mazmuni11
- 1.5. Iqtisodiy tahlilning predmeti va vazifalari15

**II bob. IQTISODIY TAHLIL METODI VA UNDA
QO‘LLANILADIGAN USULLAR.....19**

- 2.1. Iqtisodiy tahlil metodi, uning o‘ziga xos xususiyatlari19
- 2.2. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan usullar22
 - 2.2.1. Taqqoslash usuli23
 - 2.2.2. Nisbiy va o‘rtacha miqdorlardan foydalanish26
 - 2.2.3. Iqtisodiy tahlilda guruhlash usuli29
 - 2.2.4. Iqtisodiy tahlilda balans usuli30
 - 2.2.5. Zanjirli o‘rin almashtirish usuli31
 - 2.2.6. Mutlaq farqlar usuli35
 - 2.2.7. Nisbiy farqlar usuli36
 - 2.2.8. Indeks metodi37
 - 2.2.9 Korrelyatsion tahlil usullari40
 - 2.2.10. Integral usul va uning iqtisodiy tahlilda qo‘llanishi42

**III bob. MAHSULOT(ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB
CHIQRISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI47**

- 3.1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining mazmuni va vazifalari47
- 3.2. Ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasi tahlili49
- 3.3. Strukturaviy o‘zgarishlarning mahsulot hajmiga ta’siri tahlili52

3.4. Mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti tahlili	54
3.5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili.....	56
3.6. Mahsulot sotishning mohiyati, vazifalari va tahlil manbalari	59
3.7. Mahsulotni sotishdan tushumni shakllantirish omillari.....	61
3.8. Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	63
3.9. Mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlari tahlili	65
3.10. Mahsulot sifati tahlili	68

IV bob. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI

BILAN TA'MINLANGANLIGI TAHLILI.....75

4.1. Mehnat resurslari tahlilining vazifalari, asosiy yo'nalishlari va axborot manbalari.....	75
4.2. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi tahlili....	76
4.3. Xodimlar qo'nimsizligi tahlili	79
4.4. Ish vaqtdan foydalanish tahlili	81
4.5. Mehnat unumdorligi tahlili.....	84
4.6. Bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishiga omillar ta'sirini hisoblash.....	90
4.7. Mahsulotning mehnat sig'imi va soatlik	94
ishlab chiqarish tahlili	94

V bob. MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

.....99

5.1. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining vazifalari va axborot ta'minoti	99
5.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik tahlili	101
5.3. Ombor zaxiralari holati tahlili	103
5.4. Material resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar	104
5.5. Material resurslardan foydalanish tahlili	106

VI bob. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH TANNARXI

TAHLILI.....112

6.1. Mahsulot tannarxi tahlili vazifalari, asosiy yo'nalishlari va axborot ta'minoti	112
6.2. Korxonada xarajatlari tasnifi.....	113

6.2.1. O‘zgaruvchan xarajatlar, doimiy va doimiy-o‘zgaruvchan xarajatlar.....	115
6.3. Ishlab chiqarish xarajatlarning umumiy miqdori tahlili	117
6.4. Mahsulotning 1 so‘mi uchun xarajatlar tahlili	118
6.5. Tannarx elementlari va moddalari bo‘yicha xarajatlar tahlili ..	121
6.6. Moddiy xarajatlarning omilli tahlili	125
6.7. Mehnat haqi xarajatlari tahlili	128
6.7.1. Mehnat haqi fondining mutlaq yoki nisbiy tejalishi yoki ortiqcha sarflanishini aniqlash.....	131
6.8. Mahsulotlarning alohida turlari tannarxi tahlili.....	134
6.9. Yaroqsiz mahsulot tufayli yo‘qotishlar tahlili.....	136
6.10. Mahsulot tannarxini pasaytirish zaxiralarini aniqlash metodikasi	138

VII bob. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI.140

7.1. Korxonaning moliyaviy holati tahlili mazmuni va vazifalari... 140	140
7.2. Moliyaviy tahlil bosqichlari va standart usullari	142
7.3. Buxgalteriya balansi mazmuni va tarkibi.....	147
7.4. Balans aktivi moddalari tahlili	150
7.5. Balans passiv moddalari tahlili	155
7.6. Joriy aktivlar tarkibi va dinamikasi tahlili.....	159
7.7. Balans bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘lar mavjudligi va korxonaning ular bilan ta‘minlanganligi tahlili.....	162
7.8. Likvidlik ko‘rsatkichlari tahlili	165
7.9. Balans likvidligi tahlili	168
7.10. Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili	174
7.11 Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi tahlili	188

VIII bob. KORXONA FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....194

8.1. Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari tahlilining mazmuni va vazifalari	194
8.2. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisoblash.....	195
8.3. Umumiy moliyaviy natijalar darajasi va dinamikasi tahlili	199
8.4. Yalpi foyda tahlili	202
8.5. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foydaning omilli tahlili... 205	205
8.6. Davr xarajatlari tahlili	211
8.7. Moliyaviy xarajatlar va daromadlar tahlili	214

8.8. Rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili.....	215
8.9. Sof foyda taqsimlanishi va undan foydalanish tahlili	227
IX bob. DEBITORLIK VA KREDITORLIK	
QARZI TAHLILI.....	232
9.1. Debitorlik va kreditorlik qarzi tahlili mazmuni va vazifalari ...	232
9.2. Debitorlik va kreditorlik qarzi tarkibi va dinamikasi tahlili	233
9.3. Debitorlik qarzi holatining tahlili	236
9.4. Kreditorlik qarzi holati tahlili.....	241
X bob. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN	
FOYDALANISH TAHLILI	245
10.1. Asosiy vositalar tahlilining vazifalari, asosiy yo‘nalishlari va axborot ta‘minoti	245
10.2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili	247
10.3. Asosiy vositalar harakati tahlili	250
10.4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari	255
10.5. Fond qaytimining omilli tahlili	258
10.6. Uskunalardan foydalanish tahlili.....	262
XI bob. PUL MABLAG‘LARI HARAKATI TAHLILI.....	268
11.1. Pul mablag‘lari harakati tahlilining mazmuni va vazifalari ...	268
11.2. Pul oqimlari tasnifi	270
11.3. Pul mablag‘lari kirimi tahlili	274
11.4. Pul mablag‘lari chiqimi tahlili.....	277
11.5. Pul mablag‘lari harakati tahlili (bilvosita usul)	280
11.6. Valyuta mablag‘laridan foydalanish tahlili	284
11.7. Pul mablag‘lari taqchilligi (ortiqchaligi)ni tartibga solish	286
Nazorat savollari	289
XII bob. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI.....	290
12.1. Xususiy kapital tahlilining mazmuni va vazifalari.....	290
12.2. Xususiy kapitalning o‘zgarish sabablari tahlili	292
12.3. Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili	295
12.4. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi tahlili	298

**XIII bob. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA
MAHSULOT YETISHTIRISH VA ISHLAB CHIQARISH
RESURSLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....303**

- 13.2. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish va uning hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili306
- 13.3. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili310
- 13.4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili316
- 13.5. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish tahlili319

**XIV bob. QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI
YETISHTIRISH TANNARXI TAHLILI328**

- 14.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tannarxi tahlilining mazmuni va vazifalari.....328
- 14.2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlari tahlili..329
- 14.3. Mahsulotning alohida turlari tannarxi tahlili.....331
- 14.4. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili335
- 14.5. Chorvachilik mahsulotlari tannarxi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili339

**XV bob. SAVDO TASHKILOTLARIDA TOVAR
AYLANMASI TAHLILI343**

- 15.1. Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida savdo tashkilotlarining tutgan o‘rni, ahamiyati va tahlilning vazifalari343
- 15.2. Chakana tovar aylanmasining umumiy hajmda va tovar guruhlari bo‘yicha bajarilishi tahlili.....345
- 15.3. Tovar balansi. Tovar aylanmasi hajmining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili349
- 15.4. Muomala xarajatlari tahlili351

**XVI bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA MODDIY VA
MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....356**

- 16.1. Qurilish obyektlarini ishga tushirish rejasining bajarilishi tahlili356

16.2. Qurilishda mehnat resurslaridan, mashina, mexanizm va boshqa asosiy vositalardan foydalanish tahlili	362
16.3 Qurilish ishlari tannarxi tahlili	367
Iqtisodiy tahlildan testlar	374
Foydalanilgan adabiyotlar.....	393

Sagdillayeva Zulfiya Asanaliyevna,
Choriyev Isroil Xamzayevich,
Mahmudov Azamat Normudovich,
Yuldasheva O‘g‘iloy Asanaliyevna

IQTISODIY TAHLIL

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Muharrir N. Artikova

Badiiy muharrir M. Odilov

Kompyuterda sahifalovchi O. Fozilova

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 05.01.2018-yilda berildi.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi №2. «Times»
garniturası. Shartli b.t. 23,2. Nashr hisob t. 24,3.
Adadi 50 dona. 80-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti

100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur 60 «A».